O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TERMIZ MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RESPUBLIKA JANUBIDA ELEKTR ENERGETIKA SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY – TEXNIK ANJUMAN

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ НА ЮГЕ РЕСПУБЛИКИ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL CONFERENCE
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE ELECTRIC POWER SECTOR IN THE SOUTH OF THE REPUBLIC

I

16-17-DEKABR






TERMIZ – 2022

O‘ZBEKISTON RESPULIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

"RESPUBLIKA JANUBIDA ELEKTR ENERGETIKA SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”

XALQARO ILMIY-TEXNIK ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО -ТЕХНИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

"ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ НА ЮГЕ РЕСПУБЛИКИ"

16-17 - Dekabr 2022 - yil

TERMIZ - 2022

“*Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari*” mavzudagi ushbu anjumani materiallariga Termiz muhandislik-texnologiya instituti, M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti, Ye.Polotskoy nomidagi Polotskiy davlat universiteti, Satbayev nomidagi Qozog‘iston milliy tadqiqot instituti, Mishkols universiteti, Salvi Istvan doktorantura maktabi, Samara texnika universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, “Olmaliq Kon-metallurgiya kombinati” AJ, Farg‘ona davlat universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, Namangan muhandislik qurilish instituti, Farg‘ona politexnika instituti, Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot instituti, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti hamda jahon va respublikamizning boshqa oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodim izlanuvchilar, magistrantlar va talablar, viloyat tashkilotlarining malakali kadrlarining tezislari kiritilgan.

Mazkur to‘plamda respublika janubida elektr ta’minotida energotejamkorlik, muqobil energetika va elektr mashina sohalarining rivojlanish istiqbollari, ishlab chiqarishda avtomatlashtirish, boshqarish va axborot texnologiya masalalari, foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi, neft-gaz va konchilik sohalarining rivojlanish jarayonida energiya tejash va samaradorlik omillari, ta’limda innovatsiyalar texnika fanlari ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bag‘ishlangan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar o‘z aksini topgan. Anjuman materiallari Termiz muhandislik-texnologiya instituti Kengashining qarori asosida nashrga tavsiya etildi (Bayonnoma №-5 2022-yil dekabr).

Mas’ul muharrir:
O‘.Axmedov –Termiz muhandislik-texnologiya instituti rektori, k.f.n.,dots.;

Tahrir hay’ati:
1. M.Urozov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, t.f.n.,dots.;
2. Z.Xudoyqulov – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, t.f.n.,dots.;
3. B.Xushboqov – Energetika va konchilik ishi fakulteti dekani, t.f.n.,dots.;
3. O‘.Sultonova – Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, DSc, dots.;
4. K.Xakimov – Neft-gaz va konchilik ishi kafedrasi mudiri, PhD, dots.;
5. F.Omonov – Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiya kafedrasi mudiri;
6. S.Qurbonazarov - Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiya kafedrasi assistenti;
7. B.Amanov – Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;
8. Sh.Chorshanbiev – Xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i.

“**Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari”** mavzusida 2022-yil 16-17-dekabrda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy- texnik anjuman materiallari to‘plami.-Termiz: “Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti”, 2022.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar.

ISTE’MOLCHILARNING ELEKTR TA’MINOTINI LOYIHALASHTIRISH, KENGAYTIRISH VA REKONSTRUKSIYA QILISHDA KOMPENSATSIYALOVCHI QURILMALARNI HISOB-KITOB QILISH VA TANLASH

Abdulazizov Bozorqul boboqulovich assistent
Shaymanov Maxam rayimovich katta o‘qituvchi,
Termiz muhandislik-texnologiya instituti
maxamshaymanov@gmail.com, ***+998936371881***

Sanoat elektr taminoti tizimlarini loyxalash bosqichida hamda ekspluatatsiya qilish bosqichida hal qilinadigan asosiy masalalardan biri reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish masalasi bulib . u kompensatsiyalovchi qurilmalar turining tanlanishi , ularning quvvatini hisoblab chiqilishi va rostlanishi hamda qurilmalarni elektr taminoti sxemasida joylashtirilishi masalalarini o‘z ichiga oladi. Bunda reaktiv quvvatni generatsiya qilish joylaridan istemol qilish joylarigacha uzatilishi elektr taminoti tizimlarining texnik -iqtisodiy ko‘rsatkichlarini jiddiy ravishda yomonlashtiradi.

Bunda tabiiy kompensatsiya va suniy kompensatsiya katta moddiy xarajatlarni talab qilmaydi va korxonalarda birinchi navbatda o‘tkazilishi kerak:

1. Reaktiv quvvatning manbalari uch turda bo‘lishi mumkin:

a)elektr tarmoqlarining havo va kabel liniyalari;

b)elektr stansiyalarining generatorlari va sinxron yuritgichlar;

v) qo‘shimcha o‘rnatilgan kompensatsiya qilish vositalari(sinxron kompensatorlar , ko‘ndalang ulanadigan kodensator uskunalari maxsus rostlanadigan ventil uskunalari va boshqalar).

2.1000 V gacha kuchlanishli tarmoqlarda rostlanadigan kondensator batareyalarini o‘rnatish joyi tarmoq kuchlanishining rostlanishi yoki reaktiv quvvatning rostlanishi talablarini hisobga olib belgilanishi lozim. 6-10 kV sex podstansiyalari tomonidan kondensator batareyalarini o‘rnatish tavsiya qilinmaydi.Nisbatan past quvvat koeffitsentiga ega bo‘lgan va bir yillikdagi ishlash soatlari ko‘p bo‘lgan yirik elektr qabul qilgichlarida xususiy kompensatsiya maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

3.Yuqori kuchlanishli yani 500 kV li podstansiyalarning 6-10 kV shinalari uchun va generator kuchlanishining shinalari uchun quvvatning o‘rtacha chamalab olingan koeffitsentini normativ qiymati $tg\varphi_n=0.6$ deb belgilash lozim.

4.Istemolchi bir necha podstansiyadan taminlanganda normativ koeffitsentlar har bir podstansiya bo‘yicha belgilanadi.

1-sonli jadvalda keltirilgan quvvat koeffitsentining normativ qiymatlari tgφ energiya tizimining maksimum yuklamali soatlari uchun istemolchini elektr tarmoqlari bilan 35-220/6-10 kV podstansiyaning 6-10kV shinalari o‘rtasidagi bo‘linish nuqtalariga taaluqlidir.

Podstansiyaning yuqori kuchlanishda 6-10 kv shinalaridagi tgφn qiymati,kV		
35	110	220
0.32	0.38	0.50

5. 0.4 kV tarmog‘idan taminlanadigan istemolchilar uchun quvvat koeffitsentining normativ qiymati $tg\varphi_n=0.25$ deb belgilanishi lozim.

6. Kompensatsiyalovchi qurilmalarni kerakli quvvatini hisoblab chiqishda va ularni tanlashda quvvatning o‘rtacha chamalab olingan koeffitsenti normativ qiymatlaridan kelib chiqish lozim.Kompensatsiyalovchi qurilmalarning kerakli quvvati quyidagi nisbat asosida aniqlanadi

$$\mathbf{Q_{ku}=K_m*R_{o‘r.yil}*(tg\varphi_1- tg\varphi_n)}$$

Bunda:

-K_m -maksimal yuklama koeffitsenti

-$R_{o‘r.yil}$ - elektr uskunasi tomonidan istemol qilinadigan o‘rtacha yillik aktiv quvvat ,kW(P

kattaligi hisob-kitob yuli bilan aniqlanadi)

-tgφ_1 -1-fazalar siljishi burchagining tangensi,u quyidagi formula yordamida aniqlanib bir yildagi o‘rtacha chamalab olingan quvvat koeffitsentiga muvofiq bo‘ladi.

$$\mathbf{tg\varphi_1=(W_{reak.yil}-W_{/reak.yil})/\ W_{yil}}$$

bunda: $W_{reak.yil}$-rektiv energiyani sinxron yuritgichlarning ishlashini hisobga olmagan holdagi yillik istemoli;

$W_{/reak.yil}$ -sinxron yuritgichlar tomonidan ,ularning tgφ(cosφ)eng qulay bulgandagi bir yilda ishlab chiqariladigan rektiv energiyasi;

W_y-elektr energiyasining bir yillik istemoli(formulada foydalanilgan kattaliklar hisoblab chiqish yo‘li bilan aniqlanadi);

tgφ-quvvatning kompensatsiyadan keyingi koeffitsentiga to‘g‘ri keladigan fazalar siljishi burchagi tangensining normativ qiymati.

7. Kompensatsiyalovchi qurilmalar reaktiv quvvatni istemol qiluvchi elektr uskunalarining bevosita yonida joylashtirilishi lozim.

8. 1000V gacha kuchlanishli tarmoqlarda rostlanadigan kondensator batareyalari sexda guruxli taqsimlash shchitlari yonida o‘rnatilishi yoki magistral shina simlariga malum nuqtalarda ulanishi lozim. 1000 V gacha kuchlanishli taqsimlash shchitiga yoki shinalar magistralining bosh uchastkasiga ulangan podstansiyalarda markazlashtirilgan o‘rnatish faqat yong‘in xavfsizligi talablari bo‘yicha kondensatorlarni sexda o‘rnatish mumkin bo‘lmaganda qo‘llanishi mumkin. Bunda kondensatorlar batareyasining eng samarali quvvati hisoblab chiqilgan bo‘lishi kerak.

6-10 kV kondensatorlarini 6-10 kV taqsimlash uskunalariga ega bo‘lgan sex podstansiyalarida , taqsimlash punktlarida va istisno tariqasida MTP yoki GPP da o‘rnatish lozim. 6-10 kV kondensatorlar batareyalarini quvvati, ular alohida uzgich yordamida ulanganida 400 kVAr dan kam bo‘lmasligi va kondensatorlar kuch transformatori, asinxron yuritgichi va boshqa elektr uskunalari bo‘lgan umumiy uzgich orqali ulanganida 100kVAr dan kam bo‘lmasligi kerak.

Guruhli shchitoklar yonida o‘rnatilgan kondensator batareyalarining quvvatini 10 kVAr dan kam emas qilib qabul qilinishi tavsiya etiladi

Kompnesatsiyalovchi uskunaning quvvati 10000 kVAr dan ko‘p bo‘lganida energiya taminoti tashkilotning ro‘yxati bilan istemolchida sinxron kompensator o‘rnatilishiga yo‘l qo‘yiladi.

9. Kondensator batareyalari xizmat ko‘rsatishda havsizlikni taminlash maqsadida maxsus zaryadsizlagich induktiv va aktiv qarshiliklar bilan taminlangan bo‘lishi kerak. Zaryadsizlagich qarshilikning qattaligi (Om);

$$\mathbf{r_{razr}=15*2U_f/Q*106}$$

Bunda;

U_f - faza kuchlanishi , kV

Q – kondensator batareyasining quvvati, kVAr

10. Rektiv quvvatni kompensatsiyalash vositalari (kondensator qurilmalari) quvvatining rostlanishi , faqat istemolchida rektiv quvvat va kuchlanish bir vaqtda rostlash zarur bo‘lgan holllarda qo‘llaniladi.

Rektiv quvvat manbalari – kondensator qurilmalarining quvvatini rostlanishi avtomatlashtirilgan, qo‘lda boshqariladigan yoki telemexanika yoki telefon aloqasidan foydalangan holda dispetcherlik boshqariladigan bo‘lishi mumkin.

Avtomatlashtirilgan rostlash kuchlanish, reaktiv quvvat, elektr yuklamasining toki va berilgan kuchlanish o‘rtasidagi φ- siljish burchagi sutkalarning vaqti va bir necha omillarga qarab kombinatsiyalangan sxemalar bo‘yicha bajarilishi mumkin.

Xulosa

Sanoat elektr taminoti tizimlarini loyihalash bosqichida hamda ekspluatatsiya qilish bosqichida hal qilinadigan asosiy masalalardan biri reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish masalasi bo‘lib. u kompensatsiyalovchi qurilmalar turining tanlanishi, ularning quvvatini hisoblab chiqilishi va rostlanishi hamda qurilmalarni elektr taminoti sxemasida joylashtirilishi masalalarini o‘z ichiga oladi. Bunda reaktiv quvvatni generatsiya qilish joylaridan istemol qilish joylarigacha uzatilishi elektr taminoti tizimlarining texnik -iqtisodiy ko‘rsatkichlarini jiddiy ravishda yomonlashtiradi.

Bunda tabiiy kompensatsiya va suniy kompensatsiya katta moddiy xarajatlarni talab qilmaydi va korxonalarda birinchi navbatda o‘tkazilishi kerak .

Tabiiy kompensatsiyaga qo‘yidagilar kiradi;

-Texnologik jarayonni tartibga solish va avtomatlashtirish(yuklamalarni fazalar bo‘yicha bir tekisda taqsimlash, ayrim sexlar va uchastkalarning tushlik tanaffus vaqtini o‘zgartirish, energiyani ko‘p sarflaydigan yirik elektr qabul qilgichlarining ishlashini energiya tizimining maksimum soatlardan boshqa vaqtda o‘tkazish va aksincha ,quvvati katta bo‘lgan elektr qabul qilgichlarni energiya tizimining maksimum soatlarida tamirlashga chiqarish,bu yuklamalar grafigining tekislanishi va uskunalarning energetik rejimini yaxshilashga olib keladi;

-Transformatsiya pog‘onalarini kamaytirish hisobiga elektr taminotining oqilona sxemasini yaratish;

-Eski konstruksiyali transformatorlar va boshqa elektr uskunalarini takomillashtirilgan transformatorlarga va uskunalarga almashtirish;

- Kam yuklamali transformator va yuritmalarni kamroq quvvatli transformatorlar va yuritmalarga almashtirish hamda ularning to‘liq yuklamada ishlashini taminlash;

-Texnologik jarayonlarning sharoitlari bo‘yicha mumkin bo‘lganda asinxron yuritgichlar o‘rniga sinxron yuritgichlarni qo‘llash;

-Yuritgich va payvandlash transformatorlarining salt ishlash davomiyligini cheklash:

-Elektr yuritgichlarning tamirlanishi sifatini yaxshilash, kontakt va ulanmalarning o‘tuvchi qarshiliklarini kamaytirish;

-Kichik yuklama vaqtida (masalan ,tungi vaqtda , dam olish va bayram kunlarida) kuch transformatorlarning bir qismini o‘chirib qo‘yish;

-Tarmoqning o‘tkazuvchanligini qobiliyatini oshirish - bu elektr energiyasini o‘zatishdagi texnologik sarflarni kamaytirish va istemolchilarga yetkazib beriladigan elektr energiyasi sifatini yaxshilash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yi 18 yanvardagi №22-sonli qarori (Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari).
2. Reaktiv quvvatni kompensatsiyasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom.
3. Elektrotexnicheskiy spravochnik (1.2.3 knigi)
4. “Spravochnik po elektricheskim ustanovkam vыsokogo napryajeniya” (Moskva energiya-1981 g.)
5. “Spravochnik po elektrosnabjeniyu promыshlennыx predpriyatiy “ (Moskva energiya-1986 g.)

QUYOSH ENERGIYASIDAN OQILONA FOYDALANISH EKOLOGIK TOZA VA ISHONCHLI ELEKTR ENERGIYA OLISH GAROVI

Abdirakhmonov Islom Soatovich, Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti
Saparov Davron Isayevich, Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti
Jumayev Aziz Shodavlat o‘g‘li, Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi
e-mail: *islom.abdirakhmonov@gmail.com*

Annotatsiya: Biz bilamizki Surxondaryo zamini O‘zbekistonning janubiy tomonida joylashgan, ya’ni boshqa viloyatlarga qaragandan ser quyosh issiq o‘lka hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida tabiatning in’omi quyosh energiyasidan oqilona foydalanib hozirgi kunda dolzarb va insonlar ehtiyoji keskin oshib borayotgan elektr energiyasini olish biroz bo‘lsada janubiy hududimizda elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi.

Hozirgi kunda Quyosh energiyasi insoniyat uchun eng toza va eng ishonchli enrgiyalardan biri hisoblanadi. Quyoshning diametri 1mln 391 ming km va quyoshning hajmi yerning hajmidan 1,3 mln marta katta hisoblanadi. Quyoshning kimyoviy tarkibi 81% ni vodorod, 18% ni geliy va 0.1 % ni azot elementlari tashkil etadi hamda bu elementlar o‘z navbatida termo-yadroviy reaksiyaga

kirishib har soniyada 4 milliard kg materiya kuchli energiyaga aylanadi va bu bugungi kunda Quyosh tizimida eng kuchli energiya manbayi hisoblanadi.

***Аннотация**:* Мы знаем, что Сурхандарьинская земля расположена в южной части Узбекистана, а значит, это более теплая страна, чем другие регионы. С другой стороны, рациональное использование солнечной энергии, являющейся даром природы, актуально сегодня, а производство электроэнергии, резко возрастающей потребностью населения, позволяет удовлетворить потребность в электроэнергии в нашем южном регионе, даже если немного.

На сегодняшний день солнечная энергия является одним из самых чистых и надежных источников энергии для человечества. Диаметр Солнца 1 391 000 км, а его объем в 1,3 млн раз больше, чем у Земли. Химический состав Солнца 81 % водорода, 18 % гелия и 0,1 % элементов азота, а эти элементы, в свою очередь, вступают в термоядерные реакции, ежесекундно превращая в мощную энергию *4 миллиарда кг вещества, а это источник самой мощной энергии в Солнечной системе.*

Annotation: On the other hand, the rational use of solar energy, which is a gift of nature, is relevant today, and the production of electricity, which is rapidly increasing in population, allows us to meet the need for electricity in our southern region, even if only a little.

The article talks about the role and importance of solar energy in obtaining electricity in the world and in Uzbekistan. Today, solar energy is one of the cleanest and most reliable sources of energy for mankind. The diameter of the Sun is 1,391,000 km, and its volume is 1.3 million times that of the Earth. The chemical composition of the Sun is 81% hydrogen, 18% helium and 0.1% nitrogen elements, and these elements, in turn, enter into thermonuclear reactions, turning 4 billion kg of matter into powerful energy every second, and this is the most powerful energy in the solar system today is the source.

Kirish. Insoniyat tomonidan Quyosh energiyasi **termal**, **mexanik** va **elektr** energiyasiga aylantrilishi mumkin. Quyosh elektr stansiyalarining hozirgi kunda 2 xil ko‘rinishi mavjud va bular quyidagilar;

1. Termodinamik-ya’ni quyosh energiyasini issiqlik energgiyasiga, keyin elektr energiyasiga aylantradi.
2. Fotoelektrik-quyosh energiyasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri fotoelektrik qurilmalar yordamida elektr energiyaga aylantriladi.(QFS)

Bu maqolada quyosh fotoelektr stansiyalari (QFS), uni tashkil etuvchi uskunalar hamda elektr energiyani ishlab chiqarish haqida so‘z boradi.

Quyosh fotoelektr stansiyalari (QFS) — ekologik toza, xavfsiz va ekonomik tejamkor stansiya hisoblanadi. QFS ning ish prinsipi quyidagicha: Quyosh nurlari quyosh panellari (fotoelektrik o‘zgartirgich) ga tushadi, quyosh nurlari doimiy tok (foydalanish uchun noqulay) ko‘rinishiga aylantiriladi va akkumulyator batareyalarida saqlanadi. Invertorlar yordamida doimiy tok o‘z-garuvchan tokka (biz uchun odatiy 220 V) aylantiriladi va elektr tarmog‘iga uzatiladi.



1-rasm. Quyosh fotoelektr stansiyasi modeli

Quyosh fotoelektr stansiyalari (QFS) elektr uzatish liniyalaridan uzoqda joylashgan obyektlar uchun juda qulay elektr energiya manbaini ishlab chiqarish hisoblanadi (1-rasm), ya’ni quyosh nuri tushadigan joylarda elektr energiyasini ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Bu elektrostansiyalar yordamida alohida nasoslarni ishlatishda foydalanish mumkin. Aholi yoki fermer xo‘jaliklari uchun maxsus fotoelektrik stansiya o‘rnatish orqali elektr energiyasi bilan ta’minlash mumkin.



2-rasm. Quyosh paneli

Quyosh fotoelektr stansiyalarida foydalaniladigan quyosh panellari yuzasi o‘ta muhim qismi hisoblanadi (2-rasm). Quyosh panellari bu quyosh nurining fotonlarini qabul qiluvchi yuza (xujayra) hisoblanadi. Fotonlarni qabul qiluvchi quyosh panellari kremniy va galiy elementlaridan tayyorlangan. Quyosh xujayralari fotovoltaik xujayralarini anglatib bu xujayralar ingichka shisha idish ichida joylashgan salbiy **N** va musbat **P** kremniy qatlamlaridan iborat. Quyosh nurining fotonlari xujayraning salbiy N qatlamiga o‘rilganda undan elektronlar musbat P qatlamiga uchadi va undagi bo‘sh joylarni egallaydi, musbat zaryadlangan erkin elektronlar asosan kremniy xujayrasining bir tomoniga tortiladi va shu tariqa elektr quvvati hosil bo‘ladi. (3-rasm)



3-rasm. Fotonlarning elektr quvvatga aylanishi

Quyosh energiyasidan elektr energiyasini olishning bitta asosiy kamchiligi bor, u ham bo‘lsa quyosh enrgiyasini elektr energiyaga hosil qiluvchi qurilmalarning (quyosh paneli, invertor, akkumulyator, konvertor) hozircha qimmatligidadir.

O‘zbekistondagi ishlar. Shu yili O‘zbekistonda elektr energiyasi 67,5 mlrd kVt/soat ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda, 2030-yilga borib esa bu ko‘rsatkich 120 mlrd kVt/soat ga erishishi kutilmoqda. O‘zbekistonda quyosh elektro stansiyalari qurilishi Toshkent, Samarqand Navoiy, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida rejalashtirilgan. O‘zbekiston energetikasi tabiiy gazga juda bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 82 % ini tashkil etadi. O‘zbekiston 2030-yilga borib mamlakatning umumiy energetika balansidagi quyosh energiyasi ulushini 6 % ga yetkazishni rejalashtirmoqda. 2025-yilda qayta tiklanadigan energiyani umumiy energiya iste’moli majmuasida 19,7 % gacha oshirish, shu jumladan quyosh energiyasini 2,3 % ga oshirish rejalashtirilgan.

Boshqa davlatlar tajribasi. AQSH tajribasida AQSH milliy tadqiqotlar laboratoriyasi (NREL) qayta tiklanadigan energiya va quyosh batareyalari ishlab chiqishni 4 ta texnologik guruhga ajratdi. Birinchi texnologik guruhga A^{III} va B^{V} guruhlari birikmasiga asoslangan quyosh

elementlarini, bir kaskaddan 5 kaskadga (ko‘p kaskadli quyosh elementi), konsentratorlar sifatida foydalanishda yuqori samaradorlik beradi. Kaskadli quyosh elementlari hosil qilishda monolitik ko‘p kaskadli monokristal sturktura o‘stiriladi yoki tayyor elementlardan foydalaniladi. Yuqori samarador quyosh elementlari ko‘p bo‘g‘inli (kaskadli) geterostruktura asosida tayyorlanadigan elemetlar guruhiga bog‘liq. Ular molekulyar nurli epitaksiya usuli bilan olinadi. Gaz faza epitaksiyasi metall organik bog‘lanishlarni o‘z ichiga oladi. Germaniyada tayyorlangan 4 kaskadli quyosh elementi quyosh nurlari konsentratori sifatida foydalanilganda 46 % samaradorlik berdi. Amerika kompaniyasida konsentratorsiz ko‘p kaskadli quyosh elementining maksimal samaradorligi 38,8 % (besh kaskadli) va 37,9 % (uch kaskadli) ni tashkil qilmoqda. Ko‘p kaskadli quyosh batareyalarini olishdagi kamchilik bu murakkab texnologik jarayonlardir. Ko‘p kristalli Ge, GaAs va boshqa ko‘plab qimmatbaho materiallardan foydalaniladi.

Nobel mukofati laureate J. Alfyorovning takidlashicha, ko‘p kaskadli quyosh batareyalari strukturaviy bog‘lanishi yarimo‘tkazgichli barcha qurilmalarning guruhi bilan taqqoslanganda anchagina murakkab tuzilishga ega ekan.

Xulosa

Bizning o‘lkamiz serquyosh zamin hisoblanadi va bu bizga ijtimoiy hayotimiz uchun zarur bo‘lgan elektr energiyasini eng ishonchli energiya ya’ni, quyosh energiyasi yordamida olishni in’om etadi. Demak yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, tabiiy energiya manbai quyosh energiyasi orqali elektr energiyasini olish samarasini oshirish insoniyat keljagi uchun qayta tiklanmaydigan energiya manbailarini (ko‘mir, neft,gaz) tejashga xizmat qiladi. Shunday ekan, biz ham yurtimizda quyosh energiyasidan oqilona foydalanib, elektr energiyasini olish salmog‘ini oshirishimiz va elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojning katta qismini ta’minlashimizga harakat qilishimiz kerak.

Adabiyotlar

1. X.R.Zaynutdinova Marketing Solnechniy energii v Uzbekistane. Monografiya izd. „Fan“ AN, Tashkent 2011. 186 c.
2. Jeger-Waldau, A. PV Status Report 2012 / A. Jeger-Waldau // Luxembourg: Publications Office of the European Union. 2012. 45 p.
3. Jeger-Waldau, A. PV Status Report 2017 / A. Jeger-Waldau // Luxembourg: Publications Office of the European Union. 2017. 90 p.
4. Dannie, predstavlennie Natsionalnoy laboratoriey po vozobnovlyaemoy energetike (NREL, SShA) o razrabotkax solnechnix elementov s maksimal-noy effektivnostyu za 2017 god [Elektronniy resurs]. Rejim dostupa: https://commons.wikimedia.org/wiki/File:Best_Research-Cell_Efficiencies.png. Data dostupa: 20.02.2018.
5. Germany’s electricity generation mix 2015. STROM-Report Renewable energy Germany, 2015. [Elektronniy resurs] — Rejim dostupa: http://stromreport.de/renewable-energy/
6. Alferov, J. I. Tendensii i perspektivi razvitiya solnechnoy fotoenergetiki /J. I. Alferov, V. M. Andreev, V. D. Rumyansev // FTP. 2004. T. 38, vip. 8. S. 937-948.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Quyosh_fotoelektr_stansiyalari (31.05.2022)

MIKRO GES UCHUN DOIMIY MAGNITLANGAN DISK GENERATORIDAN FOYDALANISH

Abdukarimova Mohichehra Oybek qizi, Toshkent Davlat Agrar universiteti assistenti
mohichehraabdukarimova1994@gmail.com

Annotatsiya: Yaxshi energiya ko‘rsatkichlarini ta’minlash nuqtai nazaridan, 1 kVtgacha bo‘lgan kichik mikro GESlar uchun eng samarali elektr mashinasi doimiy magnitlangan disk generatori hisoblanib, ushbu maqolada mikro GES lar uchun doimiy magnitlangan disk generatoridan foydalanish haqida umumiy ma’lumotlar hamda mikro GESlarning afzallik va kamchiliklari keltirib o‘tilgan.

Annotation: In terms of providing good energy performance, the most efficient electric machine for small micro hydropower plants up to 1 kW is the permanent magnet disc generator, this article provides general information about the use of permanent magnet disc generator for micro

hydropower plants and the advantages of micro hydropower plants and disadvantages are mentioned.

Kalit so‘zlar: mikro GES, diskli rotorli generator, suv sarfi, suv bosimi, magnit maydon, trubina, chiqaruvchi kollektor, avtomatik tartibga soluvchi qurilma.

Key words: micro HPP, disk rotor generator, water consumption, water pressure, magnetic field, pipe, output collector, automatic regulating device.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-son farmonida ko‘rsatib o‘tilganidek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishga doir masalalarni ijrosini ta’minlash yuzasidan ushbu maqolada mikro GES lar uchun doimiy magnitlangan disk generatoridan foydalanish haqida umumiy ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. [1]

Mikro GESlarning asosiy afzalligi ishlab chiqadigan elektr energiyaning sutalik va mavsumiy vaqtlarda bir xilligidadir. Bu butun jarayonni avtomatlashtirish imkonini berib, xizmatlarga ketadigan harajatlar kamytirishga va natijada undan olinadigan elektr energiyasi tan narxining kichik bo‘lishiga olib keladi.

Mikro GES xalqaro standartlarga ko‘ra, asosan quvvati 0,1 kVtdan 100 kVtgacha bo‘lgan gidroenergetik qurilma bo‘lib, u turbina, tasmali va reduktorli uzatmalar hamda asinxron generatordan iborat. Gidroturbinalar suvning tez oqimi tufayli quvvat hosil qiladi. Suv qancha tezroq oqsa, u ham shuncha ko‘proq elektr quvvati ishlab chiqaradi, qurilish jarayonida va foydalanish davrida tabiiy landshaft va atrof-muhitni buzmaydi. Suv sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi, ya’ni, asl tabiiy xususiyatini yo‘qotmaydi. Shu bois ular har jihatdan foydali va nisbatan arzon elektr energiyasi hosil qilishda qo‘l keladi.



1-rasm. Mikro GESning umumiy loyihasi
1-suv yig‘uvchi qurilma, 2-suv o‘tkazgich, 3-trubina, 4-chiqaruvchi kollektor, 5-generator 6-avtomatik tartibga soluvchi qurilma

MikroGES larni asosan elektr ta’minoti markazlaridan uzoq hududlarda, elektr ta’minoti tizimida uzilishlar ko‘p bo‘lgan hududlarda va elektr liniyalari o‘tkazilmagan to‘g‘li hududlarda qo‘llash ko‘proq foydaliroqdir. Bunday joylarga tog‘li hududlardagi xo‘jalik ob’ektlari, kichik ovul-qishloqlar majmui kirishi mumkin. Bunday mikro GES larning quvvati elektr iste’molchilarning iste’mol quvvatiga qarab tanlanadi.

Shu yaqin vaqtgacha butun dunyoda to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqim generatorlari bo‘lgan mikro GESlarni ishlab chiqish amalga oshirildi. Bu generatorlar yaxshi boshqaruv xossalariga ega, lekin ularni mikro GESlarda qo‘llash yuqori narx va past ishonchliligi tufayli tejamkor emas [2].

Yuqori energiya samaradorligini ta'minlash nuqtai nazaridan, 1 kVtgacha bo‘lgan kichik mikro GESlar uchun eng samarali elektr mashinasi doimiy magnitlangan disk generatori hisoblanib, doimiy magnitlangan disk generatori dizaynning soddaligi, ishlab chiqarish texnologiyasining oddiyligi, sirpanish kontaktlarning yo‘qligi, doimiy magnitlar tufayli o‘z-o‘zidan qo‘zg‘alishning yo‘qligi bilan bog‘liq.



2-rasm. Disk rotorli generatorning ko‘rinishi.

Mikro GES lar uchun energiya manbalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- Har xil o‘lchamdagi oqim intensivligidagi daryolar va kanallar;
- Suv omborlarining suv to‘kish yo‘llaridagi balandlikdan tushayotgan suv oqimlari;
- Texnologik suv oqimlari;
- Balandlikdagi quvurlardan tushayotgan suv oqimlari. [4]

Ba'zi olib borilgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, boshqa materiallarga nisbatan disk rotorli generator kamdan-kam ishlatiladigan doimiy magnitlarning massasini minimallashtirish orqali sinxron generatorning narxini kamaytirish mumkin. Buning uchun rotorning optimal geometriyasini, ya'ni ishlatiladigan doimiy magnitlarning hajmini va generatorning ko‘plab ko‘rsatkichlarini aniqlaydigan qutblar va dizayn omillarini tanlashni ta'minlash kerak.

Qutb va fazadagi uyalar sonini o‘zgartirish orqali disk generatorining **g**eometrik parametrlarni energiya ko‘rsatkichlariga ta'sirini baholash mumkin ya'ni generatorning magnit sxemasini hisoblash uchun Mathcad 14 dasturi yordamida matematik modellar ishlab chiqamiz.



q1=1 q1=2 q1=3

3-rasm. Mathcad 14 dasturi yordamida tuzilgan qutblar orasidagi magnit maydon chiziqlarining tarqalish miqdorlari

Diskli rotorli generatorning asosiy energiya ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi: bo‘shliqdagi magnit oqim, bir qutbga qo‘zg‘atuvchi o‘rashning va qutbning tarqalish koeffitsienti. Har bir qutbdagi tirqishlar sonining ko‘payishi bilan qutbning oqish koeffitsienti pasayadi, bu elektr mashinalari uchun samarali ko‘rsatkichdir. Bundan kelib chiqadiki, tirqish kengligining pasayishi bilan uning stator magnit pallasida bo‘shliqlar soni ortadi va shu bilan har bir qutbdagi uyalar soni ortadi.

Qutblarning tarqalish koeffitsientining qiymati stator magnit davri orqali yopilmagan qutblar orasidagi elektr uzatish liniyalari soniga bog‘liq. Mathcad 14 dasturida zanjirdan ko‘rinib turibdiki, q1=3 da, qutblar orasidagi maydon chiziqlarining tarqalish miqdori q1=1 va q1=2 da mos ravishda kamroq bo‘lib, bu disk generatori uchun samarali ko‘rsatkich hisoblanadi.

Munozara. MikroGES larda birlamchi energiya tashuvchi – bu suv oqimi hisoblanib, suv oqimining quvvati, suv sarfi, suvning bosim kuchi, suv oqimining mavsumiy turg‘unligi kabi omillar mikrogidroelektrostansiyalar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo juda ko‘plab kanal va daryolarda suv sarfi va bosimi mavsumiy o‘zgaruvchanligini ham hisobga olish zaruriy masalalardan biridir. Bu iqlim va daryo joylashgan hudud landshaftiga bog‘liq holda kechadi. Bundan tashqari mikro GES lar loyihasi tuzilayotganda daryoning qiyalik burchagi, yillik maksimal va minimal suv sarfi ham inobatga olish lozim

1-jadval

параметр	при q=1	при q=2	при q=3
$l\delta = \frac{6.1 \cdot S}{\alpha_\delta \cdot k_в \cdot k_{об} \cdot A \cdot B \cdot \delta_н \cdot D^2 \cdot n}$	0,546	0,546	0,546
$I_н = \frac{P_н}{\sqrt{3} \cdot U_н \cos f}$	12,028	12,028	12,028
$Z_1 = 2 \cdot p \cdot m \cdot q_1$	12	24	36
$t_1 = \frac{\pi \cdot D}{Z_1}$	0,052	0,026	0,017
$b_{п1} = n_ш \cdot b_{1из} + \delta_{изл} + \delta_{р.ш} + \delta_ш$	0,011	0,011	0,011
$h_{п1} = U_н \cdot n_в \cdot a_{1из} + \sum \delta_{из} + h_к + \delta_{р.в} + \delta_в$	0,024	0,018	0,016
$\delta_1 = \delta + \frac{(\delta_m - \delta)}{3}$	$2{,}308 \cdot 10^{-5}$	$2{,}308 \cdot 10^{-5}$	$2{,}308 \cdot 10^{-5}$
$Ф = \frac{E}{4 \cdot k_в \cdot f \cdot w_1 \cdot k_{об1}}$	$5{,}321 \cdot 10^{-3}$	$5{,}509 \cdot 10^{-3}$	$5{,}544 \cdot 10^{-3}$
$B_\delta = \frac{\Phi}{\alpha_\delta \cdot \tau \cdot l_\delta}$	0,341	0,353	0,355
$F_\delta = \frac{1}{\mu_0} \cdot B_\delta \cdot \delta \cdot k_\delta$	5,933	6,142	6,181
$\Phi_m = \Phi \cdot \sigma_m$	$6{,}917 \cdot 10^{-3}$	$7{,}161 \cdot 10^{-3}$	$7{,}207 \cdot 10^{-3}$
$\Phi_\sigma = \Phi_m - \Phi$	$1{,}596 \cdot 10^{-3}$	$1{,}653 \cdot 10^{-3}$	$1{,}663 \cdot 10^{-3}$
$B_m = \frac{\Phi + \Phi_\sigma}{l_m \cdot l \cdot b_m \cdot k_{с.р}}$	0,672	0,696	0,7
$F_{в0} = F_\delta + F_{z1} + F_a + F_m$	52,541	51,008	50,467
$\sigma_m = \frac{\lambda_{п.к}}{\lambda_\delta}$	1,331	1,14	1,039
$m_{ст} = m_{z1} + m_{a1} + m_m$	195,7	190,923	186,145
$\sum P = P_{э1} + P_{a1} + P_{z1} + p_{мех} + P_{пов} + P_{доб}$	2,799	2,781	2,816
$\eta_1 = 1 - \frac{\sum P}{P_н + \sum P}$	0,994	0,994	0,994

Mikro GESlar atrof-muxitga sezilarli ta’sir etmaydi, jumladan: iflos gazlar chiqarish (SO_2, CO_2, NO_2), kislotali yomg‘irga, tuproqni suv bosishga, iqlimni o‘zgartirishga, azon qatlami yemirilishiga va h.k. olib kelmaydi.

Shu bilan birga aytish mumkinki, kichik GESlar ishlatilishida daryoning florasi va faunasi o‘zgarmaydi va biologik turlarning kamayishiga olib kelmaydi. Katta GESlardagi kabi kichik quvvatli gidrostansiyalar qishloq xo‘jaligi yerlarining suv bosimiga daryo qirg‘oqlariga tegishli yerlar gidrologik rejimini o‘zgartirmaydi.

Mikro GES larning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, birinchi va asosiy kamchiligi mikro GESlar uchun butlovchi qismlar yetishmasligidir. O‘zbekistonda ayni paytda generatorlar yo‘q, ularning barchasi xorijdan xarid qilinadi. Qurilmadagi eng qimmat tarkibiy qism ham aynan generator hisoblanadi. Agar O‘zbekistonda ham bu uskuna ishlab chiqarila boshlansa, qurilmaning tan narxini ikki barobargacha arzonlashtirish mumkin bo‘lar edi.

Xulosa.

Kichik GESlardan foydalanish qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, muqobil energiyani rivojlantirishning samarali yo‘nalishi bo‘lgan an'anaviy elektr energiyasi manbalari bilan raqobatlashmoqda. Yuqorida ko‘rib chiqilgan

ma’lumotlarga asosan shuni aytishimiz mumkinki, hozirda dunyodagi ko‘plab mamalakatlar noana’naviy energiya manbalaridan foydalanishni afzal bilishmoqda. Shu qatorda bizning mamalakatimizda ham bu borada ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish respublika energiya balansini muvofiqlashtirish bilan bir qatorda energetikaning atrof-muhitga salbiy ta’sirini ham kamaytirish imkonini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.09.2022 yildagi PF-220-son
2. Noan'anaviy va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish uchun energiya uskunalari. / Ed. VA DA. Vissarionov. M.: VIEN. 2004. 448 b.
3. Асинхронный дисковой генератор с постоянными магнитами для микроГЭС. “O‘zbekgidroenergetika” aksiyadorlik jamiyati ilmiy-texnik jurnali ISSN-C-15351 №4/2021 b. 48-49. Anarbaev A., Tolipov F.N., Abdukarimova M.O.
4. https://alter220.ru/voda/mikro-ges.html

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЕ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ЭНЕРГИИ

Абдураимова Х., Мустафакулов А.А .Илхомов И.У
Джизакский политехнический институт, Узбекистан

Аннотация: Приводится данные о возобновляемых источников энергии, ветряных и солнечных источников электрической энергии.

Ключевые слова: энергия, ветроустановка, солнечный панель, гелеотермальная энергия, мощность.

Энергия ветра. Уже очень давно, видя, какие разрушения могут приносить бури и ураганы, человек задумывался над тем, нельзя ли использовать энергию ветра.

Ветряные мельницы с крыльями-парусами из ткани первыми начали сооружать древние персы свыше 1,5 тыс. лет назад. Первый электрогенератор был сконструирован в Дании в 1890 г. Через 20 лет в стране работали уже сотни подобных установок [1-4].

Энергия ветра очень велика. Ее запасы по оценкам Всемирной метеорологической организации, составляют 170 трлн. кВт*ч в год. Эту энергию можно получать, не загрязняя окружающую среду. Но у ветра есть два существенных недостатка: его энергия сильно рассеяна в пространстве и он непредсказуем - часто меняет направление, вдруг затихает даже в самых ветреных районах земного шара, а иногда достигает такой силы, что ломает ветряки. Ветроэлектростанция такой же мощности, как ГЭС, ТЭЦ или АЭС, по сравнению с ними должна занимать большую площадь. К тому же ветроэлектростанции небезвредны: они мешают полетам птиц и насекомых, шумят, отражают радиоволны вращающимися лопастями, создавая помехи приему телепередач в близлежащих населенных пунктах [4-6].

Для получения энергии ветра применяют разные конструкции: многолопастные "ромашки"; винты вроде самолетных пропеллеров с тремя, двумя и даже одной лопастью (тогда у нее есть груз противовес); вертикальные роторы, напоминающие разрезанную вдоль и насажанную на ось бочку; некое подобие "вставшего дыбом" вертолетного винта: наружные концы его лопастей загнуты вверх и соединены между собой [3-5]. Чтобы как-то компенсировать изменчивость ветра, сооружают огромные "ветреные фермы". Ветродвигатели там стоят рядами на обширном пространстве и работают на единую сеть. На одном краю "фермы" может дуть ветер, на другом в это время тихо. Ветряки нельзя ставить слишком близко, чтобы они не загораживали друг друга. Чтобы снизить зависимость от непостоянного направления и силы ветра, в систему включают маховики, частично сглаживающие порывы ветра, и разного рода аккумуляторы. Чаще всего они электрические. Но применяют также воздушные (ветряк нагнетает воздух в баллоны; выходя оттуда, его ровная струя вращает турбину с электрогенератором) и гидравлические (силой ветра вода поднимается на определенную высоту, а, падая вниз, вращает турбину). Ставят также

электролизные аккумуляторы. Ветряк дает электрический ток, разлагающий воду на кислород и водород. Их запасают в баллонах и по мере необходимости сжигают в топливном элементе (т.е. в химическом реакторе, где энергия горючего превращается в электричество) либо в газовой турбине, вновь получая ток, но уже без резких колебаний напряжения, связанного с капризами ветра. Суммарная установленная мощность крупных ветроэнергетических установок (ВЭУ) в мире оценивается сегодня в 44000 МВт. Единичная мощность наиболее крупных ветряных установок превышает 1 МВт. Мировыми лидерами в ветроэнергетике являются США, Германия, Нидерланды, Дания, Индия. В частности, Германия планирует к 2030 году производить при помощи ветра до 30% всей электроэнергии страны. Достаточно широкое распространение ветроэнергетических установок объясняется их относительно невысокими удельными капиталовложениями по сравнению с другими возобновляемыми энергетическими источниками.

Солнечная энергия. Солнце, как известно, является первичным и основным источником энергии для нашей планеты. Оно греет всю Землю, приводит в движение реки и сообщает силу ветру. Под его лучами вырастает 1 квадриллион тонн растений, питающих, в свою очередь, 10 триллионов тонн животных и бактерий. Для того чтобы сегодня человечество смогло удовлетворить свои потребности в энергоресурсах, требуется в год около 10 миллиардов тонн условного топлива.

Солнечная энергетика основывается на том, что поток солнечного излучения, проходящего через участок площадью 1 м.кв., расположенный перпендикулярно потоку излучения на расстоянии одной астрономической единицы от Солнца (на входе в атмосферу Земли), равен 1367 Вт/м.кв. (солнечная постоянная) [2-3,8]. Через поглощение, при прохождении атмосферы Земли, максимальный поток солнечного излучения на уровне моря (на Экваторе) - 1020 Вт/м.кв. Известны следующие способы получения энергии за счет солнечного излучения: 1. Получение электроэнергии с помощью фотоэлементов. 2. Преобразование солнечной энергии в электрическую с помощью тепловых машин: а) паровые машины (поршневые или турбинные), использующих водяной пар, углекислый газ, пропан-бутан, фреоны; б) двигатель Стирлинга и т.д. 3. Гелиотермальная энергетика - преобразование солнечной энергии в тепловую за счет нагрева поверхности, поглощающей солнечные лучи. 4. Солнечные аэростатные электростанции (генерация водяного пара внутри баллона аэростата за счет нагрева солнечным излучением поверхности аэростата, покрытой селективно-поглощающим покрытием).

Недостатки солнечной энергетики. Для строительства солнечных электростанций требуются большие площади земли через теоретические ограничения для фотоэлементов первого и второго поколения. К примеру, для электростанции мощностью 1 ГВт может понадобиться участок площадью несколько десятков квадратных километров.Фотоэлектрические преобразователи работают днем, а также в утренних и вечерних сумерках (с меньшей эффективностью). При этом пик электропотребления приходится именно на вечерние часы. Кроме этого, произведенная ими электроэнергия может резко и неожиданно колебаться из-за изменений погоды [2-3,8-10]. Для преодоления этих недостатков на солнечных электростанциях используются эффективные электрические аккумуляторы.

Сегодня цена солнечных фотоэлементов сравнительно высокая, но с развитием технологии и ростом цен на ископаемые энергоносители этот недостаток постепенно преодолевается.

Список литературы:

1. Перспективы развития возобновляемой энергетики в Узбекистане. Фикрет Акчура, Насыров Темуржан. Электронный ресурс. file:///E:/downloads/uzb_un_rus_The_Outlook_for_the_Development_of_Renewable_Energy_in_Uzbekistan.pdf
2. Клычев Ш.И., Мухаммадиев М.М., Авезов Р.Р. и др. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. Тошкент: Издателство «Фан ва технология» - 2010 г.

4. Mustafakulov A.A., Arzikulov F. Current State Of Wind Power Industry. American Journal of Engineering And Technology.(ISSN – 2689-0984).Published: September 14, 2020 | Pages: 32-36.

5. Мустафакулов, А. А., Арзикулов, Ф. Ф., & Джуманов, А. (2020). Использование Альтернативных Источников Энергии В Горных Районах Джизакской Области Узбекистана. Интернаука: электрон. научн. журн, (41 (170).

6.Мустафакулов, А. А., Муртазин, Э. Р., & угли Сафаров, А. А. (2016). Исследование возобновляемых источников энергии. *Ученый XXI века*, (3-1).

7. Арзикулов Ф.Ф., Мустафакулов А.А. ва б.“Шамол электр генератори кувватини улчовчи дастурий таъминот” талабнома раками DGU 2021. 0103. 18.01.2021.

8.Akhmedovich, M. A., & Fazliddin, A. (2020). Current State Of Wind Power Industry. The American Journal of Engineering and Technology, 2(09), 32-36.

9. “Возобновляемые источники энергии, вопросы устойчивости и смягчения последствий изменения климата”, Фазлиддин Арзикулов, Universum 2020. (79).

10. Mustafakulov, A. A., Yuldashev, U., & Devaraj, N. (2022). Prospects For The Use Of Alternative Energy Sources. Telematique, 5421-5428.

ENERGIYA SAMARADOR YENGIL KO‘PIK POLISTIROLBETON ISHLAB CHIQARISH

Abdurasulov Salohiddi,n talaba
Qurbonov Zavqiddinjon Hamidulloyevich, assistent
Jizzax politexnika instituti, E-mail: *zavaclash@gmail.com*

Samarali issiq izolyasion va engil materiallardan foydalanish masalasi juda muxim masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yangi avlod materiallari asosan mineral xom ashyodan bo‘lib, ular polimer materiallardan, ekspluatatsion resurslarning ko‘payishidan ijobiy farq qiladi.

Betonlarda to‘ldiruvchi sifatida ishlatilgan penopolistirol granulalari o‘ta engil betonlar guruhiga mansub. Granulalarning shakli, o‘lchamlari, shuningdek ishlatilgan penopolistirolning sirt tuzilishi muhim ahamiyatga ega.

Asosan ochiq g‘ovaklardan tashkil topgan to‘ldiruvchilar sement toshi bilan yuqori adgeziyali ko‘rsatkichlariga ega.

G‘ovak to‘ldiruvchilarning xossalarini taqqoslash

To‘ldiruvchilarning nomi	**Suv shimuvchanligi W; %.**	**O‘rtacha zichligi, ρ; kg/m^3**	**Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsenti λ; Vt/m*K**	**Siqilishdagi mustahkamligi, MPa**
Keramzit	12-30	300-800	0.2-0.5	0.8-5.5
Shishirilgan perlit	29-30	100-300	0.04-0.06	0.3-0.6
Agloporit	16-31	800-1100	022-0.6	0.65-1.6
Shlakli pemza	13-31	800-1100	-	0.6-2.7
Penopolistirol granulalari	3 gacha	10-35	0.02-0.03	0.05-0.15

O‘zbekiston tadqiqotchilari tomonidan mahalliy materiallar asosida 400...500 va 600...900 kg/m^3 zichlikdagi issiq izolyasion va konstruktiv-issiqizolyasion polistirolbetonlarning tarkiblari ishlab chiqilgan, shuningdek ushbu turdagi betonlarni tayyorlash uchun va polistirol granulalarini ko‘pirtirish uchun mobil uskunalar ishlab chiqilgan

Mamlakatimizda birinchi marta portlandsement asosida polistirolbeton ishlab chiqarish 1965 yilga amalga oshirilgan. Penopolistirol chiqindilari asosida «poroplastobeton» olingan va bunday materiallarni tom yopma izolyasiyasi uchun qo‘llanilgan [10].

1967 yilda penopolistirol granulalari, daryo kvars qumi va 500 markali portlandsementdan tashkil topgan engil beton tarkiblari (jadval 2) ishlab chiqildi. Olingan material ishlab chiqarish sharoitida temirbeton zavodlarining standart uskunalari asosida sinovdan o‘tkazilgan [10].

Ko‘pirtirilgan polistirol granulalari asosida materialning zichligini kamaytirish uchun ishlab chiqilgan engil betonlar katta qiziqish uyg‘otmoqda. Devor panellarida bunday betonlardan foydalanish ularning issiqlik saqlash xususiyatlarini yaxshilash va isitish xarajatlarini tejash imkonini beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, engil betonlar, xususan, ko‘pik polistirol granulalari xususiyatlariga o‘xshash bo‘lgan samarali kompozitsion materiallarni yaratish yo‘llarini topish kerak bo‘ladi.

Olingan natijalar asosida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, polistrol to‘ldiruvchi asosli betonlarning xossalari g‘ovak mineral to‘ldiruvchi betonlardanning xossalaridan sezilarli darajada farq qilishi aniqlandi, shuningdek sement va qum miqdori, granulalarning fraksiyasining yirikligi va ularning ko‘piklanish darajasiga qarab o‘zgarishi ma’lum bo‘ldi.



Rasm 1. Yengil betonning xillari va ishlatilish sohalari

Ushbu korxonalar tomonidan turli zichlikdagi engil betonlar ishlab chiqarish uchun maxsus qurilmalar ishlab chiqilgan, bunda maxsus bog‘lovchi yordamida yupqa qatlamli sement bilan qoplangan polistirol granulalaridan foydalaniladi. Germaniyaning «VAR» kompaniyasi «stirobeton» ishlab chiqarish usulini patentladi. Bunday betonning 70% penopolistiroldan qolgan 30% esa, sement va qumdan tashkil topgan.

Kompaniya zichligi 200...1000 kg/m^3 va siqilishdagi mustahkamligi 0,5..7 MPa bo‘lgan engil beton tarkiblarini ishlab chiqdi. Ushbu materiallarning issiqlik o‘tkazuvchanligi mos ravishda 0,08...0,2 vt/m×K, bu esa barcha iqlim zonalarida bu mahsulotlarni qo‘llash imkonini beradi.

Shveysariyaning «RO» kompaniyasi armaturalangan penopolistirol panellarini va ekstruzion qoliplash mashinasni ishlab chiqdi.

Hozirgi vaqtda «stirobeton» G‘arbiy Evropada temir yullar uchun asos bo‘lib, devor panellari ishlab chiqarish, tom yopmalarni isitish, chorvachilik binolari uchun pollarni qoplashda ishlatiladi.

Chexoslovakiyada bunday materiallar yig‘ma qurilish elementlarida, shuningdek, monolit issiq izolyasion va konstruktiv-issiq izolyasion konstruksiyalarda ishlatiladi.

Niderlandiyada ham penopolistirol to‘ldiruvchi asosida engil betonlardan foydalanish boshlanib ketgan.

Mahalliy va xorijiy amaliyotda beton qorishmasini tayerlash usullarini baholashda ikki bosqichli sxema, mayda mineral to‘ldiruvchi, qo‘shimcha, suv asosida sement qorishmasini majburiy aralashtiruvchi beton qorigichda tayyorlab, so‘ngra ushbu qorishmaga polistirol to‘ldiruvchini qo‘shish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Bir marta qorishmani tayyorlash uchun sarflanadigan vaqt, taxminan 4-6 daq.

Tadqiqot oralig‘ida bog‘lovchi sarfi 300 kg/m3 dan kam bo‘lganda beton mushkamligining kerakli markasi ta’minlanmaydi, ammo sement sarfi 400 kg/m^3 dan ko‘payib ketganda esa materialning narxi sezilarli darajada oshib ketadi. SHuning uchun tadqiqotlar uchun sementning minimal sarfi miqdori 300 kg/m^3 maksimal sarfi esa 400 kg/m^3 bo‘lgan qiymatlar qabul qilindi.

Tadqiqot oralig‘ida bog‘lovchi sarfi 300 kg/m^3 dan kam bo‘lganda beton mushkamligining kerakli markasi ta’minlanmaydi, ammo sement sarfi 400 kg/m3 dan ko‘payib ketganda esa materialning narxi sezilarli darajada oshib ketadi. SHuning uchun tadqiqotlar uchun sementning minimal sarfi miqdori 300 kg/m3 maksimal sarfi esa 400 kg/m3 bo‘lgan qiymatlar qabul qilindi.

Ko‘pik polistirolbetoning o‘rtacha zichligi qo‘shilgan polistirol granulalri, qum va portlandsement miqdori bilan nazorat qilinadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki KPB tarkibiga qum qushilganda bog‘lovchi sarfi kamayadi, ammo bu mustahkamlik xususiyatlarini pasayashiga olib keladi.

Polistirol yuqori haroratlarda hajmini oshirish xususiyati yuqori mustahkamli qumli beton olish texnologiyasida qo‘llandi. Yuqori mustahkamli qumli beton ishlab chiqarishda M400 markali portlandsement, kvars qumi yiriklik moduli M_{yir}=1-1,1, solishtirma yuzasi 4500 sm^2/g bo‘lgan kvars mikroto‘ldiruvchisi va biserli polistirol yoki uning chiqindilari ishlatiladi.

Energiya samarador yengil ko‘pik polistirolbeton

O‘rtacha zichligi, ρ; kg/m³	Beton uchun material sarfi, 1 m³					S/S	Siqilishdagi mustahkamligi, MPa	Egilishdagi mustahkam-ligi, MPa	Issiqlik o‘tkazuvchan-lik koeffitsenti λ; Vt/m×K
	Sement, kg	Qum, kg	Polistirol granulalari, m³	Qo‘shimcha, %	Suv, l				
350	250	-	1,2	0,45	120	0,48	0,7	0,11	0,078
400	300	-	1,2	0,5	126	0,44	1,0	0,14	0,082
500	330	50	1,1	0,6	150	0,46	1,5	0,27	0,12
600	400	85	1,1	0,7	180	0,45	2,6	0,36	0,16
700	430	140	1,07	0,75	190	0,44	3,7	0,48	0,182
800	460	190	1,07	0,8	200	0,43	5,0	0,68	0,2
900	480	240	1,0	1,0	208	0,43	6,2	0,85	0,23

Polistirolbeton ishlab chiqish texnologiyasida ikkita ishlov berish usuli qo‘llaniladi: 5 soat davomida issiqlik bilan ishlov berish va 300°S haroratda 2 soat davomida infraqiliz nurlar bilan issiq haroratda tezkor ishlov beriladi. IIB (80-102°C) da polistirolbetonni birinchi davrda ishlov berish jarayonida polistirol donasi ko‘pichitiladi va donalar orasidagi maydon granulalarning hajmini oshishi evaziga kamayadi.

Ikkinchi sikl, IIB so‘ng yuqori harorat ta’sirida davom etadi va bu polistirol donasining sublimativ o‘tishiga yangi holatga – polistirol donasiing ilgari polistirol donasi egallagan joyi yuzasida yupqa mustahkam polimer plyonka shaklida qayta ishlangan polistirolga olib keladi. Bunday plyonka sement toshining g‘ovaklari bog‘laydigan yoriqlar, kichik teshiklarni qayta polimer moddasi bilan to‘ldirish orqali beton yoriqlari devorlarini mustahkamlaydi.

Polistirolbetonlarnig bog‘lovchi moddasi sifatida asosan portlandsement ishlatiladi. Portlandsement deb portlandsement klinkeri va gipsni birgalikda mayin tuyish natijasida olingan kukunsimon ashyoga aytiladi. Tuyish paytida faol mineral qo‘shimcha yoki boshqa qo‘shimchalar solinishi mumkin.

Portlandsement klinkeri ohaktosh va tuproqni yopishqoqlik haroratigacha pishirib olinadi. Gips qo‘shimchasi portlandsementning qotish vaqtini boshqarish maqsadida 3...5 % solinadi.

GOST 10178-85 bo‘yicha qo‘shimchasiz portlandsement, 20% faol mineral qo‘shimchali portlandsement va shlakli portlandsement turlari bor. Shlakli portlandsement tarkibiga 20% dan ko‘p domna yoki elektrotermofosfor (ETF) shlaki solinadi.

Portlandsement va uning turlari – hozirgi zamon qurilishining asosidir. Ulardan yig‘ma yoki quyma beton va temirbeton qurilmalari tayyorlanib uysozlikda, sanoat va fuqaro qurilishida, qishloq qurilishida, gidrotexnik inshootlarda, tog‘, yo‘l va irrigatsiya qurilishida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 07 fevral 2017 yildagi № PF-4947 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xarakatlar strategiyasi».

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 3 avgustdagi PQ-1167-sonli «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 y., 24-25-son, 193-modda)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2009 yildagi «Devorbop materiallar ishlab chiqarishni oshirish va sifatini yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida»gi №PP-1134-sonli Qarori, (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009 y., 6-son, 231-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 9-son, 84-modda)

4. Атабаев К.К. Акустика шлакощелочной газобетона: Дисс. ни сои. летать Шаг. саксар технология наука Киев-1994.

5. Азаров Л., Бургер М. Метод порошка и рентгенографии. - М.: Иностранная литература, 1961. - 363 с.

6. Багров Б. О. Производство теплоизоляционного материала из отходов светлой металлургии.- М.: Металлургия, 1985, 13-17с.

7. Багров Б.0., Васильева Т.Д. Безавтоклавный ячеистый бетон на слакощелочном вяжущем, стр.89-90. Тезисы докладов всесоюзной конференции/; "Шлакощелочные цементные бетоны и конструкции" Киев 1979г.

8. Беранек Л.Л. Шумоподавление Нью-Йорк: Mogrou-Xill, 1960.

9. Беляков В.А., Носков А.С. Проектирование составов строительного полистиролбетона с использованием современных химических довавок.Газиев У.А., Акрамов

10. Х.А. Отходы промышленности в производство строительных материалов и дел. Учебное пособие (Газиев У.А., Акрамов Х.А. ТАСИ 2003 г. – 112с).

CONDUCTING LABORATORY CLASSES ON ELECTRICAL CIRCUITS

Abduxalimov Jahongir Alisher o‘g‘li
Karshi Engineering Economic Instituti
head of the laboratory

Annotation: We cordially welcome you dear user of the COM3LAB course! Before you start working on the course, you should first familiarize yourself with the information about the educational hardware and software complex COM3LAB, contained on the following pages.

Key words: electrical circuits, electrical lines, current generation. Experiment description

This experiment set up is similar to the previous one. However, its line path contains two switches connected in series.



Fig.1 Work on the experiment panel

The aim of this experiment is to investigate a simple electrical circuit consisting of two switches and a lamp acting as the load. The switches are connected in series. They are closed when their slider is on the lower setting.



Fig.2 Applications of series connections

Series-connected switches are often used to electrically protect machines. Test the function of this protective mechanism in the display on the right.

The lamp only comes on when the left switch and the right switch are closed.

By combining their individual states, series-connected switches can be used as and gates.

Experiment description

The aim of this experiment is to investigate how parallel-connected switches influence the current flow in an electrical circuit.



Fig.3 Work on the experiment panel

A simple electrical circuit consisting of two parallel-connected switches and a lamp acting as the load is investigated here. The switches are closed when their slider is on the lower setting.

The adjacent circuit diagram displays a door opening system which allows a building entrance door to be opened from four different floors. As the door opening buttons are connected in parallel, pressing any one of them closes the electrical circuit, thus allowing a current to flow through the door opener.

Summary

When the upper switch or the lower switch is closed the lamp comes on.

By combining their individual states, parallel-connected switches can be used as or gates.

LIST OF USED LITERATURE

1. Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to organize production and phased transition to the use of energy-saving lamps."

2. Semenov V.G. Why Energy Saving http: //www.energosovet.ru/bul.

3. Kolesnik Yu. N., Ivaneychik A. V. Evaluation of the efficiency of energy saving through the introduction of energy-saving light sources in market conditions of operation: an article in a journal - a scientific article. – "Bulletin of the Gomel State Technical University. ON. Sukhoi.

4. Sysoeva E. A. Improving the competitiveness of domestic lighting enterprises on the basis of ensuring the energy efficiency of light sources: an article in a journal - a scientific article. – "Problems of modern economy".

5. Polishchuk A.I., Turkin A.N. The concept of using LED luminaires in order to implement an energy-saving lighting program: an article in a journal - a scientific article. – "Components and Technologies".

ПРОВЕДЕНИЕ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ЭЛЕКТРИЧЕСКИМ СХЕМАМ

Абдухалимов Жахонгир Алишер угли
Заведующий лабораторией Каршинского инженерно экономического института
Курбоназаров Сухроб Эркин угли
Ассистент Термезского инженерно-технологического института

Аннотация: Мы сердечно приветствуем Вас, уважаемый пользователь курса COM3ЛАБ! Прежде чем Вы приступите к работе курсом, Вам предварительно следует ознакомиться с информацией об учебном аппаратно-программном комплексе COM3ЛАБ, содержащейся на последующих страницах.

Ключевые слова: электрических цепей, Электрические схемы, Генерирование тока.

Основные компоненты электрических цепей

Электрическая цепь состоит из

Источников питания: являющийся источником электрической энергии, вызывает движение носителей зарядов (электронов). Направленный поток электронов принято называть электрическим током.

Полезных нагрузок:

В полезная нагрузка (в данном случае, лампе накаливания), электрическая энергия преобразуется в другой вид энергии (в данном случае, тепловую и световую).

Соединительных проводов:

Электрический провод-В замкнутой цепи носителе зарядов движутся по электрическим проводам между источником питания и полезной нагрузкой.



Рис.1 Генерирование тока

Электрический ток представляет собой направленный поток носителей заряда в проводнике.Электрический ток вызывается электродвижущей силой (ЭДС)



Рис.2 Разомкнутая/замкнутая электрическая цепь



Рис.3 Ключи позволяют управлять током

Если электрическую цепь можно представить в виде непрерывного электрического контура, в котором возьожен поток носителей заряда (обычно поток электронов), такую электрическую цепь называют замкнутой электрической цепью.

Если электрическая цепь прерывается в одной или более точках, ток не может проходит по ней, т.к. носители заряда не могут перемещаться по цепи. В этом случае электрическую цепь называет разомкнутой электрической цепью.

Ключи позволяют размыкать или замыкать электрическую цепь в зависимости от состояния их контактов.

Проводники и изоляторы

Различные вещества по-разному проявляют способность проводить электрический ток. Они разделяются на проводники и изоляторы.

Проводниками являются вещества, обладающие подвижными носителями заряда (электронами или ионами). К проводникам относятся металлы (например, медь, серебро, алюминий), неметаллы (например, углерод) и электролиты (например, соленая вода).

В изоляторах отсуствуют подвижные носители заряда и поэтому они не могут проводить электрической ток. Примерами изоляторов являются фарфор, поливинилхлорид (ПВХ) резина и сухой воздух.

Например, медная жила провода является проводником, в то время как воздух между разомкнутыми контактами ключа является изолятором.



Рис.4 Проводники

Электрические схемы

Электрические схемы применяются для представления электрических цепей. Элементы электрических цепей на таких схемах изображаются в виде условных графических обозначений, а соединительные проводники-в виде линий.



Рис.5 Электрические схемы

Установите экспериментальную панель

Экспериментальная панель состоит из отдельных экспериментальных схем, которые выбираются в соответствии с проводимым экспериментом.

Первая экспериментальная схема активна (горит установленный на ней светодиод). Элементы схемы размещены в верхней части экспериментальной панели.



Рис.6 Экспериментальная панель

Работа с экспериментальной схемой

Здесь исследуется простейшая электрическая цепь, которая состоит из ключа и лампы, используемой в качестве полезной нагрузки. Ключ замкнут, когда его движок находится в нижнем положении.

Поток электронов и направление тока

Электроны, являющиеся носителями зарядка, движутся от отрицательного полюса источника питания (источника электрической энергии) к его положительному полюса. Это направления движения электронов принято за физическое направление электрического тока. В электрической цепи ток течет от положительного полюса источника питания к

отрицательному. Это направление электрического тока принято называть его техническим направлением.



Вывод



Когда ключ разомкнут, лампе не горит.



Когда ключ замкнут, лампе горит.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Постановление кабинета министров Республики Узбекистан «О мерах по организации производства и поэтапному переходу на использование энергосберегающих ламп».

2. Семенов В.Г. Почему именно Энергосбережение http: //www.energosovet.ru/bul.

3. Колесник Ю. Н., Иванейчик А. В.Оценка эффективности энергосбережения за счет внедрения энергосберегающих источников света в рыночных условиях функционирования: статья в журнале – научная статья. – «Вестник Гомельского государственного технического университета им. П.О. Сухого.

4. Сысоева Е. А. Повышение конкурентоспособности отечественных светотехнических предприятий на основе обеспечения энергоэффективности источников света: статья в журнале – научная статья. – «Проблемы современной экономики».

5. Полищук А.И., Туркин А.Н. Концепция применения светильников со светодиодами в целях реализации программы энергосберегающего освещения: статья в журнале – научная статья. – «Компоненты и Технологии».

ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ҚАЙТА ТИКЛАНУВЧИ ЭНЕРГИЯ МАНБАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Ahmadjonova Umida Tojimuradovna
Mustafakulov Asror Axmedovich
Жиззах политехника институти
asrormustafakulov@gmail.com

Аннотация: Ўзбекистон шароитида қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш муаммолари, хукумат томонидан бу муаммоларни хал этишга қаратилган қонун ҳужжатлари таҳлили келтирилган. Дунё ҳамжамияти томонидан бу маммони ҳал этиш борасида олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишларининг қисқача баёни ва таҳлили келтирилган.

Таянч сўзлар: энергетика, қуёш, шамол, генератор, фотоэлемент, фойдали иш коэффициенти, гетероўтиш, яримўтказгич, рекомбинация.

Кириш

Мамлакатларнинг дунё ҳамжамиятида тутган ўрни, аҳолисининг яшаш фаровонлигининг ўсиши киши бошига тўғри келадигин энергия истеъмоли миқдори билан белгиланади. Ҳозирги кунда дунё бўйича киши бошига тўғри келадиган энергия истеъмоли ўртача 2-4 кВт* соатга тенг. Аммо фаровон ҳаёт кечириш учун бу миқдор етарли эмас ва у 10

кВт* соатга тенг бўлиши лозим. Нефтъ, газ кумир, торф каби ёқилғи манбаларининг йилдан - йилга миқдори камайиб, таннархи ошиб бораётган хозирги шароитда ахолининг энергияга булган эхтиёжини тўла қондириш, энергия истеъмолини талаб даражасида етказиш дунё ҳамжамияти олдида турган асосий муаммо бўлиб турибди. Ушбу муаммони ҳал этишнинг ягона йўли муқобил – қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишдир.

Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси

Бу муаммолар Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.Каримовнинг 2013 йил 1-мартдаги “Муқобил энергия манбаларини ривожлантириш чора тадбирлари тўгрисида”ги 4512 сонли фармонида ўз аксини топди. Ушбу фармонда белгиланган вазифаларни ижросига бағишлаб Олий ва ўрта махсус таълими вазирлиги томонидан ўтказилган видеоконференциялар ҳам катта ахамият касб этди. Видеоконференцияларда қайта тикланувчи энергияларнинг самарадорлиги юқори бўлиши билан бир қаторда экологик жиҳатдан соф энергия эканлиги кўрсатиб ўтилди ва бу соҳани ривожлантириш чора-тадбирлари ҳақидаги вазифалар белгилаб олинди.

Маълумки, хозирда кайта тикланувчи муқобил энергия манбаларининг асосан 5 та тури санаб ўтилади [1-3], булар Қуёш энергетикаси, шамол энергияси, сув энергияси, Ер тубидаги иссиқлик энергияси, биомасса энергияларидир. Дунё бўйича Қуёш батареялари орқали олинган энергия миқдори йилига 200 МВт ни ташкил этади. Бутун жахондаги каби Мамлакатимизда ҳам энергияга бўлган талабнинг ортиб бориши муқобил энергия манбаларига, хусусан Қуёш энергиясига бўлган эҳтиёжнинг ортишига олиб келди.

Мамлакатимизда қайта тикланувчи муқобил энергия манбаларининг потенциали 173,4 млн т.н.э. бўлиб, энергиянинг йиллик истеъмоли қийматидан уч баробар кўпдир [2-4]. Бу энергиянинг 98,8% ни Қуёш энергияси ташкил этади. Чунки Мамлакатимиз серқуёш ўлка бўлиб, йилнинг 280-300 кунида Қуёш нур сочиб туради ва ҳар бир метр квадрат ерга 1100 вт гача энергия узатилади [1]. Қуёш энергиясидан фойдаланиш ёруғликни фотоэлементлар - Қуёш батареялари ёрдамида электр энергиясига айлантириш орқали амалга оширилади. Бу борада Япония, Германия, АҚШ мамлакатлари етакчилик қилмоқда. Қуёш коллекторлари - Куёш печларидан фойдаланиб иссиқлик энергиясини ҳосил қилиш - Қуёш печларининг юзаси (21 млн метр квадрат) билан ўлчанади. Бу борада Япония, Исроил, Греция мамлакатлари етакчи ўринларда турадилар. Қуёш энергиясидан электр энергиясини ҳосил қиладиган кремний монокристалини соф холда тайёрлаш жуда қимматга тушганлиги сабабли Куёш батареяларининг фойдали иш коэффиценти жуда паст бўлган. Эндиликда Арсенид галлий, кремний поликристали, кадмий теллур каби юпқа плёнкали Қуёш элементлари яратилди-ки, улар асосида тайёрланган Қуёш элементларининг фойдали иш коэффициенти анча ошди. Бугунги кунда Қуёш фотоэлектр станциялари ва сувни Қуёш энергияси орқали иситиш коллекторлари Сурхандарё, Жиззах, Бухоро, Навоий, Тошкент, Андижон вилоятларида ва Қорақалпоғистон Республикасида муваффақиятли қўлланилиб келинмоқда. Қуёш фотоэлектр станцияларидан Жиззах политехника институтида институт технопаркини ёритиш тизимида (1,5 квт), сув таъминоти тизимида (6,75 квт, 1-расм), “Зомин” согломлаштириш мониторинг марказида, Фориш туманидаги Нарвонсой кишлоғидаги фермер хўжалигида, Навоий вилояти Томди туманидаги ўрта мактабларда фойдаланилмоқда. Нурота тумани марказий шифохонадаги тиббиёт жихозлари, ЖизПИдаги компьютер синфлари шамол генератори ва қуёш батареяларидан олинадиган энергия ҳисобига ишламоқда [5-6].

Қуёш нурлари энергияси таьсирида қизиган иссиқ ҳаво нисбатан енгил бўлади ва у юқорига кўтарилади. Унинг ўрнини эгаллашга интилган совуқ ҳаво оқимининг ҳаракати туфайли шамол ҳосил бўлади. Бундай ҳаво оқимларидан фойдаланиб шамол тегирмони ясаш VIII асрнинг бошларидаёқ шимолий Европада амалга оширилган. 1885 йилдаёқ Дания мамлакатида дастлабки шамол электр станциялари қурилган. 1918 йилда Данияда 120 тадан ортиқ шамол электр станцияларидан фойдаланилган. Уларнинг ҳар бирининг қуввати 10-20 киловатдан бўлган. 1880-1930 йилларда АҚШ да 6 миллиондан ортиқ шамол электр станциялари ишлатилган. Юқорига кўтарилган сайин шамолнинг тезлиги ортиб боради. Ер

устида шамол тезлиги 3 м/с га тенг бўлса, 10 метр баландликда шамолнинг тезлиги икки баробар ортиқ бўлади. 40-80 метр баландликка ўрнатилган шамол генераторлари ёрдамида 25-50 киловатдан ортиқ электр энергияси ҳосил килиш мумкин. Шу кунларда Европа иттифоқидаги давлатларда истеъмол қилинадиган энергиянинг 80% ни шамол ва Қуёш энергияси ҳисобига қоплаш режалаштирилган. Бунинг учун яқин йиллар ичида сайёрамизда 3,8 миллион дона шамол генератори, 90 мингта йирик ва 1,7 миллиард кичик Қуёш электр станциялари қурилиши лозим. Шамол энергиясидан фойдаланиш орқали олинадиган электр энергияси миқдори бўйича Германия (45 Гвт) етакчилик қилмоқда. Сув энергиясидан кичик ГЭСлар орқали электр энергиясини хосил қилиш бўйича етакчи ўринда Хитой туради. Кейинги ўн йилликда Хитойда 40000 та, Ҳиндистонда эса 400 та кичик ГЭСлар қуриш режалаштирилган. Австрия, Финландия, Швеция мамлакатларида хам кичик ГЭСларга эътибор кучайтирилган. Эндиликда муқобил энергия манбаи бўлган оқар сувлар энергиясидан микро ГЭСлар ёрдамида фойдаланишга бўлган эътибор хам кучайиб бормоқда. Электр узатиш тармоқларидан узоқда жойлашган тоғли худудлардаги булоқ ва канал сувларининг механик энергиясидан фойдаланиб электр энергияси ишлаб чиқариш микро ГЭСлар орқали амалга оширилади. Бундай электр энергияси манбаи учун тўғон қуриш шарт эмас, яъни оқар сувнинг механик-потенциаль энергияси етарлидир. Бундай микро ГЭСлар учун гидротурбиналарнинг бир неча хил варианти А. Устюжин томонидан таклиф этилган. Ана шундай микро ГЭСлар Жиззах туманидаги Увобсой қишлоғидан оқиб ўтувчи сойга, Жиззах политехника институти ҳудудидан оқиб ўтувчи каналларга ўрнатилган (2-расм). Кичик қувватли бундай микро ГЭСлар қишлоқ шароитда яшаётган бир ёки бир нечта хўжаликларни электр энергиясига бўлган эхтиёжини қондира олади. Муқобил энергия манбалари яъни шамол (3-расм) ва Қуёш энергиясидан фойдаланиш (1-расм) иқтисодий ўсишга, экологик софликка хизмат қилади. Электр узатиш тармоқларидан узоқ бўлган худудларда муқобил энергия манбаларига бўлган эхтиёж жуда катта бўлгани учун микро ГЭСлар, шамол ва Қуёш энергияларидан фойдаланиш, мазкур энергетика соҳасини равнақ топтириш зарур. Бу ишларнинг самарадорлиги электроэнергетик мутахассис кадрларнинг илмий салоҳиятига узвий боғликдир. Демак-ки, олий ўкув юртларида электроэнергетик мутахассислар тайёрловчи кафедраларнинг моддий техник базасини бойитиш, шамол ва Қуёш энергиясини, биогаз энергиясини хосил килиш усулларини тадқиқ этиш учун синов майдончалари, махсус қурилмалар билан жихозланган илмий лабораторияларни ташкил этиш максадга мувофик бўлади [7-8].

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг «Муқобил энергия манбаларини янада ривожлантиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида»ги 01.03.2013 йил ПҚ-4512- сонли фармони ва «Халқаро қуёш энергияси институтини ташкил қилиш тўғрисида»ги 01.03.2013 йил ПҚ-1929-сонли қарорини бажариш доирасида «Физика-қуёш» илмий ишлаб чиқариш бирлашмаси базасида қуёш энергияси институти ташкил қилинди. «Ўзбекэнерго» ДАК ушбу институтнинг таъсисчиларидан бири ҳисобланади. "Ўзбекэнерго" ДАК томонидан қуёш энергиясидан фойдаланиш мақсадида республиканинг қатор вилоятларидаги «Мурувват уйлари», «Меҳрибонлик уйлари» ва қишлоқ врачлик пунктларида гелиоқурилмалар ўрнатилди. Бундан ташқари, Самарқанд вилоятида Осиё тараққиёт банки кредит ресурсларини жалб қилган ҳолда қуввати 100 МВт бўлган қуёш станциясини қуриш назарда тутилмоқда. Шунингдек, «Навоий» Эркин иқтисодий зонасида қуввати 50 МВт бўлган фотоэлектр қуёш панеллари ишлаб чиқариш бўйича қўшма корхонанинг 1-босқичи ташкил этилади. Келажакда бу корхонанинг ишлаб чиқариш қувватлари 100 МВт гача оширилади. Шу муносабат билан «Ўзбекэнерго» ДАКда ёқилғи-энергетика балансига қайта тикланувчан энергия манбаларини киритиш борасида ишлар олиб борилмоқда. Қайта тикланувчан энергия манбаларидан катта саноат миқиёсида фойдаланиш республикада электр ва иссиқлик энергияси ишлаб чиқаришдаги табиий газ истеъмолини камайтириш ва шунинг натижасида атроф-муҳитга зарарли моддаларни чиқариб ташлаш ҳажмини сезиларли даражада қисқартириш имконини беради.

Фотоэлементларнинг иш самарадорлигини ошириш йўлидаги илмий изланишларнинг натижаси ўлароқ бугунги кунда қуёш батареяларининг 1м^2 юзасидан энг камида 200 Вт гача электр қуввати олиш мумкин. Шу сабабли қуёш элементларининг қўлланиш соҳалари космик аппаратларнинг энергия таъминоти, халқ-хўжалиги, техника, қишлоқ хўжалиги ва бошқа сохаларда қўлланилиши тобора кенгайиб бормоқда. Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, қуёш энергиясини фотоэлектрик жихатдан қайта айлантиришнинг фойдали иш коэффициентини 93% га етказиш мумкинлигини назарий асослаб берилган бўлишига қарамай, бугунги кунда амалда олинган натижа 18-26% дан ошмайди. Шунинг учун юқори самарали, кичик ўлчамли ярим ўтказгичли қуёш элементлари (ҚЭ) ни лойиҳалаш ва ишлаб чиқариш ҳам илмий, ҳам амалий нуқтаи назардан долзарб масала бўлиб, унинг республикамиз миқёсида тўғри ҳал этилишига давлатимиз томонидан катта эътибор қаратилган. Ушбу кўрсатмаларни бажариш мақсадида “Ўзбекенерго” АЖ манфаатдор идоралар билан биргаликда илмий тадқиқотлар олиб боришиб Ўзбекистон Республикасининг қайта тикланадиган энергия манбалари салоҳиятини ўрганиб чиқдилар. Бу борада 2019 йил 19 майда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида”ги қонуни катта ахамията эга бўлди. Унда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш, уни ишлаб чикарувчи тадбиркорлар томонидан истеъмолчиларга сотиш имкониятлари ҳақида қоидалар келтирилган.

Япониялик мутахассислар эса қуёш батареясининг фойдали иш коэффициентини (ФИК) 26,3 фоиз бўлишига эришдилар. Кремний қуёш батареясининг ФИКи учун максимал назарий чегара 29 фоизни ташкил қилади. Бироқ бу кўрсаткичга ҳали ҳеч ким эриша олмаган. Амалиётда ФИК 20 фоизга яқин бўлиб, рекорд кўрсаткич эса 25,6 фоизни ташкил қилган. Япониялик олимлар бу кўрсаткични 26,3 фоизга етказишга муваффақ бўлдилар. Улар бунинг учун кристалл материалларни тақиқланган зоналар – идеал кристаллдаги электрон эга бўла олмайдиган энергия қийматлари соҳасини минималлаштириш учун юқори сифатли юпқа плёнкали гетероўтишдан (иккита турли яримўтказгич контактидан) фойдаланишган. Бундан ташқари, олимлар батареянинг юқори қисмини аморф кремнийда фотонлар сочилишини камайтириш учун аксқайтарувчи қоплама билан қоплашган. Мутахассислар қуёш батареясини янада такомиллаштиришни режалаштирилмоқдалар. Улар 29 фоизлик фойдали иш коэффициентга эришиш учун имкон бермаётган бир неча сабабларни аниқлашди. Бу сабаблар орасида оптик йўқотишлар ва ташқи рекомбинациялашиш хисобига юз берадиган йўқотишлар хам бор.

Хулоса

Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишнинг ҳозирги кунлардаги таҳлили шуни кўрсатадики, бу манбалар бўйича олиб борилаётган илмий-тадқиқот ҳамда ташкилий ишлар талаб даражасида эмас.Хусусан кремний асосида яратилаётган қуёш фотоэлектр қурилмаларининг фойдали иш коэффициентини ошириш мақсадида олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишлари самарадорлигини бирнеча бор ошириш зарур. Бунда асосан кристаллардаги тақиқланган зона кенглигини ўзгартириш, аморф кремний юзасини аксқайтарувчи плёнкалар билан қоплаш ҳамда гетероўтишлардан фойдаланиш каби илмий изланишларга эътибор қаратиш зарур.



1-расм. Жиззах политехника институти худудига ўрнатилган қуёш электр станцияси (қуввати 6,75 кВт).



2-расм. ЖизПИ ховлисидаги каналга ўрнатилган микроГЭС (қуввати 0,5 кВт)



3-расм.Шамол электр станцияси

Адабиётлар

1. Аллаев К.Р. Энергетика мира и Узбекистана. - Т.: Молия, 2007 г.
1. Клычев Ш.И., Мухаммадиев М.М., Авезов Р.Р. и др. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. Ташкент: Изд. «Фан ва технология» - 2010 г.
2. Юнусов Т.Ю. О роли возобновляемых источников энергии в стратегии совершенствования энергетики Узбекистана. // Проблемы энерго-и ресурсосбережения. № 3-4, 2011.
3. Мустафақулов А.А., Салиев Э.А., Сиддиков И. И др. Автоматизированный учёт-условия повышения эффективности использания электрической энергии. Ж. «Проблемы энерго – и ресурсосбережения» 2013 г. Ташкент. № 1-2. с. 158-164.
4. Мустафакулов А.А., Туропов У. Расчёт мошности ветроэнергетических установок. Журнал “Научный прогресс”.Россия. № 4 (апрел), ISSN 2542-0984 апрел 201 8 г.
5. Mustafakulov A.A., Arzikulov F. CURRENT STATE OF WIND POWER INDUSTRY Accepted in the journal The American Journal of Engineering and Technology (ISSN-2689-0984) for Volume 02 Issue 09 September 2020, pp.32-34.
6. А.А.Мустафакулов, О.К.Халилов, Ш.С.Уринов. Цель и задачи самостоятельной работы студентов.Материалы VI Международной научно-методич.конф. Гомель,24-25 октября.2019г.
7. Мустафақулов А. Электротехника материаллари.Укув кулланма. Тошкент, Турон-Икбол нашрёти-2015, 188 б.

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ ТАЪМИНОТИ ҲОЛАТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Алиев А.М., “Сурхондарё ҳудудий электр тармоқлари корхонаси” АЖ техник директор ўринбосари

I. Сурхондарё вилоятининг электр энергияси таъминоти ҳолати:

Ҳозирги кунда Сурхондарё вилоятининг барча истеъмолчилари тўлиқ электр энергияси билан таъминланган бўлиб, электр энергияси истеъмоли ёз ва қиш фаслларида бир суткалик истеъмол **11,5-11,8 млн.кВт.соат** ва эрталабки-кечки максимал юклама соатларида уланган қувват **530-600 МВт** ни ташкил қилади. Баҳор ва куз фаслларида эса бир суткалик истеъмол **7,5-8,5 млн.кВт.соат** ва эрталабки-кечки максимал юклама соатларида уланган қувват **400-430 МВт** ни ташкил қилади.

Истеъмол қилинаётган электр энергиясининг **40-45 %** қисми қишлоқ хўжалиги, яъни йирик насос станциялари ҳамда кичик қувватли дала суғориш насослари орқали истеъмол қилиниб, аҳолининг истеъмоли жами истеъмолнинг **30-35 %** ини ташкил қилса, саноат корхоналар улушига **10-15 %** ҳамда қолган бошқа истеъмолчиларга **5-10 %** тўғри келади.

Ҳозирги кунда Сурхондарё вилояти бўйича йилнинг ёз-куз-баҳор фаслларида электр энергияси **Тўпаланг ГЭС (ГЭС-34 ва ГЭС-43)** ва унинг каскад**(Зарчоб)**ларида ишлаб чиқарилиб, энерготизимга узатилаётган бўлиб, ушбу узатилаётган электр энергияси бир суткада ўртача **150 минг кВт.соат** дан **220 минг кВт.соат** ни ташкил қилмоқда. Гидроэлектрстанцияларда ишлаб чиқарилаётган электр энергияси тан нархи арзон ҳамда

экологик тоза маҳсулот эканлиги туфайли ҳозирги кунда муҳтарам юртбошимизнинг ташаббуслари билан Тўпаланг гидроэлектрстанциясининг каскадлари қурилишига старт берилган ва ҳозирги кунда ушбу ГЭС каскадлари жадаллик билан қурилиши давом эттирилмоқда. Янгидан барпо этилаётган **25 МВт** қувватли **“Мизот”**, **50 МВт** қувватли **“Киштут”** ҳамда янги лойиҳалаштирилаётган **“Пском” ГЭС**лар шулар жумласидандир.

Шунингдек, муҳтарам юртбошимизнинг ташаббуслари билан серқуёш воҳамизда қуввати **100 МВт** бўлган Қуёш (фото) электр станцияси қурилиши мўлжалланганлиги истеъмолчиларнинг узлуксиз электр энергияси билан таъминлашда айни муддао бўлди десак муболаға бўлмайди.

Айни кеча-кундузда қурилиш ва саноат ҳамда ишлаб чиқариш корхоналарининг кескин ортиб бораётганлигини инобатга олсак, (*2017 йилда **2,7 млрд. кВт.соат,** 2018 йилда **2,8 млрд. кВт.*соат,** 2019 йилда **2,9 млрд. кВт.соат,** 2020 йилда **3,1 млрд. кВт.соат,** 2021 йилда **3,5 млрд. кВт.*соат** ни ташкил қилган, ўтган беш йилда истеъмолнинг ўсиши **29,6 %***) кейинги беш йил давомида истеъмол ҳозиргига қараган ярим баравар ошиб, бир йиллик истеъмол **4,0-4,5 млрд.кВт.соат** ни ташкил қилиши прогнозлаштирилмоқда. Ушбуни инобатга олган ҳолда қайта тикланувчи электр манбаларини жорий қилиш ҳамда йирик қувват ишлаб чиқарувчи электр станцияларини ҳамда мавжудларини модернизациялашни тақозо қилади. Шунингдек, электр энергиясини тақсимлаш ва узатишга мўлжалланган 220-500 кВ ли подстанция ҳамда электр тармоқларини тўлиқ реконструкция қилиниши мақсадга мувофиқ.

II. Электр энергиясини узатишда исроф (потерия) таҳлили:

01.01.2022 йил ҳолатида “Сурхондарё ҳудудий электр тармоқлари корхонаси” АЖ тасаруфида **5 892 дона** *(шундан **1890 донаси,** ёки **33 % 40 йил**дан ортиқ эксплуатацияда фойдаланиб келинган)* 6-10/0,4 кВ трансформатор пунктлари, **19 335,4 км** *(шундан **5994,0 км,** ёки **31 % 40 йил**дан ортиқ эксплуатацияда фойдаланиб келинган)* узунликда 0,4-110 кВли электр тармоқлари ва **140 дона** *(шундан **50 донаси,** ёки **36 % 40 йил**дан ортиқ эксплуатацияда фойдаланиб келинган)* 35-110 кВли подстанциялар мавжуд. Ушбу 40 йилдан зиёд эксплуатацияда фойдаланиб келинаётган электр тармоқ ва қурилмалар меъёрий ҳужжат ва ишлаб чиқарган завод хужжатларига биноан ўз хизмат даврини ўтаб бўлган ҳисобланиб, ҳозирги кунда ушбу тармоқ ва электр қурилмалар орқали электр энергияси узатилишида исроф (потерия)ларнинг кескин ошиб боришига олиб келинмоқда. Бунинг ечими сифатида электр тармоқларини модернизациялаш ва янгилаш дастурларини тузишда, энг оғир, яъни 40 йилдан кўп эксплуатацияда фойдаланилаётган электр тармоқларини янгилаш эмас, балки 20 йилдан ортиқ эксплуатацияда фойдаланилаётган электр тармоқларини модернизациялаш режасига киритиш орқали, ушбу тармоқларни реконструкция қилиш орқали ундан чиққан тармоқни 40 йилдан ортиқ эксплуатация қилинаётган тармоқлар ўрнига алмаштирилиши орқали, электр тармоқларини янгилаш сурати 2 марта тезлашишига олиб келиш мукин.

Электр энергиясини узатишдаги исроф (потерия) таҳлил қилинар экан, бундан ташқари бугунги кунда истеъмолчиларнинг, айниқса аҳоли истеъмолчиларининг кескин ортиши, шунингдек чекка ҳудудлардаги ерларнинг ўзлаштирилиши натижасида, электр тармоқлари истеъмолчилар томонидан қўлбола таянч ва ўтказгичлар билан тармоқлар тортилиши натижасида узатилаётган электр энергиясининг кўпгина қисми исроф қилинишига сабаб бўлмоқда. Бунинг исботи сифатида 0,4 кВ электр тармоқларининг асосий қисми қўлбола таянчлардан иборат бўлган, **Узун** туманнинг **Оқ остона** маҳалласида жойлашган **41018**-сонли трансформатор пунктидан таъминланган истеъмолчиларга узатилаётган электр энергиясининг **38 %** қисми исроф (потерия) бўлаётганлигини кўришимиз мумкин.

Ҳудди шу ҳолатни, **Термиз** тумани, **Нурафшон** маҳалласида жойлашган **135-**сонли трансформатор пунктидан чиқувчи, тўлиқ замонавий СИП русумли изоляция кабелли тармоқ орқали электр энергияси билан таъминланувчи истеъмолчиларга узатилаётган электр энергиясининг атиги **21 %** қисми исроф бўлаётганлигини таҳлил қилишимиз мумкин.

Шунингдек, вилоятнинг айни қишлоқ жойларда истеъмолчиларининг тарқоқ жойлашиши туфайли уларга узатилаётган электр энергиясининг меъёрдан кўп қисми исроф қилиниши кузатилмоқда.

III. Сурхондарё вилоятининг электр энергияси таъминоти истиқболлари:

Маълумки, жорий йил 24-март кунида Тошкент халқаро инвестиция форуми доирасида Сурхондарё вилояти, Ангор тумани, “Каттақум” маҳалласида, лойиҳавий қиймати **1 млрд. 200 млн.** доллар бўлган, қуввати **1560 МВт** бўлган йиллиги **12 млрд. кВт.с** электр энергияси ишлаб чиқарадиган янги иссиқлик электр станцияси (ИЭС) қурилишига ушбу лойиҳа ижрочилари ҳисобланган **“Siemens Energy”** компанияси президенти Кристиан Брух ва **“EDF”** компанияси ижрочи директори Беатрис Буффонлар иштирокида муҳтарам юртбошимиз томонларидан старт берилди.

Бу лойиҳанинг амалга ошиши нафақат Сурхондарё вилоятининг **500 минг**дан ортиқ хонадонини электр энергияси билан таъминлаш балки қўшни Афғонистонга йилига камида **3 млрд. кВт.с** электр энергиясини экспортга эришиш мумкин. Бу билан Сурхондарё вилоятининг ҳам иқтисодий ҳам ижтимоий аҳволини яхшилашга эришилади.

Ушбу лойиҳа келажакда эмас балки, атиги яқин 3-4 йилда амалга оширилиши нақадар қувонарли ҳол эканлиги нафақат Сурхондарё аҳли балки бутун Ўзбекистон халқини қувонтириши турган гап.

Сурхондарё вилоятида бугунги кунда амалга ошириладиган йирик инвестиция лойиҳаси бу билан чекланиб қолмасдан, муҳтарам юртбошимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 2021 йил 1 июнь куни Сурхондарё вилоятига ташрифлари давомида Шеробод туманида **260 млн. $** тўғридан-тўғри инвестиция жалб қилинган ҳолда қуёш электр станцияси қурилиши муносабати билан унинг пойдеворига капсула қўйилгани ва мазкур электр станция лойиҳасини **Бирлашган Араб Амирликлари**нинг **«Masdar»** компанияси амалга ошириши олиб борилаётган йирик ислоҳотларнинг дебочаси дейиш мумкин.

Чунончи, биргина вилоятда мавжуд электр тармоқларини модернизациялаш ва янгилашга қаратилган ислоҳотларидан бири бўлган Муҳтарам юртбошимиз томонидан имзоланган 2021 йил 30 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган инвестиция дастурини тасдиқлаш ҳамда инвестиция лойиҳаларини бошқаришнинг янги ёндашув ва механизмларини жорий этиш тўғрисида”ги 72-сонли қарорлари доирасида келгуси беш йил давомида **5 минг км** дан зиёд электр тармоқлари ва **1500 та**га яқин трансформатор пунктлари янгиланиб, реконструкция қилиниши юқорида баён қилинган ислоҳотлар давомийлигининг яққол мисоли дейишимиз мумкин.

Электр тармоқларини модернизациялаш ва янгилаш доирасида олиб бориладиган тадбирларнинг биргини жорий йилда амалга оширилиши лозим бўлган ишлар таҳлил қилинганда, вилоятда кўп йиллардан буён эксплуатацияда фойдаланиб келинган ва бугунги кунда зўриқиш билан ишлаётган йирик қувватли икки дона подстанциялар реконструкция қилиниши, яъни мавжуд куч трансформаторларининг катта қувватлисига алмаштирилиши баробарида, вилоятда электр энергиясига бўлган кескин талабларни қондириш мақсадида яна **3 дона** 35-110 кВ кучланишли катта қувватли подстанциялар янгидан қурилиши режалаштирилган. Шунингдек ушбу тадбирлар қаторида, вилоятнинг **392** та маҳалла фуқаролар йиғинидаги **1099,3 км** узунликдаги электр узатиш тармоқлари ва **288 дона** трансформатор пунктлари модернизация қилиниши ва реконструкция қилиниши каби тадбирлар амалга оширилади.

Хулоса

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, юқорида баён қилиб ўтилган лойиҳа ва тадбирларнинг амалга оширилиши муҳтарам юртбошимиз таъкидлаганларидек, Инсон қадри қиммати ва уларнинг фаровон яшаши учун хизмат қилишини инобатга олган ҳолда, ушбу машаққатли ишларнинг амалга ошириш йўлида соҳа мутаҳассисларига куч-қувват ато этилишини ҳамда жонажон ватанимиз бўлган Ўзбекистон Республикасининг барча истиқболли лойиҳаларининг амалга ошишини аллоҳдан тилаб қоламиз!

Adabiyotlar:

1. Э.Б.Саитов, У.М.Ахмедов, О.Б.Курбонбоев, Ю.К.Хамидов, Ш.Б.Бекчанов. Разработка имитационной модели комбинированной гелиоветроэнергетической установки. Мирзо Улугбек номидаги Узбекистон миллий университети хузуридаги «Ярим утказгичлар физикаси ва микроэлектроника» илмий-тадкикот институти Тошкент шахридаги ”МЭИ” миллий тадкикот университети федерал давлат бюджети олий таълим муассасаси ”Ярим утказгичлар физикаси, микро- ва наноэлектрониканинг фундаментал ва амалий муаммолари” мавзусидаги 1-халкаро анжуман материаллари, Том 1; 28-29 октябрь Ташкент 2021; стр. 216-218.
2. Э.Б.Саитов, У .М.Ахмедов, Ю.К.Хамидов, Ш.Б.Бекчанов, О.Р.Рахмиддинов. Измерительные комплексы и учет климатических данных при разработке и проектировании комбинированных гелиоветроэнергетических установок. Международная научная-техническое конференция "Тенденция развития альтернативной и возобновляемой энергетики: проблемы и решения 17-18 мая 2021, ст. 402-408.
3. Э.Б.Саитов., Ш.Ш.Тохиржанов., Ф.Отаклов., Ш.Б.Бекчанов., Ю.К.Хамидов. Инновационный подход к определению электрофизических параметров фотоэлементов. «Наноструктурные полупроводниковые материалы в фотоэнергетике» сборник научных трудов II Международная научная конференция 19-20 мая 2021, ст. 67-69.

ЎЗБЕКИСТОНДА МУҚОБИЛ ЭНЕРГИЯ МАНБАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Arzikulov F.F., Toshkent Davlat Texnika universiteti 1-bosqich magistranti,
Rasakhojaev B.S., Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti labaratoriya mudiri, t.f.n professor,
Mustafakulov A.A., Jizzax politexnika instituti Energetika fakulteti fizika kafedrasi dotsenti

Аннотация: Муқобил энергия манбалари ҳақида энг сўнги тахлилий маълумотлар, муқобил энергия манбаларининг кўрсаткичлари ҳақидаги маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: муқобил энергия, қуёш, шамол, қайта тикланувчи, энергия тежамкорлиги, қуёш фотоэлектр қурилмаси.

Кириш

Ер юзида цивилизациянинг ривожланиши фойдаланилаётган энергия тури ва ҳажми билан ҳар доимо чамбарчас боғлиқ бўлиб келган. Айникса, электр энергетикаси тармоғи жамият ҳаётида муҳим саналган таянч соҳалардан бири ҳисобланади. Шу боис кейинги йилларда мамлакатимизда иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини кўтариш, қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишни ривожлантириш бўйича кенг кўламли ва изчил ислоҳатлар амалга оширилиб, энергетика тараққиётига даҳлдор ҳуқуқий асослар яратилди.

Асосий қисм

Бугунги кунда энергиядан фойдаланиш ҳажми шунчалик кенгаймоқдаки, унинг келгусида янада кўпайиши биосфера, демакки, келажакда инсониятнинг ривожланиши учун ҳам катта хавф туғдиради. Шу сабабли бутун дунёда ўтган асрнинг охирги ўн йилидан бошлаб, энергиянинг қайта тикланадиган экологик тоза манбалари, аввало, қуёш ва шамол манбаларидан фойдаланишга алоҳида эътибор қаратила бошланди [1-6,16]. Масалан, дунёда ҳозир шамол энергиясини ўзлаштириш суръатлари фақат ахборот технологияларидан бироз ортда қолмоқда. Қуёшли кунларга бой Ўзбекистонда қайта тикланадиган энергия манбаларини ўзлаштириш стратегиялари энди ишлаб чиқилмоқда. Гарчи, ҳозир қайта тикланадиган энергетика технологиялари учун харажатлар миқдори энергия олишнинг анъанавий технологиялари сарф-харажатларидан анча ошсада, бугунги кунда улар жорий этиладиган объектларни аниқ қайд этиш мумкин. Ўзбекистон учун – бу биринчи навбатда, электр энергияси ва иссиқлик олиш учун маҳаллий саноат ва қурилиш секторининг кам қувватли объектлари, қишлоқ хўжалиги ва ижтимоий-маиший соҳалар объектлари, фермерлик ва иссиқхона хўжаликлари ҳамда бошқа объектлар учун мўлжалланган қурилмалардир .

Бугун тоғли ва ярим чўл ҳудудларида жойлашган олис, шунингдек, яйловларда қайта тикланадиган энергия манбаларидан кенг фойдаланиш анъанавий энергия манбалари билан бемалол рақобатлаша олади. Ўзбекистондаги БМТ Тараққиёт дастури томонидан тайёрланган мазкур нашр мамлакатимизда энергиядан фойдаланишнинг ҳозирги аҳволи ва қайта тикланадиган энергия манбаларидан нафақат техник, балки, энг муҳими, иқтисодий ҳамда ижтимоий нуқтаи назардан фойдаланиш имкониятлари хусусида тўлиқ маълумот беради. Ушбу муаммонинг турли жиҳатларини тушунарли шаклда тақдим этиш нафақат энергетика ҳамда иқтисодиёт соҳасида банд бўлган мутахассислар, балки кенг омма орасида ҳам катта қизиқиш уйғотади. Бу, ўз навбатида, мамлакатимизда энергия самарадорлиги ва хавфсизлигини ошириш жараёнини жадаллаштириш учун асос бўлиб хизмат қилади [7-9].

Соҳани янада ривожлантиришга қаратилган қатор қонунлар, халқаро битимлар, Фармон ва қарорлар қабул қилинди [13-15]. Ушбу хужжатларда янги қувватларни ишга тушириш орқали қайта тикланувчи энергия манбаларини янада равнақ топтириш ва уларнинг улушини электр энергиясини ишлаб чиқариш умумий ҳажмининг 25 фоизидан кўпроққа етказиш, қайта тикланадиган энергия манбаларидан ва улардан олинган электр энергиясини тармоққа етказиб беришнинг махсус харид тарифини(“яшил тариф”) жорий этиш белгиланди.

Шу ўринда таъкидлаш жоиз, қайта тикланадиган энергия манбаларини амалиётга кенг татбиқ қилиш табиий ресурсларни тежаш ва атмосферага зарарли чиқиндилар миқдорини камайтириш имконини беради .

2020-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасини электр энергияси билан таъминлаш концепциясига асосан 5 Гвт қуёш фотоэлектр ва 3 Гвт шамол электр станциялари қурилишини уддалаш орқали саноат кўламидаги қайта тикланувчи энергия манбалари – электр станциялари миқдорини ошириш мақсад қилинган. 2019 йил 22 майдан кучга кирган “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғриси”даги қонун бу борада катта ахамият касб этмоқда. Президентимизнинг 2019 йил 22 августдаги қарорига асосан юртимизда 2030 йилга бориб муқобил энергия манбаларининг қувватининг умумий ҳажмидаги улушини икки баробарга ошириш белгилаб берилган. Ҳозирги пайтда бу кўрсаткич 12-14 фоизни ташкил этади [10-12]. 10 йил ичида умумий қуввати 5000 мегаватт бўлган қуёш ва 3000 МВт қувватли шамол электр станциялари қурилади. Бу ишларнинг бошланиши сифатида Президентимизнинг 2020 йил 14 апрелдаги “Навои вилоятида қуввати 100 МВт бўлган фотоэлектр станциясини қуриш” инвестиция лойихасини амалга ошириш чора тадбирлари тўғрисида”ги қарори [15] асосида Кармана туманида 268 гектар майдонда қурилиш ишлари “Nur Navoi Solar” компанияси томонидан олиб борилмоқда. Бу компания БАА нинг “Masdar» компаниясига қарашли филиал хисобланади. Бу компанияда 1 КВт соат электр энергияси нархи 2,679 АКШ центига тенг ва қурилиш муддати 12 ойни ташкил этади. Навои вилояти марказидан 35 км узоқликдаги майдонда бошланган қурилиш ишларига бош пудратчи Хитойнинг “SEKO” компанияси электр энергиясини ишлаб чиқариш ва узатиш лойихасини тайёрлайди ва амалга оширилади. 2019 йил 27 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси электр энергетика тармоғини янада ривожлантириш ва ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида” ги қарорига мувофик “Masdar” компанияси Зарафшон шаҳри яқинида иккинчи лойихани, яъни шамол электр станциясини қуришни амалга оширади. Ҳозирда ушбу лойиха қувватини 500 МВт дан 1,5 ГВт гача ошириш бўйича битим имзоланди. Дастлаб 600 миллион АКШ долларига бахоланган лойиха энди 1,8 миллиард долларгача оширилди. Бу шамол электр станциясини 2024 йилнинг охиригача фойдаланишга топширилиши режалаштирилган. Бу иш амалга оширилгач Ўзбекистонда ишлаб чиқариладиган шамол электр энергияси микдори 3 ГВт га тенг бўлиб, муқобил энергия манбаларининг мамлакат умумий энергия ҳажмидаги улушини 26 фоизга етказиш имконини беради. Бу ҳолда муқобил электр энергияси 1,5 миллион хонадонни таъминлаш билан бирга, 3,3 миллион тонна карбонат ангидрит газини камайтириб, экологик софликни таъминлайди [7,14-15].

Президентимиз томонидан қайта тикланадиган энергия манбаларини жадал ривожлантиришни таъминлаш, электр энергияси ишлаб чиқариш манбаларини диверсификациялаш, электр энергетикаси тармоғига тўғридан –тўғри хорижий инвестицияларни жалб этган ҳолда қайта тикланадиган энергия манбалари миқёсини кенгайтириш, шунингдек, электр энергияси ишлаб чиқаришда табиий газдан фойдаланишни камайтириш мақсадида республикамизнинг тўртта вилоятида қуёш фотоэлектр станцияларини қуриш бўйича қарорлар имзоланди.

Ушбу ҳужжатларда 2023 йил якунига қадар умумий қуввати 1 096,6 МВт бўлган 4 та қуёш фотоэлектр станцияси ишга туширилиши белгиланди.

Хусусан, БАА нинг “Masdar” компанияси томонидан 2023 йил якунига қадар Сурхондарё вилоятининг Шеробод туманида қуввати 456,6 МВт, 2023 йилнинг октябрьойига қадар Жиззах вилоятининг Ғаллаорол туманида қуввати 220 МВт, Самарқанд вилоятининг Каттақўрғон туманида қуввати 220 МВт ҳамда 2023 йилнинг ноябрь ойига қадар Навоий вилоятининг Нурота туманида Недерландиянинг “Phanes Energy Holding III B.V.” компанияси томонидан қуввати 200 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциялари ишга туширилади.

Албатта, бундай электр станцияларини сифатли ишлатиш учун малакали муҳандис ва ходимлар ҳам зарур. Шундан келиб чиқиб, кадрлар тайёрлаш марказини ташкил этиш, олий таълим муассасаларидаги ўқув дастурларини замонавий талаблар асосида янгилаш юзасидан ҳам тегишли ишлар олиб борилади.

Ўзбекистон - органик ёқилғиларнинг барча турларини ишлаб чиқариш ҳажмидан уч баробар ошадиган катта миқдордаги қайта тикланадиган энергия салоҳиятига эга мамлакат. Ўзбекистонда қуёш энергиясидан фойдаланадиган технологиялар катта истиқболга эга. Чунки қайта тикланадиган энергиянинг ушбу туридан бутун мамлакат ҳудудида йил давомида фойдаланиш мумкин. Қуёш энергиясидан фойдаланишни кўпайтириш мамлакатнинг, айниқса, бориш қийин бўлган ва олис қишлоқ туманларида электр ҳамда иссиқлик энергиясига бўлган эҳтиёжни бемалол қондириб, катта ҳажмдаги табиий газни экспорт эҳтиёжлари учун йўналтириш имконини бериши мумкин.

Ўзбекистонда электр таъминоти борасида муайян қийинчиликларга дуч келинмоқда. Бу, айниқса, аҳолининг 60 фоизи истиқомат қиладиган қишлоқ жойларида нисбатан сезиларлидир. Электр станциялар, энергия етказиб берувчи ва тақсимловчи тармоқларни модернизация ҳамда реконструкция қилиш мамлакатда саноатни ривожлантиришнинг устувор вазифаларидан ҳисобланади. Қайта тикланадиган энергетикани ривожлантириш энергия билан ишончли таъминлаб, энергия етказиб беришдаги йўқотишларни анча камайтирган ҳолда, олис аҳоли пунктларини энергия тизимига улаш учун узоқ масофали электр узатиш линияларини барпо этиш заруратидан қутулишга ёрдам беради. Айни пайтда мамлакат энергетика балансида фақат кичик гидроэлектр станциялар томонидан ишлаб чиқарилаётган кам миқдордаги қайта тикланадиган энергия улуши бор. Бошқа қайта тикланадиган энергия манбалари салоҳияти катта бўлишига қарамай, улардан фойдаланиш улуши ҳозирча унчалик кўп эмас. Биз иқтисодий ривожланишга эътибор берар эканмиз, табиий ресурсларимиз захирасини асраш ва атроф-муҳит емирилишининг олдини олиш ҳақида ўйлаш керак [9-13]. Янги энергетика технологияларини ишлаб чиқиш, ёқилғи ва энергиядан самарали фойдаланиш борасида улкан ишлар амалга оширилмоқда. Бироқ қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқарилаётган энергия миқдорини кўпайтиришгина энергияни ишлаб чиқаришда юқори самара бериши мумкин. Ҳозирча аҳоли қайта тикланадиган энергия манбалари тўғрисида етарлича маълумотга эга эмас, қуёш ва шамол энергиясидан фойдаланишга доир илмий ва амалий тажриба етишмайди. Бундай ҳолат кўплаб ривожланаётган мамлакатлар учун ҳам хосдир. Улар қайта тикланадиган энергетиканинг технологик жиҳатдан ривожланишига қараб олға интилиши, хусусий тармоқни қуёш ва шамол энергиясидан фойдаланиш жараёнига жалб этиш имконини берадиган иқтисодий муҳитни яратиши ва шу тариқа мамлакат энергетика балансида қайта тикланадиган энергия улушини ошириши лозим.

Анъанавий энергетика ёқилғиси ва энергиясининг ҳақиқий қийматини акс эттирадиган нархларни белгилаш, шу йўсинда самарали энергия ускуналаридан, светодиод лампалардан фойдаланиш [17] ҳамда аҳоли онгига энергияни тежашга оид ғояларни сингдириш ҳам ана шундай муҳим чоралар сирасига киради [7,13,17,18]. Ушбу маълумотларни тайёрлашдан кўзланган мақсад раҳбарлар, олимлар ва илмий доиралар ҳамда бутун жамият аҳлини Ўзбекистонда қайта тикланадиган энергетика имкониятлари билан таништиришдан иборат[15-18]. Қайта тикланадиган энергия манбаларидан фақат бой мамлакатларда фойдаланиш мумкин ёки қайта тикланадиган энергетика иқтисодий жиҳатдан фойдасиз, ривожлантириш эса фақат экологик муаммоларни ҳал қилиш мақсадида жадаллаштирилаётганига оид пайдо бўлган нотўғри тасаввурни ўзгартиришга ҳаракат қилинмоғи керак.

Хулоса

Миллий иқтисодиётни қайта тиклаш мақсадида энергетика инфратузилмасини янгилаш жараёни амалга оширилаётган ўтиш даври иқтисодиётини бошдан кечираётган мамлакатларда қайта тикланадиган энергетика технологияларини жорий этиш учун яхши имкониятлар бор. Чунки, эскириб, ўз умрини ўтаб бўлган энергетика инфратузилмасидан фойдаланиш ва эски технологияларни эксплуатация қилиш муқобил энергия манбаларига нисбатан кўп маблағ талаб этиши табиий. Демак, “яшил энергетика”- қайта тикланувчи энергетикага ўтиш иқтисодиётнинг ва даврнинг асосий талабидир.

Адабиётлар:

1.Аллаев К.Р.Электроэнергетика Узбекистана и мира. Т.-2009, ”Молия”, 478 2. Перспективы развития возобновляемой энергетики в Узбекистане, ПРООН, Ташкент, 2007., стр. 17.б

3.Ходжаев М. «Перспективы использования возобновляемых источников энергии в приаралье». Экологический вестник № 4-5, 2011. стр. 8-14.

4.Кучкуров К., Панцырев А. «Солнечная энергетика Узбекистана: статус и перспективы развития». Экологический вестник. № 4-5, 2011, стр. 15-18.

5.Арзикулов Ф.Ф., Мустафакулов А.А. ва б.“Шамол электр генератори кувватини улчовчи дастурий таъминот” талабнома раками DGU 2021. 0103. 18.01.2021.

6.Клычев Ш.И., Мухаммадиев М.М., Авезов Р.Р. и др. «Нетрадиционные-возобнавляемые источники энергии». Ташкент Изд-во «Фан ва технология»- 2010.

7.Салиев Э.А., Сатаров С.А., Мустафакулов А., и др. «Автоматизированный учет-условия повышения эффективности использования энергоресурсов. Проблемы энерго и ресурсосбережения» №1-2, 2011, стр. 158-164.

8.Akhmedovich, M. A., & Fazliddin, A. (2020). Current State Of Wind Power Industry. The American Journal of Engineering and Technology, 2(09), 32-36.

9.Возобновляемые источники энергии, вопросы устойчивости и смягчения последствий изменения климата, Фазлиддин Арзикулов, Universum 2020. 10.URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/ite

YASHIL ENERGETIKAGA O‘TISHNING AFZALLIKLARI

Begmatova Muxlisaxon Mutalibjon qizi, assistent
Oxunov Shoxruxbek Olim o‘g‘li
Farg‘ona politexnika instituti
begmatova.muxlisaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalari haqida ma’lumot berilgan. Asosiy e’tibor qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish afzalliklari va uni O‘zbekistondagi istiqbollariga qaratilgan.

Аннотация: В этой статье содержится информация о возобновляемых источниках энергии. Основное внимание уделяется преимуществам использования возобновляемых источников энергии и их перспективам в Узбекистане.

Annotation: This article gives information about renewable energy. The main focus in on the advantages of using renewable energy sources and their prospects in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: No‘ananaviy energiyaning afzalliklari, O‘zbekistondagi shamol elektr stansiya qurilish joylari, no‘ananaviy energiyaning jahon miqyosida tutgan o‘rni

Ключевые слова: Преимущества нетрадиционной энергетики, площадки строительства ветряных электростанций в Узбекистане, роль нетрадиционной энергетики в мире.

Key words: Advantages of non-conventional energy, wind power plant construction sites in Uzbekistan, the role of non-conventional energy in the word.

Noan'anaviy energiya qayta tiklanadigan va noyob manbalardan olinadigan elektr energiyasi; ya'ni elektr energiyasiga aylanish uchun tabiatda tutish qiyin bo‘lgan manbalar. Shamol energetikasi (shamol), quyosh panellari (quyosh), to‘lqin energiyasi (dengiz to‘lqinlari), geotermik energiya (tuproq), biogaz va biomassa energiyasi ajralib turadi.

Ushbu shakllarning barchasi tabiatda u yoki bu tarzda mavjud va ularning barchasi atrof-muhitni saqlashga mos keladi. Ushbu energiya manbalarini qayta ishlash murakkab bo‘lganligi konversiya jarayoni bilan bog‘liq xarajatlarni yuqori darajada oshiradi.

Shu bilan birga, ifloslantiruvchi gazlarning past emissiyasi va ular asosan qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ekanligi, ularning samaradorligini oshiradigan yangi texnologiyalarni rivojlantirishga turtki beradi; bularning barchasi odatdagi energiyadan intensiv foydalanishni kamaytirish va shu bilan tabiatga ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Здесь мы рассматриваем разные случаи, а именно n = 0, 1, 2 и q = 0, 1. Все примеры вычисляются с N = 100 полиномами для x и y-зависимостей и Nt = 1000 шагов по времени. Обратим внимание, что большие значения этих параметров влияют только на решение ниже точности построения графика, т. е. полученные цифры будут неотличимы от приведенных. Сначала рассмотрим случай n = 0 и q = 1 на рис. 1, слева — начальное условие, справа — решение при t = 0,5. Решение явно неустойчиво в том смысле, что начальные возмущения нарастают. Кроме того, моделирование проводилось для коэффициента $\alpha=1$, конечного времени t=10, дискретизации по времени M=91 и дискретизации по пространству N=82. Пространственные и временные профили магнитного потока показаны на рисунках 1-3.



Рис1. Проникновение магнитного потока при n=0 и q=1 для t=0.5и t=1

Далее рассмотрим случай n = 1 и q = 1 на рис. 3, слева начальное условие, справа решение при t = 0,5. Решение явно неустойчиво в том смысле, что начальные возмущения нарастают.

Решение для начальных данных (6) при n =1 и д = 1 в момент времени t = 1 можно увидеть справа на рис. 2. Начальные возмущения вновь появляются с течением времени. Схематически эволюция процесса проникновения магнитного поля в режиме вязкого течения вихрей со степенной зависимостью b(x,t) от показателя степени n представлена на рис. 2.



Рис2. Проникновение магнитного потока при n=1 и q=1 для t=1и

Далее рассмотрим случай n = 2 и q = 1 на рис. 3, слева — начальное условие, справа — решение при t = 5. Решение явно неустойчиво в том смысле, что начальные возмущения нарастают.

Решение для начальных данных для n =2 и д =1 в момент времени t = 5 можно видеть справа на рис. 3. Начальные возмущения вновь появляются с нарастанием во времени. Схематически эволюция процесса проникновения магнитного поля в режиме вязкого течения вихрей со степенной зависимостью b(x,t) от показателя степени n представлена на рис. 3.



Рис3. Проникновение магнитного потока при n=2 и q=1 для t=5и t=10

Полученное в эксперименте конечное распределение имеет типичную форму, характерную для диффузионных процессов с коэффициентом диффузии, экспоненциально зависящим от концентрации.

ВЫВОД

Таким образом, мы рассмотрели задачу о нелинейной диффузии магнитного потока, инжектируемого в бесконечно тонкий сверхпроводник второго рода. Мы решили ее численно в наиболее интересном случае, когда сопротивление потока пропорционально степенной зависимости локальной магнитной индукции B. Полученные пространственно-временные распределения потока имеют автомодельный вид с довольно яркими скейлинговыми функциями.

ЛИТЕРАТУРА

1. Д.Г., Арансон, Дж.Л.Васкес, Phys. Преподобный Летт. **72** , 823 (1994).
2. В.В. Брыксин, С.Н. Дороговцев. Physica C **215** , 345 (1993).
3. J. Gilchrist J., CJ Van der Beek, Physica C. **27** , 231 (1994) .
4. Дж. Гилкрист. Physica C. 30, **291** (1997).
5. Винокур В.В. и др.,. физ. Преподобный Летт. **67** , 915 (1997).
6. PW Anderson, YB Kim YB Rev. Mod. физ **. 36** , 3456 (1964).

JAG‘LI MAYDALAGICHNING ELEKTRODVIGATELI QUVVATINI HISOBLASH

Ismoilov Dilshod Jo‘raqul o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti assistenti
ismoilovdilshod963@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-sonli “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada qisqartirish, qurilish materiallari

sanoatini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil etishni rag‘batlantirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini kengaytirish, tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilish amalga oshirildi. Qurilish industriyasida yirik va mayda to‘ldiruvchilar, bog‘lovchi materiallar, beton va temir beton materiallarisiz tassavvur etib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda yirik hajmdagi tog‘ jinslarini qurilish ishlari uchun kerakli bo‘lgan fraksiyalarda maydalash ko‘pgina korxonalarda jag‘li maydalagichlar orqali amlga oshiriladi. Uning elektrodvigateli quvvatini hisoblash natijalari asosida jag‘li maydalagichning afzalliklari va kamchiliklari to‘g‘risida xulosa qilinadi. Jag‘li maydalagichda maydalash jarayonida elektrodvigatelga doimiy ravishda katta og‘irlik tushmaydi va u maydalashning kuchaytirilishiga bog‘liqdir. Ishlash jarayonida maydalashning kuchaytirilishi maksimal qiymatga chiqadi, bo‘sh holda esa nolga tengdir. Shuningdek, ishlash jarayonida maydalashning kuchaytirilishi doimiy kattalikda bo‘lmaydi, ishchi kamerada to‘ldirilgan materialning yumshash darajasiga va kirayotgan mahsulotning bir xil bo‘lmagan qattiqlikdagi alohida bo‘laklariga bog‘liq holatda unchalik katta bo‘lmagan holda tebranadi.

Hozirgi kunda jag‘li maydalagichning elektrodvigatelining quvvatini aniqlashning bir necha hisoblash va empirik formulalari ma’lum. Ish A quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A = \sigma^2_{siq.} V / 2E \text{ [J]}, (1)$$

bu yerda: $\sigma_{siq.}$– maydalanadigan materialning siqilishdagi chegaraviy mustahkamligi, [n/m^2]; V – material hajmi, m^3; E – maydalanadigan materialning egilish moduli, n/m^2.

Hajmni aniqlash (maydalash darajasi hisobga olinganda) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$V = \pi L / 6 \cdot (D^2 - d^2)\ m^3, (2)$$

bu yerda: L – maydalash kamerasining uzunligi, m; D – kirayotgan mahsulot bo‘lagining o‘lchami, [m]; d – tayyor mahsulot bo‘lagining o‘lchami, m.

Talab qilingan quvvat quyidagiga teng bo‘ladi:

$$N = An / \eta\ vt, (3)$$

bu yerda: n – eksstentrik valning aylanish soni, ayl/sek; η – uzatmaning foydali ish koeffistienti, $\eta = 0,85$.

(3) formulaga A va V qiymatlarini qo‘ysak, quyidagini olamiz:

$$N = \sigma^2_{siq.}\ \pi L / 12\ E\ \eta \cdot (D^2 - d^2)\ n\ vt, (4)$$

Oddiy harakatlanuvchi jag‘li maydalagichlarning elektrodvigatel-larining quvvatlari (4) formula orqali aniqlanganligi 1-jadvalda keltirilgan. Maydalanadigan materialning mustahkamlik chegarasining siqilish $(\sigma_{siq.})$ qiymati 250 n/m^2 deb qabul qilingan.

1-jadval (4) formula orqali hisoblangan elektrodvigatellarning quvvati

Maydalagichning o‘lchamlari $V \times L$, mm	(4) formula orqali quvvat hisoblanganda, kvt	O‘rnatilgan elektrodvigatel quvvati, kVt	Amaldagi quvvatni oshishi hisobi, $marta$
400×600	103	28	3,68
600×900	300	75	4,0
900×1200	528	100	5,28
1200×1500	945	160	5,9
1500×2100	1660	250	6,65

Yuqori qattiqlikdagi ohaktoshlarni siqilishdagi mustahkamlik chegarasi, bazalt va granitlar 200 dan $400\ Mn/m^2$ gacha tebranadi. Ushbu materiallarning sinishdagi mustahkamligi, cho‘zilishi va siljishi chegaralari $0,0835$-$0,125$ dan siqilishdagi mustahkamlik chegarasini tashkil etadi.

Material bo‘lagining sinishi jarayonida unga siqilish kuchi ta’sir etadi, shu tariqa sinish, siljish va cho‘zilishni keltirib chiqaruvchi kuch paydo bo‘ladi.

Ravshanki, material bo‘lagini sindirish uchun talab etiladigan natijalashtiruvchi kuch, siqilishga bo‘lgan mustahkamlikning maksimal chegarasiga muvofiq keluvchi siqilish kuchlaridan kichik bo‘lishi kerak.

Qayd etilganlarni (quyida keltiriladigan tasdiqlovchi hisoblarni) e’tiborga olib, siqilishga bo‘lgan mustahkamlikning qiymatini chegaradan ($400\ Mn/m^2$) kichigini qabul qilish zarur. Hisoblar shuni ko‘rsatdiki, universal uzatma uchun ushbu qiymatni $250\ Mn/m^2$ dan oshmagan holatda qabul qilish lozim.

(4) formulada maydalanadigan materialning hajmi materialning eng katta bo‘lagining o‘lchamlari hisobga olingan. Ushbu hajmni yuqori ekanligini quyidagi sabablarga ko‘ra tan olish kerak:

1. Maydalagichda qamrab olinadigan material bo‘lagining soni L/D jihat maydalash soni ekanligi hisobga olinmagan. Misol uchun, $1500\times2100\ mm$ maydalagichda materialning eng katta o‘lchami $1300\ mm$ ga teng, ya’ni $L/D=1,63$ va bu ketma-ketlikda qabul qiladigan tirqish faqat bitta $1300\ mm$ o‘lchamli material bo‘lagini qabul qilishi mumkin. Ushbu holat barcha boshqa modelli maydalagichlar uchun ham o‘rin tutadi.

2. Maydalagichda amaliyotda material bo‘laklari aralashmasi har xil o‘lchamlarda tushadi va albatta bo‘laklarning o‘rtacha kattaligi $D_{o'r.}$ qabul qilish lozim. Hisoblar shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha kattalik $D_{o'r.}$ o‘lchami taxminan eng katta $(0,5 - 0,52)\ D_{eng.kat.}$ ga teng.

Qayd etilganlardan tashqari, formulaga mutanosiblik koeffistientini $k_{mut.}$ kiritish zarur (*2-jadvalga qarang*). Chunki maydalanadigan material bo‘lagining o‘lchamlarini kattalashtirishda energiyaning solishtirma og‘irligi (hajmi) sarflanishi keskin kamayadi. Bu shunday tushuntiriladiki, bo‘laklarning o‘lchamlarini kattalashtirishda uning darz (yoriq) ketishi, g‘ovakligi va bir xil bo‘lmasligi hisobiga mustahkamligi kamayadi. Keltirilgan tuzatishlarni jamlab xulosa qilsak, quyidagini olamiz:

$$N = k_{mut.}\,\sigma^2_{siq.}\,\pi\, b\, L\, n / 12\, E\, \eta \cdot (D^2_{o'r.} - d^2_{o'r.})\ \ Vt, \quad (5)$$

bu yerda: $k_{mut.}$ – mutanosiblik koeffistienti, bo‘laklarning o‘lchamlari o‘zgarshi bilan materialning mustahkamligi o‘zgarishi hisobga olinishi; b – tuzatish koeffistienti, kameraning uzunligi bo‘yicha joylashgan bo‘laklar soni maydalangan bo‘lmasligi hisobga olinishi lozim. 400×600 o‘lchamli maydalagich uchun kameraning uzunligi $600\ mm$ ga, uning o‘rtacha kattaligi

$D_{o'r.} = 0,175\ m$, qamrab olinadigan material bo‘lagining soni

$L / D_{o'r.} = 3,43$ ga teng. Aslida shunday qilib, uchta bo‘lak yotqizish mumkin,

$b=3 / 3,43 =0,876.$

(5) formula bo‘yicha elektrodvigatel quvvati hisobi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Maydalagichlarning elektrodvigatellari quvvati

Maydalagichning o‘lchami $V\times L,\ mm$	O‘rnatilgan elektrodvigatel quvvati, kVt	(5) formula orqali quvvat hisoblanganda, kVt	Mutanosiblik koeffistienti, $k_{mut.}$
400×600	28	26,8	1
600×900	75	71,6	0,92
900×1200	100	95,0	0,698
1200×1500	160	152,5	0,625
1500×2100	250	238,2	0,555

1-rasmda maydalagichga tushayotgan material bo‘laklari o‘lchamlariga mutanosiblik koeffistienti $k_{mut.}$ bog‘liqligi tasvirlangan. Material bo‘laklarining birinchi darz (yoriq) ketishi siqilish kuchining oxirgi chegaraviy qiymatiga yoki material tuzilmasi bo‘yicha siljishi muayyan joydagi natijasiga asosan sodir bo‘ladi.



1-rasm. Maydalagichga tushayotgan material bo‘laklari o‘lchamlariga munosiblik koeffitsiyenti bog‘liqligi chizmasi

Ko‘pchilik tog‘ jinslarida bo‘laklar siqilishda qoldiqsiz deformastiyalanadi. Shunday turlarning qiyshiq siqilishi boshida ravon ko‘tariladi va qachonki material kuchi maydalangan holatiga yetganda, tik ishlov beriladi va pastga tushadi. Bunday bo‘laklar mutlaqo egiluvchan va ular uchun ma’lum bo‘lgan ish deformastiyasi iborasini tadbiq mumkin.

$$A = \sigma^2_{buz.} V / 2E\, dj, \quad (6)$$

bu yerda: $\sigma_{buz.}$ – maydalanadigan materialning buzilishdagi kuchlanishi, n/m^2; V – material bo‘lagi hajmi, m^3; E – maydalanadigan materialning egilish moduli, n/m^2.

Maydalash darajasi $i_{o‘r.}=D/d_{o‘r.}$ dan tashqari, bir martali hajm darajali maydalash $a = D^3_{o‘r.}/d^3_{o‘r.}$ tushunchasi kiradi.

Material bo‘laklari bir necha holatda n maydalanadi, o‘rtacha o‘lchamli $D_{o‘r.}$ olish uchun zarra parchali o‘lchamlar $d_{o‘r.}$ yonida bir martali hajm darajali maydalash a ni belgilasak, unda:

$$D3\ o‘r./d3o‘r. = i3 = an\ , \quad (7)$$

bu yerdan $3lg\ i = n\ lg\ a$, (8)

yoki $n = 3lg\ i / lg\ a$. (9)

Madomiki har bir maydalash holatida nazariy jihatdan o‘sha bir xil ish bajarilsada, kirayotgan mahsulot bo‘lagi D o‘lchamlarini zarra parchali o‘lchamlar d gacha maydalash uchun n holat talab etiladi. Unda quyidagi aniq umumiy ishni tashkil qiladi.

$$A = \sigma^2_{buz.} V / 2E \cdot 3lg\ i / lg\ a\, dj, \quad (10)$$

bu yerda: V – maydalanadigan bo‘lak hajmi, m^3.

Agarda mashinaning ishlab chiqarish samaradorligi V_m (m^3/sek) ga teng bo‘lsa, unda maydalash uchun talab etiladigan quvvat quyidagicha tashkil etadi.

$$N = 3\sigma^2_{buz.} V_m / 2\ E\ \eta \cdot lg\ i / lg\ a\ vt, \quad (11)$$

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N.ye.Drozdov, M.I.Juravlev. “Mexanicheskoe oborudovanie zavodov sbornogo jelezobetona”. M., 1996g.

2. M.K.Morozov. “Mexanicheskoe oborudovanie zavodov sbornogo jelezobetona”. Kiev, 1998g.

3. M.I.Juravlev, A.Folomeev. “Mexanicheskoe oborudovanie predpriyatie materialov i izdeliy na baze ix”. Moskva, 1999g.

4. A.F.Mirzaev. “Qurilish industriyasining mexanik uskuna va mashinalari”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2000 y.

5.Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. 56 b.

KONUSLI MAYDALAGICHNING ELEKTRODVIGATELI QUVVATINI HISOBLASH

Ismoilov Dilshod Jo‘raqul o‘g‘li
Jizzax Politexnika instituti assistenti
Baxromov J, Husanov Sh, Nazarov R, O‘mirboyev A, Ibragimov J
811-20 D va PQMT guruhi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada yirik o‘lchamdagi tog‘ jinslarini maydalash va beton uchun ishlatiladigan yirik va mayda to‘ldiruvchilarning kerakli bo‘lgan fraksiyalarini xosil qilishda konusli maydalagichning elektrodvigateli quvvatini hisoblash natijalari asosida konusli maydalagichning afzalliklari va kamchiliklari to‘g‘risida xulosa qilinadi.

Аннотация: В этой статье крупномасштабное дробление горных пород и бетона Получение необходимых фракций крупных и мелких наполнителей, используемых для по результатам расчета мощности электродвигателя конусной дробилки сделаны выводы о преимуществах и недостатках конусной шлифовальной машины.

Annotation: In this article, large-scale rock crushing and concrete Obtain the necessary fractions of large and small fillers used for based on the results of calculating the power of the electric motor of the cone crusher the advantages and disadvantages of the cone grinder are concluded.

Kalit so‘zlari. *Konusli maydalagich, elektrodvigatel, maydalanadigan material, tog‘ jinslari.*

Ключевые слова. *Конусная дробилка, электродвигатель, дробленый материал,скалы, мусташка*

Keywords. *Cone crusher, electric motor, crushed material, rocks,*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to‘g‘risida” 2020-yil 5-fevraldagi PQ-4586-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:1. Quyidagilar: O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga; O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilsin. 3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativhuquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin. 4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari A.J. Ramatov va O‘zbekiston Respublikasi qurilish vaziri B.I. Zakirov zimmasiga yuklansin.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Konusli maydalagichning elektrodvigateli quvvati quyidagi formulalarning bittasi bo‘yicha hisoblanishi mumkin.

$$N = k_{mut.}\,\sigma^2_{siq.}\,\pi\, b\, L\, n / 12\, E\, \eta \cdot (D^2_{o'r.} - d^2_{o'r.})\;\; vt, \quad (1)$$

bu yerda: $k_{mut.}$ – mutanosiblik koeffistienti, bo‘laklarning o‘lchamlari o‘zgarshi bilan materialning mustahkamligi o‘zgarishi hisobga olinishi; maydalagichga tushayotgan material bo‘laklari o‘lchamlariga mutanosiblik koeffistienti $k_{mut.}$ bog‘liqligi maydalagich o‘lchami *400×600 mm* bo‘lganda *1* ga, *600×900 mm* bo‘lganda *0,92* ga, *900×1200 mm* bo‘lganda *0,698 ga*, *1200×1500 mm* bo‘lganda *0,625* ga, *1500×2100 mm* bo‘lganda *0,555* ga teng; $\sigma_{siq.}$– maydalanadigan materialning siqilishdagi chegaraviy mustahkamligi, n/m^2;

E – maydalanadigan materialning egilish moduli, n/m^2;

L – maydalash kamerasining uzunligi, m;

n – kamera uzunligi bo‘yicha joylashgan bo‘laklar soni;

η – uzatmaning foydali ish koeffistienti, $\eta = 0,85$ ga teng;

$D_{o'r.}$ – bo‘laklarning o‘rtacha kattaligi, m;

$d_{o'r.}$ – o‘rtacha o‘lchamli arra parchali o‘lchamlar tayyor mahsulot bo‘lagining o‘lchami, m.

b – tuzatish koeffistienti, kameraning uzunligi bo‘yicha joylashgan bo‘laklar soni maydalangan bo‘lmasligi hisobga olinishi lozim. *400×600* o‘lchamli maydalagich uchun kameraning uzunligi *600 mm* ga, uning o‘rtacha kattaligi

$D_{o'r.}=0,175\ m$, qamrab olinadigan material bo'lagining soni

$L / D_{o'r.} = 3,43$ ga teng. Aslida shunday qilib, uchta bo'lak yotqizish mumkin,

$$b=3 / 3,43 =0,876.$$

$$N = 3\, A_t\, \sigma^2_{buz.}\, V_m / 2\, E\, \eta \cdot lg\, i / lg\, a \quad vt, \ (2)$$

bu yerda: A_t – tuzatish koeffistienti; maydalagich o'lchami $400\times600\ mm$ bo'lganda $1,25$ ga, $600\times900\ mm$ bo'lganda $0,988$ ga, $900\times1200\ mm$ bo'lganda $0,903$ ga, $1200\times1500\ mm$ bo'lganda $0,862$ ga, $1500\times2100\ mm$ bo'lganda $0,707$ ga teng;

$\sigma_{buz.}$ – maydalanadigan materialning buzilishdagi kuchlanishi, n/m^2;

V_m – mashinaning ishlab chiqarish samaradorligi, m^3/sek;

E – maydalanadigan materialning egilish moduli, n/m^2;

η – uzatmaning foydali ish koeffistienti, $\eta = 0,85$ ga teng;

i – maydalash darajasi;

a – bir martali hajm darajali maydalash.

$$N = 735\cdot10^3\, s_n\, n\, L\, N / \eta \quad vt, \ (3)$$

bu yerda: s_n – jag'ning gorizontal yurishidagi yuk tushish tirqishi, m;

n – eksstentrik valning aylanish soni, sek;

L – kameraning uzunligi, m;

N – kameraning balandligi, m;

η – uzatmaning foydali ish koeffistienti, $\eta = 0,85$ ga teng.

Jadvalda yirik maydalaydigan konusli maydalagich (YMKM) uchun elektrodvigatel quvvati hisoblab chiqilgan natijalari keltirilgan.

1-Jadval Yirik maydalaydigan konusli maydalagich (YMKM) uchun elektrodvigatel quvvati

Maydalagich o'lchami	(1) formula bo'yicha hisoblab chiqilgan quvvat, *kvt*	Elektrodvigatelga o'rnatilgan quvvat, *kvt*	Mutanosiblik koeffistienti, $k_{mut.}$
500/75		125,0	0,96
900/160		250,0	0,698
1200/150		–	0,625
1500/180		400,0	0,555

Avval ko'rib chiqilgan mutanosiblik koeffistienti $k_{mut.}$ kattaligining o'zgarishi o'xshashdir. (1), (2) va (3) formulalar faqat yirik maydalaydigan konusli maydalagich uchun yaroqlidir. O'rtacha va mayda maydalaydigan qisqa konusli maydalagich uchun ular pasaytirilgan natijalarni beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.ye.Drozdov, M.I.Juravlev. "Mexanicheskoe oborudovanie zavodov sbornogo jelezobetona". M., 1996g.

2. M.K.Morozov. "Mexanicheskoe oborudovanie zavodov sbornogo jelezobetona". Kiev, 1998g.

3. M.I.Juravlev, A.Folomeev. "Mexanicheskoe oborudovanie predpriyatie materialov i izdeliy na baze ix". Moskva, 1999g.

4. A.F.Mirzaev. "Qurilish industriyasining mexanik uskuna va mashinalari". O'quv qo'llanma. Toshkent, 2000 y.

5. Ismoilov D. Producing of the optimal ingredients of multi-component cements and research of the physical-mechanical properties. European International Journal of Multidisciplinary esearch and Management Studies. ISSN: 2750-8587.

6.Ismoilov Dilshod Jo'raqul o'g'li, "Jag'li maydalagichning elektrodvigateli quvvatini hisoblash" Science and innovation, 2022.

BETON QORISHTIRGICHNING ELEKTRODIVIGATELI QUVVATINI HISOBLASH

Ismoilov Dilshod Jo‘raqul o‘g‘li
Jizzax Politexnika instituti assistenti
Mo‘minov R, Nurullayev D, Normurodov R, Madiyev S, O‘ktamov O
811-20 D va PQMT guruhi talabalari

Annotatsiya: Beton qorishtirgichning elektrodvigateli quvvatini hisoblashdan iboratdir. Hisoblash natijalari asosida beton qorishtirgichning afzalliklari va kamchiliklari to‘g‘risida xulosa qilish.

Аннотация: Заключается в расчете мощности электродвигателя бетономешалки. Вывод о достоинствах и недостатках бетономешалки по результатам расчета.

Abstract: It consists in calculating the power of the electric motor of the concrete mixer. Conclusion about the advantages and disadvantages of the concrete mixer according to the results of the calculation.

Kalit so‘zlar: elektrodvigatel, stilindrsimon, barabanning konussimon, beton massasi,

Ключевые слова: электродвигатель, цилиндрический, конический барабан, бетонная масса,

Keywords: electric motor, cylindrical, conical drum, concrete mass,

Beton qorishtirgichning elektrodvigateli quvvatini hisoblash asoslari: Beton qorishtirgichning elektrodvigateli quvvatini hisoblash uchun birinchi navbatda qorishtirgich barabanida beton qorishmasi harakatsiz holatini ko‘rib chiqamiz, bunda barabanning konussimon va stilindrsimon qismlarida qorishma hajmlarini aniqlaymiz va ushbu qismlarning har biri bo‘yicha og‘irlik markazlarini topamiz.

Hisoblashda asos sifatida *1200 l* yoki *1,2* m^3 ishchi sig‘imli beton qorishtirgichni qabul qilamiz. Qabul qilinadigan beton massasining sathini *0,4 m* masofada baraban markazidan kechikuvchi tekislik tashkil etadi. Ushbu masofani hisoblashdan qabul qilamiz, bunda massa chiqish tirqishidan pastki chetida *0,08 m* joylashadi. Chiqadigan tirqish diametri *0,64 m* ga teng. Baraban o‘qi gorizontal (yotiq).

Barabanning stilindrsimon qismida joylashgan massa hajmini aniqlaymiz. 1– rasmga muvofiq, maydonning aylana segmenti $\beta=140^0$ *burchakda aniqlanadi.*



1–rasm. *Beton qorishtirgichning elektrodvigateli quvvatini hisoblash*

Maydon quyidagiga teng.

$$S = 0{,}9R = 0{,}81\ m^3\ , (1)$$

bu yerda: R *– barabanning ichki radiusi,*

$$R = 0{,}9\ m.$$

Silindrsimon qismida qorishma hajmi (tayyor holda hisoblaganda) quyidagiga teng:

$$V_{st} = S{\cdot}l{\cdot}\upsilon = 0{,}81 \cdot 0{,}4 \cdot 0{,}7 = 0{,}227\ m^3\ , (2)$$

bu yerda: *l* – barabanning stilindrsimon qismi uzunligi, $l = 0{,}4\ m$; υ– chiqish koeffistienti, $\upsilon = 0{,}7$.

Barabanning konussimon qismida qorishma hajmi quyidagiga teng:

$$V_{k.\,umum.} = V_{ish.sig‘.} \cdot \upsilon - V_{st} = 1{,}2 \cdot 0{,}7 - 0{,}227 = 0{,}613\ m^3. (3)$$

Har ikki konussimon qismlarda hajmlar o‘zining o‘rtasiga teng deb qabul qilamiz, shunda tayyor qorishma bo‘yicha bitta konussimon qismida uning hajmi $0,3065\ m^3$ ga teng bo‘lishini olamiz.

Har bir qismlaridan qorishma og‘irlik markazlarini aniqlaymiz. Barabanning stilindrsimon qismida qorishma uchun markaz quyidagiga teng bo‘ladi:

$$R'_{og'.mar.} = 4/3 \cdot R \sin^3 \beta/2 \,/\, arc\cos \beta - \sin \beta == 4/3 \cdot 0,9 \cdot 0,83 / 2,44 - 0,643 = 0,554\ m\ . \quad (4)$$

Barabanning konussimon qismida joylashgan qorishmaning og‘irlik markazi har bir tomonidan uchdan bir masofada median (o‘rtacha) kesishishda yotgan bo‘ladi. Ko‘rib chiqilayotgan holatda tomonlarining *a* uzunligi *0,5 m* ga teng bo‘lganda quyidagini olamiz:

$$R''_{og'.mar.} = 0,33 \cdot 0,5 + 0,4 = 0,565\ m.$$

Barabanning aylanishlar soni quyidagiga teng bo‘ladi:

$$n = 0,3 / \sqrt{R} = 0,285\ ayl/sek.$$

Pasport bo‘yicha $n = 0,283\ ayl/sek$.

Barabanni aylanishida kuraklar harakati ostida va markazdan qochma kuchlar inerstiyasida qorishma bir muncha balandlikka ko‘tariladi hamda uzilish *A* nuqtasida ajraladi va pastga tushadi.

REFERENCES

1. N.ye.Drozdov, M.I.Juravlev. “Mexanicheskoe oborudovanie zavodov sbornogo jelezobetona”. M., 1996g.

2. B.A. Tursunov, X.A. Akramov, D. Ismoilov “Producing of the optimal ingredients of multi- component cements and research of the physical-mechanical properties”. Novateur publications Journalnx-AmultidisciplinaryPeerreviewedjournal issn no: 2581 - 4230 volume 8, issue 7, july-2022.

3. M.I. Juravlev, A. Folomeev. “Mexanicheskoe oborudovanie predpriyatie materialov i izdeliy na baze ix”. Moskva, 1999g.

5. Ismoilov D. Producing of the optimal ingredients of multi-component cements and research of the physical-mechanical properties. European International Journal of Multidisciplinary esearch and Management Studies. ISSN: 2750-8587.

6.Ismoilov Dilshod Jo‘raqul o‘g‘li, “Jag‘li maydalagichning elektrodvigateli quvvatini hisoblash” Science and innovation, 2022.

ELEKTR TA’MINOTI ISHONCHLIGINI OSHIRISHDA QO‘LLANILADIGAN ISTIQBOLLI ENERGIYA ZAXIRALASH QURILMALARI TAHLILI

Jalilov O‘., A.Jizzax politexnika instituti “Energetika” kafedrasi assistenti
(urinboyjalilov1992@gmail.com)
Saylieva F. A., JizPI qoshidagi akademik litsey o’qituvchisi
Xoshimova I. S., JizPI qoshidagi akademik litsey o’qituvchisi

Annotatsiya – maqolada energetic tizimda energiya zaxiralash qurilmalaridan foydalanish dolzarbligi, ularning turlari, afzallik va kamchiliklari ko‘rsatilgan. Energiya zaxiralash qurilmalarining texnik va iqtisodiy xususiyatlari tahlil qilingan. Olib borilgan tahlillar asosida respublikamiz iqlimiga mos, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga to‘g‘ri keladigan energiya zaxiralash qurilmalari tanlab olingan. Bundan tashqari hozirgi kunda republikamizdagi elektr energiyasi narxidan, energiya zaxiralash texnologiyalaridan olingan elektr energiyasi narxiga yaqin yoki past bo‘lgan qurilmalar tavsiya qilingan.

Аннотация- В статье показана актуальность использования устройств резервного копирования энергии в энергосистеме, их виды, преимущества и недостатки. Проанализированы технико-экономические характеристики энергосберегающих устройств. На основе проведенного анализа были отобраны энергосберегающие установки, соответствующие климату республики, социально-экономическому положению населения. Кроме того, в настоящее время рекомендованы устройства, стоимость которых близка или ниже стоимости электроэнергии, полученной из энергосберегающих технологий.

Annotation-The article shows the relevance of using energy backup devices in the power system, their types, advantages and disadvantages. The technical and economic characteristics of

energy-saving devices are analyzed. Based on the analysis, energy-saving installations were selected that correspond to the climate of the republic, the socio-economic situation of the population. In addition, devices whose cost is close to or lower than the cost of electricity obtained from energy-saving technologies are currently recommended.

Energiyani zaxiralash har qanday tizimning ajralmas qismi hisoblanib tabiatda juda keng tarqalgan. Har qanday jismning mavjud bo‘lishi aslida uning tarkibidagi energiyaning bir tizim sifatida birlashganini bildiradi. Masalan insonning tirikligi yoki harakatlanishi uning tanasidagi molekulalarning kimyoviy energiyani saqlay olishi anglatadi, agar ushbu kimyoviy energiya molekulalarda saqlanmasa tana halokatga uchraydi va tizim ishdan chiqadi. Insonning kuchsizlanib qolishi ham aslida molekulalardagi kimyoviy energiyaning kamayishi sababli yuzaga keladi. Boshqa materiyalarda ham xuddi shunday jarayon kuzatiladi.

Energiya zaxiralash qurilmalaridan foydalanish ayniqsa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishda keng qo‘llaniladi. Chunki bunday energiya manbalaridan foydalanishda asosiy kamchilik, birlamchi energiyaning tabiat tomonidan hosil qilinishidir. Bu yerda birlamchi energiyani hosil qilishda yoki mavjud energiyani boshqarish faqatgina tabiat tomonidan amalga oshiriladi. Yoqilg‘i energetik resurslardan elektr energiyasi olishni esa inson omili orqali boshqarsa bo‘ladi. Shu sababli qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishda zaxiralash qurilmalaridan foydalanmaslik elektr energiyasi ta’minoti ishonchligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarida zaxiralash qurilmalaridan foydlanish, elektr energiyasiga talab bo‘lmagan vaqt oraliqlaridagi energiya oqimlarini zaxiralash va ushbu energiyadan energiya iste’moli yuqori bo‘lgan vaqt oraliqlarida foydalanish imkoniyatini yaratadi. So‘ngi vaqtlarda zaxiralash qurilmalaridan foydalanishning dolzarbligi ushbu qurilmalarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirdi va ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borish uchun yetarlicha asos bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish salmog‘ini oshirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ekologik toza energiya esa faqatgina atrof muhitga salbiy ta’sir qilmaydigan energiya resurslardan olinishi talab qilinadi. Shu sababli butun dunyo bo‘ylab ayniqsa rivojlangan davlatlarda energiya iste’molida qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini oshirish bo‘yicha ko‘plab dasturlar ishlab chiqilganO‘zbekiston respublikasida ham qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab dasturlar ishlab chiqilgan va shu dasturlar bo‘yicha ko‘pgina olimlar qayta tiklanadigan energiya manbalari salohiyatini aniqlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini markazlashgan elektr tarmog‘i bilan ishlatishda energiya zaxiralash qurilmalaridan foydalanish ko‘pgina kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin, ya’ni qayta tiklanadigan energiya manbalaridan chiqadigan quvvatni silliqlash, tarmoqda elektr energiyasi bo‘lmaganda elektr energiyasi bilan ta'minlash, shuningdek, past yuklanish davrida zaxiralash qurilmalarini tarmoq quvvatini zaxiralash orqali quvvat balansini saqlab turish va elektr energiyasiga talab yuqori bo‘lganda qo‘shimcha quvvat bilan ta'minlash [1]. Ammo, elektr ta’minotida energiya zaxiralash qurilmalaridan haddan tashqari ko‘p foydalanish katta xarajatlarga olib kelishi va bu energiya zaxiralash tizimlaridan elektr energiyasi yetkazib berish uchun tijorat maqsadlarida foydalanishda xalaqit berishi mumkin.

Elektr energiyasi asosiy xususiyati shundan iboratki ushbu energiya turi ishlab chiqarilishi bilan iste’mol qilinishi kerak[2].

$$E(t) = \int_t p(r)dr = \int_t v(r)i(r)dr; \qquad (1)$$

Elektr toki bu – vaqt birligi ichida zaryadlangan zarrachalarning oqimidir:

$$i(t) = \frac{d}{dt}q_e(t); \qquad (2)$$

Demak elektr energiyasi faqatgina elektr energiyasiga talab bo‘lgan holatdagina ishlab chiqarilishi kerak. Shu sababli ushbu energiya manbasidan foydalanishda ko‘pgina noqulayliklar kuzatiladi. Masalan hosil bo‘lgan vaqtda iste’molchi bo‘lmasligi yoki aksincha iste’molchi bo‘lmagan vaqtda energiya bo‘lmasli mumkin. Bundan tashqari elektr energiyasini boshqa tur energiya sifatida zaxiralangan energiyani, ishlatish uchun qulay bo‘lgan energiyaga generatsiyalanishi deb qarash mumkin. Masalan, IES larda ko‘mir, gaz va neftning zaxiralagan

kimyoviy energiyasini elektr energiyasiga aylantirish, Quyosh va atom elektr stansiyalarida atom energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarish, gidroelektrostansiyalarda suvning potensial va kinetik energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarish va hokazo. Shu sababli elektr energiyasini zaxiralashni ham faqatgina energiyani boshqa turiga aylantirish orqali amalga oshirish mumkin. Misol uchun elektr energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirish va issiqlik energiyasini zaxiralash, bundan tashqari elektr energiyasini kimyoviy energiya ko‘rinishida, potensial va kinetik energiya va hokazo energiyalar ko‘rinishida zaxiralash mumkin [3].

Metodologiya. Hozirda kunda energiya zaxiralash qurilmalariga bo‘lgan talab ayniqsa elektr energiyasi narxi qimmat bo‘lgan davlatlarda ko‘p kuzatilyapti.

Yer yuzidagi metall va minerallar manbalarning cheklanganligi, shuningdek ularni iste'mol qilishning global o‘sib borishi ba’zi kimyoviy energiya zahiralash texnologiyalarining foydalanish istiqbollariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Metall zaxiralarining aksariyati, ayniqsa almashtirish imkoniyati yuqori bo‘lgan zaxiralar, yaqin o‘n yilliklarda kamayib ketishi dargumon.

Masalan, Mg / Sb, Lead-acid, ZnBr va Zn-Air batareyalari birinchi navbatda xomashyo material tanqisliklarga duch kelishi mumkin, Ba’zi ma'lumotiga ko‘ra, surma etkazib berish uchun zaxiralar taxminan 10 yil, qo‘rg‘oshin va rux uchun esa 20 yilni tashkil etadi.[Onde Burhem]

Mexanik energiya zaxiralash tizimlarida esa xomashyo materiallar o‘rnini bosadigan materiallar turlari ko‘p. Shu sababli kabi bunday xomashyo materiallar moslashuvchanligi yuqori bo‘lgan texnologiyalardan foydalanishni o‘rganish istiqbolli hisoblanadi.

Dunyoda mexanik E.Z.lardan foydalanish salmog‘ining oshishiga olib keluvchi bir nechta ijobiy faktorlar mavjud. Maqolada O‘zbekiston hududida mexanik energiya zaxiralash qurilmalaridan keng foydalanish uchun qator faktorlar o‘rganilgan.

Birinchidan. O‘zbekiston elektr energiyasi narxi past bo‘lgan davlatlar qatoriga kiradi, shu sababli bu yerdan nisbatan arzon E.Z. qurilmalaridan foydalanish zarur.

Ikkinchidan. Respublika hududining ko‘pgina qismida namlik past bo‘lib, yozgda juda issiq bo‘lishi va qishda keskin sovushi kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda tashqi muhitga bog‘liqligi kam bo‘lgan mexanik energiya zaxiralash qurilmalaridan foydalanish ko‘plab qulayliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki hozirda sanoatda foydalanib kelinayotgan akkumulyator batareyalari unchalik katta bo‘lmagan ishlash temperaturasiga ega.

Uchinchidan. Mexanik E.Z. qurilmalari nisbatan oddiy tuzilgan bo‘lib, ushbu qurilmalarni ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalar talab qilinmaydi. Qurilmalar tarkibiy qismlari uchun ishlatiladigan materiallar ham sanoatda ishlatiladigan odatiy materiallardir. Shu sababli respublika hududida ushbu qurilmalarni ishlab chiqarishni tezda mahalliylashtirish mumkin.

To‘rtinchidan. Mexanik E.Z. qurilmalari boshqa E.Z. qurilmalariga nisbatan ekologik toza hisoblanadi. Chunki akkumulyator batareyalarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan materiallarni qazib olishda va qayta ishlashda ko‘plab zarali moddalar atmosferga ajraladi.



(ELECTRICITY STORAGE AND RENEWABLES: COSTS AND MARKETS TO 2030, pp-21)



Hozirgi kunda energiyani saqlash texnologiyalari asosan to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganiladi.



3-rasm. Energiya zaxiralash texnologiyalarining turlanishi.

Mexanik energiya zaxiralagichlar

Mexanik energiya zaxiralagichlar eng sodda tuzilgan energiya zaxiralash tizimlaridan biridir, ulardan uzoq vaqtlar davomida foydalanib kelinmoqda. Ushbu qurilmalarning eng oldingi namunalaridan biri kulolchilik dastgohi hisoblanadi. Kulolchilik dastgohida inson tomonidan berilgan mexanik energiya g‘ildirak inertsiya kuchi evaziga o‘zining tekis aylanma harakatini saqlab qoladi. Ya’ni mexanik energiya kinetic energiya ko‘rinishida saqlab turiladi. O‘rta osiyoda ham kulolchilik yaxshi rivojlangan bo‘lib, kulolchilik dastgohidan o‘rta asrlardan buyon foydalanib kelinmoqda *[O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil]*. Dunyoda ushbu qurilmalar potensial va kinetic energiya zaxiralash qurilmalari sifatida o‘rganiladi. Bunday tizimlarda zaxiralangan mexanik energiyani, mexanik energiyaga yoki elektr energiyaga generatsiyalash mumkin. –rasmda mexanik energiya zaxiralash qurilmalarining turlari ko‘rsatilgan.



4-rasm. Mexanik energiya zaxiralash qurilmalarining turlari

Potensial energiyani zaxiralash. Potentsial energiya jism umumiy energiyasining bir qismi, agar jism tinch turgan bo‘lsa potensial energiyasi uning umumiy energiyasiga teng bo‘ladi. Potensial energiya ma’lum bir m massali h balandlikda turgan jismni ko‘chirishda ajraladigan energiyaga teng.(1)

$$E_{mech} = E_{pot} + E_{kin} = mgh + \frac{mv^2}{2}$$

Hozirda ko‘pgina tizimlarda mexanik va elektr energiyasi olish maqsadida h balandlikka ko‘tarilgan jism energiyasidan foydalanilmoqda. Ko‘tarilgan yuk ko‘rinishidagi mexanik energiya zaxiralash qurilmalari nisbatan kamroq solishtirma energiyaga ega ammo energiya saqlash muddati uzoqligi, yuqori foydali ish koeffitsienti, energiya zaxiralash va berish sikllarining ko‘pligi bilan boshqa zaxiralash qurilmalari bilan raqobatlasha oladi*[gulia_n_v_nakopiteli_energii*]. Bundan tashqari potensial energiya manbalariga siqilgan yoki cho‘zilgan prujina va rezinalar, yuqori bosim ostidagi siqilgan gazlar hamda gidro-elektr stansiyalarda qo‘llaniladigan gidroakkumulyatsion qurilmalari misol bo‘la oladi.

Siqilgan yoki cho‘zilgan prujinali mexanik zaxiralagichlar

Elastik materiallardan foydalanib energiya zaxiralash ham eng qadimgi energiya zaxiralash usullaridan biridir. Qadimgi urushlarda kamon va katapultlardagi elastik xususiyatli iplar ishlatilgan. Qurilmalardagi o‘qlarning tezligi va kuchi elastik materialning mexanik xususiyatlariga bog‘liq. *[A. H. Alami,Mechanical Energy Storage for Renewable and Sustainable Energy Resources, Advances in Science, Technology & Innovation, Springer Nature Switzerland AG 2020. https://doi.org/10.1007/978-3-030-33788-9_3. https://doi.org/10.1007/978-3-030-33788-9]*

Elastik materiallar odatda turli xil texnik va maishiy qurilmalarda ishga tushirish elementini saqlab turish uchun qo‘llaniladi. Agar mexanik tizimda tashqi muhitdan hech qanday kuchlar ta’sir etmasa unda bajariladigan ishga ketadigan energiya, quyidagiga teng. *(Robert A. Huggins. Energy Storage Fundamentals, Materials and Applications Second Edition.)*

$$W = \frac{1}{2}\sigma \cdot \varepsilon = \frac{1}{2}Y \cdot \varepsilon^2;$$

σ- mexanik kuchlanish,ε – nisbiy deformatsiya, Y - Yung moduli.

Prujinalarda to‘plangan energiya, absolyut uzayish kvadrati va materialning bikrligiga to‘g‘ri proporsional. Elastik materiallar singari, prujinada hosil bo‘ladigan kuch quyidagicha aniqlanadi:

$$E = \frac{1}{2}k\Delta x^2 \text{ (J)}$$

Elastik materiallardan foydalanib zaxiralangan energiya potentsial yoki kinetik energiyaga aylantiriladi. Masalan, maxovikda zaxiralangan po‘lat listning potensial energiya mexanik soatlarni ma’lum vaqt ishlatishga yetadi. Ishlash vaqtining ko‘pligi po‘lat listning uzunligiga va elastiklik xususiyatiga bog‘liq. Materialning elastiklik xususiyati yuqori bo‘lishi mexanizlarda momentning kuchayishiga olib keladi. Bunday vaziyatlarda momentni silliqlash yoki to‘xtatish uchun boshqaruv qurilmalaridan foydalaniladi.

G‘altakli Prujinadagi momentni baholash uchun quyidagi tenglamadan foydalanamiz.

$$T = \frac{\pi E b t^3}{6L}\theta$$

Bu yerda E – elastiklik moduli (MPa), L – o‘ramning uzunligi (мм), b – o‘ramning kengligi (mm), t – o‘ramning qalinligi (mm), θ-og‘ish burchagi

Gidroakkumulyatsion energiya zaxiralash qurilmalari.

Gidroakkumulyatsion energiya zaxiralash qurilmalari hozirgi kunda zaxiralashdan olinadigan energiyaga narxi bo‘yicha eng arzon zaxiralash qurilmasi bo‘lganligi va boshqa turli faktorlar sababli, eng samarali energiya zaxiralash tizimi sifatida tan olingan. Shu sababli ham dunyoda qurilgan energiya zaxiralash qurilmalari quvvatining 96 foizi gidroakkumulyatsion energiya zaxiralash qurilmalari hisobiga to‘g‘ri keladi[4]. Gidroakkumlyatsion elektrostansiyalar ya’ni gidro-zaxiralash qurilmalari ikkita alohida suvni saqlash uchun hovuzlardan tashkil topgan. Gidro inshoatdagi birinchi hovuz gidroelektrostansiyaning tepa qismida joylashgan va ikkinchi hovuz

gidroinshoatning pastki qismida joylashgan. Pastki hovuz elektr energiyasi yuklamasi kam bo‘lgan hollarda, nasos yordamida tepadagi hovuzga olinadigan suvni jamlash uchun kerak bo‘ladi[4]. Gidroakkumulyatsion elektr stantsiyalari turli xil sharoitlarda ishlatish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, gidroinshoatlar katta iste'molchilar yonida va past quvvatli issiqlik elektr stantsiyalari yonida joylashtirish tavsiya etiladi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ling Ai Wong, Vigna K. Ramachandaramurthy, Phil Taylor, J.B. Ekanayake, Sara L. Walker, Sanjeevikumar Padmanaban. “Review on the optimal placement, sizing and control of an energy storage system in the distribution network”. *Journal of Energy Storage,* vol. 21, pp. 489–504, 2019, doi:10.1016/j.est.2018.12.015.
2. Federico Milano, Alvaro Ortega Manjavacas. “*Converter-Interfaced energy storage systems context, modelling and dynamic analysis*”. United Kingdom, Cambridge University Press, pp. 4-74, 2019.
3. Przemyslaw Komarnicki, Pio Lombardi, Zbigniew Styczynski. Electric Energy Storage Systems Flexibility Options for Smart Grids. Berlin, Germany, Springer Nature, pp. 129-153, 2019.

О МЕТОДИКЕ ВЫЯВЛЕНИЯ ОБОБЩЕННЫХ ПРИЕМОВ УЛУЧШЕНИЯ ОСНОВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК МАГНИТОУПРУГИХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ МЕХАНИЧЕСКИХ ВЕЛИЧИН

Juraeva Kamila, Tashkent State Transport University
e-mail: lade00@bk.ru

Введение

Эффект изменения магнитных свойств ферромагнитных материалов при приложении внешней нагрузки в виде упругих напряжений и деформаций положен в основу работы магнитоупругих преобразователей (МУП). Практически все виды МУП из-за изменения магнитных свойств магнитного материала на выходной обмотке, расположенной на магнитопроводе, индуцирует электрический сигнал, пропорциональный приложенной внешней нагрузке. Благодаря высокого уровня выходного сигнала; простоте конструкции и высокой надежности МУП нашли широкие применение в системе автоматизированного контроля и управления. [1, 2]. Обычно конструкция МУП состоит из следующих элементов: магнитопровод, первичной обмотки и вторичной обмотки.

Существующие преобразователи построены на параметрическом и генератором принципе действия. Если параметрические преобразователи основаны на принципе работы изменении магнитной проницаемости, то генераторные (дроссельные и трансформаторные) преобразователи работают на магнитоупругом эффекте, количественно определяемом отношением приращения проницаемости к действующему механическому напряжению. Использованием обмотки подмагничивания можно добиться большей линейности характеристики.

В трансформаторных преобразователях отсутствует электрическая связь между цепями питания и измерения; напряжение на выходе определяется законом электромагнитной индукции (который зависит от числа витков выходной обмотках).

Постановка задачи. Выявление и реализация обобщенных приёмов с целью разработки магнитоупругих преобразователей с улучшенными характеристиками.

Решение задач. На практике для улучшения основных характеристик преобразователей систем управления используют приёмы, выявленные в результате анализа существующих технических решений и их реализации. Процесс выявления является творческим, который осуществляется путём анализа и синтеза известных физических эффектов, положенных в основу принципа действия преобразователей [1].

Известны различные методы выявления приёмов, улучшения той или иной характеристики, однако, методика выявления обобщенных приёмов улучшения основных характеристик преобразователей, предложенная в [3] является более простой и эффективной

при использовании. Согласно этой методики выбираются изобретения, определенного класса преобразователей, производится сравнительный теоретический анализ их характеристик.

Обобщенные приёмы могут быть использованы для улучшения характеристик в различных конструкциях преобразователей, поэтому их выявление необходимо и целесообразно.

В данной статье для выявления обобщенных приёмов были рассмотрены следующие классы описаний к изобретениям и патентам по темам: «Измерение механических напряжений» МКИ G01B7; «Способы и устройства для измерения сил путем определения изменений магнитных свойств материала в зависимости от нагрузки» МКИ G01L1/12, ведущих зарубежных стран.

Этапы выявления обобщенных приёмов достаточно подробно изложены в [3]. В качестве примера выявления обобщенных приемов улучшения основных характеристик МУП и их реализации будем рассматривать по известной конструкции преобразователя [4], который имеет следующие недостатки: невысокую чувствительность из-за малой величины механических напряжений в измерительных стержнях и низкая точность, обусловленная неидентичностью кольцевых магнитопроводов,что приводит к снижению точности работы мостовой схемы.

Реализация обобщенного приема «конструктивные изменения» позволяет ввести некоторые изменения в конструктивную схему преобразователя и достичь цели повышения чувствительности, точности и линейности статической хаарактеристики преобразователя механических величин.

Данная задача решается тем, что концентрические ферромагнитные сердечники выполнены идентичными, введены дополнительные упругие конические втулки и каждая пара концентрически и взаимно-зеркально расположенные упругие конические втулки установлены с возможностью одновременного взаимодействия с внутренней и наружной поверхностями сердечников, а последовательно – согласно соединенные между собой секции измерительных обмоток охватывают соответствующие ферромагнитные перемычки. При этом обмотки сердечников соединены между собой последовательно-встречно [4].

Конструкция разработанного магнитоупругого преобразователя показана на рис.1, а) вид сверху ; б) в разрезе А-А.



а) б)

Рис.2. Магнитоупругий преобразователь по [4]

Она состоит из двух идентичных концентрических сердечников с выполненными по длине окружности сквозными щелями. На наружной и внутренней поверхностях концентрических сердечников жестко закреплены кольцевые выступы из неупругого материала. Концентрические сердечники и три пары соосно установленных с ними силопередающих элементов в виде концентрически и взаимно – зеркально расположенных упругих конических втулок, размещены вдоль оси в последовательный ряд. В этом последовательном ряду концентрический сердечник охватывается без зазора торцевыми частями двух пар упругих конических втулок, а свободные концы кольцевых выступов охватываются без зазора торцевыми частями двух пар упругих конических втулок. Секции измерительных обмоток охватывают соответствующие ферромагнитные перемычки. Все

секции измерительной обмотки концентрического сердечника соединены между собой последовательно – согласно Обмотки соединены между собой последовательно-встречно, т.е. по дифференциальной схеме.

При отсутствии измеряемого усилия Р нулевые сигналы обмоток вычитаются и выходной сигнал МУП будет равен нулю. Под действием измеряемого усилия конические втулки упруго деформируются. В результате чего концентрический ферромагнитный сердечник сжимается с двух сторон, а концентрический ферромагнитный сердечник растягивается с двух сторон. Это приводит к изменению относительной магнитной проницаемости материала сердечника, в результате которого индуктивность одной обмотки увеличивается, а индуктивность другой – уменьшается. В результате этого на выходе появляется сигнал, пропорциональный измеряемому усилию.

Благодаря введению дополнительных упругих конических втулок и их зеркального расположения с уже имеющимся упругими втулками обеспечивается одновременное и двухстороннее приложение механических напряжений к наружным и внутренним поверхностям концентрических ферромагнитных сердечников, в результате чего повышается чувствительность датчика. Повышение точности датчика достигается тем, что благодаря выполнению концентрических ферромагнитных сердечников идентичными, сжатие и растяжение под воздействием механических усилий приводит к практически одинаковым изменениям индуктивностей соответствующих катушек. Повышение линейности статической хаарактеристики датчика достигается последовательно-встречным соединением измерительных обмоток сердечников.

Недостатком рассмотренной конструкции, приведенной выше, является невысокая чувствительность из-за малой величины механических напряжений в измерительных стержнях. Это объясняется тем, что при наличии входной величины механическим воздействиям подвергаются только внешняя образующая поверхность наружного измерительного стержня и внутренняя образующая поверхность внутреннего измерительного стержня.

Повышение чувствительности магнитоупругого преобразователя решается тем, что в новом МУП сквозные щели выполнены на образующих поверхностях концентрических ферромагнитных сердечников, на внутренних и внешних образующих поверхностях которых жестко укреплены подковообразные кольцевые кожухы из неупругого материала, на которые воздействуют основания конических упругих втулок [5].

На рис. 2, а показан вид сверху МУП; б – в разрезе А-А. В этом преобразователе концентрический ферромагнитный сердечник с кожухами охватывается без зазора торцевыми частями двух пар упругих конических втулок, а другой концентрический ферромагнитный сердечник с кожухами охватывается без зазора торцевыми частями двух пар упругих конических втулок. Соединение секций обмоток между собой последовательно-согласно.



а) б)

Рис.2. Магнитоупругий преобразователь

Принцип работы разработанного МУ усилий не отличается от предыдущих МУД. Благодаря выполнению сквозных щелей на образующих поверхностях концентрических ферромагнитных сердечников обеспечивается одновременное и двухстороннее приложение механических напряжений к наружным и внутренним образующим поверхностям кольцевых магнитопроводов, в результате чего повышается чувствительность датчика.

Выводы

Показано, что выявление обобщенных приёмов улучшения основных характеристик на основе методики, изложенной в [3], является эффективным и расширяет разработки конструкций магнитоупругих преобразователей с улучшенными характеристиками.

Установлено, что в магнитоупругом преобразователе чувствительность, точность и линейность характеристик преобразования могут быть повышены совершенствованием конструктивных элементов, такие как, соосно расположенные кольцевые магнитопроводы с секциями обмоток и выполненными по длине окружности сквозными щелями, упругие конические втулки, выполнение кольцевых магнитопроводов идентичными и введение дополнительных, концентрически и взаимно-зеркально расположенных упругих конических втулок, установленных с возможностью одновременного взаимодействия с внутренней и наружной поверхностями кольцевых магнитопроводов, а также включение измерительных обмоток кольцевых магнитопроводов между собой последовательно-встречно.

Список использованной литературы

1. Агеев О.А., Мамиконова В.М. и др. Микроэлектронные преобразователи неэлектрических величин - Таганрогский радиотехнический университет. - Таганрог, 153 с. 2000. -153 с.

2. Петрова И.Ю., Гурская Т.Г. Приёмы усовершенствования электрокинетических преобразователей// Журнал «Датчики и системы». – Москва, 2007. – №10. – С. 31–34.

3. Зарипов М.Ф., Зайнуллин Н.Р., Петрова И.Ю. Энергоинформационный метод научно-технического творчества. – Москва: ВНИИПИ ГКНТ, 1988. – 124 с.

4. Патент РУз (UZ) № IAP 05432. Магнитоупругий датчик усилий/ Амиров С.Ф., Жураева К.К., и др.// 2017г. Расмий ахборотнома-2017. - №10.

5. Jurayeva K.K., Nazirova Z.G., Mirasadov M.J. Identification and analysis of sources of errors of the magnetoelastic sensor. AIP Conference Proceedings, 2021, 2402, 060019

МЕТОД ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНЫХ УСТУПОК И АЛГОРИТМ РАСЧЁТА СРЕДНЕСРОЧНЫХ РЕЖИМОВ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ГИДРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ
Регулирование скорости асинхронного двигателя изменением напряжения статора возможно в том случае, когда момент сопротивления M_c при снижении скорости существенно меньше его номинального момента. Свойством снижения момента сопротивления с уменьшением скорости обладают вентиляторные нагрузки:

$$M_C = M_0 + \alpha \cdot \omega^X, \quad (1)$$

где M_0 – момент от сил трения, Н·м; a – коэффициент, $\frac{\text{н·м·с}}{\text{рад}}$; $x = 2$ – для вентиляторов; $x = 3$ – для центробежных насосов.

Механические характеристики для случая вентиляторной нагрузки приведены на рис.2.



Рис.2. Механические характеристики асинхронного двигателя с регулированием напряжения статора и вентиляторном его моменте нагрузки.

Поскольку со снижением скорости от ω_0 до $\omega_0 \cdot (1 - S_P)$ момент сопротивления M_c уменьшается примерно в квадрат раз от величины снижения скорости, то мощность потерь в обмотке ротора ΔP_{M2} со снижением скорости растет в меньшей степени, чем при постоянной нагрузке.

Скорости соответствующие установившимся режимам работы электропривода, можно определить графически по точкам пересечения механических характеристик асинхронного двигателя $\omega=(fM)$ и механической характеристики вентилятора $\omega=(fM_c)$. Точки, соответствующие установив- шимся значениям скорости или скольжения $S_н$, S_{P1}, S_{P2} могут соответствовать устойчивому или неустойчивому равновесию.

Критерием устойчивости работы электропривода является выполнение условия неравенства

$$k\beta - k\beta c < 0, \quad (2)$$

где $k\beta = dM/d\omega$ – жесткость механической характеристики двигателя в точке установившегося режима; $k\beta c = dM_C / d\omega$ – жесткость механической характеристики механизма (вентилятора) в точке установившегося режима. Жесткость механической характеристики вентилятора можно определить в виде аналитического соотношения из выражения (1)

$$k_{\beta c} = \frac{dM_C}{d\omega} = \frac{d(M_0 + \alpha \cdot \omega^2}{d\omega} = 2 \cdot \alpha \cdot \omega \quad (3)$$

Как следует из соотношения (3), жесткость вентилятора $k\beta c$ линейно увеличивается с ростом его скорости и во всем диапазоне регулирования скорости остается положительной. Для определения жесткости механической характеристики двигателя

$$M = \frac{m_1 \cdot U_{1.l}^2 \cdot R_2'}{\omega_0 \cdot S \cdot [(R_1 + R_2' \cdot S^{-1})^2 + (X_{1\sigma} + X_{2\sigma}')^2]} \quad (4)$$

преобразуем ее подставив в него значение скольжения

$$S = (\omega_0 - \omega)/\omega_0,$$

получим:

$$M = \frac{m_c \cdot U_{1.l}^2 \cdot R_2'}{(\omega_0 - \omega) \cdot [(R_1 + R_2' \cdot (\frac{\omega_0 - \omega}{\omega_0})^{-1})^2} + (X_{1\sigma} + X_{2\sigma}')^2 \quad (5)$$

Тогда

$$k_\beta = \frac{dM}{dM} = \mathrm{d}\left(\frac{m_c \cdot U_{1.l}^2 \cdot R_2'}{(\omega_0 - \omega) \cdot [(R_1 + R_2' \cdot (\frac{\omega_0 - \omega}{\omega_0})^{-1})^2 + (X_{1\sigma} + X_{2\sigma}')^2]}\right) d\omega \quad (6)$$

При известных параметрах вентилятора и двигателя значения $k\ \beta c$ и $k\beta$ достаточно просто определяются путем численного дифференцирования выражений (3) и (6) в математической системе Mathcad.

Результаты расчетов *kβc* и *kβ*, а также их разность *kβc-kβ*, найденные для напряжения статора U_{11} , представлены на рис. 3.



Рис. 3. Зависимости жесткости характеристик асинхронного двигателя *β k* и вентилятора *βc k* от скорости

Анализ графических зависимостей рис. 3 показывает, что условие (2) выполняется в окрестностях скорости $\omega_{p1} = \omega_0 \cdot (1 - S_{p1})$. Поэтому вращение вентилятора при скольжении S_{p1} будет устойчивым.

Устойчивое вращение вентиляторов со скольжениями большими S_k при регулировании их скорости изменением напряжения подтверждается практическими исследованиями для различных типов вентиляторов.

Вывод

Особенность механической характеристики вентилятора позволяет ему работать на участке механической характеристики асинхронного двигателя со скольжениями, большими S_k, что практически недостижимо для других видов нагрузок.

Однако работа асинхронного двигателя с большими скольжениями вызывает и большие потери в его роторе. Полные электромагнитные потери в асинхронном двигателе состоят из

$$\Delta P_{эм} = \Delta P_{м1} + \Delta P_{м2} + \Delta P_{с1} \quad (7)$$

где: $\Delta P_{М1}$ – потери в меди статора, Вт; $\Delta P_{М2}$ – потери в обмотке ротора, Вт; $\Delta P_{С1}$ – потери в стали статора, Вт.

При работе на естественной характеристике эти потери определяются выражениями [9]:

$$\Delta P_{M1} = \left[\frac{I_0}{I_{1H}} + \left(1 - \frac{I_0}{I_{1H}}\right)\mu_C^2\right] \cdot \Delta P_{M1H}; \quad (8)$$

$$\Delta P_{M2} = \mu_C^2 \cdot \Delta P_{M2H}; \quad (9)$$

$$\Delta P_{C1} = [B + (1 - B)\mu_C^2] \cdot \Delta P_{C1H} \quad (10)$$

где $\Delta P_{M1H} = 3 \cdot I_{1H}^2 \cdot R_1$ – номинальные потери в меди статора, Вт; $\Delta P_{M1H} = 3 \cdot (I'_{2H})^2 \cdot R'_2$ – номинальные потери в обмотке ротора, Вт;

$\Delta P_{C1H} = \Delta P_H - (\Delta P_{M1H} + 1{,}5 \cdot 10^{-2} P_H + 10^{-2} \frac{P_H \cdot S_H}{1 - S_H}$ – номинальные потери в стали статора, Вт;

$\Delta P_H = \frac{P_H \cdot (1 - \eta_H)}{\eta_H}$ – суммарные потери в двигателе, Вт; $\mu_C = \frac{M_C}{M_H}$ – относительное значение момента статической нагрузки, о.е.;

B – конструктивный коэффициент, зависящий от серии асинхронного двигателя, о.е. ,

B =0,96 - 0, 98 – для серии асинхронных двигателей 4А; *B* =0,97 - 0,94 – для крановометаллургической серии.

При работе на регулировочной характеристике, реализуемой за счет снижения напряжения обмотки статора, полные электромагнитные потери в асинхронном двигателе определяются в соответствии с выражениями:

$$\Delta P_{M1} = 1{,}1 \cdot \mu_C^2 \cdot \left[\frac{I_0 \cdot S_H}{I_{1H} \cdot S} + \left(1 - \frac{I_0}{I_{1H}}\right)\frac{S_H}{S}\right] \cdot \Delta P_{C1H} \quad (11)$$

$$\Delta P_{M1} = 1{,}1 \cdot \mu_C^2 \left(\frac{S_H}{S}\right) \cdot \Delta P_{M2H} \quad (12)$$

$$\Delta P_{C1} = \mu_C^2 \cdot [B\frac{S_H}{S} + (1 - B)\frac{S}{S_H}] \cdot \Delta P_{C1H} \quad (13)$$

Анализ выражений (8), (9), (10) показывает, что при работе на характеристике с пониженным напряжением увеличиваются потери в обмотке ротора Δ *P*м2, но уменьшаются потери в меди статора Δ*P*м1 и в стали статора Δ*P*с1 , но их соотношение таково, что общие электромагнитные потери Δ*P*эм при работе на характеристике с пониженным напряжением оказываются меньше, чем при работе на естественной характеристике.

Таким образом, по литературным источникам [4,6] при регулировании скорости изменением напряжения для вентиляторной нагрузки (рис.2) удается снизить энергопотребление в 1,5 – 2 раза. Экономия электро-энергии будет тем больше, чем меньше момент двигателя, по сравнению с номинальным, и чем больше работает двигатель с недогрузкой.

Литература

1. Хошимов А.А..Мирхайдаров М.М. Электр юритма асослари.–Т.: Lesson press, 2022, 350 с.
2. Ключев В.И., Терехов В.Н. Электропривод и автоматизация общепромышленных установок –М.: Энергия 1980.-360 с.
3. Чернышев А. Ю., Чернышев И. А., Дементьев Ю. Н. Электропривод переменного тока.: – Томск: изд-во ТПУ, 2009. – 57 с.
4. Бозоров Н.Х., Саидахмедов С.С. Электромеханик тизимлар статикаси ва динамикаси.:– Т.: Истиклол, 2005.-118 бет.
5. Сыромятников И.А. Режимы работы асинхронных и синхронных двигателей / под ред. Л.Г. Мамикоянца, М.: Энергоатомиздат, 1984.-240 с.
6. Анисимов В.А., Горнов А.О., Москаленко В.В. Тиристорные пус- ковые устройства в электроприводах переменного тока // Привод и управление. – 2002. – № 1. – С. 32–34.
7. Баранова А. А. Современные технологии в текстильной промышленности: учеб. пособие/А. А. Баранова, А. Г.Коган, Ю. И. Аленицкая – Витебск: УО «ВГТУ», 2006. – 251 с.
8. Режабов З.М. Электропривод шлихтовального агрегата в текстильного промышленности Монография Германия-2021.

ЎЗБЕКИСТОНДА МУКОБИЛ ЭНЕРГИЯ МАНБАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Mustafakulov Asror Axmedovich, Ahmadjonova Umida Tojimuradovna
Жиззах политехника институти
asrormustafakulov@gmail.com

Аннотация: Мукобил энергия манбалари хакида тахлилий маълумотлар хамда битта кичик хонадон учун зарур булган мукобил энергия манбаси параметрлари хакида маълумотлар келтирилган.

Калит сузлар: энергия, мукобил, куёш, шамол, куёш печи, кайта тикланувчи, инвертор, аккумулятор, куёш фотоэлектр курилмаси

Аннотация: Приводиться обзор возобновляемых источников энергии, содержат информацию о параметрах обсуждаемых источников энергии, которые необходимы для небольшой квартиры.

Ключевые слова: энергия, возобновляемые источники энергии,солнце, солнечный печь, ветер, инвертор, аккумулятор, солнечная фотоэлектрическая панель

Annotation: It provides an overview of renewable energy sources, contains information about the parameters of the discussed energy sources that are necessary for a small apartment.

Keywords: energy, renewable energy, solar, solar furnace, wind, inverter, battery, solar photovoltaic panel

Кириш

Ҳозирги кунда фан ва техниканинг ривожланиши натижасида бутун дунёда тараққиёт шу даражага етдики, бунда ҳар куни турли хил эҳтиёжлар учун жуда куп микдорда энергия сарфланмокда, айниқса бу саноат, транспорт ва қишлоқ хўжалигида яққол намоён бўлмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Муқобил энергия манбаларини янада ривожлантириш чора – тадбирлари тўғрисидаги” 1-март 2013-йилдаги фармонида ва [1,2] да давлатимизда муқобил энергия манбаларидан биринчи навбатда қуёш ва шамол энергияларидан фойдаланиш буйича илмий тадқиқот ишлари олиб боришни энг асосий вазифа деб белгиланган.

Мавзунинг долзарблиги: Иқтисодий тараққий этган ва ривожланиб бораётган мамлакатларда углеводород хом-ашёсининг жаҳон миқиёсидаги заҳиралари камайиб бораётган шароитда, иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши ва рақобатбардошлигини оширишнинг энг мухим омили сифатида муқобил энергия манбаларидан амалда фойдаланиш бўйича ишланмалар жадал суръатлар билан олиб борилмоқда.

Аҳоли сонининг ортиб бориши натижасида энергия етишмовчилиги кундан-кунга сезилиб бормокда. Маълумотларга қараганда, бугунги кунда табиий ёқилғи ишлатиш миқдори дунё бўйича йилига 12 миллиард тонна нефть эквивалентига тўғри келади. Бу эса, ҳар бир кишига тахминан 2 тонна табиий ёқилғи сарфланаётганлигидан далолатдир. Шунинг учун ноанъанавий энергия манбаларини ишлатиш ҳар жиҳатдан фойдалидир.

Муқобил энергия тушунчаси фанда ўтган асрнинг бошларида қўлланила бошланди. Бунинг асосий сабаблари шундаки нефть, газ, кўмир захираларининг маълум бир даврдан сўнг тугашини инсонлар тушуниб етиб, энергия олишнинг муқобил йўлларини қидира бошладилар. Ундан ташқари, ёқилғилардан чиқаётган миллион тонналаб CO_2 углерод гази, ёкилги колдиклари озон қатлами емирилишига ва атроф мухитнинг ифлосланишига сабаб бўлмоқда [3,4].

Тадкикот объекти, натижалар ва уларнинг мухокамаси: Мукобил энергия манбаларини замонавий усулларда тадкик этиш, уларни ишлабчикариш ва истеъмолчиларга етказиб бериш бутун дунёда, шунингдек Ўзбекистонда хам энергетика етишмовчилигини олдини олишнинг бирдан-бир йули булиб колди**.** Жаҳонда биринчилардан бўлиб муқобил энергиядан Япония, Германия ва Дания давлатларида кенг фойдаланила бошланди. Бунинг асосий сабабларидан бири бу давлатларда ёқилғи қазилма бойликлари деярли йўқ булганлигидир. 2011 йилда Японияда бўлган табиий офат натижасида атом электр станциялари ҳамда йирик тўғонлардан фойдаланган ҳолда электр энергия олишдан воз кечилиб, энергия олишнинг муқобил йўлларига ўтиш бошланган. Ўзбекистонда муқобил энергиядан фойдаланишни биринчилардан бўлиб академиклар Убай Орипов, Содиқ Азимовлар 1950 йиллардан бошлаб уйларни иситиш, иссиқ сув билан таъминлаш учун қуёш коллекторларини ишлаб чиқдилар ва Тошкент вилоятининг Кибрай туманида бир неча уйлар қурилиб тажриба синовлари ўтказилган.

Қуёш энергиясидан биз фақат электр энергия олиш учун эмас, балки ундан коллекторлар орқали сув иситишда, қуёш ўчоғи орқали овқат, нон пиширишда, чучук сув олишда, меваларни қуритишда фойдаланишимиз мумкин. Ҳозирда Ҳиндистон ва Хитой давлатларида 2 миллиондан ортиқ қуёш ўчоқлари мавжуд.

Айни пайтда дунё бўйича истеъмол қилинаётган барча энергиянинг 18 фоизини қайта тикланувчи энергия манбалари ташкил этади. Қайта тикланадиган ва ноанъанавий энергия манбалари (ҚТ ва НЭМ) дан фойдаланиш натижасида 2020-йилга келиб 2,6 млрд. тонна шартли ёқилғини тежаш мумкин бўлади. Қайта тикланадиган энергияларни тадқиқ этишни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари ва дастури қуйидагилардан иборат[7-8] :

а) буғ трубинали қуёш электр станцияларини ишлаб чиқариш ва ишга тушириш;

б) автоном (истеъмолчилар учун фотоэлектр) қурилмаларни лойиҳалаш ва ишлаб чиқариш;

д) қуёш нуридан фойдаланиб ишловчи иссиқ сув таъминоти, иситиш ва ҳавони конденсациялаш системаларини лойиҳалаш ва қуриш;

е) Гео ИЭС қуриш ва ишга тушириш;

ф) геотермал иссиқлик таъминотини лойиҳалаш ва қуриш.

г) шамол энергияси агрегатлари ва шамол электр станциялари (ШЭС) ни лойиҳалаш ҳамда ишлаб чиқаришга жорий этиш (бу борада, ижобий натижаларга эришилгани диққатга сазовордир [5,6] да шамол электр генераторининг кувватини хисобловчи электрон хисоблаш машинаси учун дастур яратилган).

Бизнинг мамлакатимизда Қуёш, шамол, биогаз сингари ноанъанавий энергия манбаларидан фойдаланишнинг улкан имкониятлари мавжуд. Йилнинг қарийб 300 куни Қуёшли бўлади. Бу Қуёш нурланиши Португалия мамлакатининг кўрсаткичларига тенглигини ёки мамлакат ёқилғи-энергетика ҳажмида муносиб ўринга эга бўлган Япония мамлакати кўрсаткичларидан икки баробар юқори эканлигини кўрсатади. Ўзбекистоннинг қайта тикланадиган энергия манбаларининг салоҳияти 51 миллион тонна нефть эквивалентига тенг бўлиб, қайта тикланувчи энергия манбаларининг техникавий салоҳиятидан тўлиқ фойдаланилса, атмосфера ҳавосига чиқариладиган 450 миллион тоннага яқин ис газининг (углерод икки оксиди) бартараф қилинишига шароит яратилади.

Ерга узатиладиган Қуёш энергиясининг миқдори, ҳозирда дунёда ишлаб чиқарилаётган энергия миқдоридан тахминан, 20 марта кўпдир. Мутахассисларнинг таъкидлашича, Ер курраси ҳар куни Қуёшдан 174 петаваттга тенг миқдорда энергия қабул қилиб олади. Қуёшнинг бундай саховатидан оқилона фойдаланиш долзарб вазифалардан биридир. Ҳозирги вақтда Қуёш энергияси қуйи потенциалли (ҳарорати 100 градусга қадар бўлган) иссиқликкка айлантирлади ва ундан электр токи ҳосил қилиш, иситиш ва иссиқ сув таъминотида, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини (меваларни) қуритишда, фойдаланилади. Ерга Қуёш нурланишининг икки миллиарддан бир қисми тушади холос, лекин ёркинлик қуввати сайёрамизда катта бўлиб, $1{,}75 \cdot 10^{17} W$ га тенг. Қуёшдан йилига ҳар квадрат метр Ер юзасига 1200 дан 1700 киловатт соат энергия тушади. Қуёш энергияси ёрдамида ҳозирги вақтда Ер остидан сувлар чиқариб олинади. Бунинг натижасида ишлаб чиқариш ва турар жойларда маиший қулайликлар таъминланади. Мева-сабзавотлар етиштирилиб, ем-хашаклар ўстирилади

Қуёшли печлар ўта тоза, юқори ҳароратга бардошли материалларни эритишга имкон беради. Улар ҳозирга қадар фақат лаборатория шароитида оз миқдорда олинади. $3000^{0} K$ дан юқори ҳарорат режимида ишлаётган Қуёш печининг иссиқлиги ҳар қандай аралашмадан ҳоли тоза материаллар олиш имконияти яратилади. Илмий техника тараққиётининг ҳозирги ривожланиш босқичида шундай тоза қотишмаларга бўлган талаб жуда катта.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда энергия ресурсларининг асосини углеводородлар: табиий газ ва нефт ташкил қилади. Умумий энергия қувватлари 11000 МВт дан ортиқроқ бўлиб, Марказий Осиё бирлашган энергия тизими қувватларининг 50% и мамлакатимиз ҳиссасига тўғри келади. Республикамизнинг ялпи Қуёш энергияси салоҳияти 50973 млн.т.н.э., техникавий салоҳияти эса 176,8 млн.т.н.э. Лекин, ҳозирги кунда Қуёш энергиясининг фақатгина 3% и ўзлаштирилган холос.

Алоҳида хонадон учун фотоэлектр манбасининг асосий қисмларининг тавсифи ва ундан фойдаланишнинг иқтисодий кўрсаткичларини тахлил этамиз.

Қуёш фотоэлектр қурилмалари қуйидаги асосий қисмлардан ташкил топади 1-расм [9-10]:



1-Расм. Қуёш фотоэлектр қурилмасининг блок схемаси. ФЭП-фотоэлектр пластинкаси; ББ-бошқариш блоки (контроллер); АБ-аккумулятор батареяси; И-инвертор.

Бошқариш блоки кучланишни юклама ва аккумуляторлар батареясига уланишини назорат қилади. ФЭП – фотоэлектр пластинкаси ёруғлик энергиясини электр энергиясига айлантиради. Инвертор ФЭП да ҳосил бўлган доимий кучланишни кучайтиради ва ўзгарувчан кучланишга (220 в , 50 гц) айлантириб беради. АБ –аккумуляторлар батареяси ФЭП да ҳосил бўлган кучланишни ўзида тўплаб, ёруғлик бўлмаган ҳолларда истеъмолчини узликсиз энергия билан таъминлашга хизмат қилади. ФЭП нинг ишлаш муддати ўртача айрим манбаларда 15 йилга тенг деб айтилган.. Бу муддат ичида 1 марта инвертор ва 3 марта аккумуляторлар алмаштирилади.

Ўртача 6 кишидан иборат хонадон учун электр қувватини ФЭП 2 квт миқдорида таъминлаб бера олади. Бу юклама қуввати кичик қувватли энергия тежамкор ёритиш лампалари, совитгич, телевизор, кичик қувватли кир ювиш машинаси каби кундалик зарур бўлган электр жиҳозларини энергия билан таъминлашга хизмат қилади.

Хулоса

Мукобил энергия манбаларини, хусусан фотоэлектрик станцияларни ишлаб чиқаришни ташкил қилиш бўйича бутун дунё олимлари қатори Ўзбекистон Республикасида ҳам илмий изланишлар олиб борилмокда [11-15]. Натижада ҳозирги кунда фотоэлементлардан Кремний (Si) ФИК 15% дан 20 % гача, Арсенед галлий (AsGa) фотоэлементининг ФИК 30% дан 40% гача ортирилди. Шу боис уларнинг сиртини ташқи муҳитдан ҳимоялаш ҳисобига унинг фойдали иш коэффициенти (ФИК) яна кўпаймокда. Шунингдек, олимлар фотоэлементларни фойдали иш коэффициентини ошириш максадида концентраторлардан фойдаланишнинг ҳам бир неча вариантларини тавсия этмоқдалар. Юкорида келтирилган кичик кувватли фотоэлектр курилмаси кичик хонадонлар учун ва куп каватли уйлардаги кириш йулакларини ёритиш учун тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan № PF-4422 of 22.08.2019, “On accelerated measures to improve energy efficiency in economic and social sectors, the introduction of energy-saving technologies and the development of renewable energy sources”.
2. Electronic resource. http://nrm.uz. Date of access 10.03.2020 y.
3. Juraeva Z.I., Juraev I.R. Analysis of the development and use of priority renewable energy sources in the energy sector of Uzbekistan // Universum: Technical Sciences: electron scientific.journal. 2020. No. 4 (73).
4. Ходжаев М. «Перспективы использования возобновляемых источников энергии в приаралье». Экологический вестник № 4-5, 2011. стр. 8-14.
5. Кучкуров К., Панцырев А. «Солнечная энергетика Узбекистана: статус и перспективы развития». Экологический вестник. № 4-5, 2011, стр. 15-18.
6. Арзикулов Ф.Ф., Мустафакулов А.А. ва б.“Шамол электр генератори кувватини улчовчи дастурий таъминот” талабнома раками DGU 2021 0103. 18.01.2021.
7. Мустафакулов, А. А., Муртазин, Э. Р., & угли Сафаров, А. А. (2016). Исследование возобновляемых источников энергии. *Ученый XXI века*, (3-1).
8. Statistical Yearbook of world energy 2019. Electronic resource.
9. https://yearbook.enerdata.ru/renewables/renewable-in-electricity.24.02.2020 y.
10. Перспективы развития возобновляемой энергетики в Узбекистане, ПРООН, Ташкент, 2007., стр. 17.
11. .Клычев Ш.И., Мухаммадиев М.М., Авезов Р.Р. и др. «Нетрадиционные-возобнавляемые источники энергии». Ташкент Изд-во «Фан ва технология»- 2010.
12. Салиев Э.А., Сатаров С.А., Мустафакулов А., и др. «Автоматизированный учет-условия повышения эффективности использования энергоресурсов. Проблемы энерго и ресурсосбережения» №1-2, 2011, стр. 158-164.
13. Akhmedovich, M. A., & Fazliddin, A. (2020). Current State Of Wind Power Industry. The American Journal of Engineering and Technology, 2(09), 32-36.

14. Возобновляемые источники энергии, вопросы устойчивости и смягчения последствий изменения климата, Фазлиддин Арзикулов, Universum 2020. 10(79). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/ite

15. .Mustafakulov A., Arzikulov F. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). V.6, № 9. September, 2020.pp.278-290. 2020 EPRA IJMR | www.eprajournals.com | Journal DOI URL: https://doi.org/10.36713/epra2013.

16. Аллаев К.Р.Электроэнергетика Узбекистана и мира. Т.-2009, "Молия", 478 б.

17. Mustafakulov A., Arzikulov F. The American Journal of Engineering And Technology. September 14, 2020 | Pages: 32-36. Doi:https://doi.org/10.37547/tajet/Volume02Issue09-.

КОМПЛЕКСНАЯ ОПТИМИЗАЦИЯ РЕЖИМОВ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ СИСТЕМ

академик Насиров Т.Х., магистрант У.Н. Бердияров
Ташкентский государственный технический университет
E-mail: *npirmatov@mail.ru*

Задача комплексной оптимизации режима ЭЭС в краткосрочном цикле регулирования T заключается в определении оптимального состава работающих агрегатов в расчетных (участвующих в оптимизации) электростанциях, графиков активных нагрузок электростанций, реактивных мощностей или модулей напряжений генераторных по реактивной мощности и опорных узлов, коэффициентов трансформаций регулируемых трансформаторов, при которых достигается минимум топливных издержек на расчетных тепловых электростанциях (ТЭС) за цикл регулирования, т.е. в минимизации функции

$$З = \sum_{t=1}^{n_T} \sum_{i=1}^{n} u_{it} \left[B_{it}(P_{it}, c_{it}) + B_{it}^{П}(\tau_{it}, c_{it}) \right] \to min \qquad (1)$$

с учетом ограничений в форме равенств

$$W_i' = P_{it} - \overline{P}_{it} = 0, \quad i \in N, \quad t = 1, 2, ..., T; \qquad (2)$$

$$W_i' = Q_{it} - \overline{Q}_{it} = 0, \quad i \in N - \Gamma_u, \quad t = 1, 2, ..., T; \qquad (2а)$$

$$\Delta Q_j = \sum_{t=1}^{n_T} Q_{jt}(H_{jt}, P_{jt}) - Q_{jз} = 0, \quad j = 1,2,...,m; \qquad (2б)$$

и неравенств

$$P_{it}^{min} \le P_{it} \le P_{it}^{max}, \quad i \in \Gamma, \quad t = 1, 2, ..., T; \qquad (3)$$

$$Q_{it}^{min} \le Q_{it} \le Q_{it}^{max}, \quad i \in \Gamma + \Gamma_q, \quad t = 1, 2, ..., T; \qquad (3а)$$

$$U_{it}^{min} \le U_{it} \le U_{it}^{max}, \quad i \in N, \quad t = 1, 2, ..., T; \qquad (3б)$$

$$\left.\begin{array}{l} K_{lt}^{'min} \le K_{lt}^{'} \le K_{lt}^{'max} \\ K_{lt}^{''min} \le K_{lt}^{''} \le K_{lt}^{''max} \end{array}\right\}, \quad l \in T_k, \quad t = 1, 2, ..., T, \qquad (3в)$$

$$P_{lt}^{min} \le P_{lt} \le P_{lt}^{max}, \quad l \in L_P, \quad t = 1, 2, ..., T; \qquad (3г)$$

$$I_{lt}^{min} \le I_{lt} \le I_{lt}^{max}, \quad l \in L_I, \quad t = 1, 2, ..., T. \qquad (3д)$$

где: N – множество всех узлов в ЭЭС (кроме балансирующего узла); n, m- число расчетных ТЭС и ГЭС в ЭЭС; n_T- число интервалов в цикле регулирования; u_{it}, P_{it}, B_{it} - удельная топливная издержка, нагрузка и расход топлива i- й ТЭС в t- м интервале цикла регулирования; c_{it}- состав работающих агрегатов в i- й ТЭС в t- м интервале цикла регулирования; $B_{it}^{П}$ - расход топлива на пуск агрегата, который простоял τ_{it} часов, в i- й ТЭС при пуске в t- м интервале цикла регулирования; Γ – множество расчетных электростанций; Γ_q – множество узлов с регулируемыми реактивными мощностями (кроме расчетных электростанций); Γ_u- множество опорных узлов (с заданными или оптимизируемыми модулями напряжения; P_{it}, Q_{it} $\overline{P}_{it}$, $\overline{Q}_{it}$ – расчетные и заданные активные и реактивные мощности узла i в t- м интервале

цикла регулирования; P_{jt}, H_{jt}, Q_{jt}- активная мощность, напор и расход воды в *j*- й ГЭС в *t*- м интервале цикла регулирования; $Q_{jз}$- заданный объем воды в *j*- й ГЭС, которая должна быть израсходована в течение цикла регулирования *T*; T_k – множество регулируемых трансформаторов; L_p, L_I – множество ветвей, в которых контролируются перетоки активной мощности и токи; $P_{it}, Q_{it}, U_{it}, P_{it}^{min}, Q_{it}^{min}, U_{it}^{min}, P_{it}^{max}, Q_{it}^{max}, U_{it}^{max}$- расчетные и заданные предельные значения активной и реактивной мощностей, а также напряжения узла *i* в *t*-м интервале цикла регулирования; $K'_{lt}, K''_{lt}, K_{lt}^{'min}, K_{lt}^{''min}, K_{lt}^{'min}, K_{lt}^{''max}$- расчетные и заданные предельные значения вещественных и мнимых составляющих регулируемого коэффициента трансформации трансформатора *l*- й ветви в *t*- м интервале цикла регулирования; $P_{lt}, I_{lt}, P_{lt}^{min}, I_{lt}^{min}, P_{lt}^{max}, I_{lt}^{max}$- расчетные и заданные предельные значения перетока активной мощности и тока *l*- й контролируемой ветви в *t*- м интервале цикла регулирования.

В задачах оптимизации режимов ЭЭС в качестве целевой функции вместо функции суммарных топливных издержек можно использовать функцию суммарного расхода условного топлива.

Описанная задача представляет собой сложную задачу нелинейного математического программирования, содержащую множество простых, функциональных и интегральных ограничений в виде равенств и неравенств.

В работах изложены алгоритмы комплексной оптимизации режимов ЭЭС на основе метода приведенного градиента. Согласно этим алгоритмам исходная задача, в общем случае, представляется в следующей форме. Минимизировать функцию

$$F(\mathbf{Z}) \to min \qquad (4)$$

при ограничениях

$$\mathbf{W}(\mathbf{Z}) = 0, \qquad (5)$$

$$\mathbf{Z}^{\min} \le \mathbf{Z} \le \mathbf{Z}^{\max}, \qquad (6)$$

где $\mathbf{W}(\mathbf{Z})$ – *m*- мерная вектор-функция *n*- мерного вектора переменных *X*:

$$\mathbf{Z} = \lfloor z_j \rfloor, \ j = 1, 2, ..., n; \ \mathbf{W}(\mathbf{Z}) = \lfloor w_j(Z) \rfloor, \ i = 1, 2, ..., m.$$

Здесь предполагается, что $F(\mathbf{X})$ - выпуклая, дважды непрерывно дифференцируемая функция.

Алгоритм решения данной задачи методом приведенного градиента предусматривает разделения множество компонент вектора $\mathbf{Z}$ на два непересекающихся подмножества, представляемых соответственно в виде *m* и *p*=*n*-*m* мерных векторов $\mathbf{X} = \lfloor x_j \rfloor, \ j = 1, 2, ..., m$ и $\mathbf{Y} = \lfloor y_j \rfloor, \ j = 1, 2, ..., p$. В таком случае ограничение (5) можно представить в следующем виде:

$$\mathbf{W}(\mathbf{X}, \mathbf{Y}) = 0. \qquad (7)$$

Заметим, что число компонент вектора **X** равняется числу компонент вектор функции (5) (или (7). Поэтому при известных значениях компонент вектора **Y** можно найти **X** получаемой системы уравнений из (7).

Если векторное уравнение (3.7) имеет решение относительно **X,** т.е. вектор **Y** лежит в допустимой области, то **X** называют вектором зависимых или базисных переменных (или базисом) этого уравнения. Соответственно, **Y** в (3.7) является вектором независимых переменных. Вектор **X** представляет собой неявную вектор функцию **Y**, т.е. **X(Y)**.

Таким образом, после разделения компонент вектора переменных $\mathbf{Z}$ на два подмножества компонент векторов **X** и **Y** задачу (4)-(6) представляют в следующем виде минимизировать функцию

$$F(\mathbf{X}(\mathbf{Y}), \mathbf{Y}) \to min \qquad (8)$$

с учетом ограничений

$$\mathbf{X}^{\min} \le \mathbf{X}(\mathbf{Y}) \le \mathbf{X}^{\max}, \qquad (9)$$

$$\mathbf{Y}^{\min} \le \mathbf{Y} \le \mathbf{Y}^{\max}, \qquad (10)$$

$\mathbf{X}^{\min}$, $\mathbf{X}^{\max}$, $\mathbf{Y}^{\min}$, $\mathbf{Y}^{\max}$ – векторы минимальных и максимальных предельных значений зависимых и независимых переменных.

Оптимизационный расчет, в общем случае, выполняется итеративно. На каждом *k*- м шаге оптимальные значения независимых переменных вычисляются как

$$\mathbf{Y}^{(k)} = \mathbf{Y}^{(k-1)} - h^{(k)} \cdot \frac{\partial \mathbf{F}}{\partial \mathbf{Y}}^{(k-1)}, \qquad (11)$$

где $h^{(k)}$ – шаг в направлении убывания целевой функции (8) в *k*- й итерации; $\frac{\partial \mathbf{F}}{\partial \mathbf{Y}}^{(k-1)}$ - вектор-градиент неявной целевой функции в *k-1*- й итерации, которая определяется по выражению

$$\frac{\partial \mathbf{F}}{\partial \mathbf{Y}} = \frac{\partial \bar{\mathbf{F}}}{\partial \mathbf{Y}} + \frac{\partial \mathbf{F}}{\partial \mathbf{X}} \cdot \frac{\partial \mathbf{X}}{\partial \mathbf{Y}}; \qquad (12)$$

$\frac{\partial \bar{\mathbf{F}}}{\partial \mathbf{Y}}$ - вектор частных производных целевой функции по независимым переменным при представлении её как простая функция вектора **Y;** $\frac{\partial \mathbf{X}}{\partial \mathbf{Y}}$ - вектор-градиент неявных функций **X(Y)**, который определяется решением следующей системы линейных уравнений, получаемой из (7):

$$\frac{\partial \mathbf{W}}{\partial \mathbf{X}} \cdot \frac{\partial \mathbf{X}}{\partial \mathbf{Y}} = -\frac{\partial \mathbf{W}}{\partial \mathbf{Y}}. \qquad (13)$$

Оптимальные значения зависимых переменных на *k*- й итерации находятся на основе решения системы уравнений, получаемой также из (7)

$$\mathbf{W}\left(\mathbf{X}, \mathbf{Y}^{(k)}\right) = 0. \qquad (14)$$

Учет простых ограничений, т.е. ограничений, наложенных на независимые переменные (10) в описываемом алгоритме учитывается простым закреплением, на каждой итерации, переменных вышедших за допустимые пределы на соответствующих предельных значениях. Для этого после выполнения каждой итерации проверяется для всех независимых переменных выполнение ограничения (10). В случае их выполнения, полученные значения этих переменных расчеты продолжаются с переходом к решению системы уравнений (14). В противном случае, т.е. при условии нарушения некоторых ограничений из (10), эти переменные принимаются равными на их соответствующие предельные значения и затем переходят к решению системы уравнений (14).

Одной из важных задач в данном алгоритме является выбор шаг в направление убывания целевой функции $h^{(k)}$. Его начальное значение выбирается по результатам опыта решения подобных задач. В последующих итерациях его значение выбирается в пределах

$$0 < h^{(k)} \le h_{np.}^{(k)}, \qquad (15)$$

где $h_{np.}^{(k)}$ – предельно допустимый шаг в направлении $-\frac{\partial \mathbf{F}}{\partial \mathbf{Y}}^{(k-1)}$ из точки $\mathbf{Y}^{(k-1)}$, при котором **Y** достигает границы допустимой области. Так как вектор **Y** имеет множества компонент, то $h_{np.}^{(k)}$ определяется как наименьший из всех предельных шагов для отдельных компонентов:

$$h_{np.}^{(k)} = \min\ h_{np.j}^{(k)} = \min \left(\frac{y_j^{(k-1)} - y_{np.j}}{\frac{\partial F}{\partial y_j}^{(k-1)}} \right), \qquad (16)$$

где $y_{np.j}$ – предельное значение j – го независимого переменного (j–й компоненты вектора Y), определяемое по следующему условию:

$$y_{np.j} = \begin{cases} y_j^{max} & если \quad \dfrac{\partial F}{\partial y_j}^{(k-1)} < 0, \\ y_j^{min} & если \quad \dfrac{\partial F}{\partial y_j}^{(k-1)} > 0. \end{cases} \qquad (17)$$

Для учета ограничений по зависимым переменным (9) в рассматриваемом алгоритме используется особый прием, основанный на смену базиса. Согласно этому приему при нарушении какого либо ограничения, входящей в (9), осуществляется перевод соответствующего зависимого переменного в число независимых переменных, а вместо него один из независимых переменных переводится в число зависимых.

Для ускорения сходимости итеративного процесса расчета очень важны выбор критерия и оптимального изменения базиса.

Критерии изменения базиса, должны учитывать характер ограничений в виде (9) и (10). Если при некоторых исходных базисах многошаговый процесс оптимизации завещается без каких либо их смен, то при других исходных базисах процесс может протекать и завершаться с многократными их сменами.

Для смены базиса должен быть выбран такой переменный, при котором число итераций для получения конечного оптимального решения и вероятность достижения новым зависимым переменным y_k своего предельного значения уменьшаются.

Самый простой и широко применяемый способ выбора независимого переменного, который переводится в число зависимых переменных, предусматривает выбор такого переменного, для которого разность между текущим и предельным значениями больше чем для какого либо другого переменного.

Литература

1. Насиров Т.Х., Гайибов Т.Ш. Теоретические основы оптимизации режимов энергосистем. – Т.: «Фан ва технология», 2014, 184 стр.

2. Гайибов Т.Ш. Методы и алгоритмы оптимизации режимов электроэнергетических систем. Т.: Изд. ТашГТУ, 2014. 178 с.

ЧИЗИҚЛИ ҚУЁШ КОНЦЕНТРАТОРИНИНГ ИКЛИМ ШАРОИТЛАРИДАГИ ЭНЕРГЕТИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИ АНИҚЛАШ

Нишонов К., Фарғона политехника институти талабаси
Омониллаев Б., Фарғона политехника институти ассистенти
nishonovkamoliddin24@gamail.com, тел.: +998911394758

Ҳозирги кунда, қуёш энергетикаси соҳасида асосий йўналишлардан бири, таркибида кўплаб нур қайтарувчи элементлардан ташкил топган қуёш қурилмаларининг техникавий ва иқтисодий кўрсаткичларини яхшилашга йўналтирилган кўзгули мужассамловчи тизимлар (КМТ) воситасида мужассамлаш жараёнини такомиллаш тириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланмоқда. Бу эса қуёш нурланиш оқимини мужассамловчи кўзгули тизимларнинг тайёрланиши жиҳатдан содда конструкцияларини ишлаб чиқишни талаб этмоқда [1-2]. Ушбу турдаги қуёш концентраторларга ясси Френел кўзгули мужассамловчи тизимларни киритишимиз мумкин. Ясси Френел кўзгули қуёш концентраторлари мужассамлаш даражаси пастроқ бўлгани билан технологик жиҳатдан қулайлиги билан ажралиб туради [3-5]. Бундай конструкцияларни иш принципи шундаки, барча чизиқли нур қайтарувчи элемент-фацеталар жойлашувидан қаътий назар, қуёш нурланиш оқимини битта чизиқли фокал соҳага йўналтиради [6-10].

Чизиқли Френел концентраторининг фокал текислик соҳадаги нурланиш оқим зичлигини алоҳида элемент-фацеталарнинг энергия улушини йиғиндиси сифатида кўриб чиқишимиз мумкин. Максимал нурланиш оқими ***E*** ни аниқлаш учун қуйидаги ифодани ёзишимиз мумкин:

$$E = E_c R_z S_f \sum_{i=1} \cos(U_i / 2)\cos(90^0 - U_i) \qquad (1)$$

бу ерда, E_c – тўғри қуёш нурланиш оқими , R_z– нур қайтариш коэффициенти, S_f –алоҳида элемент–фацета юза ўлчами, U_i- алоҳида кўзгуларни очилиш бурчаги.

Ўлчами 1.2x1.5 метр бўлган чизиқли Френел концентраторини фокал текислигидаги нур қабул қилгич бўйлаб энергия зичлигини тақсимланиши (1) формула ёрдамида алоҳида кўзгу улушларини қўшилиш принципига [11] асосланган ҳолда аниқланди. 1-расмда назарий ҳисоб ҳамда тажрибада ўлчаш асосида олинган натижалар келтирилган. Шубҳасиз, кўриб чиқилаётган ёндашувдан келиб чиққан ҳолда ушбу тақсимот тахминан **П** шаклда бўлишни кўришимиз мумкин. 1-расмда келтирилган графикдан кўриниб турибдики, назарий ҳисоб ишларидан олинган натижалар, тажрибавий ўлчашлардаги қийматларга яқин келишини кўрсатмоқда. Марказий соҳадаги энергия зичлиги Қуёшнинг Ерга нисбатан кўриниш бурчаги (γ) ва қайтарувчи сирт тайёрлаш аниқлиги (Δα) таъсирида нур қабул қилгич юзаси бўйлаб фокал доғларнинг 7 % четланишли тақсимланишини кўришимиз мумкин.



1-назарий ҳисоб натижаси;
2-тажриба ўлчаш ишлари натижаси;

1-расм. Чизиқли френел концентраторини нур қабул қилгичги бўйича энергия зичлик тақсимоти.



2-расм. Ясси чизиқли Френел кўзгулари асосидаги қуёш концентраторини тажрибавий қурилмаси.

Ишлаб чиқилган қурилманинг нур қабул қилгич юзасидаги мужассамланган нурланиш оқим зичлиги тақсимотини аниқлаш учун масофадан ўлчашнинг замонавий усулларидан фойдаланилди [12]. Фойдаланилган ўлчаш усули [13] нуқтага фокусловчи қуёш концентраторларини энергетик параметрларини аниқлашда қўлланилган. Ушбу ўлчаш усулини такомиллаштириш орқали ясси чизиқли фокусловчи концентраторларини оптик-энергетик характеристикаларини масофадан ўлчаш ҳамда олинган маълумотлар ҳар томонлама таҳлил қилиш учун умумлашган дастурий –техник таъминот ишлаб чиқилди. 3-расмда Energy_View дастури ёрдамида олинган фокал текисликдаги мужассамланган қуёш нурланиши оқимини фазовий тақсимоти келтирилган.

Нур қабул қилгичи кенглиги (X) ва узунлиги (Y) ҳамда энергия зичлиги (Z) ўқи бўйлаб олинган натижалар 1.2 x1.5 метр ўлчамдаги чизиқли Френел концентраторини фокал текислигида ўрнатилган 7x60 см ўлчамли махсус экран ёрдамида олинди.



3-расм. Energy_View дастури ёрдамида фокал текисликдаги изотермик чизиқларга тенг бўлган энергия зичлигининг (X, Y, Z) координаталаридаги нисбий қийматлари

Такомиллаштирилган Energy_View дастурида ёрдамида махсус экрандаги фокал доғ тасвирини ўлчами аниқланди. Олинган натижаларни таҳлили шуни кўрсатдики, (Y) координатаси қиймати 5,5 сантиметрни ташкил этмоқда. Ишлаб чиқилган қурилмада кенглиги 5 сантиметр ўлчамдаги нур қабул қилгич танлаб олинган. Бундан келиб чиқиб

айтиш мумкинки, қурилмани нур қайтарувчи сирт тайёрлаш аниқлиги Δα=4 бурчак минутни ва марказдаги энергия зичлигида четланишлар 10 % ни ташкил этган.

Хулоса

1. Ишлаб чиқилган тажрибавий қуёш концентраторини фокал текислигидаги энергия зичлик тақсимоти олинди.
2. Чизиқли фокусловчи қуёш концентраторларини фокал текисликлигдаги фокал доғини ўлчамларини аниқлаш учун дастурий таъминот ишлаб чиқилди.

Адабиётлар:

1. N.R. Avezova, A.E. Khaitmukhamedov, A.Yu. Usmanov, and B.B. Boliyev, “Solar Thermal Power Plants in the World: The Experience of Development and Operation”, Applied Solar Energy, vol. 53, no. 1, pp. 72–77, 2017.
2. Sh.I. Klychev, A.A. Abdurakhmanov, A.A. Kuchkarov. Optical-geometric parameters of a linear Fresnel mirror with flat facets. Applied Solar Energy 50 (3), 168-170. doi.org/10.3103/S0003701X14030074
3. Akbarov R.Y., Kuchkarov A.A. Modeling and Calculation of Optical-Geometric Characteristics of a Solar Concentrator with Flat Fresnel Mirrors. Applied Solar Energy, 2018, Vol. 54, No. 3, pp. 183–188.

CHASTOTA O‘ZGARTIRGICHLI ASINXRON DVIGATEL TIZIMIDAGI ELEKTROMAGNIT JARAYONNING TAHLILI

Norboev Otajon Normo‘minovich
Katta o‘qituvchi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li
Termiz muhandislik – texnologiya instituti assistenti

Annotatsiya: Chastota o‘zgartkichlarning yangi tuzilmasini hamda boshqarish sxemasini yaratish, “chastota o‘zgartkich-asinxron dvigatel” tizimi bo‘yicha rostlanadigan asinxron elektr yuritmaning xarakteristikalari va xossalarini o‘rganishdir.

Аннотации*:* Разработка новой конструкции и схемы управления преобразователями частоты, исследование характеристик и свойств асинхронного электропривода, регулируемого по *системе «преобразователь частоты-асинхронный двигатель».*

Annotation: Development of a new design and control scheme for frequency converters, research of characteristics and properties of an asynchronous electric drive, controlled by the system "frequency converter-asynchronous motor".

Kalit so‘zlar: Chastota o‘zgartirgich, asinxron dvigatel, elektromagnit jarayon, mikroprotsessorli texnika.

Ключевые слова: преобразователь частоты, асинхронный двигатель, электромагнитный процесс, микропроцессорная техника.

Key words: frequency converter, asynchronous motor, electromagnetic process, microprocessor technology.

Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 60% dan ko‘prog‘ini elektr yuritma tizimlari sarflaydi. Iste’mol etilayotgan elektr energiyasining asosiy ulushi (50% gacha) keng tarqalgan oddiy, rostlanmaydigan qisqa tutashgan rotorli asinxron dvigatel (AD) lar asosida tuzilgan elektr yuritmaga to‘g‘ri keladi. Ko‘p hollarda AD li elektr yuritmalar o‘rnatilgan sanoat qurilmalarida yuklama momenti vaqt bo‘yicha o‘zgarib turadi. Bu esa elektr energiyasini isroflariga sabab bo‘lib, tarmoqdagi quvvat koeffsiyentini pasaytiradi. Aniq bir holat uchun sezilarli bo‘lmagan energiyaning isrofi respublika miqiyosida katta hajmga egadir. Bundan tashqari, o‘ta yuklanish paytidagi AD ning yurgizish va himoyalash muammolari mavjud [1,2]. Texnologik qurilmalarning turli-tumanligi, ulardagi tezlikni rostlash talab qilmasligi, energetik jixatdan uncha yuqori bo‘lmagan talablarni qo‘yuvchi o‘tish jarayonlari, ularda himoya va nosozliklarning diagnostikasini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan, lekin arzon bo‘lgan asinxron elektr yuritmalarini ishlatilatishni taqozo etadi. Bunday qurilmalarning ishonchliligini past darajada bo‘lishi oqibatida yuritma-dagi AD larning tez ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tilgan masalalarni

yechimini ta’minlab beruvchi jixoz–chastota o‘zgartgich bilan jixozlangan AD li umumsanoat yuritmasidir. Keyingi o‘n yillar ichida kuchli tokli elektronika va mikroprotsessorli texnikaning rivojlanishi hamda ularning narxini keskin pasayishi, xozirda keng tarqalgan elektr yuritmalarda chastota o‘zgartkichlarni qo‘llashnishi iqtisodiy jixatdan maqsadga muvvofiq bo‘lmoqda. Lekin chastota o‘zgartkichlardan foydalanish jarayoni cheklanganligi, ya’ni ularni texnologik qurilmalardagi davomli yoki qisqa-takrorlanuvchan rejimlarda ratsional ishlashi va tezlikni ravon va katta diapazonda rostlanishi talab qilinishi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun, ishonchli va arzon chastota o‘zgartkichlarni yaratish, ularni qo‘llanish soxalarini kengaytiradi va shu bilan birga, eskirgan qurilmalarni modernizatsiyalash imkoniyatini amalga oshiradi. O‘zgartkichlarni qo‘llash, minimal sarf-xarajatlar orqali ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini va texnologik muammolarini yechilishini ta’minlaydi. Lekin chastota o‘zgartkichlarni ishlatish yordamchi elektromexanik datchiklarni o‘rnatilishini talab qilib, AD ning yurgizish jadalligini cheklaydi. Bu esa texnologiya talablari bo‘yicha xar doim ham to‘g‘ri kelmaydi. “Chastota o‘zgartkich-asinxron dvigatel” tizimi asosida qurilgan datchiksiz elektr yuritmalarni ishlab chiqish bunday cheklashlarni bartaraf qilish imkoniyatini beradi. [3,4,].

“CHO‘-AD” tizimidagi elektromagnit jarayonlarning taxlili, AKI va AD ning boshqarish usullariga asoslangan. Shu sababdan, AKI ni asosiy va yo‘naltiruvchi chastota asosida impuls kengligi bo‘yicha rostlash paytida boshqarilganda siljimas koordinatalar tizimidagi statorning natijaviy kuchlanish vektori oltita aniq holatni oladi.

AKI ning chiqishidagi kuchlanishni o‘rtacha natijaviy vektori tenglama orqali aniqlanadi:

$$\overline{u}_s = \gamma\ U_s \bullet e^{k\pi/3}, \qquad (1.1)$$

bunda k = 0,1,2...5.

Bunday holat uchun, masalaning yechimi AKI ni o‘zgarmas tuzilishi bo‘lgan $\pi/3$ intervalida olib borilib, elektromagnit o‘zgaruvchilarning oniy qiymatini aniqlash mumkin.

$$\begin{gathered}
\overline{u}_s = R_s\overline{i}_s + d\overline{\Psi}_s / dt, \\
0 = R_r\overline{i}_r + d\overline{\Psi}_r / dt - j\omega\overline{\Psi}_r, \\
\overline{\Psi}_s = L_s\overline{i}_s + L_m\overline{i}_r, \qquad (1.2) \\
\overline{\Psi}_r = L_m\overline{i}_s + L_r\overline{i}_r, \\
\overline{M} = \frac{3}{2}\overline{\Psi}_s\,\overline{i}_s.
\end{gathered}$$

bunda $\overline{u}_s, \overline{i}_s, \overline{i}_r, \overline{\Psi}_s, \overline{\Psi}_r$ - stator va rotor o‘zgaruvchilarini o‘rtacha natijaviy vektorlari.

Algebraik hisoblarni osonlashtirish uchun nisbiy birliklar kiri-tiladi. AD ning parametrlari nisbiy birlikda berilib, ular kichik oraliqda o‘zgaradi, bunday hisoblarning natijalari ko‘pchilik amaliy holat-larda qo‘llanishi mumkin. Quyidagi asosiy parametrlar bazaviy sifatida qabul qilinadi:

- $I_б = \sqrt{2}\ I_{ном}$ - nominal faza tokining maksimal qiymati;
- $U_б = \sqrt{2/3}\ U_{ном}$-nominal faza kuchlanishining maksimal qiymati (nominal berilganlarda chiziqli kuchlanish ko‘rsatiladi);
- $Z_б = U_б / I_б$ - qarshilik;
- $\Psi_б = U_б / \omega_{ном}$ - oqim ilashishi ($\omega_{ном}$-manbalovchi tarmog‘ning nomi-nal aylanma chastotasi);
- $P_б = 3U_б I_б / 2$ - quvvat;
- $M_б = p_П P_б / \omega_{ном}$ - moment.

Tenglamalar nisbiy birlikda yozilganda, xaqiqiy qiymatlar bilan ko‘rsatilgandagi belgilar ishlatiladi, $\alpha = \omega_1 / \omega_{‡}, \nu = p_{\Pi}\omega / \omega_{‡}$ lardan tashqari.

Bundan tashqari, sirpanishning nisbiy birligidagi qiymati o‘zgar-maydi, chunki absalyut sirpanish (nisbiy birligida quyidagicha naiq-lanadi:

$$\beta = (\omega_1 - \omega)/\omega_{‡} = \alpha - \nu, \quad \text{bunda sirpanish esa } s = \beta / \alpha \qquad (1.3)$$

Vaqt va differensiyalash operator belgilari o‘zgarmasdan qoladi va $t_{‡} = 1/\omega_{‡}$ bo‘lganda $p© = p / \omega_{‡}\cdot$. qabul qilinadi. (1.2) tenglamalar tizi-mini nisbiy birliklarda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\begin{aligned}
\overline{U}_s &= R_s\bar{i}_s + p\overline{\Psi}_s,\\
0 &= R_r\bar{i}_r + (p - j\alpha)\overline{\Psi}_r,\\
\overline{\Psi}_s &= X_s\bar{i}_s + X_m\bar{i}_r,\\
\overline{\Psi}_r &= X_m\bar{i}_s + X_r\bar{i}_r,\\
\overline{M} &= \overline{\Psi}_s\bar{i}_s.
\end{aligned} \qquad (1.4)$$

bunda: p - differensiyalsh operatori. $d/dt; X = \omega_{‡}L/Z_{‡}$.

Quyidagi rasmda AD li universal EYU ning funksional sxemasi kelti-rilgan bo‘lib, bunda boshqarish stator tokining moduli bo‘yicha amalga oshi-riladi. Ushbu tizimdagi elektromagnit jarayonlarini taxlili ancha murak-kab AKI ning qayta ulash holatida momentlarni noaniqligi sababli, takrorlanish intervali chegarasini boshlang‘ich shartlarini aniqlash mumkin bo‘lmaydi. Lekin masalani yechish uchun (2.1) va (2.5) tenglamalar asosida boshlang‘ich nul qiymatlarni aniqlash mumkin.



1-rasm. AD stator toki bo‘yicha boshqariladigan EYU ning funksional sxemasi

AKI ning o‘zgarmas tuzilishida EYU ni kvaziturg‘un ishchi rejimida tenglamalari nisbiy birliklarda quyidagi ko‘rinishga keltirilib, bunda kvaziturg‘un rejim uchun ω_k=0 bo‘lganda quyidagi ko‘rinishni oladi.

$$\begin{aligned}
\overline{U}_s &= R_s\bar{i}_s + p\overline{\Psi}_s,\\
0 &= R_r\bar{i}_r + (p - j\alpha)\overline{\Psi}_r,\\
\overline{\Psi}_s &= X_s\bar{i}_s + X_m\bar{i}_r,\\
\overline{\Psi}_r &= X_m\bar{i}_s + X_r\bar{i}_r,\\
\overline{M} &= \overline{\Psi}_s\bar{i}_s.
\end{aligned} \qquad (1.5)$$

---

bunda p - differensiyalash operatori. $d/dt; X = \omega_{‡}L/Z_{‡}$.

Bunday holatlarning o‘zgaruvchilari sifatida oqim ilashish-larni proyeksiyasi yoki xaqiqiy va mavxum o‘qlariga tokning proyeksiyasi orqa-li tanlanishi mumkin. (1.5) tenglamalar tizimiga ko‘ra:

$$p\mathbf{i} = \mathbf{A}\mathbf{i} + \mathbf{B}\mathbf{u}, \qquad (1.6)$$

bunda A-o‘lchami (4x4(bo‘lgan holatlarning kvadratik matritsasi, V - o‘lchami (4x2(bo‘lgan boshqarish matritsasi, i-o‘lchami (4x1(bo‘lgan holatning o‘zgaruvchi vektori, u- o‘lchami (2x1(

bo'lgan boshqariladigan ta'sirlar vektori. Matritsaning elementlari quyidagi nisbatlar bilan belgilangan

$$\mathbf{A} = \frac{1}{\sigma}\begin{bmatrix} -R_s/X_s & vK & K_s R_r/X_r & vK_s \\ -vK & -R_s/X_s & -vK_s & K_s R_r/X_r \\ K_r R_s/X_s & -vK_r & -R_r/X_r & -v \\ vK_r & K_r R_s/X_s & v & -R_r/X_r \end{bmatrix} \qquad (1.7)$$

$$\mathbf{B} = \frac{1}{\sigma X_s}\begin{bmatrix} 1 & 0 \\ 0 & 1 \\ -K_r & 0 \\ 0 & -K_r \end{bmatrix}, \ \mathbf{i} = \begin{bmatrix} i_{\alpha s} \\ i_{\beta s} \\ i_{\alpha r} \\ i_{\beta r} \end{bmatrix}, \ \mathbf{u} = \begin{bmatrix} u_{\alpha s} \\ u_{\beta s} \end{bmatrix},$$

bunda $\sigma = 1 - L_m^2/(L_s L_r)$-tarqalishning natijaviy koeffitsiyenti, $K = L_m^2/(L_s L_r)$ - bog'lanishning natijaviy koeffitsiyenti, $K_s = L_m/L_s$; $K_r = L_m/L_r$ - stator va rotorning bog'lanish koeffitsiyenti. (1.6) holat tenglamalarining yechimi quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{i}(t) = e^{\mathbf{A}t}\mathbf{i}(0) + \left(e^{\mathbf{A}t} - 1\right)\mathbf{A}^{-1}\mathbf{B}u \qquad (1.8)$$

Nisbiy birlikda (2.5) tenglamasini yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$v(t) = v(0) + (M - M_\cdot)t/H. \qquad (1.9)$$

bunda $H = J\omega_{_}\omega_{\ddagger}/M_{\ddagger}, \omega_c -$ sinxron tezlik. SHIR ning yo'naltiruvchi chastotasi davrida elektromagnit jarayonlari ko'rib chiqilsa, bunda, ularni taxlilini olib borish, o'zgaruvchi parametrli tenglamalar tizimini rekkurent yechimi asosida bajariladi:

$$\begin{aligned} &\mathbf{i}(m+1) = e^{\mathbf{A}(v(m))T_0}\mathbf{i}(m) + [e^{\mathbf{A}(v(m))T_0} - 1]\mathbf{A}^{-1}(v(m))\mathbf{B}\mathbf{u}(k), \\ &v(m+1) = v(m) + T_0[M(\mathbf{i}(m)) - M_{\text{H}}]/H, \\ &\mathbf{u}(k+1) = \mathbf{T}\mathbf{u}(k) \end{aligned} \qquad (1.10)$$

bunda $t = mT_o$, T - simmetriya matritsasi

$$\mathbf{T} = \begin{bmatrix} 0{,}5 & -0{,}86 \\ 0{,}86 & 0{,}5 \end{bmatrix} \qquad (1.11)$$

Boshlang'ich shartlari

$$i(0) = 0,\ v(0) = 0,\ u(0) = [\gamma U_{\epsilon},0]. \qquad (1.12)$$

A matritsasi va *M* momentning o'zgaruvchan elementlarini rekkurent protsedurasi xar qaysi qadamida o'zgarmas bo'ladi va keyiingi qadamga o'tgan-da o'zgaradi. Bunda stator tokini moduli ham hisoblanadi:

$$\left|\bar{i}_s\right| = \sqrt{i_{s\alpha}^2 + i_{s\beta}^2} \qquad (1.13)$$

va agar olingan natija I_{m} ustavkasi bilan teng bo'lsa, *k* bo'yicha rekkurent protsedura *k* + 1 qadamga o'tadi. Yuqorida keltirilgan hisoblar ketma-ketligi real elektr yuritmadagi elektromagnit jarayonlarini modellash-tirish imkonini beradi.

Bunda hisobning quyidagi algoritmi qo'llaniladi. Dastlabki qiymatlar sifatida AD ning parametrlari hamda boshlang'ich shartlar qabul qilinadi. Bundan keygin γ va I_m boshqarish ta'siri qiymatlari kiritilib, yuklama momenti $M_{\text{н}}$ ham kiritiladi. (1.9), (1.10) тенгламалар orqali hisoblarni rekkurent sikllari olib boriladi va elektromagnit hamda elektromexanik jarayonlarining grafigi chiqariladi.



2- rasm. (1.6) tenglamalar bo‘yicha olib borilgan hisoblar natijasi, bunda λ=0,1; I_m=10 A, $M_н$=1Нм



3-rasm. (1.6) tenglamalar bo‘yicha olib borilgan hisoblar natijasi, bunda λ=0,45; I_m=10 A, $M_н$=1Нм

Ishlab chiqilgan dastur yordamida EYU ning o‘tish va turg‘un ishchi rejim-larida elektromagnit jarayonlarini aniqlash turli boshqaruvchi va to‘lqin-lantiruvchi ta’sirlarida bajarilgan.

Hisoblar natijalari 1va 2 – rasmlarda keltirilgan va bunda quyidagilar ifodalangan

а–stator $\bar{i}_s$ tokining vektori moduli va uning koordinatalar o‘qiga proyeksiyasi kuchlanish vektori bilan moslashtirilgan. Bunda tokning aktiv tashkil etuvchisi - $\bar{i}_{sx}$, $\bar{i}_{sy}$- эса reaktiv tashkil etuvchisi ($\bar{i}_{sx}$AKI ning manba zanjiridagi tok). *б* - tok vektorini godografi $\bar{i}_s$ va rotorning oqim ilashishi - $\overline{\Psi}_r$ *в* – rotorning aylanish tezligi (va elektromagnit momenti *M*.

γ=0,04, $M_н$=1Нм, I_m=4A bo‘lgandagi turg‘un rejimning hisoblarini natijalari (bu tezliklar bo‘yicha rostlashning pastki diapazoni) ko‘rsatishicha tezliklar bo‘yicha pulsatsiyalar 20 % ni, momentlar bo‘yicha pulsa-siyalari esa 100% ni tashkil etadi. Lekin rotorning oqim ilashishi o‘zgar-mas bo‘lib qoladi. SHIR ning chiqishidagi kuchlanishning ortirilishi va tokning moduli 2,5 baravar ortib ketishi (3-rasm). Tezlikning o‘rtacha qiymati va momenti o‘zgarmas bo‘lib qoladi (λ=0,1; I_m=10 A), lekin rotor-ning oqim ilashishi ortib boradi. Agar faqat kuchlanish ortirilsa, ($\omega_{ср}$= 6,0 $с^{-1}$; $M_{ср}$=1 Нм) $\overline{\Psi}_r$ qiymati o‘zgarmasdan qoladi, lekin, tezlikning o‘rtacha qiymati ortadi.

Havo orqali isitish	Tizim osongina quriladi, issiqxona tezda qiziydi. Kondensat yo‘q, chunki doimiy havo harakati mavjud.	Tizim uchirilganda xarorat keskin pasayadi, shuning uchun jarayonni barcha kerakli vaqt davomida saqlash kerak.
Suv orqali istish	Tizim xavfsiz ishlaydi. Havo qurib qolmaydi. Agar kerak bo‘lsa, haroratni o‘zgartirish mumkin.	Alohida qozonxonani yoki isitish suvini elektr energiyasi bilan tashkil qilish maqbul bo‘lar edi, shuning uchun bu usulni iqtisodiy deb atash mumkin vemas

Bu ishning bajarilishi doirasida ~120 m^2 maydonda 1,2 m chuqurlikda termos-issiqxona ko‘rinishidagi gelioissiqxona yaratildi. Uning issiqlik ta’minoti uchun avtonom quyosh fotoelektrik stansiyasi va Quyoshiy kollektorlardan foydalanish loyixalandi:

1. Masalan, avtonom quyosh fotoelektrik stansiyasi umumiy nominal quvvati 3000 Vt, 600 A soat elektrik sig‘imga ega akkumulyatorlar bilan ta’minlangan, zaryad-razryad jarayonini boshqarish uchun 48 V, 20 A parametrlarga ega kontroller bilan ta’minlangan;
2. Doimiy kuchlanishni 24 V o‘zgaruvchan kuchlanishga 220 V o‘zgartirishga mo‘ljallangan 3000 Vt quvvatli invertor. Invertor shuningdek 30 A tok bilan tarmoqdan zaryadlash uchun zaryad qurilmasi bilan ta’minlangan;

3. Fotoelektrik batareyalarni Quyoshga nisbatan operativ tarzda orientatsiya qilish uchun tayanch tizimi;

4. Suv sig‘imi 150 l bo‘lgan, elektrik isitish tizimi mavjud quyoshiy vakuum trubkali kollektor orqali issiqlik energiyasini gelioissiqxonaga uzatish rejalashtirildi.



3-rasm. Quyosh kollektori orqali issiqxonalarni issiqlik energiyasi bilan ta’minlanishi

Biz joylashgan hudud Yer sayyorasining shimoliy yarim sharida bo‘lganligi uchun qish oylarida (noyabr-fevral) Quyoshning kun davomidagi traektoriyasi qisqa bo‘ladi, bu esa o‘sha hududlarda quyosh intensivligining kamligini ko‘rsatadi, shu sabab gelioissiqxonalarning isitish tizimini to‘liq tushayotgan Quyosh energiyasi orqali ta’minlab bo‘lmaydi. Bunda issiqlik yuqotilishlarini oldini olish uchun gelioissiqxonaning shimoliy tomonini issiqlik izolyatsion devor bilan yopish mumkin.



4-rasm. Issiqxonalarning shimoliy qismi devor bilan yasalishi

Yoritish va isitish asboblari sifatida ikki xil turdagi chug‘lanma va svetodiod lampalaridan foydalanish taklif etiladi. Birinchi turdagi lampalar kechki vaqtda issiqxona ichki qismini yoritish maqsadida, ikkinchi tur lampalar tuproq sirtidan 80-100 sm masofada joylashtirilib uni qizdirish maqsadida foydalanildi. Bunday lampalarning issiqlik nurlanishlari tuproq sirtida yutilib, uni qizdiradi. Tuproq sirti temperaturasini nazorat qilish uchun 4-6 ta datchiklar joylashtirilib chiqildi.

Gelioissiqxonaning harorat namlik rejimlari limon ko‘chatlarini parvarish qilish va hosil olishga mo‘ljallangan. Tajriba jarayonida gelioissiqxonaning ichki qismidagi va tashqaridagi havo haroratlari, tuproq haroratlari, nisbiy namlik va tashqaridagi quyosh nurlanishi oqim zichligi o‘lchandi.

Eksperiment ishlarida qish mavsumida gelioissiqxonada isitish tizimi qo‘shilganda va qo‘shilmaganda harorat rejimlarini aniqlash, issiqlik yuqotishlarini oldini olish asosiy maqsad qilib quyildi. Quyosh nurlanishi oqim zichligi pergeliometr, gelioissiqxonadagi ichki va tashqi harorat, namlik mis-konstantali termo-juftliklar va HYELEC MS 6252V universal asbobi bilan o‘lchandi.

Xulosa

Gelioissiqxonalarning issiqlik ta’minoti uchun passiv quyosh tizimlaridan samarali foydalanishga imkon beradigan quyosh radiatsiyasi maksimal tushuvini ta’minlaydigan , kech kuzgi, erta bahorgi ekinlarni parvarish qilish uchun Quyoshiy issiqxona konstruksiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqligi;

Gelioissiqxonalarni harorat rejimlarining grafiklarini tahlili shuni ko‘rsatdiki, taklif qilingan gelioissiqxonaning isitish tizimini avtonom fotoelektrik stansiyalardan foydalanib ichkaridagi havo haroratini qish mavsumlarida 4-8^{0}S atrofida saqlab turish mumkin;

Gelioissiqxonaning issiqlik ta’minoti uchun vakuum trubkali quyosh kollektorlari va dubler

isitish uskunasidan iborat majburiy sirkulyatsiyali rejim asosida prinsipial sxema tanlandi.

Adabiyotlar

1. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li. Shaffaf quyosh panellari, “ENERGIYA VA RESURS TEJAMKOR INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI” respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi 23-24-sentabr 2022-yil
2. Э.Б.Саитов, У.М.Ахмедов, О.Б.Курбонбоев, Ю.К.Хамидов, Ш.Б.Бекчанов. Разработка имитационной модели комбинированной гелиоветроэнергетической установки. Мирзо Улугбек номидаги Узбекистон миллий университети хузуридаги «Яримутказгичлар физикаси ва микроэлектроника» илмий-тадкикот институти Тошкент шахридаги ”МЭИ” миллий тадкикот университети федерал давлат бюджети олий таълим муассасаси ”Яримутказгичлар физикаси, микро- ва наноэлектрониканинг фундаментал ва амалий муаммолари” мавзусидаги 1-халкаро анжуман материаллари, Том 1; 28-29 октябрь Ташкент 2021; стр. 216-218.
3. Э.Б.Саитов, У .М.Ахмедов, Ю.К.Хамидов, Ш.Б.Бекчанов, О.Р.Рахмиддинов. Измерительные комплексы и учет климатических данных при разработке и проектировании комбинированных гелиоветроэнергетических установок. Международная научная-техническое конференция "Тенденция развития альтернативной и возобновляемой энергетики: проблемы и решения 17-18 мая 2021, ст. 402-408.
4. Э.Б.Саитов., Ш.Ш.Тохиржанов., Ф.Отаклов., Ш.Б.Бекчанов., Ю.К.Хамидов. Инновационный подход к определению электрофизических параметров фотоэлементов. «Наноструктурные полупроводниковые материалы в фотоэнергетике» сборник научных трудов II Международная научная конференция 19-20 мая 2021, ст. 67-69.
5. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li - "KATTA QUYOSH PECHI" International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands June 8th 2022. https://econferencezone.org

ENERGOTEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR

Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li, Termiz muhandislik – texnologiya instituti assistenti

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda insoniyatni yetarli miqdorda energiya va yoqilg'i bilan ta'minlash hayotni saqlab qolish va sivilizatsiya rivojlanishining zarur shartiga aylandi. Tabiiy yoqilg'i-energetika resurslarining cheklangan zahiralari muammosi energiyani tejash dasturlarini ishlab chiqishni taqozo etdi. Energiyani tejash zamonaviy dunyo energetikasini rivojlantirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Energiyani tejash - yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali (ratsional) foydalanish (va tejamkorlik) va qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarishga jalb qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, ilmiy, ishlab chiqarish, texnik va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui.

Аннотация: В современном мире обеспечение человечества достаточным количеством энергии и топлива стало необходимым условием сохранения жизни и развития цивилизации. Проблема ограниченных запасов природных топливно-энергетических ресурсов потребовала разработки программ энергосбережения. Энергосбережение – самый эффективный способ развития энергетики в современном мире. Энергосбережение - комплекс мероприятий по реализации правовых, организационных, научных, производственных, технических и экономических мероприятий, направленных на эффективное (рациональное) использование (и экономию) топливно-энергетических ресурсов и вовлечение в производство возобновляемых источников энергии.

Annotation: In the modern world, providing mankind with a sufficient amount of energy and fuel has become a necessary condition for the preservation of life and the development of civilization. The problem of limited reserves of natural fuel and energy resources required the development of energy conservation programs. Energy saving is the most effective way to develop energy in the modern world. Energy saving - a set of measures for the implementation of legal, organizational, scientific, industrial, technical and economic measures aimed at the efficient

(rational) use (and savings) of fuel and energy resources and the involvement of renewable energy sources in production.

Kalit so‘zlar: energotejamkor texnologiyalar, muqobil energiya manbaalari, quyosh panellari, zamonaviy GESlar,

Ключевые слова энергоэффективные технологии, альтернативные источники энергии, солнечные батареи, современные гидроэлектростанции,

Key words: energy efficient technologies, alternative energy sources, solar panels, modern hydroelectric power plants,

Energiyani tejovchi texnologiyalar - energiyaning foydasiz yo'qotishlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar va echimlar majmuasidir. Bu texnologik jarayonlarga yangicha yondashuv bo‘lib, yoqilg‘i-energetika resurslaridan yuqori samaradorlik bilan ajralib turadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra,dunyoda ishlab chiqarish tannarxidagi energiya xarajatlarining ulushi 30-40% ga yetadi. Bu ko'p jihatdan yirik korxonalarda, uy-joy kommunal xo'jaligi va boshqa faoliyat sohalarida eskirgan uskunalardan foydalanish bilan bog'liq. Masalan, ko'pchilik mahalliy korxonalar hali ham maksimal yuk uchun mo'ljallangan yuqori quvvatli elektr motorlaridan foydalanadilar, garchi ishning eng yuqori davri umumiy ish vaqtining atigi 10-15% ni tashkil qiladi. Ushbu muammoni hal qilish elektr motorlardan foydalanish, texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali uskunalarni optimallashtirish bo'lishi mumkin. Energiyani tejovchi texnologiyalarni samarali qo'llashning yana bir turi bu "aqlli" yorug'likdan foydalanishdir. Bunday energiya tejovchi yoritish tizimlari elektr energiyasini o'n barobarga kamaytirishi mumkin. Energiyani tejash effekti yorug'lik avtomatik ravishda va faqat kerak bo'lganda yoqilishi bilan erishiladi. Mamlakatdagi barcha energiya resurslarining uchdan biridan ko'prog'i binolarni isitish uchun sarflanadi. Samarasiz issiqlik yo'qotishlarini minimallashtirmasdan, sanab o'tilgan energiyani tejash choralari samarasiz bo'ladi. Shu bois, zamonaviy qurilishda devorlarni izolyatsiyalash, energiyani tejovchi tom yopish, energiya tejaydigan bo'yoqlar, zamonaviy ikki oynali oynalar, tejamkor isitish tizimlaridan foydalangan holda texnologiyalar qo'llaniladi.

Quyosh panellarining ham yangi usulda ishlab chiqarilayotgan turlaridan ya’nikim, shaffof quyosh panellaridan [1] dan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yaxshi energiya tejovchi effekt eng yangi qozonxonalar tomonidan ta'minlanadi, bu yerda yangi energiya tashuvchilardan foydalanish texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirishi va samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi, shuningdek, arzonroq va ekologik toza yoqilg'iga o'tishi mumkin. Ventilyatsiya tizimlarini loyihalashda

ular chiqindi havo issiqligini qayta tiklash (qayta foydalanish uchun qayta ishlash) tizimlaridan va binodagi odamlar soniga qarab ta'minot va egzoz birliklarining o'zgaruvchan ishlashidan foydalanadilar. Muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga asoslangan energiya tejovchi texnologiyalar tobora ommalashib bormoqda:

- uylarning tomiga o'rnatiladigan yoki to'g'ridan-to'g'ri tomga o'rnatiladigan maxsus quyosh panellari va kollektorlari, shuningdek quyosh va fotoelektr stansiyalari hisobidan amalga oshiriladigan quyosh energiyasidan foydalanish;
- zamonaviy GESlarni qurish, ularda oqayotgan daryolarning energiyasi elektr energiyasiga aylanadi;
- yog'och chiqindilaridan, sanoat va maishiy chiqindilardan, yuqori mahsuldor o'simliklardan olinadigan bioyoqilg'idan foydalanish.

Kelajakda, mutaxassislarning fikriga ko'ra, qishda isitish tizimlaridan foydalanmasdan, yozda esa konditsioner tizimlarisiz qulay harorat saqlanadigan energiya tejovchi uylar juda mashhur bo'ladi. Birinchi bunday uylar allaqachon dunyoning ba'zi shaharlarida paydo bo'lgan.

Energomenejment - bu energiya resurslari tannarxini pasaytirish maqsadida energiyani tejashni boshqarishning bilimlari, tamoyillari, vositalari va shakllari to'plami. Energomenejment tufayli sezilarli energiya tejashga erishish va salbiyni kamaytirish mumkin

binolarda isitish tizimlarining yomon ishlashi holatlarida oqibatlar.

Energiya boshqaruvi quyidagilarni ta'minlashi mumkin:

- energiya sarflaydigan tizimlarda nuqsonlar, yomon ishlash va nosozliklarni aniqlash;

- energiyadan foydalanishning ko'payishiga nisbatan noqulay tendentsiyalar yuzaga kelganda tezkor aralashuv;
- tavsiya etilgan yaxshilanishlarni va ularning ustuvorligini aniqlash;
- munitsipalitetda barcha darajadagi energiyadan foydalanish va ekologiya masalalariga yanada ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish.

Energomenejmenttashkil etish jarayoni bitta binodan boshlanib, butun tashkilot yoki boshqa tashkilot darajasiga ko'tarilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, Energomenejment nisbatan oddiy usul bo'lib, buning uchun oddiy aql, qog'oz va qalam ko'pincha etarli bo'lishi mumkin. Energomenejment - bu korxonada energiya iste'molini boshqarish usuli bo'lib, u energiya sarfini sezilarli darajada optimallashtirish imkonini beradi. Energomenejmentning asosiy vositasi energiya auditi hisoblanadi. Energomenejment tizimi korxonaning energiya siyosatini shakllantirish, maqsadlarni belgilash va ushbu maqsadlarga erishish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan korxonaning o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlari majmuasidir. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, energiya samaradorligini oshirishga asosan Energomenejment tizimidagi tashkiliy o'zgarishlar, ya'ni. tizimini takomillashtirish orqali energiya boshqaruvi. Shu bois korxonalarda energiya samaradorligini oshirish masalalarini hal etish maqsadida *ISO 50001/EN 16001* xalqaro standartiga muvofiq Energiya menejmenti tizimi joriy etilib, yoqilg‘i-energetika resurslarini sarflashga maxsus o‘qitilgan xodimlar jalb etilmoqda. Energomenejment tizimi uchun standart talablari:

- energiya siyosatini amalga oshirish va energiya tejash samaradorligini oshirish bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishish bo'yicha doimiy va rejalashtirilgan harakatlar;
- energiya ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni o'lchash va nazorat qilish tartibi;
- energiya hujjatlari va zarur hisoblar

Adabiyotlar:

1. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li Shaffaf quyosh panellari, “ENERGIYA VA RESURS TEJAMKOR INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi 23-24-sentabr 2022-yil. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=kDoirt0AAAAJ&citation_for_view=kDoirt0AAAAJ:hqOjcs7Dif8C
2. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li - "KATTA QUYOSH PECHI" International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands June 8th 2022. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=kDoirt0AAAAJ&citation_for_view=kDoirt0AAAAJ:u-x6o8ySG0sC
3. Qurbonazarov Sukhrob Erkin ugli “Electric Car Charging Problem” Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 7, June, 2022. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=kDoirt0AAAAJ&citation_for_view=kDoirt0AAAAJ:UeHWp8X0CEIC
4. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li “Atom batareyalari – kelajak batareyalari” Journal Of Integrated Education And Research ISSN: 2181-3558, DOI raqami: 10.5281/zenodo.6675309. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=kDoirt0AAAAJ&citation_for_view=kDoirt0AAAAJ:W7OEmFMy1HYC
5. Qurbonazarov Suhrob Erkin o‘g‘li, To‘rayeva Gulyuz Xushboqovna: “Robototexnika – kelajak texnologiyalari sohasi” Journal Of Integrated Education and Research, ISSN: 2181-3558, DOI raqami: 10.5281/zenodo.6675309
6. Qurbonazarov S. E. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo‘llash orqali ta‘lim sifatini takomillashtirishni tadqiq qilish” — Zamonaviy muhandislik kommunikatsiya tizimlari va avtomobil yo‘llari infrastrukturasidagi dolzarb muammolar‖ mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materallari to‘plami. Namangan-2022
7. Amirov S.F., Khushbokov B.X., Muxsimov Sh.S. Wide-range current transformers for traction power supply systems. Monograph. Tashkent - "Science and Technology" 2018 162 p.

APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE METHODS IN REGULATING ELECTRICITY CONSUMPTION IN CONTINUOUS PRODUCTION INDUSTRIAL ENTERPRISES

Rahmonov Ikromjon Usmonovich
doctor of technical sciences, associate professor, Tashkent State Technical University
Head of the "Power Supply" department
E-mail: *ilider1987@yandex.ru*
Qurbonov Nurbek Nurullo o'g'li
Doctoral student of the Department of "Power Supply" of Tashkent State Technical University
E-mail: *nurbek.qurbonov@tdtu.uz*

A continuous production system involves a continuous or nearly continuous flow of these materials. It uses special machines and produces standardized products in large quantities. Petrochemical, cement, steel, sugar and fertilizer industries and other similar industries are examples of continuous production [1]. Most of the energy is consumed by these enterprises. That is why it is appropriate to pay special attention to the issues of regulating energy consumption in these sectors. The quality of fuel and energy balance planning in industrial enterprises, the need for energy resources of individual industrial enterprises and the assessment of the efficiency of consumption of fuel and energy resources by the enterprise directly determine energy consumption. depends on normalization [2].



Figure 1. *Diagram of integrated work system for energy saving and regulation, accounting and analysis of energy use in an industrial enterprise [3]*

Figure 1 shows a diagram of the complete work system in industrial enterprises. In continuous production, this cycle is organized continuously in continuous production. Automatic resolution of the issue of continuous analysis of the set standard indicators and drawing conclusions based on the results with the help of artificial intelligence significantly increases the efficiency of the work process.

At the first stage of our scientific research, the issue of standardization was checked instantly with the help of artificial intelligence, and an algorithm was developed to give the necessary conclusions for the enterprise.

At the beginning of the work, the standard groups of energy consumption were determined. According to the purpose of calculation, the norms of electricity consumption are divided into the following [3]:

1. By term of validity (annual, quarterly, monthly, etc.);
2. By collection level (individual, group);
3. According to the cost structure (technological, departmental, general production).

The methodology of calculating this type of norms and analyzing them with the help of artificial intelligence was divided into three groups and work algorithms were developed:

1. Formation of primary data - at this stage, the initial set values of the relative norm and the factors affecting it, which are necessary to determine the current value of the relative norm in an instant, are collected in the data warehouse. If the calculated actual relative norm d_{fact} is much greater than the set value, the organizational technical measure provides information that the action should be implemented and sends information to the integrated organizational technical measure implementation system. In case of small deviations allowed (± 5%), the results are directly sent to the base for storage as a sample. If it is much smaller than the specified value, it is accepted as a relative standard that can be set (Fig. 2).



Figure 2. *Algorithm for analysis of primary data and storage of samples in database*

2. Calculation part - the average value of the values that can be set in this part is determined and stored as a sample in the database. At the same time, a mathematical static analysis is also performed on the factors. Mathematical statistics allows for an objective assessment of energy consumption efficiency using analytical agreement criteria, as well as determining the impact of energetic, technological, operational factors on energy consumption indicators [5]. The result of this method is also added as a sample in the database.

It is studied using the Fuzzy logic network collected in the database. In this case, data is encoded as a set of rules and presented to the decision maker for the newly considered cases [4]. The results obtained from this step are reflected in comments and numerical values (Figure 3). The obtained result is presented in the form of a norm that can be established and an organizational technical measure that must be implemented.



The sample collection base is not only based on the data of one enterprise, but is collected by all types of enterprises. With the increase of samples in the database, the accuracy and reliability of the results increases.

The results of this methodology allow the enterprise to instantly check the state of the calculation standard in energy consumption and automatic analysis of the state will save time,

reduce the human factor in calculations, reduce errors and increase efficiency, and will facilitate the issues of setting a relative standard.

References

1. https://accountlearning.com/continuous-production-system-characteristics-types-merits-demerits-suitability/
2. Гринев Андрей Викторович, Новикова Ольга Валентиновна, Лозовский Сергей Владимирович Повышение эффективности нормирования потребления энергоресурсов на промышленных предприятиях // π-Economy. 2013. №5 (180). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-effektivnosti-normirovaniya-potrebleniya-energoresursov-na-promyshlennyh-predpriyatiyah (дата обращения: 02.11.2022).
3. Гринев Андрей Викторович, Новикова Ольга Валентиновна, Лозовский Сергей Владимирович Повышение эффективности нормирования потребления энергоресурсов на промышленных предприятиях // π-Economy. 2013. №5 (180). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-effektivnosti-normirovaniya-potrebleniya-energoresursov-na-promyshlennyh-predpriyatiyah (дата обращения: 02.11.2022).
4. Phillips-Wren, Gloria & Jain, Lakhmi. (2006). Artificial Intelligence for Decision Making. 4252. 531-536. 10.1007/11893004_69.
5. Рахмонов И.У. Методология управления электропотреблением промышленных предприятий с непрерывным характером производства. Диссертация на соискание ученой степени доктора наук (DSc) по техническим наукам. Специальность 05.05.01 – Энергетические системы и комплексы: ТГГУ. 2022.

PAST VA O‘RTA QUVVATGA EGA QUYOSH ELEKTR STANSIYALARINI ELEKTR TARMOG‘IGA INTEGRATSIYALASH XUSUSIYATLARI

Rajabov Jamoliddin Baxtiyor o‘g‘li
Stajyor-tadqiqotchi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy-ilmiy tadqiqot instituti
jamoliddinrajabov1995@gmail.com
Xudaynazarov Anvar Panji o‘g‘li
Kichik ilmiy xodim, O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy-ilmiy tadqiqot instituti
anvarx-89@mail.ru
Sarsenbayev Dauletbay Baktibayevich
Kichik ilmiy xodim, O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy-ilmiy tadqiqot instituti
d.b.sarsenbaev@mail.ru

Kirish

O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 85%ga yaqini tabiiy gazni yoqish orqali ishlab chiqariladi. Bilamizki tabiiy gaz cheklangan va qayta tiklanmaydigan resurs, shu jumladan global isish muommolarini hal qilishda eng maqbul yechim - qayta tiklanuvchi energetikaga o‘tishdir. O‘zbekistonda quyosh fotoelektr stansiyalarni o‘rnatish va yagona elektr tarmoqqa integratsiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini elektr tarmoqqa integratsiyasi - bu qayta tiklanuvchi energiyani tarmoqqa yetkazib berishda ishonchli va samarali usullarini ishlab chiqish amaliyotidir. Quyosh elektr stansiyalarini tarmoqqa ulaganda invertorlarning chiqishidagi elektr energiyasining sifati O‘zbekiston Respublikasi hududining amaldagi normalari va standartlariga mos ravishda bo‘lishi iste’molchilarga uzatiladigan elektr energiya samaradorligini yuqori darajaga oshiradi.

Nazariy asos

O‘zbekistonda quyosh energiyasi yalpi salohiyati ***98,6%*** ni tashkil etadi [4]. Energiya tizimlarida fotoelektrik tizimlarini qo‘llash ikkita asosiy sohaga bo‘linishi mumkin: tarmoqdan tashqari ***(Off-grid)*** yoki tarmoqqa ulangan ***(On-grid)*** tizimlar [5]. Off-grid tizimda yuzlab kilovattgacha quvvatga ega bo‘lgan avtonom tarmoqlar, bunda energiyani saqlash moslamasi

(batareya) mavjud bo‘lgan bir yoki uch fazali iste’molchilarga ulanib elektr energiya bilan ta’minlaydi. On-grid quyosh elektr stansiyalari bir necha kilovattdan yuzlab megavattgacha bo‘lib, taqsimlash tarmoqlari bilan sinxron ishlaydi.

Bu borada ilmiy-tadqiqot manbalariga ko‘ra “Xalqaro elektr va elektronika muhandislari instituti” standarti (Instituti of Electrical and Electronics Engineers) ***929-2000*** tasnifiga ko‘ra nominal quvvatga qarab, quyosh fotoelektr stansiyalar (FES) ***3 ta*** toifaga bo‘linadi.

Bular quyidagicha:

1. Past quvvatli FES - quvvati ***10 kVt*** va undan kam bo‘lgan;
2. O‘rta quvvatli FES - quvvati ***10 kVt***dan dan ***500 kVt*** gacha;
3. Katta quvvatli FES - ***500 kVt*** dan ortiq [6].

Shu bilan birga, birinchi ***2 ta*** toifa odatda tarqatish tarmoqlari darajasida o‘rnatiladi va uchinchi toifali FES esa yuqori kuchlanishli tarmoqlarga ulanadi.

Yagona elektroenergetika tizimining qabul qiluvchi elektr tarmog‘ining kuchlanish sinfi, quyosh elektr stansiyalarini mavjud quvvati quyidagicha bo‘lganda qabul qilinadi;

10 kVt gacha — ***0,23 kV***;
3 kVt dan ***100 kVt*** gacha — ***0,4 kV***;
20 kVt dan ***2 000 kVt*** gacha — ***6 - 10 kV***;
1 000 kVt dan ***20 000 kVt*** gacha — ***35 kV***;
10 000 kVt dan ***40 000 kVt*** gacha — ***110 kV***;
20 000 kVt va undan yuqori — ***220 kV*** [7].

Natijalar

Hozirgi kun ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra, 2021-yilda energetika sohasida eng katta muvaffaqiyat qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha bo‘ldi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining global o‘rnatilgan quvvati rekord darajadagi yani ***3,146 GVt*** ga yetdi. Shamol va quyosh energiyasi barcha yangi qayta tiklanuvchi energiya qo‘shimchalarining deyarli ***90%*** ni tashkil etdi. Fotoelektrik stansiyalar taxminan ***175 GVt*** va shamol energiyasi ***102 GVt***ni tashkil etdi [1].

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Respublikada quyosh energetikasi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish sohasida bir qator muhim hujjatlar, jumladan 2017-yil 26-mayda qabul qilingan PQ-3012-sonli “2017-2021-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa bir qator qarorlar ijrosida gidroenergetikaning quvvatini ***601,9 MVt***, quyosh energetikasi quvvatini ***300 MVt***, shamol energetikasining quvvatini ***102,0 MVt***, umumiy holatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish quvvatini ***1003,9 MVt*** ga oshirish ko‘zda tutilgan va amalga oshirilmoqda [2].

Munozara

2026-yilga borib, O‘zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalari hajmi ***8000 MVt***ga, gidroelektr stansiyalari hajmi esa ***2 920 MVt***ga (jami ***10 920 MVt***) yetkazilish ko‘zda tutilgan [3]. Har bir qayta tiklanuvchi energiya mabalarini elektr tarmoqqa integratsiyasida uning kichik va katta quvvatli bo‘lishidan qat’iy nazar elektr energiya sifat ko‘rsatkichlari yuqori o‘rinda turadi.

Turli mamlakatlarning me’yoriy-huquqiy bazasida (tarmoq kodlari - grid codes) quyosh elektr stansiyalarini va boshqa taqsimlangan energiya ob’ektlarini energiya tizimlariga ulash bo‘yicha asosiy masalalar quyidagilardan iborat: stansiyalar va podstansiyalar shinalarida kuchlanishni bir me’yorda saqlash, qisqa tutashuvlar natijasida yuzaga keladigan o‘tish jarayonlarida barqarorlik talablari, faol va reaktiv quvvatni tartibga solish, elektr energiyasi sifatiga qo‘yiladigan talablar. Umumiy holda, Fotoelektrik stansiyalarni tarmoqqa ommaviy integratsiyalashuvining texnik masalalarini tasniflash quyidagicha ifodalanishi mumkin (1-rasm).

Elektr energiyasi sifat ko‘rsatkichlari uchun normal ruxsat etilgan va chegaraviy ruxsat etilgan qiymatlari o‘rnatilgan. Bunda 24 soatdan kam bo‘lmagan vaqt ichida nazorat qilinganida, ko‘rsatkich qiymatlari chegaraviy ruxsat etilgan qiymatlaridan chiqmasligi va normal ruxsat etilgan qiymatlari ichida qolishi kerak bo‘ladi. Elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlari kuchlanish,

chastota va tok bilan xarakterlanadi. Tarmoqdagi kuchlanishning og‘ishlari elektr tarmoqga ulangan iste’molchilarining ish rejimlari, qo‘shimcha yuklamalarning ulanishi va buning oqibatida kuchlanishning pasayishi bilan bog‘langan bo‘ladi.

20 kVt gacha bo‘lgan quvvatli quyosh elektr stansiyalarni elektr tarmoqqa ulashda “Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi” AJga murojaat qilinib shartnoma tuziladi hamda quyosh elektr stansiyasi hududi, tashkilot ulangan TP, uning raqami va qaysi fiderga ulanganligi rasmi, elektr hisoblagich o‘rnatilgan joy, plombasi, elektr hisoblagichdagi 1.8.0 va 2.8.0 rasmi, bank rekvizitlari, passport va INN, iste’molchi nomi, shartnoma raqami va texnik sharti taqdim etiladi. ***20 kVt*** dan yuqori quvvatli quyosh elektr stansiyalarini yagona elektr tarmoqqa ulashda yuqoridagi hujjatlardan tashqari «O‘zenergoinspeksiya» tomonidan elektr tarmoqqa ulash uchun ruxsatnoma beriladi.



1-rasm. Fotoelektr stansiyani tarmoqqa integratsiyalashning texnik jihatlari.

Fotoelektrik tizimlarni markaziy elektr tarqatish tarmog‘iga keng ko‘lamli integratsiyalash uchun boshqaruv moslamalarining mustahkam tizimi, konvertatsiya uskunalari va himoya tizimlari kerak. Ushbu tizimlarda nochiziqli iste’molchilarning ortishi bilan garmonik buzulish darajasi oshadi [8]. Shuningdek, amaldagi Davlat standarti bilan kuchlanishi ***1000 V*** bo‘lgan tarmoqlarga ulanishi mumkin bo‘lgan normal ruxsat etilgan kuchlanishning barqaror og‘ishi ***±5%*** ni tashkil qilsa, chegaraviy ruxsat etilgan kuchlanish og‘ishi ***±10%*** belgilangan. Kuchlanishning o‘zgarishining sinusoidadan normal ruxsat etilgan og‘ishi ***0,4 kV*** kuchlanishda ***±8%***, chegaraviy ruxsat etilgan qiymati ***±12%***, yuqori ***6,10 kV*** li tarmoqda normal ruxsat etilgan og‘ishi ***±5%***, chegaraviy ruxsat etilgan kuchlanish og‘ishi ***±8%*** qabul qilingan. Amaldagi davlat standartlarida chastota o‘zgarishlariga normal ruxsat etilgan qiymati δf_{nom}***=±0,2Gts*** va chegaraviy ruxsat etilgan qiymatlari δf_{nom}***=±0,4Gts*** belgilangan. Elektr energiyasi sifatiga qo‘yilgan talablarning amaldagi me’yorlariga ko‘ra energosistemaning normal ish rejimlarida chastotaning og‘ishi uchun ***±0,2% (±0,1 Gts)*** kattalik belgilangan [9]. Shu talablar asosida quyosh elektr stansiyalarini invertorlar orqali elektr tarmoqqa integratsiyalanadi. Invertorlar yarimo‘tkazgichli ***DC-AC*** energiyani konvertatsiya qilib agar uning parametrlari tarmoq parametrlarining kuchlanish va chastota qiymatlari belgilangan ish qiymatlaridan tashqarida bo‘lsa, elektr tarmog‘idan uzib qo‘yadi va bundan tashqari qo‘shimcha himoya qurilmalari ham bo‘ladi.

Fotoelektrik panellar ishlab chiqarayotgan o‘zgarmas tok energiyasini o‘zgaruvchan bir fazali ***220V/50Gts*** yoki uch fazali ***380 V/50 Gts*** tokga aylantirish uchun turli xil invertorlar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro quyidagilar bo‘yicha farqlanadi:

- quvvati bo‘yicha;
- doimiy tok tomonidagi kuchlanishi bo‘yicha;
- chiqish signali shakli bo‘yicha;
- o‘rnatilgan zaryadlovchi qurilma va to‘g‘ridan-to‘g‘ri energiya ta’minoti tizimi (boshqa o‘zgaruvchan tok manbasidan) bo‘yicha;
- analog yoki impulsli zanjiri va boshqalari bo‘yicha.

Invertorni tanlashda ***IEC 61683:1999, IEC 62109-1*** talablariga rioya qilish kerak [10].

Xulosa

Bugungi kunda barcha qayta tiklanuvchi energiya turlarining ichida quyosh energiyasidan foydalanish juda ham qulay hisoblanadi. Fotoelektrik stansiya faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ularning ishlashi uchun yoqilg'i bepul. Bu holat elektr energiyasining normallashtirilgan narxini sezilarli darajada pasaytiradi Fotoelektr stantsiyasini tarmoqqa integratsiya qilish elektr energetika tizimini loyihalash va rejalashtirish jarayonlarida o'zgartirishlar va o'zgarishlarni talab qiladi. Past va o‘rta quvvatga ega fotoelektr stansiyalarini elektr tarmog‘iga integratsiyalashning har ikkala ulanishida sifat ko‘rsatkichlarining talab darajasining yuqoriligi tarmoq ishonchliligi, sanoat va iste’molchilarni sifatli elektr energiya bilan uzluksiz ta’minlashda hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.ren21.net/gsr-2022/pages/keymessages/keymessages/#key-power
2. Quyosh energetrikasi. I.A. Yuldoshev, M.N. Tursunov, S.Q. Shoqa‘o‘chqorov, T.R. Jamolov
3. https://daryo.uz/2022/03/28/ozbekistonda-qayta-tiklanuvchi-energiya-manbalari-milliy-ilmiy-tadqiqot-instituti-tashkil-etildi/
4. I.A. Yuldoshev, M.N. Tursunov, S.Q. Shog‘o‘chqorov, T.R. Jamolov, Quyosh energetrikasi
5. N.A. Matchanov, A.A. Mirzayev, G‘.X. Xasanov, F.F.Sodiqov, A.P. Xudaynazarov, O‘rnatilgan quvvati 20 kVt bo‘lgan fotoelektrik stansiya mahalliy elektr tarmoq bilan parallel ishlaganda ulanish nuqtasidagi kuchlanish vat ok kuchi garmonikalarining tadqiqi, “Energiya va resurs tejash muommolari”, Ilmiy amaliy jurnal 2022. №3. 198-206 betlar.
6. 929-2000 - IEEE Recommended Practice for Utility Interface of Photovoltaic (PV) Systems. Pages 25.
7. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyuldagi 610-son qarori
8. R.A. Messenger and J. Ventre, “Photovoltaic system engineering, second edition”, Boca Rota, 2004
9. A.D. Raxmatov, “Elektr energiyasini uzatish va taqsimlash”. Toshkent-2020
10. “Shaharsozlik normalari va qoidalari”, SHNQ 2.04.15-20, Toshkent-2022

ELEKTR AVTOMOBILNING AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Rajabov Jamoliddin Baxtiyor o‘g‘li
Stajyor-tadqiqotchi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy-ilmiy tadqiqot instituti
jamoliddinrajabov1995@gmail.com
Xudaynazarov Anvar Panji o‘g‘li
Kichik ilmiy xodim, O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy-ilmiy tadqiqot instituti
anvarx-89@mail.ru
Sarsenbayev Dauletbay Baktibayevich
Kichik ilmiy xodim, O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy-ilmiy tadqiqot instituti
d.b.sarsenbaev@mail.ru

Kirish:

Kun sayin rivojlanib borayotgan bizning dunyomizda elektr energiyaga bo‘lgan talab kuchayib bormoqda. 2010 yilda yo'lda elektr avtomobillar soni bir necha yuz edi; bu raqam 2017-yilda taxminan uch millionga, 2019-yil boshida esa taxminan olti millionga yetdi [1]. Ayniqsa elektr dvigatellarining ish samaradorligi 80-95% [2] ni tashkil etdi. Elektr transport vositalarining sotib olish narxi yuqori ba'lsada, ular texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari kam va oddiy transport vositalariga qaraganda ancha kam energiya sarflaydi. Shamol va quyosh kabi qayta tiklanadigan energiya manbalari ET zaryadlovchi qurilmasiga kerak bo‘ladigan quvvatni yetkazib berishdagi eng

samarali yechimlaridan biri deb hisoblaydi va shu orqali elektr tarmoqdagi qolgan iste’molchilarni elektr energiya iste’moliga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi deb [3].

Nazariy asos:

ET zaryadlovchi modelining ishlash printsipi.

ET zaryadlovchi qurilmasi asosan yuqori quvvatli kommutatsiya quvvat manbai hisoblanadi. Umuman olganda, ET zaryadlovchi qurilmasining 3 ta asosiy tuzilishi mavjud: (1) boshqarilmaydigan diod va kesgich, (2) boshqarilmaydigan diod va DC/DC konvertori va (3) PMW diodi va DC/DC konvertori [4].

ET akkumulyatori modellari.

Umuman olganda, batareyaning bir nechta soddalashtirilgan asosiy modellari mavjud: elektrokimyoviy model, ekvivalent sxema modeli va neyron tarmoq modeli. Odatda ishlatiladigan ET ning akkumulyator modellari mavjud: ichki qarshilik modeli, RC modeli va neyron tarmoq modeli [5]. Bugungi kunda yangi avlod ET lari uchun ideal quvvat manbaiga ega bo'lgan lityum-ion batareyalari ishlatilmoqda. 1991 yilda SONY birinchi marta o'zining tijorat elektron mahsulotlari uchun Li-ion qayta zaryadlanuvchi batareyalarni qo'lladi. Uning afzalliklari, jumladan, yuqori o'ziga xos energiya zichligi va quvvati, xotira effekti yo'qligi va o'z-o'zidan zaryadsizlanish tezligining pastligidur. 2018 yilda LMP batareyasi -20 ° C dan 65 ° C gacha bo'lgan keng harorat oralig'idagi Port operatsiyalari uchun tijorat sifatida ishlatilgan. Suvli lityum-ion batareyalarning mukammal ishonchliligi va xavfsizlik xususiyatlari ularni samolyotlar va suv osti kemalarida foydalanishga qo‘l keldi, bu esa ET muhandislarining ularni tijorat maqsadlarida foydalanish uchun ishlab chiqishga e'tiborini tortdi. $Li_2 So_4$ elektrolitli suvli Li-ion batareyasining sig'imi, energiya zichligi va aylanish muddati mos ravishda 100 Ah / kg, 30 Vt / kg va 1000 tsiklni tashkil qiladi [6,7].

Elektr avtomobilining afzalliklari

1. Yoqilg'i yo'q, ifloslanish yo'q.
2. Kamroq texnik xizmat ko'rsatishni talab qildi.
3. Shovqinsiz ishlaydi.
4. Yuqori boshlang‘ich momentni hosil qiladi.
5. Ko‘chalarda va uyda quvvatlantrishimiz mumkin.
6. Yoqilg‘i sotib olishga qaraganda kamroq pul sarflash
7. Bu qazib olinadigan yoqilg'ilarni tejashga yordam beradi.

Natijalar:

Amerikada o‘rtacha yoqilg'i bilan ishlaydigan avtomobilni haydash uchun 1 milga 15 sent to'laydi, ko'plab elektromobillar esa 1 milga besh sent to‘laydi. Agar ko'p odamlar quyosh panellarini o'rnatgan holda mashinalarini zaryad qilsalar, elektr avtomobillari bilan har yili yoqilg'ining o‘rtacha 2000-4000 dollar tejaysiz. Elektr transport vositasining eng katta afzalligi uning 100 foiz ekologik toza elektr quvvati bilan ishlashida. U toza energiya manbaida ishlagani uchun atrof-muhitga zaharli gazlar yoki tutun chiqarmaydi hatto ular gibrid avtomobillardan ham yaxshiroq. EA lar tobora ommalashib bormoqda. Ular deyarli 3 barobar tejamkor ichki yonuv dvigatelli avtomobillarga qaraganda.



1-rasm. Elektr avtomobillarni sotish grafigi

Xavfsizlik jihatdan: EA ichki yonuv dvigatell avtomobillari kabi sinov protseduralaridan o'tadi va EA dan foydalanish xavfsizroq, chunki ularning og'irlik markazi pastroq bo'ladi, bu esa to'qnashuvda ularni yo'ldan chiqib ketmasligini ta'minlaydi. Voqea sodir bo'lgan taqdirda ham xavfsizlik yostiqchalari ochiladi hamda batareyadan elektr ta'minoti uziladi. Bu sizni va avtomobildagi boshqa yo'lovchilarni jiddiy jarohatlardan himoya qilishi mumkin. Yonuvchan yoqilg'i yoki gaz bo'lmasa, ular portlash ehtimoli kamroq [8].

Narx jihatdan: Avvalari elektromobil sotib olish qimmatga tushardi. Ammo bugungi kunga kelib texnologik taraqqiyot yuksalgani sabali ham xarajatlar, ham texnik xizmat ko'rsatish pasaydi. Batareyalarning ommaviy ishlab chiqarilishi sabali EA ning tannarxini yanada pasaytirdi va shu bilan uni ancha tejamkor qildi. Lityum-ionli akkumulyator batareyasining o'rtacha narxi 2010-yildan 2020-yilgacha 90 foizga kamaydi. Lityum-ionli akkumulyator batareyasining bir kilovatt-soati 2010-yilda $1200 ga tushdi, biroq 2015-yilda narxlar bir kVt/soat uchun $384 gacha, 2020-yilda esa kVt/soat $100 bo'ldi [9].

Konstruktsiya jihatdan: Avtomobillar dunyosida elektromobillar eng oddiy haydash usuliga ega va unda asosiy 3 ta kompanent mavjud. 1. Mator 2. Mator kantroller 3. Batareya.

Batareya Batareyaning asosiy vazifasi elektr energiyasini saqlashdir. Ko'pchilik gibrid va ET vositasi lityum-ion batareyalardan foydalangan. Bu saqlash tizimi odatda gibrid elektr transport vositasi uchun zarurdir. Turli xil batareyalar va ularning xususiyatlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan [10].

1-Jadval: Batareyalarning turlari.

Xususiyatlari	Lead Acid	NiCd	NiMH	Li-on		
				Cobalt	Fosfat	Marganets
Mahsus energiya Wh/kg	30-50	45-80	60-120	150-250	100-150	90-120
Ichki qarshilik	Juda past	Juda past	Past	O'rtacha	Past	Juda past
Quvvatlash vaqti	8-16 soat	1-2 soat	2-4 soat	2-4 soat	1-2 soat	1-2 soat
O'z-o'zidan quvvat tushishi/oy	5%	20%	30%	<5%		
Zaryadlash harorati	-20 +50 ℃ (-4 +122°F)	0-45℃ (-32 +113°F)		0-45 ℃ (-4 +140°F)		
texnik xizmat ko'rsatish talabi	3-6 oy	Har bir to'liq zaryadsizlanish so'ng 90 kun ichida		Ihtiyoriy payt		
Ishlatilmoqda	1800	1950	1990	1991	1996	199
Davriyligi	200-300	1500	300-500	500-1000		
Energiya tejamkorligi (%)	70-90	60-90	60	75-90		

Munozara:

Elektr avtomobilning kamchiliklari

1. Bu juda qimmat.

2. Uzoq masofaga sayohat qilish uchun emas, chunki zaryadlash qurilmasi hamma joyda ham mavjud emas.
3. Uni qayta zaryadlash uchun ko'proq vaqt talab etiladi.
4. Tanlov soning cheklanganligi.

Zaryadlash nuqtalari

Bugungi kunda ham zaryadlash qurilmasi va quyish stantsiyalari hali ham rivojlanish bosqichida. Biz har kuni boradigan joylarning hammasida ham avtomobilimiz uchun zaryadlash shoxobchalari bo'lmaydi, ya'ni agar biz uzoq safarda bo'lsak, qishloq yoki shahar atrofiga tashrif buyursak uning zaryadi tugashi mumkin. O‘zbekistonning qishloq joylarida zaryadlash stantsiyasini topish qiyinroq. Ushbu mashinalarning aksariyati taxminan 250-300 km yo‘l bosadi va ularni qayta zaryadlash kerak. Siz ulardan hozircha uzoq sayohatlar uchun foydalana olmaysiz.

Uzoqroq zaryadlash vaqti

Ichki yonuv dvigatelli mashinani yonilg'i bilan to'ldirish uchun bir necha daqiqa kerak bo'lsa-da, EAni to'liq zaryadlash uchun taxminan 4-6 soat va ba'zan 10-12 soat kerak bo'ladi. Shuning uchun bizga maxsus elektr stantsiyalari kerak bo'ladi, chunki ularni to'ldirish uchun ketadigan vaqt juda uzoq. Ko‘p odamlar vaqtni tejash uchun ham EA sotib olishmaydi.

Shovqin yo‘qligi

Shovqin yo‘qligi bir oz noqulaylik tug'dirishi mumkin, chunki odamlar mator ovozinini eshitishni yaxshi ko'radilar, agar ular mator ovozini eshitib turmasa gaz pedalini ko‘proq va qattiqroq bosadilar hamda bu ba'zida bahtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.

Tanlov soning cheklanganligi.

ET vositalari bozori kengayib bormoqda, ammo u hali ham an'anaviy avtomobillar bozoridek ko‘p tanlovli emas. Bugungi kunda mavjud bo'lgan dizel va benzinli avtomobillar soni, shuningdek, modellar va xususiyatlardagi turli xil tanlovlar bugungi kunda mavjud bo'lgan elektromobillar tanlovidan oshib ketadi. Bu ayniqsa muayyan ehtiyojlarni qondiradigan mashina izlayotganlar uchun kata kamchilik bo'lishi mumkin, masalan: kimdir oilaviy mashina izlayotgan yoki uzoq sayohatga va yana kimdur tog‘li joylarda mashinada aylanishni hohlaydi [9].

Narx

EA ning narxi an’anaviy mashinalarga qaraganda qimmatroq. Biz ushbu jadvaldan turli kompaniyalar tomonidan ishlab EA ning narxlarini ko‘rib chiqamiz.

2-jadval. EA ning narxlari

T/r	EA markasi	Narxi	Ishlab chiqarilish yili
1	Nissan Leaf	$27,400	2022
2	BMW i3	$44,450	2021
3	Tesla Model 3	$46,990	2022
4	Hyundai Kona	$34,000	2022
5	Kia Niro	$39,990	2022
6	Audi Q4 e-tron	$43,900	2023
7	Chevrolet Silverado	$39,900	2024

Xulosa:

Agar biz zaryadlash vaqtlari bilan bog'liq masalalarni hisobga olmasak, elektromobillar ishlash jihatidan oddiy avtomobillardan ancha ustun ekanligini inkor etolmaymiz. Texnologiya rivojlanishi bilan quvvat chegarasi va zaryadlash vaqti bilan bog'liq muammolar ham yo'qoladi. Yaqin kelajakda elektronika sanoati yangi texnologiyalarni eksponensial tezlikda ishlab chiqadi. O'n yil oldin sensorli telefonlar kam va faqatgina boy odamlarda bo‘lgan ammo bugungi kelib esa hatto maktab o‘quvchisida ham bor. Hozirda “Tesla Motors” o'zlarining EA larini noldan 75 daqiqa ichida to'liq zaryad qilish imkonini beruvchi supercharger texnologiyasiga katta sarmoya kiritmoqda. Bu loyiha yaqin vaqtda emas, ammo ular 8-10 yil ichida zaryadlash vaqtini 9 soatdan

75 daqiqaga qisqartirishadi. GM va Nissan 2021-yil yanvar oyida 2030-yillarga borib butunlay elektrga o‘tishlarini e’lon qilishdi. Biz o‘ylaymizki qolgan kompaniyalar ham o‘zlarining elektromobillarini ishlab chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Das, H.S.; Rahman, M.M.; Li, S.; Tan, C.W. Electric vehicles standards, charging infrastructure, and impact on grid integration: A technological ETiew. Renew. Sustain. Energy RET. 2020, 120, 109618. [CrossRef]

2. Canals Casals, L.; Martinez-Laserna, E.; Amante García, B.; Nieto, N. Sustainability analysis of the electric vehicle use in Europe for CO2 emissions reduction. J. Clean. Prod. 2016, 127, 425–437. [CrossRef]

3. Von Jouanne, A.; Husain, I.; Wallace, A.; Yokochi, A.Gone with the wind: Innovative hydrogen/fuel cell electric vehicle infrastructure based on wind energy sources. IEEE Ind. Appl. Mag. 2005, 11, 12–19.

4. Etezadi-Amoli, M.; Choma, K.; Stefani, J. Rapid-Charge Electric-Vehicle Stations. IEEE Trans. Power Deliv. 2010, 25, 1883–1887. [CrossRef]

5. Fernandez, L.P.; Roman, T.G.S.; Cossent, R.; Domingo, C.M.; Frias, P. Assessment of the Impact of Plug-in Electric Vehicles on Distribution Networks. IEEE Trans. Power Syst. 2011, 26, 206–213. [CrossRef].

6. Chen Xin-qi, Lee Peng, Hu Wen-tang et al (2008) Analysis of impacts of electric vehicle charger on power grid harmonic. Electr Power 41(9)

7. Gang Zhao, Xiaolin Wang and Michael Negnevitsky // Connecting battery technologies for electric vehicles from battery materials to management // iScience 25, 103744, February 18, 2022. pp 3-5.

8. https://www.conserve-energy-future.com/advantages-and-disadvantages-of-electric-cars.php

9. https://joinyaa.com/guides/average-price-of-an-electric-car/

10. Rohan Sarode, Ankita Eadke // ELECTRIC VEHICLE (Construction and Working principle) // International Research Journal of Engineering and Technology (IRJET) Volume: 07 Issue: 10 | Oct 2020. Pp

ISHLAB CHIQARISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNI JORIY ETISH

Raxmonov I.U., Xakimjonov A.
Toshkent davlat texnika universiteti

Sun’iy intellekt nima? Sun’iy ong ilovalari mukammal web-qidiruv tizimlari, inson nutqini anglash o‘ziyurar mashinalar hamda strategik o‘yin tizimlarida yuqori darajada raqobatlashishni o‘z ichiga oladi Mashinalar tobora ko‘p qobiliyatlarga ega bo‘lib borishar ekan, „ong“ talab etuvchi vazifalar ko‘pincha sun’iy ong effekti deb ataluvchi fenomen bo‘lgan sun’iy ong ta’rifidan olib tashlanad

Odatda robotlar deganda, ko‘pchilikning kòz oldiga insonlardek gaplasha oladigan ularning òrniga barcha yumushlarni bajara oladigan yordanchilar keladi. Ammo bu nisbatan kemgroq tushuncha. Aslida mobil qurulmangizdagi dasturlar, lug‘atlar turli xil. Ularning qamrovi kichikroq bòlib ma'lum bir yònalishdagina sizga yordam bera oladi. Ya'ni bajarmoqchi bòlgan amallaringiz turuga qarab tegishli dasturdan foydalamasiz.

Sun’iy intelekt ishlab chiqarish sanoatida qanday qo‘llaniladi?

Ishlab chiqarishda sun'iy intellekt rejalashtirish va ishlab chiqarish maydonchasi operatsiyalarida eng katta qiymatni taklif qilishi mumkin. BCG hisobotiga ko‘ra, ishlab chiqarish sanoatida sun'iy intellektdan foydalanishning eng muhim holatlari quyidagilardir:

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtiradigan aqlli, o‘zini o‘zi optimallashtiradigan mashinalar

Yaxshiroq rejalashtirish uchun samaradorlik yo‘qotishlarini prognoz qilish

Bashoratli parvarishlashni osonlashtirish uchun sifat nuqsonlarini aniqlash

Biz keyingi bo‘limlarda yuqorida aytib o‘tilgan har bir toifadagi eng mashhur foydalanish holatlarini ko‘rib chiqamiz. Ammo davom ettirishdan oldin, keling, AI qanday qilib ishlab chiqarishni o‘zgartirishini tushunib olaylik.

To‘rtinchi avlod texnologiyalarining paydo bo‘lishi raqamli fabrikalar bilan IFR (Xalqaro robototexnika federatsiyasi) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab zavodlarda allaqachon 2,7 million sanoat robotlari ishlagan. Bu 2019-yilga nisbatan 12 foizga ko‘pdir va raqamlashtirish tashabbuslari eksponent ravishda o‘sishi bilan tendentsiya yanada o‘sishi kutilmoqda.

Ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish xarajatlarini yanada pasaytirish va bozorga chiqish vaqtini yaxshilash uchun AI va mashinani o‘rganish kabi texnologiyalarga sarmoya kiritishda davom etadilar. Global pandemiyadan keyin ishlab chiqaruvchilar vazifalarni avtomatlashtiradigan, uzilishlarni bashorat qiladigan va barcha operatsiyalarni oxirigacha nazorat qilishni osonlashtiradigan texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘z bizneslarini yanada mustahkamroq qilishga intiladi.

Bashoratli texnik xizmat ko‘rsatish. Sensor ma'lumotlarini tahlil qilish orqali ishlab chiqaruvchilar potentsial uzilishlar va baxtsiz hodisalarni aniqlash uchun AI texnologiyasidan foydalanadilar. Sun'iy intellekt tizimlari ishlab chiqaruvchilarga funktsional uskunaning qachon yoki ishlamay qolishini bashorat qilishda yordam beradi, shuning uchun ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta'mirlash nosozlik yuzaga kelgunga qadar rejalashtirilishi mumkin. Sun'iy intellektga asoslangan prognozli texnik xizmat ko‘rsatish tufayli ishlab chiqaruvchilar samaradorlikni oshirishi va mashinaning ishdan chiqishi narxini kamaytirishi mumkin

Sifatni ta'minlash Sifat kafolati - bu xizmat yoki mahsulotning istalgan sifat darajasini saqlab qolishdir. Yig‘ish liniyalari ma'lumotlarga asoslangan, o‘zaro bog‘langan va avtonom tarmoqlardir. Ushbu yig‘ish liniyalari eng yaxshi yakuniy mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradigan parametrlar va algoritmlar to‘plamiga asoslangan holda ishlaydi. AI tizimlari mashinani ko‘rish texnologiyasidan foydalangan holda odatiy natijalardan farqlarni aniqlay oladi, chunki ko‘pchilik nuqsonlar ko‘rinadi. Yakuniy mahsulot kutilganidan past sifatga ega bo‘lsa, AI tizimlari foydalanuvchilarga o‘zgartirishlar kiritish uchun reaksiyaga kirishishi uchun ogohlantirishni ishga tushiradi.

Hozirda sun'iy intellektning sohalarga joriy etilishi uchun turli sabablar keltirilmoqda, ulardan uchta eng asosiysini keltirib o‘tamiz. Birinchisi, arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari. Ikkinchisi, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarning mavjudligi. Sun'iy intellekt mahsulining aniq prognozlarni amalga oshirishi uchun u katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi kerak. Ushbu omil sabab turli vositalar, xususan, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning oddiy hamda arzon vositalari, turli xil algoritmlar yaratildi.

Агар (4) тенглама коэффициентлари авариядан кейинги режимнинг параметрлари орқали аниқланса ва сирпанишнинг бошланғич шартлари (нолга тенг) сифатида қабул қилинса ва бунда бурчак узининг критик бурчак қийматига эришса, у ҳолда биз авариядан кейинги ҳолатнинг ҳаракат траекториясини оламиз. Агар (4) тенглама коэффициентлари авария режимининг параметрлари орқали аниқланса ва сирпанишнинг бошланғич шарти сифатида (нолга тенг) қабул қилинса ва бурчак дастлабки синхрон режимдагидек бўлса у ҳолда, биз авария режимининг ҳаракат траекториясини оламиз. Шундай қилиб, дастлабки режим маълумотлари асосида: турбинанинг қуввати, унинг бошланғич бурчаги, ЭЭС қаршиликлари орқали ТФ нинг турғун ёки нотурғун режимлари эталони аниқланади. Режим параметрларининг ўлчовлари асосида роторнинг чиқиш бурчаги жорий қиймати аниқланади ва бу қиймат турғунлик шартлари чегарасини белгиловчи бурчак билан таққосланади ва ТФ қийматлари аниқланади. Қисқа туташувни ўчиришнинг чегаравий бурчагини авария ҳолатидаги ва авариядан кейинги (С, Х) қийматларидан фойдаланиб қўйидаги формула орқали аниқланиш мумкин:

$$cos(\delta - \Delta\delta) = \frac{X \cdot X'(C - C_1)}{X - X'} \quad (5)$$

ТФ ни пасайиш тенденцияси генераторни турғунлик чегарасига яқинлашаётганини билдиради. Агар қабул қилинган бошқарув назорат чоралари ижобий ечим берса, унда ТФ қиймати яна ўсишни бошлайди, акс ҳолда, ТФ қиймати нолга тенглашса, генераторни ўчириш керак бўлади. Қисқа туташувни ўчиришнинг чегаравий вақтини аниқлаш усули қуйидаги босқичлардан иборат:

1. Ротор ҳаракат траекторияси тенгламаларини энергосистеманинг авария ҳолатларидан кейинги режими учун аниқлаш.

2. Ротор ҳаракат траекторияси тенгламаларини энергосистеманинг авария ҳолати учун аниқлаш.

3. Авария ва авариядан кейинги режимлар учун ротор ҳаракат траекториялари тенгламасини биргаликда ечиш. Роторнинг чиқиш бурчаги қиймати иккала ҳаракат траекториялар тенгламалари ечимини қаноатлантирса бу ҳол (бурчак) системада қисқа туташувни ўчиришнинг чегаравий бурчаги ҳисобланади.

4. Қисқа туташувни учиришнинг чегаравий бурчагини аниқлаш формуласига асосан [6]:

$$t_{по} = \sqrt{\frac{T_j \cdot (\delta_{по} - \delta_0)}{P_{ПА} \cdot (sin\delta_{по} - sin\delta_0)}} \cdot arccos \sqrt{\frac{\frac{P_0}{P_{ПА}} \cdot sin\delta_{по}}{\frac{P_0}{P_{ПА}} sin\delta_0}}; \quad (6)$$

Қуйида изланишлар натижалари келтирилган бўлиб унда ЭЭС нинг оддий схемаси кўриб чиқилган. Бунда схема бошланғич режимига қувват ўзгаришлари таъсири ўрганилади (расм-1). Бунда ташқари қисқа туташувни ўчириш вақтидаги турғун ва ёки нотурғун режимлар характеристикасини таснифлаш синфлари эталонига таъсири ҳам ўрганилади. Асосан $s_i = f(\delta_i)$ функционал боғланиш кўриб чиқилган бўлиб турли хил параметр ўзгаришларини авария ва авариядан кейинги режимларга таъсири кўриб чиқилган.



T_j=9 с. X'_d = 0,2 н.б., X_t = 0,4 н.б., X_l = 0,6 н.б.

Расм -1. Оддий ЭЭС схемаси.

Қуйидаги ҳолатлар ўрганиб чиқилди:

1. ЭЭС нинг бошланғич ишлаш режимида турбина қуввати ўзгаради, қисқа туташувнинг бир тури (уч фазали симметрик) бир жойда кўриб чиқилади, демпфер моменти ҳисобга олинмайди, генераторнинг қўзғатиш чулғамидаги ўткинчи жараёнлар ҳисобга олинмайди: *P_t= var (0.6,0.7,……,1 нб.), $P_{ав}$=const; P_d=0.*

2. Системанинг дастлабки иш режимида турбина қуввати ўзгармайди, қисқа туташувнинг жойлашиши ўзгаради, қўзғатиш чулғамида демпфер моменти ҳисобга олинмайди: P_t= const (1 н.б.);

$P_{ав}$ = var.(0.4 н.б.); P_d = 0.

3. Электр станциясининг дастлабки ишлаш режимида турбинанинг қуввати ўзгармайди, қисқа туташувнинг тури ва жойлашуви ўзгармайди, демпфер моменти ўзгаради: P_t = const (1 ое); $P_{ав}$ = 0.4 ое; $P_д$ = var.

Генератор роторининг ҳаракат траекториясида, мисол сифатида, генератор роторининг ҳаракат траекторияси келтирилган. Бошланғич режимда генераторнинг қуввати ўзгармаган ҳолда ва қисқа туташув шароитида бурчак куввати амплитудаси ўзгаришлари акс эттирилган.



Расм-2. Генератор роторининг ҳаракат траекторияси.

Генератор роторининг ҳаракат траекторияси таҳлилидан келиб чиқадики, қисқа туташувнинг схемадаги жойлашуви агар бунда турбина қуввати бошланғич қийматидан ўзгармаса авариядан кейинги режимда ротор ҳаракати тенгламалари боғлиқлиги ўзгармайди, бу параметрлар комбинацияларининг иккинчи вариантида ротор ҳаракати тенгламалари характеристикасидаги ажралиш эгри чизиғи эканлигини тасдиқлайди ва бундан билинадики ТФ турғун ёки нотурғун режимлар синфининг эталони ўзгармайди. Ва шу билан бир қаторда расм-3 да ΔP нинг чегаравий қисқа туташув вақтига боғлиқлиги характеристикаси келтирилган, бундан кўриниб турибдики бу боғлиқлик ночизиқли характерга эга.



Расм- 3. ΔP нинг чегаравий қисқа туташув вақтига боғлиқлиги характеристикаси

Хулоса

1. Электр станцияларининг электр тизими билан параллел ишлашини таъминлаш электр энергия тизимларининг ишлашидаги фундаментал ўзгаришлар шароитида ЭЭС нинг ишончлилигини ошириш вазифаси муҳим аҳамиятга эга. Ушбу муаммони ҳал қилиш кўп жиҳатдан бошқарув ва назорат тизимларининг ўз вақтида авария режимларини аниқлаши ва шу авариярга қарши комплекс таъсирларни қўлланилишини талаб этади.
2. Образларни аниқлаш назарияси усулларига асосланган генераторни уткинчи жараёнларини бошқариш алгоритми Ляпунов функцияларидан фойдаланган алгоритмларга нисбатан бошқарув самарадорлигини оширади.
3. Генераторда уткинчи жараёнларни бошқариш ротор ҳаракати траекторияларига асосланган ҳолда ишлаб чиқилган.

Адабиётлар

[1] Александров Е.П. Применение теории распознавания образов для классификации режимов сложных электрических систем // Электричество.– 1978. - N9.- С. 76-77.

[2] Веников В. А. Переходные электромеханические процессы в электрических системах: Учеб. для электроэнергет. спец. вузов. – М.: Высш. шк., 1985. – 536 с.

ЛОЙИҲА ЁНДАШУВИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЭНЕРГИЯНИ ТЕЖАШ ВА ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИ СОҲАСИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ БОШҚАРИШ

Сафаров Х.С., Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти
Узақов Н.Ч., Термиз муҳандислик-технология институти ассистенти

Аннотация: Ушбу мақолада йирик саноат корхоналарида энергияни тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш бўйича амалиётга жорий қилинадиган тахлиллар ва уни фаоллаштириш мумкин булган йўналишлар, янги замонавий технологиялардан фойдаланиш бўйича лойиҳалар, бошқарувни ташкил этиш, иннавацион фаолиятни фаоллаштириш имкониятлари бўйича тахлиллар баён этилган

Аннотация: В данной статье представлен анализ внедрения в практику энергосбережения и повышения энергоэффективности на крупных промышленных предприятиях и возможные направления ее активизации, проекты по использованию новых современных технологий, организации управления, возможности активизации инновационной деятельности

Калит сўзлар: Энергияни тежаш, энергия самарадорлик, инновацион фаолият, электр энергиянинг сифат кўрсатгичлари

Ключевые слова: Энергоэффективность, энергоэффективность, инновационная деятельность, качественные показатели электрической энергии.

Мақолада мавжуд меъёрий-ҳуқуқий базани ўрганиш, ушбу соҳада олиб борилаётган минтақавий сиёсат мониторинги натижалари ва йирик саноат корхоналари раҳбарларининг сўровлари асосида энергия тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш бўйича Ўзбекистоннинг жорий амалиёти таҳлил қилинади. Мавжуд қонунчилик базасининг энергия

тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш соҳасидаги инновацион фаолиятни фаоллаштириш имкониятларини чеклайдиган хусусиятлари аниқланди.

Аниқланган муаммоларни ҳал қилишнинг мумкин бўлган усулларидан бири сифатида лойиҳа ёндашувидан фойдаланиш таклиф этилади ва унинг усуллари ва воситаларини кўриб чиқилаётган фаолият соҳасининг ўзига хос хусусиятларига мослаштириш зарурати асосланади. Қарорларни қабул қилиш жараёнларини қуриш ва энергия тежамкор инновацияларни яратиш, амалга ошириш ва тижоратлаштириш бўйича лойиҳаларни бошқариш тузилмасини шакллантиришга қўйиладиган талаблар кўриб чиқилган.

Ривожланган мамлакатлар билан солиштирганда Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотининг энергия зичлигининг юқори даражаси энергия тежаш ва энергия самарадорлиги соҳасида амалга оширилаётган давлат сиёсатини фаоллаштириш зарурлигини олдиндан белгилаб беради. Уни фаоллаштиришнинг мумкин бўлган йўналишларидан бири инновацион ривожланиш жараёнлари ва энергияни тежаш ва энергия самарадорлиги жараёнларининг ўзаро таъсирининг олдиндан аниқланган таъсирига асосланиши мумкин [1, 2]. Унинг моҳияти шундан иборатки, бир томондан инновацион технологиялар, асбоб-ускуналар ва материаллардан фойдаланиш энергия тежаш жараёнларини амалга ошириш ва энергия самарадорлигини ошириш учун сифат жиҳатидан янги имкониятлар яратади.

Бошқа томондан, энергия тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш жараёнини иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналиши сифатида кўриб чиқиш энергия самарадорлиги юқори бўлган инновацион технологияларни ривожлантириш векторини ташкил қилади [2]. Аниқланган самарани амалга ошириш кўриб чиқилаётган фаолият соҳалари бўйича давлат бошқаруви тизимида катта ўзгаришларни амалга оширишни тақозо этади. Сўнгги йилларда турли хил хўжалик юритувчи субъектларнинг инновацион фаоллигини ошириш амалиётида лойиҳаларни бошқариш усулларидан фойдаланиш тобора кенг тарқалмоқда. Энергия тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда. Уни амалга ошириш учун мавжуд ҳуқуқий ва меъёрий база Ўзбекистон иқтисодиётини бошқаришнинг турли даражаларида турли ўринларда тартибга солиш ва услубий ёрдам билан тавсифланади ва ҳали ҳам шаклланиш жараёнида.

Шуни таъкидлаш керакки, энергия тежаш ва энергия самарадорлиги Ўзбекистоннинг 2030 йилгача бўлган Энергетика стратегиясини амалга оширишнинг асосий элементларидан биридир. Бугунги кунга келиб, ижро этувчи ҳокимият органлари энергия тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш жараёнларини ривожлантиришни рағбатлантиришнинг бир қатор механизмларини, жумладан энергия тежаш ва энергия самарадорлиги соҳасидаги минтақавий ва шаҳар дастурларини қўллаб-қувватлаш, инвестиция фаолиятига кўмаклашиш, юқори энергия самарадорлигига эга бўлган объектлар ва технологияларни ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланишни рағбатлантириш ва бошқалар.

Шу билан бирга, бошқарувнинг барча даражалари учун энергия тежаш ва энергия самарадорлиги мақсадларига эришиш бўйича чора-тадбирларни режалаштириш ва амалга ошириш тизимига ва (ёки) ишлаб чиқарилган товарлар ва хизматларнинг энергия самарадорлиги кўрсаткичларига қўйиладиган талаблар белгиланади. Ҳукуматнинг минтақавий даражасида Ўзбекистоннинг деярли ҳар бир субъекти энергияни тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш бўйича ўз дастурини ишлаб чиқди. Кўп жиҳатдан, сўнгги беш йил ичида Ўзбекистоннинг барча ҳудудларида жорий нархларда ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯҲМ) энергия интенсивлигининг ортиши кузатилди.

Ҳудудий дастурларни таҳлил қилиш натижасида уларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишда асосий эътибор иқтисодиётнинг бюджет ва уй-жой-коммунал секторларига қаратилаётгани, саноатда энергия самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари амалда акс эттирилмаётгани маълум бўлди. Бундан ташқари, энергия тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш соҳасидаги мавжуд ҳудудий дастурлар инновацион фаолиятни қўллаб-қувватлаш ва ривожлантиришга етарли даражада йўналтирилмаган. Давлат иштирокидаги компаниялар ва давлат корпорациялари даражасида ишлаб чиқилган

талабларга мувофиқ энергия тежаш ва энергия самарадорлиги дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш амалиёти кенг қўлланилади. Шу билан бирга, энергия тежаш тадбирларини амалга ошириш учун деярли барча компаниялар ИСО 50001 энергия менежменти халқаро стандартида тавсифланган бошқарувга технологик ёндашувдан фойдаланадилар. Кўп жиҳатдан, мавжуд вазиятни энергияни бошқариш стандартлари энергия тежашни бошқариш жараёнларини ташкил этиш учун фақат умумий талабларни белгилаши билан изоҳлаш мумкин. Улар турли хўжалик юритувчи субъектларнинг тармоқ хусусиятларини ҳисобга олмайдилар, муайян вазиятларда технологик ёндашувни қўллаш бўйича услубий тавсияларни ўз ичига олмайдилар, энергияни тежаш соҳасида бошқарув қарорларини қабул қилиш тамойиллари ва қоидаларини ҳисобга олмайдилар ва ҳоказо. Давлат компанияларидан фарқли ўлароқ, хусусий корхоналарнинг энергия тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш соҳасидаги фаолиятини ташкил этиш кўпроқ даражада уларнинг фаолияти натижаларига, шу жумладан энергия самарадорлигига қўйиладиган талаблар шаклида қурилади. Бироқ, шу пайтгача хусусий корхоналарнинг иш шароитларига мослаштирилган энергия тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирларни режалаштириш ва амалга ошириш бўйича услубий тавсиялар ва талаблар ҳалигача мавжуд эмас. Шу билан бирга, давлат иштирокидаги корхоналар ва давлат корпоратциялари учун махсус яратилган услубий ёндашувларни уларнинг фаолиятига бевосита татбиқ этиш мумкин эмас.

Бунинг сабаби шундаки, давлат иштирокидаги компанияларда мулкдор ва назорат қилувчи органнинг манфаатлари, қоида тариқасида, хусусий компаниялар билан боғлиқ вазиятдан фарқли ўлароқ мос келади. Шунинг учун улар томонидан ушбу соҳада дастурий ҳужжатлар ишлаб чиқилиши одатий амалиётдан кўра истисно ҳисобланади. Энергияни тежаш ва энергия самарадорлигини оширишнинг мавжуд амалиётини таҳлил қилиш натижалари инновацион фаолиятни фаоллаштириш имкониятларини чеклайдиган қуйидаги муаммоларни шакллантиришга имкон берди.

Биринчидан, ҳозирги кунга қадар энергия тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш ҳам минтақавий даражада, ҳам корхоналар даражасида инновацион модернизатсиянинг стратегик устувор йўналишларини четлаб ўтиб, фақат долзарб ривожланиш муаммоларини ҳал қилиш билан боғлиқ.

Иккинчидан, сифат жиҳатидан янги истеъмол хусусиятларига эга маҳсулотларни яратадиган янги энергия технологияларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланишни рағбатлантириш механизмлари амалда мавжуд эмас.

Учинчидан, бу борадаги инновацион лойиҳаларни услубий таъминлашга қаратилган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, стандартлар ва нормаларнинг тўлиқ тизими шаклланмаган.

Аниқланган муаммоларни ҳал қилишнинг мумкин бўлган йўналишларидан бири лойиҳаларни бошқариш воситаларини бошқарув амалиётига жорий этиш орқали энергия тежаш ва энергия самарадорлиги соҳасида инновацион фаолиятни фаоллаштириш билан боғлиқ бўлиши мумкин. 1-жадвалда мавжуд (жараён) ва лойиҳани бошқариш ёндашувларининг таққосланиши келтирилган.

1-жадвалда жараён ва лойиҳа ёндашувларининг қиёсий таҳлили

Таққослаш мезони	**Бошқарувга жараёнли ёндашуви**	**Бошқарувга лойиҳали ёндашуви**
Мақсад ва муддат	Муайян вақт давомида жараён мақсадларига эришишга эътибор қаратиш	Олдиндан белгиланган мақсадга йўналтириш-бу унга эришиш учун қатъий муддат ичида ноёб якуний натижадир
Молиялаштириш	Тахминий молиялаштириш	Муайян якуний натижа учун танлов асосида босқичма-босқич молиялаштириш
Масъулият	Шахсий жараён кўрсаткичлари учун жамоа	Якуний натижани олиш учун жавобгарлик лойиҳа

	аъзолари ўртасида жавобгарликни тақсимлаш	менежерига юкланади
Натижа	Жараённинг ишлаш мақсадларига эришиш	Белгиланган якуний натижани олиш

Бошқарувни ташкил этишга жараёнли ёндашув билан ҳар бир таркибий бўлинма бир ёки бир неча жараёнларни амалга оширишда қатнашади. Ушбу ёндашув мунтазам операцион фаолият шароитларига энг яхши мосланган ва бажарилган жараёнларнинг даврий такрорланиши учун мўлжалланган.

Лойиҳаларни бошқариш доирасида аниқ белгиланган вақт оралиғида ноёб якуний натижага эришишнинг аниқ мақсадига алоҳида эътибор берилади, бу иқтисодиётнинг ҳар қандай соҳасида инновацион ечимларни яратишда айниқса долзарб бўлиб қолади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Усманов А. А., Аббасов К. А. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини энергия тежаш ва енергия самарадорлигини оширишни фаоллаштириш механизмини шакллантиришнинг концептуал модели / / Иқтисодиёт ва менежмент. — 2016. — № 12 (134). - С. 70-76.

2. Ходжаев К. А. Инновацион ривожланиш жараёнларининг минтақавий саноат мажмуаси фаолиятининг енергия самарадорлигини оширишга таъсири / / иқтисодий таҳлил: назария ва амалиёт. — 2016. — № 12 (459). - С. 84-96.

THE EFFECT OF A QUANTIZING MAGNETIC FIELD ON THE TEMPERATURE DEPENDENCE OF THE COMBINED DENSITY OF STATES IN QUANTUM WELL HETEROSTRUCTURES

Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich
2nd year basic doctoral student, Namangan Instituti of Engineering and Technology
e-mail: sayidovnozimjon@gmail.com, Tel:+998998705868

Abstract: In this work, the dependence of the combined state density oscillations on the strong magnetic field in heterostructures based on rectangular quantum coils is studied. The influence of the quantizing magnetic field on the temperature of the combined density of states in nanoscale real-field heterostructures is studied. A new mathematical model has been developed to calculate the temperature dependence of the two-dimensional combined state density of quantum coils in quantizing magnetic fields. The proposed model explains the experimental results in nanoscale, regular field, parabolic dispersion semiconductors.

Key words: heterostructure, nanoscale, quantum coil, density of states, oscillation.

Introduction

As is known, the impact of external factors (temperature, magnetic field and pressure) on quantum-dimensional heterostructures leads to a change in the position of the energy levels of charge carriers and, consequently, to a shift in the magneto-optical absorption edge [1-3]. The magneto-optical absorption spectrum of nanosized semiconductors is determined by the energy distance between different minima of the expanded zone. Hence, the band gap of the quantum well can either decrease or increase due to external influences. Thus, the study of the magneto-optical absorption spectrum near the boundary of its absorption edge provides information on the structure of the energy spectrum of charge carriers near the lower edge of the conduction band and near the upper edge of the valence band of the quantum well, which is essential for determining the magnetic, optical, and electrical properties of nanosized semiconductors.

Methods

The combined densities of states of a quantum well play an important role in the oscillations of the interband magneto-optical absorption. Therefore, in many cases the matrix element (p_{cv}) changes little within the Brillouin zone. Consequently, the structure of the spectrum predominantly determines the combined density of states in quantum-well heterostructures. In the absence of a magnetic field, the dependence of the density of energy states of the conduction band and valence band in a quantum well on the energy spectrum of charge carriers are step functions [4-6]:

$$g_c(E) = \frac{m_n^e}{\hbar^2\pi}\sum_n \theta(E - E_n)$$
$$g_v(E) = \frac{m_n^h}{\hbar^2\pi}\sum_m \theta(E - E_m) \quad (1)$$

Here, m_n^e and m_n^h are the effective masses of electrons and holes in the size quantization subband in the quantum well with numbers n and m. θ(E) –Heaviside step function. Then, in the allowed zone, there is a zero-dimensional combined density of states, which is a discrete non-decreasing function. In this case, the combined density of states is described using the so-called Dirac delta function $\delta(E)$:

$$N_{fds}^{0d}(E) = \sum_{l,m,n}\delta(E - E_{lmn}) \quad (2)$$

The combined density of states is a collection of infinitely narrow and high peaks. All the results obtained above are valid for cases without the influence of magnetic field quantizations, temperature, and pressure. In a quantizing magnetic field, the combined density of states is defined as the integral over all states in the conduction band with energies E_C and in the valence band with energies E_V of the quantum well that satisfy the law of conservation of energy in the magneto-optical transition. Let us analyze the simplest model of the band structure near the band gap edge of a direct-gap heterostructure with a quantum well under the action of a strong magnetic field. That is, the valence band of the quantum well is completely filled with charge carriers, and the conduction band is empty. Here, the filling functions of the corresponding states are equal to f_V=1, f_C=0. In addition, the dependence of impurity levels on the combined density of states of a quantum well with a parabolic dispersion law can be neglected in this model. The magnetic field inductions are directed transversely (along the Z axis) and will be perpendicular to the XY plane. Hence, in the presence of a strong magnetic field, the dispersive energy laws are used to calculate the combined density of states of a quantum well, which can be written in the following form:

$$E_c^{2d}(B,d,n_{cZ}) - \left(N_L^c + \frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c^c + \frac{\hbar^2\pi^2}{2m_c d^2}n_{eZ}^2 + m_s^c g_c\mu_B II$$
$$E_v^{2d}(B,d,n_{vZ}) = -\left(N_L^v + \frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c^v - \frac{\hbar^2\pi^2}{2m_v d^2}n_{vZ}^2 - m_s^v g_v\mu_B H - E_g^{2d}(0) \quad (3)$$

Here, N_L^c, N_L^v is the number of Landau levels of charge carriers in the allowed zone of the quantum well; ω_c^c, ω_c^v - cyclotron frequency of the magnetic field in the conduction and valence bands of the quantum well; d is the thickness of the quantum well; n_{eZ}^2, n_{vZ}^2 is the number of size quantization subband in the conduction band and in the valence band of the quantum well; n_{eZ}, n_{vZ} is the serial number of electron and hole quantization levels along the Z axis, respectively. For $E_c^{2d}(B,d,n_Z)$and $E_v^{2d}(B,d,n_Z)$, disregarding spin, magneto-optical transitions will correspond to the law of conservation of energy

$$E_{cv}^{2d}(B,d,n_Z) = E_c^{2d}(B,d,n_Z) - E_v^{2d}(B,d,n_Z)$$
$$E_{cv}^{2d}(B,d,n_Z) = E_g^{2d}(0) + \left(N_L^c + \frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c^c + \left(N_L^v + \frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c^v + \frac{\hbar^2\pi^2}{2m_{cv}^* d^2}n_Z^2 \quad (4)$$
$$h\nu \geq E_{cv}^{2d}(B,d,n_Z)$$

Where, $h\nu$ is the absorbing photon energy. Hence, in the conduction and valence bands of the quantum well, the movement of free electrons and holes in all three directions is limited. When exposed to a quantizing magnetic field, the quantum well becomes analogous to a quantum dot. And also, the energy spectrum of charge carriers will be entirely discrete. According to formula (2), when replacing E with $h\nu$ and E_{lmn} with $E_{cv}^{2d}(B,d,n_Z)$ in the argument $\delta(E - E_{lmn})$, we have:

$$N_{fds}^{2d}(h\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_Z)) = \frac{eB}{\pi\hbar}\sum_{N_L^c,N_L^v,n_Z}\delta\left(h\nu - E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_Z)\right) \quad (5)$$

Thus, under the action of a quantizing magnetic field, formula (5) can be used to determine the combined density of states of the quantum well.

At T=0, the Gaussian distribution function is delta-shaped and is determined by the following expression [5-7]:

$$Gauss\left(E,T\right)=\frac{1}{kT}\cdot\exp\left(-\frac{\left(E-E_i\right)^2}{\left(kT\right)^2}\right) \qquad (6)$$

In addition, to describe interband magneto-optical absorption, it is usually assumed that each energy spectrum of a quantum well is smeared according to the Gaussian law with a smearing parameter. This approach can be described by the temperature dependence of the two-dimensional combined density of states in a quantum well.

Results

Hence, the deep filled discrete Landau levels of charge carriers in the quantum well depend exponentially on the two-dimensional combined density of states. To calculate the temperature dependence of the two-dimensional combined density of states $N_{jds}^{2d}(h\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,d,n_z))$ we assume that $N_{jds}^{2d}(\hbar\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_z))$ at T=0 equal to the known energy function $[\![\ E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_z)$. For a heterostructure with quantum wells, in a strong magnetic field, the two-dimensional combined density of states is calculated by formula (5). As the temperature increases, each combined density of states in the allowed band of the quantum well with the energy of the conduction band and the valence band $E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_z)$ smears out. Thermal blur $N_{jds}^{2d}(h\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_z))$ with energy $E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_z)$ is computed by Shockley-Read statistics -Hall [8-10]. Thus, under the influence of a quantizing magnetic field, in the allowed zone of the quantum well, the resulting two-dimensional combined density of states, taking into account the contribution of the thermal smearing of all states, will be determined by the sum of all blurs. Hence, at a finite temperature T, this reduces to the expansion in the series $N_{jds}^{2d}(h\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_z))$ in terms of Gaussian functions for nanoscale semiconductor structures.

Formula (5) does not take into account thermal smearing of the two-dimensional combined density of states. If we expand $N_{jds}^{2d}(h\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,d,N_L^{cv},n_z))$ into a series according to formula (6), then we can take into account the temperature dependence of the two-dimensional combined density of states in the allowed band of the quantum well. In a strong magnetic field, the thermal smearing of the combined density of states of the quantum well leads to smoothing of the discrete Landau levels of charge carriers, and the thermal smearing is calculated using formula (6). At T=0, formula (6) turns into a delta function of the form:

$$\underset{T\to 0}{Gauss}\left(E,E_i,T\right)\to\delta\left(E-E_i\right) \qquad (7)$$

Thus, from formulas (5) and (6) it follows that, under the influence of a quantizing magnetic field, the temperature dependence of the combined density of states of the quantum well is reduced to the following analytical expression:

$$N_{jds}^{2d}(h\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,T,d,N_L^{cv},n_z))=\frac{eB}{\pi\hbar}\cdot\frac{1}{kT}\cdot$$
$$\sum_{N_L^c,N_L^v,n_z}\exp\left[-\frac{\left(h\nu-\left(E_g^{2d}(0)+\left(N_L^c+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c^c+\left(N_L^v+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c^v+\frac{\hbar^2\pi^2}{2m_{cv}^{-}d^2}n_z^2\right)\right)^2}{(kT)^2}\right] \qquad (8)$$

Where, $N_{jds}^{2d}(\hbar\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,T,d,N_L^{cv},n_z))$ is the temperature dependence of the combined density of states oscillations in the allowed band of the quantum well in the presence of a strong magnetic field. B is the induction of the transverse quantizing magnetic field.

Discussion

This new analytical formula expresses the effect of a quantizing magnetic field on the temperature dependence of the two-dimensional combined density of states in quantum well heterostructures. The resulting expression is convenient for processing experimental data on oscillations of interband magneto-optical absorption in quantum wells at various magnetic fields

and temperatures. Thus, a mathematical model has been obtained that describes the influence of external factors (temperature and magnetic field) on the two-dimensional combined density of states in nanoscale semiconductor structures [11-15].

REFERENCES

1. G.Gulyamov, U.I.Erkaboev, P.J.Baymatov, A.G.Gulyamov. The effect of pressure on the magneto-absorption in narrow-gap semiconductors. International scientific journal for alternative energy and ecology. 2017. № 07-09. pp. 112-120.
2. Shyamal Bhar, Soumen Kumar Roy. A comparison of the performance of Wang–Landau-Transition-Matrix algorithm with Wang–Landau algorithm for the determination of the joint density of states for continuous spin models. Computer Physics Communications. 2013. Vol.184. pp.1387–1394.
3. C.I.Cabrera, D.A.Contreras-Solorio, L.Hernández. Joint density of states in low dimensional semiconductors. Physica E. 76 (2016) 103–108.
4. L.V.Grigoriev. Silicon photonics. Course of lectures (part 1). St. Petersburg: ITMO University, 2016. 94 pages.
5. Schoenberg D. Magnetic oscillations in metals. New York, Wiley. 1986. pp.350-400.
6. Stilbans L.S. Physics of semiconductors. Moscow, "Soviet Radio". 1967. pp. 416-421.
7. G. Gulyamov, U. I. Erkaboev and N. Y. Sharibaev, Mod. Phys. Lett. B. 30, 1650077 (2016).
8. U. I. Erkaboev, R. G. Rakhimov and N. A. Sayidov,Mod. Phys. Lett. B. 35, 2150293 (2021).
9. G. Gulyamov, U. I. Erkaboev, N. A. Sayidov and R. G. Rakhimov, J. Appl. Sci. Eng. 23, 453 (2020).
10. G. Gulyamov, U. I. Erkaboev, R. G. Rakhimov and J. I. Mirzaev, J. Nano Elect. Phys. 12, 03012 (2020).
11. G. Gulyamov, U. I. Erkaboev and A. G. Gulyamov, Advs. Condens. Matter Phys.6747853 (2017)
12. M. Petrushevsky, E. Lahoud, A. Ron, E. Maniv, I. Diamant, I. Neder, S. Wiedmann, V. K.Guduru, F. Chiappini, U. Zeitler, J. C. Maan, K. Chashka, A. Kanigel, and Y. Dagan. Probing the surface states in Bi 2Se 3 using the Shubnikov-de Haas effect. Physical Review B - Condensed Matter and Materials Physics, 86(4), jul 2012.
13. G. Gulyamov, U. I. Erkaboev, and A. G. Gulyamov. Influence of Pressure on the Temperature Dependence of Quantum Oscillation Phenomena in Semiconductors. Advances in Condensed Matter Physics, 2017.
14. G. Gulyamov, U. I. Erkaboev, and P. J. Baymatov. Determination of the Density of Energy States in a Quantizing Magnetic Field for Model Kane. Advances in Condensed Matter Physics, 2016.
15. I. A. Dmitriev, A. D. Mirlin, D. G. Polyakov, and M. A. Zudov. Nonequilibrium phenomena in high Landau levels. Reviews of Modern Physics, 84(4):1709–1763, nov.2012.

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDAGI YORITILGANLIK DARAJASINI BOSHQARILUVCHI PARAMETRLARI

Sayidov N.A., Namangan muhandislik-texnologiya instituti katta o'qituvchisi
e-mail: *sayidovnozimjon@gmail.com*
G'ayratov S.I., Namangan muhandislik-texnologiya instituti talabasi
e-mail: *saydullo1120@gmail.com*

Kirish

Ishlab chiqarish binolari xalq xo'jaligining ma'lum bir qismi, ishlab chiqarish sohalariga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalaridan tashkil topadi. O'z navbatida ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish-texnologik jarayonlarini joylashtirish uchun, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri biron bir

mahsulot yoki yarim fabrikatlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan katta ishlab chiqarish binolaridan iborat bo‘ladi.

Tarmoqlardan qat’iy nazar ishlab chiqarish binolarini to‘rt guruhga, ya’ni, ishlab chiqarish, energetika, transport, ombor xo‘jaligi binolari turlarga ajratiladi.

Tayyor yoki yarim fabrikat mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan binolar ishlab chiqarish binolari deyiladi. Ular ishlab chiqarish tarmoqlariga ko‘ra: tikuvchilik, shtampovka-temirchilik, termik, asbobsozlik, ta’mir va shu kabi ko‘pgina turlarga ajraluvchi binolardir.

Ishlab chiqarish binolarining yoritilganlik darajasini o‘lchash, rostlash va avtomatlashtirish uchun mavjud zamonaviy texnik vositalar, ularning asosiy parametrlari va imkoniyatlarini ko`rib chiqamiz.

Usullar

Ulardan eng asosiysi boshqaruv qurilmasi bo‘lib, hozirgi kunda eng arzon, yetarli imkoniyatlarga ega bo`lgan qurilma mikrokontrollerlardir.[1]

Quyida mikrokontrollerlar to`g`risidagi ba`zi ma`lumotlarni ko`rib chiqamiz.

Mikrokontrollerning asosini mikropotsessorlar tashkil qiladi. Ushbu qurilmaning asosiy vazifasi arifmetik-mantiqiy amallarni bajarishdan iborat. Quyidagi tasvirda (1-rasmga qarang) Atmega328 mikroprotsessorining ko`rinishi keltirilgan.



1-rasm. Atmega328 mikroprotsessori ko`rinishi.

Mikrokontrollerning mikroprotsessordan farqi shundaki, u mikroprotsessordan tashqari operativ xotira, dastur uchun xotira, takt chastotasi generatori kabi boshqa qurilmalarni ham o`z ichiga oladi. Mikrokontrollerni kichik kompyuter deb hisoblash mumkin. Mikrokontrollerning eng asosiy qurilmasi mikroprotsessor hisoblanadi. Quyidagi tasvirda (2-rasmga qarang) mikrokontrollerning tuzilish sxemalaridan biri keltirilgan.



***2-rasm*.** Mikrokontrollerning tuzilish sxemasi.

Barcha qurilmalar bitta plataga joylashtirilib mikrokontroller platasi hosil qilinadi. Quyidagi 3-rasmda Arduino Nano mikrokontrollerining ko`rinishi keltirilgan.



3-rasm. Arduino Nano mikrokontrollerining tashqi ko`rinishi.

Ushbu seriyadagi kontrollerlarning laboratoriya sharoitida foydalanishga mo`ljallangan Arduino UNO turining ko`rinishi quyidagi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Arduino UNO mikrokontrollerining tashqi ko`rinishi.

Arduino Nano mikrokontrollerining pinlari sxemasini quyidagi ishchi maketining tasvirini quyidagi 5-rasmda keltiramiz [1].

Hozirgi kunda dunyoda mikrokontrollerlarning ko`plab turlari mavjud bo`lib, ularga quyidagilarni misol qilib olish mumkin:

- MCS 51 (Intel)
- ESP8266 i ESP32 (Espressif)
- MSP430 (TI)
- ARM (ARM Limited)
  - ST Microelectronics STM32 ARM-based MCUs
  - ARM Cortex, ARM7 i ARM9-based MCUs
  - Texas Instruments Stellaris MCUs
  - NXP ARM-based LPC MCUs
  - Toshiba ARM-based MCUs
  - Analog Devices ARM7-based MCUs
  - Cirrus Logic ARM7-based MCUs
  - Freescale Semiconductor ARM9-based MCUs
  - Silicon Labs EFM32 ARM-based MCUs
- AVR (Atmel)
  - ATmega
  - ATtiny
  - XMega
- PIC (Microchip)
- STM8 (STMicroelectronics)
- S8051F34x
- RL78 (Renesas Electronics)

Boshqaruvchi qurilma sifatida Arduino Nano mikrokontrollerni tanlaymiz.[13]

Arduino Nano - bu o‘rnatilgan USB portga ega sirtga o‘rnatiladigan “Breadboard” platasi. Bu eng kichik, to‘liq va “Breadboard”ga mo‘ljallangan. Diecimila/ Duemilanove-da (elektrda) ko‘proq analog kirish pimlari va bortda + 5V AREF o‘tish moslamasi bo‘lgan hamma narsalar mavjud.

Dasturiy ta'minot ketma-ket kutubxonasi Nano-ning har qanday raqamli pinlarida ketma-ket aloqa qilish imkoniyatini beradi. ATmega168 va ATmega328 shuningdek I2C (TWI) va SPI aloqalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Arduino dasturi I2C avtobusidan foydalanishni soddalashtirish uchun Wire kutubxonasini o‘z ichiga oladi.

Natijalar

Kontroller Arduino (IDE) dasturiy ta`minot yordamida dasturlanadi. Shu dasturning o‘zi STK500 yordamida dasturni mikrokontroller xotirasiga yuklab beradi. Bunda qo‘shimcha texnik vositalar talab qilinmaydi.[1]

Yoritilganlik darajasini aniqlash uchun yorug‘lik miqdorini o‘lchash uchun yorug‘likka bog‘liq qarshilik(fotorezistor) lardan foydalanamiz. [3]



5-rasm.Yorug‘likka bog‘liq qarshilik(fotorezistor) LDR.

LDR ishlash usullari.

LDRning ishlash asoslarini murakkab tushuntirishlarni chuqurlashtirmasdan tushunish ancha oson. Avvalo elektr toki material ichidagi elektronlar harakatidan iborat ekanligini tushunish kerak. [4]

Yarim o‘tkazgichlarda potentsiallar farqi ta'sirida ma'lum yo‘nalishda siljishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p erkin elektronlar mavjud. Yuqori qarshilikka ega bo‘lgan izolyatorlar juda oz miqdordagi erkin elektronlarga ega va shuning uchun ularni harakatga keltirish qiyin, shuning uchun oqim oqadi.

LDR yoki fotorezistor har qanday yarim o‘tkazgichli material yuqori qarshilikka ega. Chunki erkin va harakatlana oladigan elektronlar juda kam. Elektronlarning katta qismi kristall panjaraga qulflangan va harakatlana olmaydi. Shuning uchun bu holatda yuqori LDR qarshilik mavjud.

Yorug‘lik yarim o‘tkazgichga tushganda, yorug‘lik fotonlari yarim o‘tkazgich panjarasi tomonidan so‘riladi va ularning energiyasining bir qismi elektronlarga o‘tadi. Bu ularning ba'zilariga elektr tokini o‘tkazishi uchun kristall panjaradan ajralib chiqish uchun yetarli energiya beradi. Bu yarim o‘tkazgichning qarshiligining pasayishiga va shu sababli umumiy LDR qarshiligiga olib keladi.

Jarayon tobora rivojlanib, LDR yarim o‘tkazgichiga ko‘proq yorug‘lik tushgani sababli, elektr tokini o‘tkazish uchun ko‘proq elektronlar ajralib chiqadi va qarshilik yanada pasayadi.

Fotoresistor / LDR tuzilishi

Strukturaviy ravishda fotorezistor - bu gorizontal tanaga ega bo‘lgan nurga sezgir qarshilik. Fotorezistorning asosiy formati quyida keltirilgan.(6-rasm)



6-rasm. Fotorezistorning tuzilishi

Faol yarim o‘tkazgich mintaqasi odatda yarim izolyatsion substratga yotqiziladi va faol mintaqa odatda ozgina aralashtiriladi[2-5].

Ko‘pgina diskret fotorezistorli qurilmalarda fotorezistorning yorug‘lik ta'sir qiladigan maydonini ko‘paytirish uchun raqamlararo naqsh qo‘llaniladi. Naqsh faol maydon yuzasida metalllashda kesiladi va bu nurni o‘tkazadi. Ikkala metallizatsiya joylari qarshilik uchun ikkita kontakt vazifasini bajaradi. Ushbu maydonni nisbatan kattalashtirish kerak, chunki kontaktning faol maydonga chidamliligini kamaytirish kerak.



7-rasm. Fotoresistor ichki tuzilishi

Fotoresistor tuzilishi, ta'sir doirasini maksimal darajada oshirish uchun raqamlararo naqshni namoyish etadi.

Ushbu turdagi struktura ko‘rinadigan ko‘plab kichik fotorezistorlar yoki nurga bog‘liq rezistorlar uchun keng qo‘llaniladi. Interdigital naqsh juda taniqli.

Odatda LDR / fotorezistor spetsifikatsiyasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

FOTOREZISTORNING TEXNIK XUSUSIYATLARI	
PARAMETR	**MISOL SHAKLLARI**
Maksimal quvvat sarfi	200 mVt
Maksimal kuchlanish @ 0 lyuks	200V
Eng yuqori to‘lqin uzunligi	600nm
Min. qarshilik @ 10lux	1,8 kg
Maks. qarshilik @ 10lux	4,5 kg
Turi. qarshilik @ 100lux	0,7 kg
1 soniyadan keyin qorong‘i qarshilik	0,03MΩ
5 soniyadan keyin qorong‘i qarshilik	0,25MΩ

LDRlar juda foydali elektron komponentlar bo‘lib, ular turli xil yorug‘lik sezgichlari dasturlari va ular bilan bog‘liq elektron sxemalar dizaynlari uchun ishlatilishi mumkin. LDR qarshiligi shu qadar keng diapazonda o‘zgarib turishi sababli, ular ayniqsa foydalidir va bu erda ko‘rsatilganidan tashqari ko‘plab LDR elektron konstruktsiyalari mavjud. Ushbu elektron komponentlardan foydalanish uchun yuqorida aytib o‘tilgan LDR qanday ishlashini bilish kerak.

Umumiylikka zarar yetkazmasdan, taklif etilayotgan mikrokontroller yordamida avtomatlashtirilgan tizimning sxemasini soddalashtirib, quyidagicha tasvirlashimiz mumkin. (8-rasm) [2-6]



8-rasm. Avtomatlashtirilgan tizimning sxemasi.

Diagrammada Arduino Nano mikrokontrolleri, binoni yoritish uchun qo‘yilgan chiroqlar, binoning turli qismlaridagi yorug‘lik miqdorini o‘lchash uchun foydalaniladigan fotorezistorlardan iborat.

Arduino Nanoning pinlaridan chiquvchi elektr toki bino chiroqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri quvvatlantirish uchun yetarli emas. Shuning uchun ham mikrokontroller va chiroqlar orasida NPN tipli tranzistorlardan foylanagan holda maxsus kuchaytirgichlar qo‘llaymiz. Ushbu kuchaytirgichlar qo‘llangan holatdagi sxemani quyidagi chizmada ko‘rishingiz mumkin. (9-rasm)



9-rasm. Avtomatlashtirilgan tizimning maxsus kuchaytirgichlar yordamida takomillashtirilgan sxemasi.

Munozara

Binoning turli qismlariga qo‘yiladigan yorug‘lik datchiklari (fotorezistorlar) va yoritish chiroqlari soni binoning kattaligi, shakli va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha farq qilishi mumkin. Binoning ma’lum bir qismiga o‘rnatilgan yorug‘lik datchiklari yordamida binoning o‘sha qismidagi yorug‘lik miqdori o‘lchanadi va mikrokontrollerga jo‘natiladi. Ushbu ma’lumotlarni talab etilgan yorug‘lik miqdoriga taqqoslab, yoritilish miqdori mikrokontroller yordamida rostlanadi.

Xulosa

1. Ushbu maqolada quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ishlab chiqarish turlari va xususiyatlariga qarab binolarining yoritilish sxemasi va darajasiga bo`lgan talablar o`rganib chiqildi;
- hozirgi kunda foydalanilayotgan yoritish tizimlari tahlil qilindi;
- asosiy yoritishni boshqarishning asosiy avtomatlashtirilgan tizimlari tahlil qilindi;
- ishlab chiqarish turlari va xususiyatlariga qarab ish joylarini differensial yoritish konsepsiyasi ishlab chiqildi va yangi avtomatlashtirilgan tizimi taklif qilindi;
- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi algoritmi ishlab chiqildi va dasturi yaratildi;
- yaratilgan tizim ishlash jarayonini kuzatishga mo‘ljallangan maket tayyorlandi.

2. Ushbu yaratilgan tizimlar nafaqat ishlab chiqarish sifatini oshirish va ishchilarga qulay sharoit yaratish bilan birgalikda tabiiy va sun’iy yoritish tizimlarining bir-biri bilan integratsiyalashgan holda bir butun bo‘lib ishlashini ta’minlaydi. Bu esa elektr energiyasi samaradorligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.X.Vaxidov, D.A.Abdullaeva “Avtomatikaning texnik vositalari”. Darslik, -Toshkent 2011.
2. D.M.Shomurodova, A.U.Usmonov, M.I.Abdurahmonova “Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish”. O‘quv qo‘llanma 2013.
3. Yusupbekov N.R., Muhamedov B.I., Gulyamov Sh.M. “Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish”. -Toshkent 2011.
4. В.С.Алексеев, Е.О.Муродова, И.С.Давыдова, «Безопастност жизнедеятельности» «Проспект» Москва-2006 г.
5. A.Turakulov, F.Mullajonova. «Avtomatlashtirishda mikrokontrollerlardan foydalanish» o‘quv qo‘llanma. Namangan 2020.

Internet saytlari

6. https://en.wikipedia.org/wiki/Lighting_control_system
7. https://www.electroniclinic.com/arduino-uno-vs-nano-vs-mega-pinout-and-technical-specifications/
8. https://www.arduino.cc/
9. https://www.electronics-notes.com/articles/electronic_components/resistors/light-dependent-resistor-ldr.php
10. https://www.ltcompany.com/ru/articles/38-trebovaniia-k-osveshcheniiu-rabo-chikh-mest/

ТРАНСФОРМАТОРЛАРДА ТАЪМИРЛАШНИНГ ТУРЛАРИ ВА МУДДАТЛАРИ

Сайфиев С.Э.
Қарши муҳандислик - иқтисодиёт институти
E-mail: *sardor06071985@gmeil.com*

Аннотация*:* Ушбу мақолада трансформаторларни узоқ муддат шикастланмасдан ишлашлари учун, ўз вақтида таъмирлаш ишлари олиб борилиши кўзда тутилган. Таъмирлаш вақтида амал қилиниши муҳим бўлган чоралар ва керакли кўрсатмалар берилган. Таъмирлаш жараёнида трансформаторларни қимсларга ажратиш (демонтаж) сўнгра эса уларни қайта йиғиш (монтаж) қилиш тартиби келтирилган. Трансформаторларни ўз вақтида таъмирлаш ишларининг афзалликлари электр таъминоти тизимида ишончлиликни оширади ва электр энергия сифатини яхшиланади.

Аннотация*:* В данной статья предусматривает своевременный ремонт трансформаторов, чтобы они работали без долговременных поломок, важные мероприятие и необходимые инструкции, которые необходимо соблюдать в процессе ремонта. В процессе ремонта представлен порядок разборки (демонтаж) трансформаторов и последующей их повторной сборки (монтаж). Своевременный ремонт трансформаторов повышает надежность и качество электроэнергии в системе электроснабжения.

Калит сўзлар: Трансформатор, подстанция, ревизия, актив қисм, шикастланиш, тафтиш, температура, изоляция.

Ключевые слова: Трансформатор, подстанция, ревизия, активная часть,повреждение, температура, изоляция.

Бузилишларни бартараф этиш ва авариянинг олдини олиш мақсадида трансформаторлар даврий тарзда жорий ва капитал таъмирга чиқарилади.

Жорий таъмир - трансформаторни ташқи кўрикдан ўтказиш ва уни тозалаш, кичик шикастланишларни бартараф этиш, изоляциясининг қаршилигини ўлчаш, мойнинг намунасини олиш, газли ҳимояни текшириш, узиб-улагичларнинг ҳолатини улардаги халқа ва стерженларда узоқ вақт давомида узиб-улашсиз ишлаши натижасида ҳосил бўлувчи оксидли қатламни йўқотиш мақсадида битта чекка вазиятдан иккинчи чекка вазиятгача ўзгартириш (10 мартадан кам бўлмаган сонда) ишлари киради. Электр станциялари ва подстанцияларининг бош трансформаторлари ва асосий ўз эҳтиёж трансформаторларининг тармоқдан узилган ҳолатда амалга оширилувчи жорий таъмири 1 йилда 1 бир мартадан, қолган барча трансформаторларники эса 4 йилда 1 мартадан кам бўлмаган тартибда амалга оширилади.

Трансформаторни очиш, унинг фаол қисмларини (магнит ўтказгич ва чулғамлар) синчиклаб текшириш ва синаш билан боғлиқ бўлган *капитал таъмир* биринчи марта у ишга туширилганидан сўнг 6 йилдан кўп бўлмаган муддатда, кейинчалик эса, зарурат бўйича ўлчаш ва синаш натижаларига боғлиқ ҳолда амалга оширилади. Трансформаторнинг ҳолати яхши бўлган тақдирда унинг фаол қисми очилмайди ва уни кўрикдан ўтказиш, ичини тозалаш, маҳкамлаш жойларини тиклаш яъни резина қатламлари ва алоҳида қисмларини таъмирлаш билан чекланилади. Баъзан таъмир трансформаторнинг фаол қисмини чиқармасдан, унинг ўрнатилган жойида мойи ёмкостга тўлик тўкилиб, бакнинг ичига кузатув люкидан кириш орқали амалга оширилади. Трансформаорларда ростловчи (РПН ва ПБВ) қурилмаларнинг навбатдан ташқари таъмири белгиланган сондаги узиб-улашлардан сўнг завод йўриқномаларида белгиланган кўрсатмаларга мувофиқ тартибда амалга оширилади.

Ишлатиш шароитларида улкан трансформаторларнинг капитал таъмири ўрнатилган жойларида инвентар йиғма конструкцияларни қўллаган ҳолда; тақсимловчи қурилмаларнинг яқинида, электр станциялари машина залининг трансформаторларни ўрнатилган жойларигача ер ости йўлига эга бўлган таъмирлаш майдончаларида қурилувчи трансформатор минораларида амалга оширилади. Унчалик катта бўлмаган трансформаторлар электр станциялари электр цехларининг устахоналарида таъмирлаш ишлари амалга оширилади.

Ремонт қилиш учун хоналар ва қурилган иншоатлар трансформаторларни уларга чанг ва атмосфера ёғингарчиликларидан ишончли ҳимоялаши шарт. Ташиш ва кўтариш ишларини бажариш таъмирловчилардан алоҳида билим ва кўникмаларни талаб этади. Шу сабабли трансформаторларни таъмирлаш майдончасига олиб келиш, чиқишларни ечиш, фаол қисмини кўтариш, алоҳида деталлар ва тугунларни кўчириш ишларини бажариш махсус такелажчи-мутахассисларга юкланади. Такеллаж ишларини бажариш учун гидравлик НС-400 насос станциялар, комплект домкратлар, толкателлар, темир йўл релслари, йўл плиталари, бир нечта ўлчамдаги темир бўлаклари, тумба, лом ва ёғоч шпалалар талаб қилинади.

Трансформаторларни таъмирлаш учун очиш шартлари: Таъмирлаш даврида трансформатор изоляциясининг намланиши ҳавонинг таркибидаги намнинг ютилиши натижасида содир бўлади. Бундай ҳолат фаол қисмнинг ҳарорати атроф-муҳит ҳавосининг ҳароратига нисбатан паст бўлганда кузатилади. Илиқ ҳаво нисбатан совуқ актив қисмга текканда унинг сиртида намлик конденсацияланади ва изоляция томонидан шимилади. Таъмир даврида изоляциянинг намланишини олдини олиш ва трансформаторни қуритишсиз ишга тушириш учун фаол қисмни нисбий намлиги 75% гача бўлган ҳавода 35 кВ ва ундан паст кучланишли трансформаторлар учун 24 соатгача, 110 кВ ва ундан юқори кучланишли трансформаторлар учун эса 16 соатгача ушлаб туришга рухсат этилади. Бундан ташқари фаол қисмнинг ҳарорати атроф-муҳитнинг ҳароратига тенг ёки ундан юқори бўлиши шарт. Агар ушбу шарт бажарилмаса, трансформаторни очиш қолдирилади ёки фаол қисм атроф-муҳит ҳароратидан юқори ҳароратгача қиздирилади. Фаол қисмни атроф-муҳитнинг ҳарорати нолдан паст бўлган ҳолатда кузатиш зарурати юзага келганда, трансформатор қопқоқ тагидаги мойнинг ҳарорати 20^0C дан юқори бўлгунча қиздирилади. Ёмғирли об-ҳаво шароитида кўрик ҳавонинг ҳарорати ташқаридаги ҳароратга нисбатан камида 10^0C га ортиқча тутиб турилувчи хонада амалга оширилади. Атроф-муҳитнинг ҳарорати 0^0C дан юқори, нисбий намлик 75% гача, таъмирлаш пайтида фаол қисмнинг ҳарорати атроф-муҳит ҳароратига нисбатан 10^0C гача бўлганда фаол қисмнинг ҳавода туришига рухсат этилган вақт давомийлиги юқорида кўрсатилганига нисбатан икки баравар оширилиши мумкин. Агар фаол қисм ҳавода янада узоқроқ вақт давомида туриб қолса, у ҳолда зарурлиги изоляцион тавсифларни ўлчаш натижалари бўйича аниқланувчи изоляцияни қуритиш амалга оширилади.

Капитал таъмирда трансформаторларни ёйиш ва иш ҳажми: Трансформаторни таъмирлаш учун ёйишга киришишдан олдин у ташқи томондан синчиклаб кузатилади ва зарурий ўлчашлар амалга оширилади. Аниқланган деффектлар иш ҳажми қайдномасига киритилади. Шундан сўнг мойнинг бир қисми трансформатордан тўкилади, назорат асбоблари, ҳимоя, автоматика ва совутиш тизимининг бошқаруви демонтаж қилинади. Ечиб олинган асбоблар текшириш учун лабораторияга топширилади. Сўнгра кенгайтиргич, сақловчи қувур, термосифонли фильтр ва совиткичлар ечилади. Бундан кейинги амаллар бўлиб фаол қисмни бўшатиш ва бакдан чиқариб олиш ҳисобланади. II-IV габаритли трансформаторларнинг қопқоғида кўтарувчи халқалар мавжуд бўлиб, улар ёрдамида қопқоқ бакнинг устидан фаол қисм билан бирга кўтарилади ва таъмирлаш учун махсус жойга ўрнатилади. Асосида бўшатилувчи мосламаларга эга бўлган ечилувчи қобиқли V-VII габаритли катта қувватли трансформаторларда бакнинг қўнғироқ шаклдаги юқори қисми кўтарилганда фаол қисм очилади. Бироқ бунинг учун олдиндан мойни тўкиш, киришларнинг контакт қисмларидан болтларни ечиш, чиқишларни четга суриб қўйиш ва киришларни ечиб олиш лозим. Маҳкамловчи фланецларга эга бўлган ПК киришларини ечиш ПК чиқиш йўлларининг демпферларини махсус люклар орқали узгандан сўнг амалга оширилади. Киришлар ечилганидан сўнг фаол қисм бакда кузатилади ва маҳкамланишлар текширилади. Фаол қисмни очиш (қўнғироқни кўтариш, колокол) унга тегиб кетмаслик ва шикастламаслик учун жуда эҳтиёткорлик билан бажарилади. Кўтариш жараёнида колоколга қўшимча арқонлар диогнал бўйича маҳкамланиб мувозанатни сақланишига эришилади. Фаол қисмни таъмирлаш текисланган тўшамада ёки бакнинг таглигида амалга оширилади.

Трансфоматорнинг капитал таъмирлаш ишларининг ҳажмига қуйидагилар киради:

Магнит ўтказгични кўрикдан ўтказиш ва тозалаш, чўкма ва қотмаларни олиб ташлаш учун фаол қисмни иссиқ мой босими билан ювиш, тортувчи шпилка ва ярмо тўсинларини текшириш ва қайта тиклаш, яқин жойдаги тортувчи шпилкаларни тортиш. Магнит ўзказгичларнинг ерга улагичини ва прессловчи деталларни текшириш;

Чулғамлар ва чиқишларни кузатиш ва тозалаш. Чулғамлар изоляцияларининг ҳолатини текшириш. Чулғамларнинг прессланиш сифати, уларда деформациянинг йўқлиги ва уларнинг нормал ҳолатига нисбатан кўчишини текшириш. Чулғамларни сиқувчи винтлар ва прессловчи халқалар ёрдамида пресслаш (прессловчи халқаларга эга бўлмаган трансформаторларда пресслаш чулғамларни зичлаштириш йўли билан амалга оширилади). Ярмо ва чиқишлар изоляцияларини текшириш ва таъмирлаш. Шохобчаларнинг узиб-улагичларини кўрикдан ўтказиш ва текшириш. РПН қурилмаси барча механизмларининг яроқлилигини текшириш, бак, кенгайтиргич, мой чиқарувчи қувур, радиаторлар, термосифон фильтр (абсорберы) ва ҳаво қуриткичларни (ВОФ) кўрикдан ўтказиш, тозалаш ва таъмирлаш. Бакни бўяш, киришларни кўрикдан ўтказиш, тозалаш ва таъмирлаш, (ввод) киришларда мойни алмаштириш совитиш тизимини (насослар, вентиляторлар, совиткичлар, арматураларни) кўрикдан ўтказиш, тозалаш ва таъмирлаш, трансформатор мойини синаш ва тозалаш, изоляцияни қуритиш, агар бунга зарурат бўлса. Зичлаштиргичларни яъни резиналарни алмаштириб, трансформаторни тўлиқ йиғиш, монтаж қилиш. Монтаж ишлари тугатилгач уни акт билан расмийлаштириш лозим.

Трансформаторларни қуритиш: Таъмирдан сўнг ишга туширилувчи трансформаторларни қуритиш таъмирлаш майдончасида амалга оширилади. Қуритиш шундан иборатки, белгиланган сунъий яратилган шароитларда намлик изоляциянинг ички қатламларидан унинг юзасига ва юзасидан атроф-муҳитга кўчади. Намликнинг материал ичида кўчиши физик қонунларга мувофиқ тарзда содир бўлиб, намлиги катта бўлган қатламдан намлиги кичик бўлган қатламга, ўта қиздирилган қатламдан кам қиздирилган қатламга ўтади. Намликнинг изоляция сиртидан атроф-муҳитга кўчиши изоляцион материал сиртида ва атроф-муҳитда буғ босимларининг фарқи таъсирида содир бўлади. Шундай қилиб, қуритиш жараёнида материалнинг сиртида буғнинг босимини қиздириш орқали ошириш ва атроф фазода босимни вакуум ҳосил қилиш ёки қуритилётган муҳитни қуруқ ҳаво билан вентиляциялаш орқали камайтириш лозим. Вакуум остида қуритилганда сув буғлари қуритувчи камера ёки бакдан насослар ёрдамида чиқариб юборилади.

Ишлатишда фаол қисмни индукцион қуритиш усули кенг тарқалган бўлиб, бунда қуритиш бак деворларидан уюрма токлар таъсирида ажралувчи иссиқлик ҳисобига ҳосил бўлувчи вакуум остида амалга оширилади. Уюрма токлар трансаформаторнинг бакига ўралувчи махсус магнитловчи чўлғам ёрдамида индукцияланади.

Қуритиш учун фаол қисм мутлақо бўш бакка туширилади: фаол қисмнинг ҳар хил жойларига термопара ва термоқаршиликлар ўрнатилади; бакнинг қопқоғи ва ундаги барча тешиклар яхшилаб зичланади; бакнинг деворлари асбополотно ёки шишагазлама билан қиздирилади; ташқари томонда иссиқлик изоляциясининг тагида термометрлар жойлаштирилади. Индукцион чулғам бакка унинг пастки қисмида ўрамлар умумий сонининг 60-65%, қолган ўрамлари юқори қисмида жойлашадиган қилиб ўралади. Чулғамнинг бундай жойлашуви фаол қисмни бир текисда қизишини таъминлайди. V-VII габаритли трансформаторларни қиздириш учун индукцион чулғамни таъминлаш 560-1000 кВА қувватли 380 В кучланишли трансформатордан амалга оширилади. Бакнинг туби электр печлар ёрдамида киздирилади. Фаол қисмни 100-105^{0}С ҳароратгача қиздириш вақти унинг ўлчамлари, массаси ва изоляцияси синфига боғлиқ бўлиб, у 110 кВ кучланишли трансформаторлар учун 30-40 соатни, 220-500 кВ кучланишли трансформаторлар учун эса – 60-80 соатни ташкил этади. Трансформаторни қуритиш схемаси 1- расмда тасвирланган.



1- расм. Трансформаторни ўз бакида вакуум остида қуритиш схемаси.
1- бакнинг иссиқлик изоляцияси; *2*- индукцион чулғамнинг ўрамлари; *3*- совитувчи колонка; *4*- вакуум насослар; *5*- сўриб олинувчи ҳавони тозалаш фильтри; *6*- қолдиқ мойларни тўкиш учун бакча; *7*- вакуумметр.

Вакуум-тизимининг ишлаши текширилганидан сўнг индукцион чўлғам 2 га кучланиш берилади, бак тубини қиздирувчи печлар ишга туширилади бакдаги ҳарорат 100^0С гача етказилади. Шундан сўнг вакуум-насослар 4 ишга туширилади ва кран очилиб, у орқали бакнинг пастки қисмига пастки бўшлиқдан фильтр 5 орқали олинувчи иссиқ ҳаво сўрилади. Ҳавонинг сўрилиши бакдаги вакуум 0,003 МПа дан ошмайдиган (110 кВ ва ундан паст кучланишли трансформаторлар учун) қилиб ростланади. Қуришни тезлаштириш учун изоляциянинг ички ва ташқи қатламлари ўртасида ҳарорат фарқини ҳосил қилиш максадида қиздириш ҳолати вакуумнинг олиб ташланиши ва изоляциянинг устки қатламларини тез совитиш билан алмашиниб туради. Қуритиш жараёнининг назорати узлуксиз олиб борилади. Ҳар соатда термометрлар ва вакуумметр 7 нинг кўрсатишлари ёзиб борилади, 2500 В га мўлжалланган мегоомметр ёрдамида изоляциянинг қаршилиги ўлчанади. Ўзгармас ҳароратда изоляциянинг қаршилиги ва диэлектрик исрофлар бурчагининг тангенси ўзгармас бўлса ҳамда совитувчи колонкада намликнинг ажралиши тўхтаса қуритиш жараёни тугаган ҳисобланади. Шундан сўнг қиздириш тўхтатилади, бакдаги ҳарорат 80-85% гача пасайтирилади ва трансформаторга $50\text{-}60^0$С гача қиздирилган қуруқ мой қуйилади. Мойнинг сатҳи қопқоқдан 150-200 мм баландга кўтарилганда қуйиш тўхтатилади ва 6-10 соат давомида изоляцияга мой вакуум остида шимдирилади. Сўнгра фаол қисм кўрикдан ўтказиш ва чулғамларни пресслаш учун бакдан чиқариб олинади. Чунки қуритишда изоляция ҳам қурийди. Трансформатор йиғилганидан сўнг электрик синовлар ва мойнинг ҳимик таҳлили амалга оширилади.

Трансформаторларни синаш ҳажми ва меъёрлари. Таъмирлаш даврида синашларнинг мақсади трансформаторнинг ҳолатини ва таъмирнинг сифатини текширишдан иборатдир. Чулғамлар алмаштирилмайдиган капитал таъмирда синовлар ҳажмига қуйидагилар киради:

- трансформаторнинг баки ва киришларидаги мойни химик таҳлиллаш ва синаш;
- шохобчалар узиб-улагичининг барча ҳолатларида чўлғамларнинг ўзгармас тока қаршилигини ўлчаш. Ҳар хил фазаларнинг қаршиликлари бир-биридан 2% дан катта миқдорга фарқ қилмаслиги шарт;
- барча шохобчаларда трансформаторнинг трансформациялаш коэффициентини ўлчаш. Ўлчаш схема қайта пайвандланганда ёки шохобчаларнинг узиб-улагичи олинган тақдирда амалга оширилади;
- яқин жойдаги тортувчи болтлар, ярмо тўсинлари изоляцияларининг қаршилигини ўлчаш ва тортувчи болтларнинг изоляцияларини оширилган кучланиш билан синаш. Изоляция қаршилигининг қиймати меъёрланмайди. Унинг тавсия этилувчи қаймати – 10 МОм дан кичик эмас. Изоляциянинг қаршилигини дастлабки қийматининг 50% гача бўлган қийматга камайишига рухсат этилади. Тортувчи болтларнинг изоляциялари 2000 в гача бўлган ўзгарувчан ток синов кучланишини 1 минут давомида кўтара олиши шарт;

Адабиётлар

1. Э.Б.Саитов, У.М.Ахмедов, О.Б.Курбонбоев, Ю.К.Хамидов, Ш.Б.Бекчанов. Разработка имитационной модели комбинированной гелиоветроэнергетической установки. Мирзо Улугбек номидаги Узбекистон миллий университети хузуридаги «Яримутказгичлар физикаси ва микроэлектроника» илмий-тадкикот институти Тошкент шахридаги ”МЭИ” миллий тадкикот университети федерал давлат бюджети олий таълим муассасаси ”Яримутказгичлар физикаси, микро- ва наноэлектрониканинг фундаментал ва амалий муаммолари” мавзусидаги 1-халкаро анжуман материаллари, Том 1; 28-29 октябрь Ташкент 2021; стр. 216-218.
2. Э.Б.Саитов, У .М.Ахмедов, Ю.К.Хамидов, Ш.Б.Бекчанов, О.Р.Рахмиддинов. Измерительные комплексы и учет климатических данных при разработке и проектировании комбинированных гелиоветроэнергетических установок. Международная научная-техническое конференция "Тенденция развития альтернативной и возобновляемой энергетики: проблемы и решения 17-18 мая 2021, ст. 402-408.
3. Э.Б.Саитов., Ш.Ш.Тохиржанов., Ф.Отаклов., Ш.Б.Бекчанов., Ю.К.Хамидов. Инновационный подход к определению электрофизических параметров фотоэлементов. «Наноструктурные полупроводниковые материалы в фотоэнергетике» сборник научных трудов II Международная научная конференция 19-20 мая 2021, ст. 67-69.

ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯНИ ҲИСОБГА ОЛИШ ЎЛЧОВ АСБОБЛАРИ ВА ИШЛАШ ТАРТИБЛАРИ

Собиров М., МЕТ-2 гуруҳ магистратуранти
Илмий рахбар профессор А.Суллиев
Тошкент Давлат Транспорт университети

Ҳозирги пайтда ҳар қандай ҳусусий корхона ва фирма, очиқ акциядорлик жамияти каби корхона ва муассасалар Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2002 йил 5 июн № 150 рақамли “Электр энергия истеъмолини ҳисобга олиш ва назорат қилиш тизимларини такоммиллаштиришда қўшимча чоралари” қарори бўйича, 2022 йил муддатигача Ўз.

Охирги пайтларда жаҳон миқёсида энергия ресурслар қийматини ошиб бориши, саноат ва бошқа энергия йиғувчан соҳалар (транспорт ва турар-жой коммунал хўжаликлари)да энергияни ҳисобга олишни ташкил этиш муносабатлари ўзгармоқда. Истеъмолчилар сарф этилган электр энергия ҳақини энергия ресурс етказувчиларига шартли норма, келишилган қиймат ёки эскирган ва ноаниқ асбоблар орқали эмас, балки янги замонавий ва юқори аниқли ўлчов асбоблари асосида ҳисоблашларга катта эътибор қаратмоқдалар. Дунё бозорининг таъсири остида энергия ресурслар таъминоти, истемолчилар учун биринчи навбатда энергия ресурсларни иқтисод қилиш ва уларнинг молиявий йўқотишларини камайиши аниқ ҳисоблар остида эканлигига ишонч ҳосил қилмоқдалар.

Энергия ресурсларни замонавий цивилизациялашган савдо-сотиқ ўтказиш, автоматлаштирилган энергия ҳисоблаш асбобларига асосланган бўлса, ўлчаш ишларида минимал ишчиларни иштироки, маълумотларни йиғиш ва уларни қайта ишлаш ишончлилиги, аниқлилиги, тез мослашувчан ва тезкорлилиги, энергияни ҳисоблашдаги турли хил тариф тизимлари билан мослашуви, каби имкониятлари энергия етказувчи билан истеъмолчи тарафларига катта қулайликлар яратади. Актив қувват – вақт бирлиги ичида истеъмол қилинадиган актив энергия миқдори:

$$\left[\frac{\text{Жоул}}{\text{Секунд}}\right] = \text{Ватт} = \text{Вт}$$

Ҳисоблагич томондан ўлчанадиган актив қувват, Вт, қуйидаги ифодалардан аниқланади:

бир фазали ҳисоблагич учун

$$P_{1\phi} = U_{\phi} I cos\varphi;$$

уч фазали икки элементли ҳисоблагич учун

$$P_{3\phi} = \sqrt{3}U_{\phi}Icos\varphi;$$

тўрт фаза тармоқда уч фазали уч элементли ҳисоблагичлар учун

$$P_{3\phi 4} = U_1I_1cos\varphi_1 + U_2I_2cos\varphi_2 + U_3I_3cos\varphi_3.$$

Реактив қувват – қабул қилгич (трансформатор, электрюритгич) магнит майдони ва генератор орасидаги циркуляцияланадиган, вақт бирлигидаги электр энергияни миқдорига айтилади. Шунда энергияни айрибошлаш иссиқлик, механик ва бошқа айлантиришларсиз даврий амалга ошади.

Реактив қувват, (вар), реактив энергия ҳисоблагичи орқали ўлчанади ва қуйидагича аниқланади:

$$Q_{3\phi} = \sqrt{3}U_{л}Icos\varphi.$$

Тармоқ ва трансформаторлардаги реактив қувватни юкланиши, тармоқ ўтказиш қобилиятини камайтиради ва генераторнинг ўрнатилган тўлиқ қувватини қўлланилаш имкониятини чеклайди.

Бурчак фазасининг силжиши – электр кучланиш ва токлардаги фазали силжиш градусларни ташкил этади. Индуктив тавсифга эга бўлган юкламада ток фаза бўйича кучланишдан қолиб кетади (2.5-расм). Сиғимли тавсифи бўйича юкламада ток фаза бўйича кучланишдан ўтиб кетади.



1-расм. Фазани бурчак силжишидаги кучланиш ва ток оний қийматлари

Вектор – йўналиш ва қиймат кўрсатгичларини шартли график чизмаси.

Вектор диаграмма – ток ва кучланиш векторларини шартли график чизмаси (2-расм).

Кучланиш фазаларини алмашиш тартиби тўғри ёки тескари бўлиши мумкин. Кучланиш фазаларини тўғри тартибланиши – АВС, ВСА, САВ, (соат стрелкаси бўйича, 3-расм). Кучланиш фазаларини тескари тартибланиши – АСВ, СВА, ВАСларда қўшимча ҳатолик ва актив энергиядаги индукцион ҳисоблагичда ўзиюрар ҳолатларни юзага келтиради. Реактив энергиядаги ҳисоблагичлар тескариланма тартибда кучланиш фаза ва юкламалари тескариланма харакатланади.



2-расм. Уч фазали тормоқлардаги кучланиш ва токлар вектор диаграммалари

Ҳисоблагичнинг аниқлик синф белгилари – фоизларда кўрсатиладиган, йўл қўйиладиган ҳатолик чегарасига тенг, ўлчанаётган токнинг ҳамма диапазонидаги минимал ва максимал қийматлари, ҳисоблагичга ўрнатилган стандартлар ёки техник шартларидаги бирликларга эга қувват коэффициентининг миқдоридир. Шитдаги ҳисоблагичда 2 рақами айланада кўрсатилади, масалан .

Ҳисоблагичнинг ўзюрарлиги – кетма-кет уланмаган занжир ва қўлланилаётган кучланиш таъсиридаги диск харакати ёки ҳисоблагич индикаторининг милтиллашидир.

Ҳисоблагичнинг сезгирлик бўсағаси – частоталар ва cosφ=1 кучланиш номинал қийматининг механизмли ҳисоб ўзгаришидаги кўрсатадиган энг кичик меъёрлашган ток қийматидир.

Ток трансформаторининг қутбланиши. Ўлчов трансформаторларидаги бир қутбли қисқичлар бирламчи ва иккиламчи ўрама қисқичлари деб аталади ва улар бир йўналишда ўзакга ўралган ўрамдир. Тескари қутб – ток трансформаторларини (ТТ) бирламчи ва иккиламчи ўрамларидаги ток йўналишини ўзгариши.



3-расм. Кучланиш фазасини тўғри тартибланиши

Ҳисоблагич элементини ўлчов токли занжиридаги ток йўланишининг ўзгариши, фаза силжишидаги 180^0 бурчакка ўзгаришига тенгдир, ва у манфий айлантириш харакат дамига олиб келади (4-расм).



4-расм. ТТнинг иккинчи ўрами ва ҳисоблагич токли занжиридаги тескари қутбли уланиш боғловчи сим орқали (а), ТТни иккиламчи ўрами (б) ва ТТни бирламчи ўрами (в) бўйича бажарилиши

ТТ ўрамини тўғри қутбли уланиши ва ҳисоблагич элементини ўлчов токли занжир 2.9-расмда кўрсатилган. Ҳисоблагични ички бурчаги – ўлчайдиган элемент кучланишини $Ф_U$ магнит оқими ва $Ф_1$ токли занжиридаги магнит оқими орасидаги фазали бурчак силжишига айтилади (индукцион ҳисоблагич учун актив энергия 90^0 га тенг).



5-расм. ТТ ўрамлар қутбларини уланиши ва ҳисоблагични токли занжири:
а – Л1 – И1 – Г – бир қутбли; б – Л2 – И2 – Г – бир қутбли; Л1Л2 – тармоқ; И1И2 – ўлчов

Хулоса: АСКУЭ тизимини темир йўл транспорти, энергетика қисмини назоратлаш учун турли хил усуллари, ҳисобга олиш терминаллари ва асосий ишлаб чиқилган АСКУЭ ни ташкил этиш схемаси тузилган.

Ишлаб чиқилган АСКУЭ тизимини автоматлаштирилган тизимли диспетчер бошқарувини қуришдаги сарфлар ва улардан орттириладиган иқтисодий самаралари ҳисобланган.

Шу билан бирга трансформатор пунктларидаги техник ҳавфсизликларининг қоидалар ва темир йўлда харакат ҳавфсизликлари тўғрисида маълумот берилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Современные компьютерные технологии в АСУ электрических сетей: Информационные материалы четвертого международного научно-технического семинара, Москва, 28 мая – 1 июня 2001 г.

2. Головинский, И.А. Принципы построения универсальной автоматизированной системы контроля и управления переключениями в электрических сетях / И.А. Головинский // Вестник ВНИИЭ-2004. – М., 2004. – С. 204–213.

3. Ю.Д. Цветков. Эволюция автоматизированных систем оперативно-диспетчерского управления подстанциями//Автоматизация в промышленности. 2013. №11. С. 86-98.

4.Кобец Б.Б., Волкова И.О. Инновационное развитие электроэнергетики на базе концепции SmartGrid. М.: ИАЦ Энергия. 2010. 208 с.

ELEKTR MASHINALARINING AVTOMOBIL ZAVODLARIDA TUTGAN O‘RNI

Sultanov Azizbek Ismoiljon o‘g‘li
JizPI, “Transport vositalari kafedrasi” assistenti
E-mail: *azizbeksultanov333@gmail.com*
Talaba: O‘ralov Abbos

Elektr mashinalari sanoatning turli soxalarida, qishloq xo`jaligida va maishiy elektrotexnik qurilmalarida ishlatiladi. Shu sababli ham elektr mashinalari ishlab chiqarilayotgan maxsulotning sifatiga albatta tahsir ko`rsatadi. Demak, ularning texnik–itisodiy ko`rsatkichlari va ularni ishlatish xususiyatlari yaxshi bilishi lozim.

Tokning turiga asosan elektr mashinalar o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok mashinalariga bo‘linadi. Elektr mashinalar vattning juda kichik qiymatidan million kilovattgacha va undan yuqori quvvatlarda tayyorlanadi. Ko‘p qo‘llaniladigan elektr mashinlarda energiyaning o‘zgarishi magnit maydon ta’sirida bo‘ladi. SHuning uchun ularni induktiv elektr mashinalar deyiladi. Shuningdek, energiyani elektr maydon ta’sirida ham o‘zgartirish mumkin, bunday elektr mashinalarini sig‘imli elektr mashinalar deyiladi, lekin bunday mashinalar ko‘p tarqalmagan. Magnit maydon yordamida elektr maydonga nisbatan ming martagacha katta energiya xosil qilinishi mumkin. Bir xil o‘lchamli induktiv va sig‘imli elektr mashinalaridan induktiv mashinalar yordamida ancha katta quvvatga erishish mumkin. Elektr mashinaning asosiy elementi bo‘lib xisoblangan ferromagnit o‘zaklar yordamida kuchli magnit maydon xosil qilish mumkin. O‘zgaruvchan magnit maydonlarda uyurma toklarini kamaytirish maqsadida magnit o‘zaklar yupqa elektrotexnik po‘lat tunukalardan tayyorlanadi. Elektr mashinalarining cho‘lg‘amlari ham asosiy elementlardan xisoblanib, mis, alyuminiy va ularning qotishmalaridan iborat bo‘lgan elektrotexnik materiallardan tayyorlanadi. Cho‘lg‘amlarni ximoyalash maqsadida, turli elektr ximoyalash materiallardan foydalaniladi. Elektr mashinalar generator va dvigatel rejimida qo‘llanilishi mumkin. Elektr mashinalarida energiyaning o‘zgarishi quvvat isroflari bilan bog‘liq, shuning uchun elektr mashinalarining foydali ish koeffitsientlari 100% dan kichik bo‘ladi. Katta quvvatli elektr mashinalarining FIK i 98 ÷ 99.5% ga teng bo‘lib, quvvati 10 Vt gacha bo‘lgan elektr mashinalariniki 20 ÷ 40 % gacha bo‘ladi.

Elektr mashinalarni quvvatlariga nisbatan quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin:

0.5 kVt gacha juda kichik mashinalar yoki mikromashinalar;

0.5 ÷ 20 kVt - kichik quvvatli mashinalar;

20 ÷ 250 kVt o‘rtacha quvvatli mashinalar va 250 kVt dan ortiq quvvatli mashinalarga katta quvvatli mashinalar.

Elektr motorlar ishlab chiqarish korxonalarida qo‘l mehnatini yengillatib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda, inson salomatligini saqlash va mehnat xavfsizlik darajasini oshirishga yordam beradi va keng qo‘llaniladi. Zamonaviy zavod va fabrikalarni, har qanday ishlab

chiqarish korxonalarini elektr motorlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Buni “GM Uzbekistan” korxonasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu zavod haqida so‘z borar ekan avvalo uning yaratilish tarixiga bir nazar tashlasak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘tgan asrning 90-yillarida bu zavod joylashgan o‘rinda “Asaka pritseplar zavodi” bo‘lgan. Sexlarning xavfsizlik holati va ishchilarning mehnat sharoitlarini yengil deb bo‘lmasdi. Chunki hali og‘ir qo‘l mehnati ko‘p edi. Asosan temir buyumlarga ishlov berish va yuklash-tushirish ishlari qo‘l mehnati orqali bajarilgan. Chet ellarda odat tusiga kirib borayotgan zamonaviy jihozlar faqat televizor ekranida namoyon edi. Ushbu zavodda ishlayotgan yoshlar 1990-yili Rossiya televideniyasi orqali e‘lon qilingan “Oka” va “Tavriya” rusumli yengil avtomobillarini ishlab chiqarishga yaroqli zavod maydoni kerakligini va u SSSRning qayerida joylashganligidan qat‘iy nazar u yerda yangi zamonaviy zavod tashkil etilishini bilgani holda o‘z takliflari bilan shunday imkoniyat ayni shu zavod o‘rnida borligini bildirganlar. O‘zbekiston Respublikasi komsomoli kengashi Toshkent shahrida Asaka shahri yosh ishchilar vakili sifatida qatnashgan zavod ishchisi Lutfulla Abdukarimov minbarda o‘z nutqida shu to‘g‘rida zavod yoshlarining taklifini aytib o‘tadi. Shundan so‘ng imkoniyat berilib Rossiya avtomobil zavodi bilan aloqaga kirishildi. 1991-yili mustaqilligimiz e‘lon qilindi va Rossiya taraf bu zavodni qurilishini to‘xtatib qo‘ydi. Lekin endi boshqa chet ell firmalari yordamida ushbu ishni amalga oshirish imkoni borligini O‘zbekistonning muhtaram birinchi Prezidenti homiyligida davom ettirildi. Ko‘p izlanishlar olib borildi, Turkiya davlatidagi “Dogan” firmasi, Italiya va Angliya davlatlaridan firmalar vakillari zavodga kelib o‘rganib ketishdi. Lekin bu ish faqat 1992-yil birinchi Prezidentimizning “Janubiy Korea” ga qilgan rasmiy safari chog‘ida amaliy yakun topdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Janubiy Korea televideniyasi orqali DEU firmasining yengil avtomobillarini ko‘rsatib turib - shunday avtomobillarni Asakada chiqaramiz, deb e‘lon qildilar. Dunyoga mashhur DEU korporatsiyasi raisi janob Kim U Jun Asaka shahriga 20dan ortiq kerakli mutaxassislar-avtomobil zavodi qurishni tashkil etuvchi injener texniklar bilan keldi va zavod ichini ayalanib ko‘rib chiqdi. Zavod qurish imkoni borligi koreys mutaxassislaritomonidan to‘liq e‘lon qilindi. 1993-yili proekt-loyihalash ishlari va qurilishga kerakli firma, injener-texnik kadrlarni jalb qilish ishlari boshlandi. Qurilishga O‘zbekiston davlati (51%), Janubiy Korea DEU kompaniyasi (49%) yopiq aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi, so‘ngra ikkala aksiyador tarafidan zavod qurilishiga jami 650mln AQSH dollari mablag‘i ajratildi. Qisqa muddat, ya‘ni 2.5 yilda zavod qurib bitirilib ishga tushirildi. Zavod sexlari to‘la dunyodagi eng yangi zamonaviy oldingi texnologiyalar va eng yangi markadagi asbob uskunalar bilan jihozlandi. Albatta, ishchi kadrlar Janubiy Korea DEU kompaniyasida amaliyotda bo‘lib kelishdi. Endi ular avvalgidan ancha yorug‘ va qulay bo‘lgan xavfsiz mehnat sharoitlariga ega bo‘lishdi. 1996-yil 19- iyul sanasida birinchi avtomobil zavod konveeridan chiqdi. Bu jahonshumul voqea dunyoda 28-avtomobil ishlab chiqaruvchi davlat- O‘zbekistondagi “O‘zDEU avto” (hozirgi nomi “GM Uzbekistan”) avtomobil zavodi bo‘lib butun dunyoda tan olindi va jahon matbuotida e‘lon qilindi. Jahonga mashhur bu zavod mana shunday dunyo yuzini ko‘rgan.

Endi asosiy masalamiz bo‘lmish elektr mashinalariga qaytsak. Elektr mashinalari-bu elektromexanik qurilmalar bo‘lib, ularda elektr energiyasi mexanik energiyaga yoki mexanik energiya elektr energiyasiga o‘zgaradi. Elektr mashinalari asosiy ko‘rsatkichi boshqa o‘zgartgichlardan farqi shundaki, ularda qayta-qayta o‘zgartirish mumkin, ya‘ni bitta mashina ikki rejimda birinchi dvigatel sifatida elektr energiyasi mexanik energiyaga, keyin generator rejimda mexanik energiya elektr energiyasiga aylanadi. Bunday mashinalarda hosil qilinadigan elektr maydoniga qarab (shu sabab energiya o‘zgarayotgani uchun) elektr mashinalari quyidagi uch turga bo‘linadi: induktivlik, sig‘imlik va induktivsig‘imlik. Zamonaviy elektr mashinalari, ya‘ni ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladigan turi- bu induktiv (rasm2) mashina hisoblanadi. Energiyaning o‘zgarishi ularda magnit maydonida amalga oshiriladi. Va bu induktiv mashinaelektr mashina (dvigatel) yoki elektr motori deb ataladi. Sig‘imli elektrik mashinalar garchi induktivlidan ancha oldin kashf etilganiga qaramay hozirgacha u qadar amaliy qo‘llana olinmadi. Bunga asosiy sabab energiyani o‘zgartirish uchun zarur bo‘lgan yetarli quvvatli elektrik maydon yaratish murakkabligidir. Induktiv-sig‘imli mashinalar faqat so‘nggi yillari paydo bo‘lindi. Ularda energiyani o‘zgartirish elektromagnit maydonida sodir bo‘ladi va ular induktiv hamda sig‘imli

elektr mashinalarning xossalarini birlashtiradilar. Amaliyotda bunday mashinalar hali kam qo‘llaniladi. Elektr mashina ishlashi (aylanishi) uchun aylanuvchi magnit maydoni yaratilgan bo‘lishi kerak.

Hamma elektr mashinalarida aylanuvchan magnit maydon hosil bo‘lish prinsipi bir xilda kechadi va ideal benuqson umumlashtirilgan elektr mashina oddiy elektr mashina bo‘lib hisoblanadi (rasm1). Bunday mashina simmetrik, to‘yintirilmagan, tekis va silliq havo tirqishiga (stator va rotor oralig‘idagi tirqish) ega bo‘lgan bo‘ladi. Uning stator va rotor qismlarida ikkitadan chulg‘am bo‘lib: w va w statorda, w va w rotorda ular bo‘shliqda bir-biriga nisbatan elektr burchak uchi 90 ga teng. Agar shunaqa mashinalarni stator chulg‘ami yoki rotorni chulg‘amga vaqt birligida 90 buriluvchan elektr toki berilsa, undagi havo tirqishida aylanuvchi magnit maydoni hosil bo‘ladi, ya‘ni aylanuvchan aylanma maydon yonida simmetrik sinusoidal kuchlanishli maydon bo‘ladi. Sababi bunday mashina fazoviy tor tirqishida garmonika bo‘lmaydi. U benuqson ideal elektrik mashinalardan u yoki o‘zga darajada bir biridan farqlanadilar, chunki real mashina fazoviy tor tirqishida mavjud mashinalarda ideal sinusoidal maydon olmoq mumkin emas.

Induktor mashinalar tuzilishi rotori 1 va statori 2 dan iborat. Agar rotori elektrga oid burchak uchi 90 ga burilgan bo‘lsa umumiy magnit qarshilik mashina vaqt birligida aylanadi va doimiy tok bilan manbalanayotgan qo‘zg‘atish chulg‘ami o‘zgaruvchan maydon tashkil etadigan kuchlanishi rotorni 1ga aylantiradi.



a) **b)** **c)** **d)**

1 - rasm. Elektr mashinalarining asosiy konstruktiv bajarilishi:
a - asinxronli; b - sinxronli; c - kollektorli; d – induktorli



a) b)

2- rasm. Modifikasiyalangan elektr mashinalarining konstruktiv bajarilishi:
a) – segment statorli mashina; b) – chiziqli dvigatel va uch fazali (AC) zgaruvchan tok induksion motori kesimi.

Adabiyotlar

1.Е.П. Брандин Электрические машины Санкт–Петербург 2004г. 2. Riccardo Marino · Induction Motor -Verlag London Limited 2010 3. GM Uz га 10 йил. 2006й.

2. Berdiev U.T., Pirmatov N.B. Elektromexanika. Texnika oliy oquv yurtlarining “Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari” va “Elektr energetika” yo‘nalishi talabalari uchun darslik.– T.: Shams-Asa. 2014. –386 b.

3. Pirmatov N.B., Mustafakulova G.N., Mahmadiev G‘.M. «Elektr mashinalari» kursidan «Asinxron motorlarni loyihalash». O‘quv qo‘llanma. -T.: ToshDTU, 2013. –95 b.

4. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Elektr mashinalari. Darslik.-T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – 408 b.

5. Ibrohimov U. Elektr mashinalari. O‘quv qo‘llanma. – T.:O‘qituvchi, 2001. 4. Majidov S. Elektr mashinalari va elektr yuritma. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, “Ziyo-Noshir” KSHK, 2002. – 408b.

ТРАНСФОРМАТОРЛАРНИНГ ИЧКИ ИЗОЛЯЦИЯСИ ҲОЛАТИНИ АНИҚЛАШ.

Султанов Азизбек Исмоилжон ўғли
Жиззах Политехника институти ассистенти
Хурсанов Фазлиддин Рустам ўғли
Термиз муҳандислик технология институти ассистенти
э-маил: *azizbeksultanov333@gmail.com*

Кўп тармоқли хўжаликнинг корхоналарида қўлланилаётган трансформа-торлар электротехнологик ускуналарини электр энергияси билан сифатли ва ишончли таоминлашнинг гарови бўлиб хисобланади. Саноатнинг айрим технологик жараёнларининг тезлигини ўзгармас ток двигателлари ва микромашиналар ёрдамида ёрдамида кенг кўламда силлиқ ростлаш мумкин. Ўзгармас ток машиналари баози технологик қурилмаларда, ердаги ва хаво транспортларида хозиргача кенг қўлланилиб келинмоқда.

Ишлаб чиқариш корхонларини, транспортни, қишлоқ хўжалигини электрлаштириш, электротехнологик қурилмаларни турли кўринишлардан фойдаланиш билан боьлиқ. Электротехнологик қурилмаларнинг асосий элементи бўлиб электр машиналар ва трансформаторлар хисобланади.

Трансформаторлар электромагнит статик аппарат бўлиб, айланувчан қисмлари бўлмайди, лекин ишлаш принципи ва тузилиши электр машиналарига ўхшаш бўлганлиги сабабли электр машиналар гурухига қўшиб ўрганилади.

Электр станцияларда ишлаб чиқарилган ўзгарувчан токни истеомолчиларга узатиш, электр қурилмалари ёрдамида етказиб бериш ва тақсимлаш учун уни кучланишини ўзгартириш керак бўлади. Ўзгарувчан токни кучланишини ўзгартириш яони трансформациялаш учун трансформаторлар қўлланилади.

Трансформаторларнинг номинал қийматлари

Трансформаторларнинг номинал режими деб, ишлаб чиқарган корхона тайёрлаган паспортида кўрсатилган режимга айтилади.

Трансформаторларнинг номинал қийматлари - қувват, кучланишлар, токлар, частота ва х.к. трансформаторларнинг паспортида кўрсатилган бўлиб, улар трансформаторларнинг номинал режимини кўрсатувчи бошқа қийматлар, масалан, ф.и.к. кабиларга хам тааллуқлидир.

Трансформаторларни номинал қуввати деб иккиламчи чўлғамда Волрт-Ампер билан ўлчанган ва паспортда кўрсатилган қувватга айтилади.

Трансформаторларни номинал бирламчи кучланиши деб, паспортда кўрсатилган кучланишга айтилади; агар бирламчи чўлғамни шохобчалари мавжуд бўлса, у холда номинал кучланиши алохида таъкидланади.

Трансформаторларнинг номинал иккиламчи кучланиши деб бирламчи чўлғамидаги кучланиши номинал кучланишига тенг бўлиб, салт ишлагандаги иккиламчи кучланишга айтилади; агар иккиламчи чўлғамида уламалар мавжуд бўлса, унинг номинал кучланиши алохида таъкидланади.

Трансформаторнинг бирламчи ва иккиламчи чўлғамларини номинал токлари деб, трансформаторнинг паспортида кўрсатилган ва номинал қувват ва номинал кучланишлар билан маълум боғланишда бўлган бирламчи ва иккиламчи чулғамларнинг токларига айтилади. Бунда трансформаторнинг ф.и.к.и 100% га яқин деб фараз қилиниб, иккала чулғамнинг номинал қувватлари тенг деб қабул қилинади.

Трансформаторларни қизиши ва совуши

Трансформаторларда энергиянинг ўзгариши қувват исрофлари билан боьлиқ равишда бўлиб ўтади. Қувват исрофларининг кўп қисми трансформаторнинг актив қисмининг магнит ўзагида ва чўлғамларида иссиқлик кўринишида ажралиб чиқади. Трансформаторларнинг магнит ўзагидаги магнит исрофлари бирламчи U_1 кучланишнинг квадратига пропорционал бўлиб, чўлғамлардаги электрик исрофлар эса, бирламчи ва иккиламчи чўлғамлардаги токларнинг квадратига тўьри пропорционал бўлади.

Трансформаторларнинг иш режими ўзгарганда улардаги электрик қувват исрофлари ўзгариб, бирламчи кучланишни квадратига пропорционал бўлган магнит исрофлар ўзгармасдан қолади. Қувват исрофларининг бир қисми трансформаторларнинг магнит майдонида жойлашган конструктив элементларида (бакда, махкамлаш деталларида ва бошқалар) мавжуд бўлади.

Трансформаторлардан ажралиб чиқаётган иссиқлик унинг элементларини қиздиради ва элементларини харорати ўраб турган мухит хароратидан ортиб кетади.

Трансформаторнинг хароратини ортиши ундан ўраб турган мухитга узатилаётган иссиқлик оқимини ортишига олиб келади, чунки иссиқлик оқими трансформаторни қизиган қисмининг хароратини ўраб турган мухит хароратига нисбатан ортишига пропорционал бўлади.

Трансформаторнинг қарор топган харорати унинг совутиш тизимига боьлиқ. Трансформаторларни ва уларнинг совутиш тизими шундай лойихаланиши керакки, унинг қисмларининг харорати рухсат этилган чегарадан ортиб кетмаслиги шарт. Трансформаторларни қисмларининг хароратини ортиши унинг химояловчи материалларини емирилишига яони электрик ва механик мустахкамлигини пасайишига сабаб бўлади.

Ўтказилган тажрибаларда, трансформаторларнинг хароратини рухсат этилган қийматларидан 8°С га ортиши, унинг иш муддатини икки мартагача қисқартириши мумкинлиги аниқланган.

Трансформатор номинал режимда ишлаганда қисмларининг хароратини ўраб турган мухит хароратига нисбатан ортиши Давлат стандартида рухсат этилган °С қийматлардан ортиб кетмаса, трансформатор 15-20 йил давомида ишлаши мумкин:

мойли трансформаторлар учун:

чўлғам …… 65

магнит ўзакнинг ва конструктив қисмларнинг ташқи юзаси..... 75

Қуруқ трансформаторлар учун:

Давлат стандартига асосан чўлғамларга ва магнит ўзакларга тегиб турган химояловчи материаллар учун иссиқликга чидамлилик классига боьлиқ равишда °С да

V …….. 50

A …….. 65

E …….. 80

B …….. 90

F …….. 115

H ……140

Трансформаторлар сув билан совутилганда унинг қисмларининг хароратини ортиши юқоридагиларга нисбатан 15°С га ортиши мумкин. Трансформаторларни 15-20 йил ишлашини таоминлаш учун қисмларининг хароратини рухсат этилган қийматларида ўраб турган мухитнинг хароратини сутка ва йил давомидаги тебранишлари ва трансформаторнинг юкламаси хисобга олинган.

Трансформаторларнинг қарор топган қисқа туташув режимларида чўлғамларнинг харорати қуйидаги рухсат этилган қийматлардан ортмаслиги шарт.

Мойли трансформаторлар учун

чўлғамлари мисдан тайёрланган чўлғамли …….. 250°С

алюминдан тайёрланган чўлғамли ……. 200°С

Мисдан тайёрланган қуруқ трансформаторлар учун химояловчи материалларнинг иссиқликка чидамлилик классига асосан.

A …….. 180°С

E …….. 250°С

B, F, H ……. 350°С

Чўлғамлари алюминдан тайёрланган қуруқ трансформаторлар учун химояловчи материалларни иссиқликга чидамлилик классига асосан:

A ……..180°C

E, B, F, H ……...……...……...200°C

Трансформаторларнинг қисқа туташув режимининг давомийлиги Давлат стандартига асосан 5 секунддан ошмаслиги керак.

Толали изоляцион материалларни изоляциясини ҳолатига бахо беришни замонавий усулларидан бири “сиғим - вақт” усули бўлиб ЕВ-3 асбоби ёрдамида бажарилади.

Ушбу усул билан изоляцияни сиғими зарядланади ва тезлик билан разрядланади (яъни зарядланиш тугалланиши билан чўлғам қисқа туташтирилади) ва иккинчи мартасида зарядланиш тугаганидан сўнг секинлик билан разрядланади (зарядланиш тугалангандан сўнг 1 секунд ўтиб чўлғам қисқа туташтирилади).

Биринчи холатда С- изоляцион материални сиғими аниқланади, иккинчи холатда ΔС- абсорбицион сиғим хисобига сиғимни ортиши аниқланади.Сиғмни ортиши изоляцияси нам чулғамли трансформаторда 1 секунд ичида пайдо бўлишга улгиради.

Чўлғами қуруқ трансформаторда эса у сезиларли эмас.

$$\Delta C = [\ (0{,}02\text{-}0{,}08)\ C]$$

Чўлғами нам трансформаторда

$$\Delta C_{нам} >> 0{,}1\ C$$

ΔС/С-сиғим нисбати трансформатор чўлғамини намлик даражасини аниқлаб беради. Изоляцияни холатига бахо беришни сиғимли усули толали изоляцион материалларни А-синфига таълуқлидир, чунки қутубланиш намликка боғлик.

Кўп ўрамли В-синфига мансуб изоляцион материалларда қутубланишни пайдо бўлиши қуруқ изоляцияда хам кўпроқ, шунинг учун сиғим усулини қўллаш эффектив эмас.

Синовларни олиб боришда трансформатор мойини хусусияти $\Delta C/C_{сиғим}$ ўлчов натижаларига таъсир этади. Бунинг натижасида чўлғам изоляцияси қуруқ трансформаторни ΔС/С қиймати +20°С да тарқоқроқ бўлиб 25-70 % ўрталигида бўлади.

Трансформаторлар чўлгамларини намлигини аниқлаш учун “сиғим – температура” усули хам қўлланилади. Ушбу усул хар хил температуралардаги чўлғам сиғим катталигини солиштиришга асосланган. Температуралар ўртасидаги фарқ +50ºС бўлиши ва пасти +20ºС дан кам бўлмаслиги керак.

Усул қуйидагиларга асосланган яъни қуруқ изоляцияни сиғими қизиш натижасида кам ўзгаради, нам изоляцияда эса 5-10 % дан кам бўлмаган холда ўзгаради.

$C_{иссиқ}/C_{совуқ} \leq 1{,}05\text{-}1{,}1$ изоляцияси қуруқ трансформаторларда

$C_{иссиқ}/C_{совуқ} \geq 1{,}05\text{-}1{,}1$ изоляцияси нам трансформаторларда

$C_{иссиқ}$ -чулғомни иссиқ холатдаги сиғими

$C_{совуқ}$ -чулғомни совуқ холатдаги сиғими

Толали изоляцион материалларни А-синфига мансубларини изоляциясини ҳолатига бахо беришни “сиғим - частотали” усул билан хам аниқланади.

Ушбу усулда чулғом изоляция сиғими 2 ва 50 Гц ли частоталарда ўлчанади.

C_{50} - чулғам изоляция сиғимини (50 Гц ли частотада) ўлчанаганда геометрик сиғим аниқланади ва у қуруқ ва нам изоляцияларда бир хил бўлади.

C_2- чулғом изоляция сиғимини (2 Гц ли частотада) ўлчаганда нам изоляцияни абсорбицион сиғими кўринади ва қуруқ изоляцияда уни қиймати кичик ва жуда секинлик билан зарядланади.

Шунинг учун қуруқ изоляцияда С2/С50 нисбат 1 га яқин, нам изоляцияда эса 1 дан катта (хусусан 1,2-1,3 га тенг).

Ушбу усул билан ўлчов ПКВ-13 асбоби ёрдамида олиб борилади, изоляция қаршилиги 15 м Ом дан кичик бўлган намуналарда синов ишлари олиб борилганида асбоб нотўғри кўрсаткичларни бериши мумкин. Бу текширувлар даврида хисобга олинади. Бундан ташқари ишлаб чиқарувчи завод сиғимни С2- 1 000-100 000 пФ; С50-1 000-50 000 пФ; қийматларида синовни тўғрилигига кафолат беради.

B-синфга мансуб изоляцион материалларни изоляция холатига бахо беришда хозирги вақтда изоляцияга тўғриланган кучланишни хар хил қийматлари берилиб ўтувчан ток қиймати мувофақиятли аниқланмоқда ёки характеристикалари олинмоқда.

$$I_{ўт} = f\ (U_{тўғри})$$

$I_{ўт}$ -ўтувчан ток $U_{тўғри}$ –изоляцияга қўйилаётган тўғриланган кучланиш Ўтувчан ток $I_{ўт}$ ни чулғамга берилган тўғриланган кучланиш қийматига боғлиқ ўзгариш схемаси қуйидагича:



1. намланган изоляциядаги; **2.**Қуритилган изоляциядаги

$U_{ном}$ -кучланиш қийматида ионизацияни бошланиши ва кучли ортиб бориши Намланган изоляцияли машинани характеристикасида ўтувчан ток изоляцияга қўйилган тўғриланган кучланишга ночизиқли боғланган. Изоляцияга қўйилган туғриланган кучланиш қанча катта бўлса ночизиқлилик шунча катта.

Намланган изоляцияда ночизиқлилик унда маълум кучланишларда ионизация жараёнларини бошланиши ва бирдан кучайиши бунинг натижасида ўтувчан токни ортиши кўзга ташланади. Ночизиқлилик коэффициенти- Кночиз изоляциянинг намланганлик критерияси бўлиб хизмат килади. Кночиз -бу изоляция қаршилигини Rиз дан оқиб ўтаётган ўзгармас ток қийматига нисбатидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Martin J. Heathcode. The Jand P Transformer Book. Thirteenth edition. Copyright 2017y. 752p.

2. Хурсанов Ф.Р, Атабаев А.М, Қодиров А.У “Ечими оддий аммо-долзарб муаммо” Образование и наука в XXI веке Научно-образовательный электронный журнал 805p 2021.

3. Хурсанов Ф.Р “THE USE OF RENEWABLE ENERGY SOURCES IN UZBEKISTAN” International Scientific Journal ISJ Theoretical and Applied Science Philadelphia, USA 2020.

4. Bhattachrya. Electrical machines 3E book. 2018.

5. Якубова Д.К, Бекишев А.Е, Уроқов С.Е “Электр машиналар ва электр юритма” 2019й.

6. “The Working Procedure on how Transformers Work - Types & Equations.” ElProSus-electronic Projects for Engineering Students, 13 Oct. 2018,

ASINXRON MOTORLI ELEKTR YURITMANI VEKTORLI BOSHQARISHDA QUTBLI VA AYLANUVCHAN KOORDINA TIZIMLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI.

Sharipov Sh.N., Sattorov T.A.
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola asinxron elektr dvigatellarning tezligini datchiksiz o‘lchash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga, hamda ushbu tizim modelining matematik ifodalash masalasiga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: Stator, rotor, juft qutblar soni, burchak chastotasi, elektr yuritma, burchakli tezlik.

Statorli koordinata tizimidan tashqari dvigatelning rotor cho‘lg‘ami bilan bog‘langan va unga nisbatan qo‘zg‘almas turgan *d - q* rotorli koordinata tizimini ham qo‘llashimiz mumkin. Bu tizim elektrik fazoda rotor bilan birga aylanadi. Ushbu koordinata tizimida qaralayotgan fazoviy vektorlarni *d - q* indeks bilan belgilaymiz, mos ravishda bunday indekslar bilan fazoviy vektorlarni *d* va *q* o‘qlaridagi proeksiyalarini ham belgilaymiz. Rortorga tegishli kattaliklarni 2 indeksi bilan yozish qabul qilinganligi uchun rotorli koordinata tizimi haqiqiy sonlar o‘qi *d* va statorli koordinata tizimidagi qo‘zg‘almas *x* o‘qi orasidagi burchakni θ_2 deb belgilaymiz. Rotorning fizik fazodagi burilishi va elektrik fazodagi burilishi orasidagi farqni nazardan chetga chiqarmaslik kerak. 1-rasmda belgilangan barcha burchaklarning o‘lchov birligi el.rad. Rasmda tasvirlangan fizik fazoda o‘qlarning joylashuv holatlari faqatgina motorning juft qutblar soni $r_p = 1$ teng bo‘lganiga mos keladi.



1-rasm. Turli koordinata tizimlarida fazoviy vektorning joylashuvi

Rasmda shuningdek *x - y* va *d - q* koordinatalar tizimlariga nisbatan ixtiyoriy yo‘naltirilgan yana bir umumiy $\alpha - \beta$ koordinata tizimi tasvirlangan. Bunday keyingi bayonlarimizda ushbu koordinata tizimi elektrik fazoda ta’minot manbai kuchlanishining burchak chastotasiga teng bo‘lgan sinxron burchak tezlik bilan aylanadigan tizim deb qaraymiz. Statorli koordinata tizimiga nisbatan ushbu tizimning burilish burchagining oniy qiymatini θ_c deb belgilangan [1,4,5,6].

MYUK vektorini fazoviy vektor misolida qarashni davom ettirib, qo‘zg‘almas *x - y* koordinatalar tizimiga nisbatan aylanuvchi vektor uchun quyidagi ifodani yozishimiz mumkin:

$$\tilde{F}_{1x-y} = F_{1max}e^{j0} \quad , (1)$$

yoki

$\tilde{F}_{1x-y} = F_{1max}(\cos\theta + j\sin\theta = f_x + jf_y$,

bu yerda F_{1max} - MYUK ning amplutuda qiymati.

Burchak θ vaqtning funksiyasi hisoblanadi, agar elektr yuritma ish rejimining o‘zgarishida MYUK qiymati o‘zgarsa F_{1max} ning qiymati ham o‘zgarishi mumkin.

SHunga o‘xshash tarzda fazoviy vektor ifodasini rotorli koordinata tizimi uchun yozishimiz mumkin. Buning uchun *d - q* koordinata tizimining o‘zi statorli koordinata tizimiga nisbatan θ_2 burchakga siljishini hisobga olish kerak:

$$\tilde{F}_{1d-q} = F_{1max}e^{j(\theta-\theta_2)} \quad . (2)$$

Fazoviy vektor proeksiyasi orqali *d - q* koordinata tizimidagi ifodaning yozilishi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi[2]

$\tilde{F}_{1d-q} = F_{1max}\{\cos(\theta - \theta_2) + j\sin(\theta - \theta_2)\} = f_d - jf_q$.

(1) va (2) ifodalarni solishtirish natijasida statorli tizimdan rotorli tizimga va teskarisiga rotorli tizimdan statorli tizimga o‘tkazish formulalariga ega bo‘lamiz:

$$\tilde{F}_{1d-q} = F_{1max}e^{j\theta}e^{j-\theta_2} = \tilde{F}_{1x-y}e^{-j\theta_2}; \quad (3)$$

$$\tilde{F}_{1x-y} = F_{1d-q}e^{j\theta_2} \quad (4)$$

Umumiy koordinata tizimida fazoviy vektor quyidagi ko‘rinishda yoziladi

$$\tilde{F}_{1\alpha-\beta} = F_{1max}e^{j(\theta-\theta_c)},$$

yoki

$$\tilde{F}_{1\alpha-\beta} = F_{1max}\{\cos(\theta-\theta_c) + j\sin(\theta-\theta_c)\} = f_\alpha - jf_\beta$$

Fazoviy vektorni umumiy koordinata tizimida yozilishi bilan statorli yoki rotorli tizimdagi yozilishi orasidagi bog‘lanish quyidagicha aniqlanadi:

$$\tilde{F}_{1\alpha-\beta} = F_{1max}e^{j\theta}e^{-j\theta_c} = \tilde{F}_{1x-y}e^{-j\theta_c}; \quad (5)$$

$$\tilde{F}_{1x-y} = \tilde{F}_{1\alpha-\beta}e^{j\theta_c}; \quad (6)$$

$$\tilde{F}_{1\alpha-\beta} = F_{1max}e^{j(\theta-\theta_c)}e^{j\theta_2}e^{-j\theta_2} = \tilde{F}_{1d-q}e^{-j(\theta_c-\theta_2)};$$

$$\tilde{F}_{1d-q} = \tilde{F}_{\alpha-\beta}e^{j(\theta_c-\theta_2)}. \quad (7)$$

Keyingi bayonlarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, asinxron dvigatelli elektr yuritmani matematik ifodalanishida, ham statorli koordinata tizimidagi kattaliklar ham rotorli koordinata tizimidagi kattaliklar mavjud bo‘ladi. Bu barcha kattaliklarni qandaydir bitta umumiy tizimga keltirilish kerak. Yuqorida keltirilgan formulalar buni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Asinxron motorlarda ideal salt ishlash rejimidan tashqari qolgan barcha rejimlarda ta’minot kuchlanishining burchak chastotasi $\omega_{0\text{ел}}$ va elektrik fazodagi rotorning tezligi $r_p\omega$ turlicha bo‘ladi. Statordagi kuchlanishning burchak chastotasi bilan elektrik fazodagi dvigatelning tezligi orasidagi farq $\omega_{0\text{ел}} - r_p\omega$ rotor EYUKining burchak chastotasini belgilaydi va bu farq elektr yuritmani matematik ifodalash jarayonida hisobga olinishi kerak.

Fazoviy vektorni o‘ziga xos xususiyatini xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin: vaqtning har bir momentidagi fazoviy vektorning cho‘lg‘am o‘qidagi proeksiyasi ushbu cho‘lg‘am kattaliklarning oniy qiymatlariga teng bo‘ladi [2, 8, 9, 10, 12].

Sinxron dvigatel statorining konstruksiyasi asinxron dvigatel statorining konstruksiyasidan farq qilmaydi. Unda xuddi asinxron dvigatelnikiga o‘xshab uch fazali cho‘lg‘am joylashgan bo‘ladi. CHo‘lg‘am uch fazali kuchlanish manbaidan ta’minlanganda ulardan oqib o‘tuvchi tok sinxron tezlik bilan aylanuvchi magnit maydonni hosil qiladi. Sinxron motor rotorining konstruksiyasi asinxron motor rotori konstruksiyasidan keskin farq qiladi. Sinxron motor rotorida o‘zgarmas tok manbaidan ta’minlanadigan bir fazali (qo‘zg‘atuvchi) cho‘lg‘am joylashgan bo‘ladi. O‘zgarmas qo‘zg‘atish tokining mavjudligi rotorni o‘zining magnit maydonini hosil bo‘lishiga olib keladi. Bu maydon statorning aylanuvchan magnit maydoni bilan ilashadi va rotorni stator maydoni tezligi bo‘yicha sinxron aylanishiga majbur qiladi. SHuning uchun barqarorlashgan rejimda dvigatelning tezligi hamma vaqt sinxron tezlik ω_0 ga teng bo‘lib, bu qiymat ta’minot kuchlanishi chastotasi va stator cho‘lg‘amining juft qutblar soni $\omega_{0\text{ел}}/r_p$ bilan aniqlanadi. Dvigatel tezligining sinxronlikdan lahzali og‘ishi faqatgina o‘tkinchi jarayonlarda, masalan dvigatel validagi yuklamaning o‘zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. O‘tkinchi jarayon oxirida va agar yuklama momenti ruxsat etilgan maksimal qiymatidan oshmasa tezlik yana ω_0 qiymatiga qaytadi.

Sinxron dvigatellar konstruktiv tuzilishidan qat’iy nazar ayon qutbli va ayonsiz qutbli dvigatellarga bo‘linadi. Birinchi holda rotor qutblari rotorning o‘zidan alohida tarzda tayyorlanadi. Elektrotexnik po‘latdan tayyorlangan o‘zakda qo‘zg‘atish cho‘lg‘ami o‘ramlari o‘rnatiladi va tayyor o‘ramli qutblar rotorga mahkamlanadi. Ikkinchi holda rotorning magnit o‘tkazgichi yig‘iladigan elektrotexnik plastinkalarda maxsus radial o‘yiqlar mavjud bo‘ladi. Rotor yig‘ilgandan keyin uning sirtida hosil bo‘lgan bo‘ylanma pazlarda qo‘zg‘atish cho‘lg‘ami o‘ramlari joylashtiriladi. Rotor uzunligi bo‘ylab tizilgan maxsus pazlarda dempferli (ishga tushirish) cho‘lg‘amining o‘zaklari o‘rnatiladi. Ushbu o‘zaklar rotor tishlari bilan qisqa tutashtiruvchi segmentlar bilan birlashtiriladi, alohida qutblar segmentlari o‘zaro biriktirilib natijada asinxron dvigatelniki kabi olmag‘on g‘idirakini eslatuvchi qisqa tutashtirilgan cho‘lg‘am hosil bo‘ladi. Ushbu cho‘lg‘am sinxron dvigatelni ishga tushirish uchun xizmat qiladi. Ishga tushirish jarayonida u asinxron dvigatel kabi tezlanish oladi, biroq sinxron tezlikka o‘tishda rotor cho‘lg‘amiga qo‘zg‘atish kuchlanishi beriladi va dvigatel sinxronlikka harakat qiladi. Ishga tushirish vaqtiga dvigatel qismalarida katta EYUK hosil bo‘lishini olini olish maqsadida qo‘zg‘atish cho‘lg‘ami qisqa tutashtiriladi yoki qo‘shimcha qarshilik ulanadi. SHuningdek dempferli cho‘lg‘am o‘tkinchi jarayonda hosil bo‘luvchi rotorni tebranishiga olib keladi. Barqarorlashgan sinxron rejimda, ya’ni qachonki stator maydonining tezligi va rotorning tezligi bir-biriga teng bo‘lganda dempferli cho‘lg‘amda tok bo‘lmaydi.

Ayon qutbli rotorli motor bilan yayonsiz qutbli rotorli motorning konstruktiv farqi asosan birinchi navbatda, rotor qutblari bilan mos keluvchi va *d* o‘q sifatida belgilanuvchi to‘g‘ri o‘q bo‘yicha yo‘nalgan stator cho‘lg‘amining induktivligi, hamda *q* o‘q deb belgilanuvchi kvadraturali o‘q bo‘yicha yo‘nalgan stator cho‘lg‘amining induktivligi bir xil bo‘lmasligi hisoblanadi. Ikkinchidan ushbu induktivliklar bir-biriga tengdir.

Odatda sinxron dvigatellar – katta quvvatli rostlanmaydigan elektr yuritmalarda qo‘llanadigan sinxron tezligi 100 dan 3000 ayl/min. etadigan quvvati bir necha o‘ndan kilovattdan bir necha o‘n ming kilovattgacha bo‘ladigan ulkan motor xisoblanadi. SHunga qaramay rostlanadigan manbadan ta’minlanayotgan sinxron dvigatelning tezligini rostlash, stator kuchlanishining chastotasini o‘zgartirish orqali amalga oshirish mumkin.

Sinxron dvigatelda kechadigan elektromagnit jarayonlarni eng sodda hol uchun, ya’ni dempferli cho‘lg‘am rotorda bo‘lmagan hol uchun qarab chiqamiz. Buning uchun faqatgina ayon qutbli rotorli dvigatelni ko‘rib chiqamiz, biroq shuni nazarda tutish kerakki, ayon qutblidan ayonsiz qutbli motorga o‘tishda faqatgina motorning matematik ifodalanishida stator cho‘lg‘amining induktivligi ikkala o‘q bo‘yicha teng deb qabul qilish kerak bo‘ladi.

Asinxron dvigatelning matematik ifodalanishi jarayonida bajarilganidek, qaralayotgan hol uchun rotor bilan bog‘langan va u bilan birga aylanuvchi *d* – *q* koordinatalar tizimini kiritamiz. Lekin asinxron va sinxron dvigatellardagi *d* – *q* koordinatalar tizimi orasida sezilarli farq borki, bu farq birinchi holda ushbu koordinata tizimi elektrik fazoda rotor tezligiga $r_p\omega = \omega_{0\delta l} - \omega_r$ teng tezlik bilan aylanadiki bu ideal salt ishlash rejimidan tashqari qolgan barcha rejimlarda sinxron tezlikdan farq qiladi. Ikkinchi holda elektrik fazodagi uning tezligi hamma vaqt sinxron tezlik $r_p\omega_0=\omega_{0\delta l}$ ga tengdir. SHunday qilib, sinxron dvigatelning matematik ifodalanishida *d* – *q* koordinata tizimi, asinxron dvigatelni matematik ifodalanishida qo‘llanilgan sinxron tezlik bilan aylanuvchan $\alpha - \beta$ koordinatalar tizimi kabi rolni o‘taydi.

Sinxron dvigatelning stator cho‘lg‘ami asinxron dvigatelning stator cho‘lg‘amidan deyarli farq qilmasligi bois, stator kuchlanishining muvozanat tengnlamasi bevosita sinxron dvigatelning matematik ifodalanishida qo‘llanilishi mumkin. Buning uchun unga ta’luqli fazoviy vektorlarni ularning koordinata o‘qlaridaga proeksiyalari orqali tasvirlash kerak bo‘ladi: [13, 14, 15]

$$\dot{U}_1 = u_{1d} + ju_{1q}; \dot{I}_1 = i_d + ji_{1q}\ ;\ \dot{\psi}_1 = \psi_{1d} + j\psi_{1d} \quad (8)$$

Rotor cho‘lg‘ami burchak chastotasi ω_r teng bo‘lgan uch fazali o‘zgaruvchan tok bilan ta’sirlashadigan asinxron dvigateldan farqli ravishda, sinxron motor qo‘zg‘atish cho‘lg‘amidan o‘zgarmas tok oqib o‘tadi. Qo‘zg‘atish cho‘lg‘amidagi kuchlanish U_f , tok i_f va rotor oqim ilashuvi ψ_f lar rotorga nisbatan qo‘zg‘almas va u bilan birga va mos ravishda *d* – *q* koordinata tizimi bilan birga aylanuvchi fazoviy vektorlar bilan tasvirlanishi mumkin. Ushbu farazda ular stator kuchlanishi, toki va oqim ilashuvilarini uch fazali tizimda qarab chiqish natijasida hosil bo‘lgan fazoviy vektorlardan farq qilmaydi. SHuning uchun, *d* – *q* koordinata tizimining haqiqiy o‘qlar *d* yo‘nalishini qo‘zg‘atish cho‘lg‘ami o‘qi yo‘nalishi bo‘ylab yo‘naltirib, ya’ni *d* o‘qni rotor oqimi ilashuvi vektori va u bilan mos keluvchi qo‘zg‘atish kuchlanishi va toki vektorlari bo‘yicha yo‘naltirib, o‘zaro $u_f = R_f i_f + p\psi_f$ tenglama bilan bog‘langan rotorga tegishli kattaliklarni fazoviy vektorlarning *d* koordinata o‘qidagi proeksiyasi sifatida qarash mumkin.

Toklar va oqim ilashuvlari orasidagi bog‘lanishlarni tahlil qilish uchun 2-rasmda tasvirlangan dvigatel modelidan foydalanish qulayroqdir. Modelda statorning uch fazali cho‘lg‘ami *d* – *q* aylanuvchan koordinata tizimiga nisbatan qo‘zg‘almas turgan va aktiv qarshilik R_1 hamda L_{1d} va L_{1q} induktivliklar bilan xarakterlanuvchi ikki faza bilan almashtirilgan. Ushbu cho‘lg‘am o‘qlari *d* va *q* koordinata o‘qlari bo‘ylab yo‘nalgan. Ularga u_{1d} va u_{1q} o‘qlar bo‘yicha o‘zgarmas kuchlanish qo‘yiladi va natijada cho‘lg‘amlardan i_{1d} va i_{1q} toklar oqib o‘tadi. Qarshiligi R_f va induktivligi L_f bo‘lgan rotor cho‘lg‘amiga qo‘zg‘atuvchi kuchlanish u_f vat tok i_f quyilgan. 2-rasmdan qo‘rinib turibdiki, tanlangan koordinata o‘qlarida stator oqim ilashuvi *d* o‘q bo‘yicha i_{1d} va i_f toklar bilan, *q* o‘qi bo‘yicha esa faqatgina i_{1q} tok bilan aniqlanadi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda dempfersiz cho‘lg‘amli sinxron dvigatelda kechadigan elektromagnit jarayonlarning matematik modeli aylanuvchan koordinata tizimi o‘qidagi umumlashgan vektorlar proeksiyasi uchun yozilgan tenglamalar tizimi ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$u_{1d} = R_1 i_{1d} + p\psi_{1d} - \omega_{0эл}\psi_{1q}\ ; (9)$$

$$u_{1q} = R_1 i_{1q} + p\psi_{1q} + \omega_{0эл}\psi_{1d}\ ; (10)$$



2-rasm. Aylanuvchan koordinata tizimidagi sinxron dvigatelning modeli.

$$u_f = R_f i_f + p\psi_f\ ; (11)$$

$$\psi_{1d} = L_{1d} i_{1d} + M_{df} i_f\ ; (12)$$

$$\psi_{1q} = L_{1q} i_{1q}\ ; (13)$$

$$\psi_f = L_f i_f + M_{fd} i_{1d}\ . (14)$$

bu erda R_1, R_f - mos ravishda stator cho‘lg‘ami va qo‘zg‘atish cho‘lg‘ami fazalarining qarshiliklari; L_{1d}, L_{1q} va L_f - mos ravishda d va q koordinata o‘qlari bo‘yicha stator cho‘lg‘amining to‘la induktivligi va qo‘zg‘atish cho‘lg‘amining to‘la induktivligi; M_{df} $-d$ koordinata o‘qi bo‘yicha qo‘zg‘atish cho‘lg‘ami va stator cho‘lg‘ami orasidagi o‘zaro induksiya koeffitsienti, $M_{df} = M_{fd}$.

Odatda ma’lumotnomalarda sinxron motorlar parametrlari nisbiy birliklarda beriladi. SHuning uchun sinxron dvigatelda kechadigan elektromagnit jarayonlarni matematik ifodalanishi masalasi qaralayotganda nisbiy birliklarga o‘tish maqsadga muvoffiq bo‘lar edi, ya’ni uning matematik ifodalanishiga kiruvchi tenglamalarni normallashtirish kerak. Normallashtirish uchun kerak bo‘ladigan baza qiymatlari shunday tanlanishi kerakki, unda dvigatelda kechagidan fizik jarayonlarni ifodalovchi birlamchi tenglamalarni maksimal qisqartirish imkonini bersin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] IslomKhafizov, Komil Gafforov,Muxammedov Sh., Jurakulov A Energy saving when using a variable frequency drive in pump installations, Journal of Critical Reviews, ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 12, 2020, P.99-102, http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.16

Agar ishlab chiqilgan bosim suvni kerakli balandlikka ko‘tarish uchun yetarli bo‘lmasa, suvni oraliq rezurvuarlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarmoqdan ham oladigan kuchaytiruvchi nasos stantsiyalari (booster stantsiyalari) quriladi. Ikkinchi holda, stantsiyalar "quvurdan quvurga" sxema bo‘yicha ishlaydi. Suv nasos stantsiyalari ham texnik va ichimlik suvining SNSlariga bo‘linadi. Ushbu SNSning qurilmasi bir xil, ammo ularning ish rejimlari bir-biridan farq qiladi. Texnik suv

SNSning ishlash tartibi korxonaning ishlab chiqarish sikli bilan, ichimlik suvi SNS esa aholi turmush ritmi bilan belgilanadi.

Kanalizatsiya nasos stantsiyalari (KNS) oqava suvlarni tozalash inshoatiga haydash uchun mo‘ljallangan. Kanalizatsiya tarmog‘idan chiqindi suvlar KNS qabul qilish rezurvariga kiradi, u yerdan bosim o‘tkazgichlariga quyiladi va ulardan so‘ndirish kameralari orqali tortish kollektorlariga kiradi. Kollektorlardan boshqa yirik kanalizatsiya nasos stantsiyalari yana oqava suvlarni kattaroq kesimdagi bosim kollektorlariga yetkazib beradi. Shunday qilib, nasosning bir necha bosqichlari orqali chiqindi suv tozalash inshootlariga (aeratsiya stantsiyalari va boshqalar) kiradi.

Issiqlik nasos stansiyalari isitish va issiq suv ta’minoti tizimlarini issiq suv bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Issiq suv manbalari markaziy qozonxonalar va issiqlik elektr markazlari bo‘lib, ularda tarmoq nasoslari o‘rnatiladi. Ushbu nasoslarning yordami bilan suv, suv isitgichlari orqali o‘tkaziladi (qozonxonalar), bu yerda u isitish turbinalaridan keladigan bug‘ bilan isitiladi va undan keyin quvurlar tarmog‘i orqali iste’molchilarga yetkaziladi. Issiqlik almashtirgichlar (teploobmennik) orqali issiqlikdan voz kechgandan so‘ng, sovutilgan suv qaytish liniyasi orqali tarmoq nasoslarining so‘ruvchi kollektoriga qaytadi.

Issiqlik elektr stantsiyalarining (IES) nasos agregatlari elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishning texnologik jarayonida turli funktsiyalarni bajaradi va bunday holatlarda ta’minot nasosi qozon agregatlarini suv bilan ta’minlaydi, kondensat agregatlari esa kondensatni (turbinadan suvga aylangan bug‘) deaeratorga haydaydi. Sirkulyatsiya nasoslari kondensator va sovutish moslamalari (gradirnaya, sovitish hovuzlari) orqali sovutiladigan suvining doimiy aylanishini ta’minlaydi.

Nasos stantsiyalari bir yoki bir nechta nasos agregatlari bilan jihozlangan bo‘lib, ularning soni juda katta farq qiladi, ya’ni 1 dan 20 gacha. Nasos agregati bir nechta agregatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, nasoslarning bosimi (napor) va so‘rish liniyalari bir-biriga bosim va so‘rish kollektorlari orqali ulanadi. Bunday holatlarda bosim kollektorlari - bosim kollektorlariga, so‘rish quvurlari esa so‘rivchilarga ulanadi. Qabul qiluvchi rezurvuarlar mavjud bo‘lganda, assimilyatsiya manifoldlari bilan ta’minlanmasligi mumkin va bunday holatda nasoslarning assimilyatsiya (so‘ruvchi) liniyalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri rezurvuarga ulanadi. Zamonaviy nasos qurilmalarida lopostli nasoslar (markazdan qochma va osevoy) eng keng tarqalgan. Markazdan qochma nasoslar (1.1-rasm, a) spiral shaklga ega bo‘lgan qo‘zg‘almas korpus 1 ichida valga 3 o‘rnatilgan ishchi g‘ildirak (koleso) 2 mavjud. Ishchi g‘ildirak 2 ikkita diskdan iborat bo‘lib, ular orasida kurakchalar (lopostlar) 4 joylashtiriladi. Nasos korpusi quvurlar orqali quvur liniyalari 5 va 6 mos ravishda so‘rish va napor trubkalariga ulangan holatda bo‘ladi. Nasos korpusi va uning so‘rish quvuri suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘lsa va keyin ishchi g‘ildirak aylantirilsa, u holda suyuqlik ishchi g‘ildirak kurakchalari ta’sirida aylana boshlaydi. Markazdan qochma kuchlar suyuqlikni periferiyaga olib boradi, bu yerda bosim kuchayadi va g‘ildirak markazida past bosim bo‘ladi. Ushbu bosim farqi tufayli suyuqlik bosimi quvur liniyasiga kiradi. Shunday qilib, suyuqlikni uzluksiz yetkazib berish amalga oshiriladi.

Markazdan qochma nasoslar bir bosqichli (bitta ishchi g‘ildirak bilan) yoki ko‘p bosqichli (bir nechta g‘ildirakli) bo‘lishi mumkin. Konstruksiyasi bo‘yich valning joylashishiga qarab, ular gorizontal va vertikal nasoslarga bo‘linadi.

O‘qli nasoslar. Ishchi g‘ildiragi sharsimon kamerada aylanadi. Oqim tezligining o‘zgarishi tufayli ishchi g‘ildirak kurakchalari suyuqlikka ta’sir qilganda, kurakchalar ustidagi bosim ortadi, ostida esa pasayadi. Bosim farqi tufayli nasosning o‘qi bo‘ylab suyuqlik harakatlanadi. Ushbu turdagi nasoslar past bosimli (naporli) (20 m gacha) ko‘p miqdorda suv haydash uchun mo‘ljallangan.



1-rasm. Bir stupenli markazdan qochma nasos (a) sxemasi va uning (b) ishchi xarakteristikasi. H-nasos napori; Q-oqim; η-FIK; h_{vak}^{dop}- ruxsat etilgan vakuumli so‘rish balandligi; N-quvvat; D-ishchi g‘ildirak diametri.

O‘qli nasoslar (ON turi) qattiq mahkamlangan ishchi g‘ildirak kurakchalari va aylanuvchi kurakchalar (AK tipi) bilan ishlab chiqariladi. Ikkala turdagi nasoslar ikkita versiyada ishlab chiqarilishi mumkin: D - gorizontal joylashgan valli, V - vertikal valli.

ON nasos kurakchalarini o‘rnatish burchagini o‘zgartirish qobiliyati yuqori FIK qiymatlarini saqlab, nasosning oqimi va bosimini keng diapazonda rostlash imkonini beradi. Shuning uchun, bu turdagi nasos rostlanmaydigan elektr yuritma bilan jihozlangan.

Nasoslarning xarakteristikalari nasosning asosiy parametrlarining ma’lum bir ishch g‘ildirak diametri D uchun ma’lum aylanish n chastotasida Q oqimiga bog‘liqligidir.

Yuqoridagi rasmda, b) uchta diametrli g‘ildiraklar uchun (460, 430 va 400 mm) 1450 min^{-1} aylanish chastotasida D1250-65 markazdan qochma nasosining ishlashi ko‘rsatilgan. Boshqa turdagi nasoslarning xarakteristikalari 1.1rasm, b) da ko‘rsatilganlardan farq qilishi mumkin.

Nasosning muhim xususiyatlaridan biri uning naporini H=f(Q) oqimiga bog‘liqligidir. Ko‘pincha Q-H xarakteristikasi yoki bosim-oqimining xarakteristikasi deb ataladi. Ushbu xarakteristika tekis yoki tik, doimiy ravishda kamayib boruvchi (barqaror) yoki avval ortib, keyin kamayib boruvchi (labil, ya’ni beqaror) bo‘lishi mumkin. Markazdan qochma nasoslarning ish parametrlari nisbatan keng chegaralarda o‘zgarishi mumkin. Oqimning oshishi bosimning pasayishiga olib keladi va oqimning pasayishi bosimni oshiradi. Nasosning xarakteristikasi bo‘yicha oqim va bosimlarning ish diapazonining chegaralari o‘ralgan vertikal chiziqlar bilan yoki boshqa tarzda belgilanadi. Tavsiya etilgan oqim va bosimlar doirasida H = f (Q) xarakteristikasi kvadratik parabolaning (1.1) shaklidagi tenglamasi bilan tavsiflanadi:

$$H_h = H_f - S_f Q^2 \qquad (1.1)$$

bu yerda H_f-oqim nolga teng bo‘gandagi fiktiv napor, m; S_f-nasosni gidravlik fiktiv qarshiligi, c^2/m^5.

Uy nasoslari uchun H_f va S_f parametrlarining qiymatlari [1, 2] adabiyotlarda keltirilgan.

Fiktiv bosimning nominal bosimga nisbati $N_f^* = N_f/N_{nom}$ nasosning bosim xarakteristikasining keskinligi haqida fikr beradi. Toza suvni haydaydigan ko‘pgina nasoslar uchun nisbiy fiktiv bosim $H_f = 1{,}25$, chiqindi suvni haydaydigan nasoslar uchun esa, $H_f = 1{,}45$.

Nasos yuritmasi. Nasoslarni ishlatish uchun, asosan, qisqa tutashgan rotorli asinxron va sinxron motorlar qo‘llaniladi. Ba’zan fazali rotorli asinxron elektr motorlar ham qo‘llaniladi. 400

kVt gacha bo‘lgan elektr motorlari odatda 380-660 V kuchlanish uchun va undan yuqori quvvatda 6-10 kV kuchlanishli motorlar foydalaniladi.

Quvurlar. Quvurlar armaturalari. Nasos stantsiyalarining ichki quvurlari (nasoslarning bosim va so‘rish liniyalari, so‘rish va bosim kollektorlari va boshqalar) po‘lat quvurlardan yasalgan. Po‘lat quvurlarni ulash payvandlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Nasos qurilmalarida quvur liniyasi armatura sifatida zadvijkalar, zatvorlar, teskari klapanlar ishlatiladi.

Zadvijkalar o‘chirish elementi bo‘lib, nasoslarning ish rejimini nazorat qilish uchun ishlatilmasligi kerak. Diskni aylantirish klapanlari turli xil versiyalarda, ya’ni o‘chirish moslamalari sifatida, nasoslarning ishlashini tartibga solish elementi sifatida ishlab chiqariladi. Zatvor va zadvijkalar qo‘lda mexanik yoki elektr yuritmalar bilan boshqariladi.

Teskari klapanlar bosim quvurlarini bo‘shatish va nasos to‘xtatilgandan keyin orqaga qaytishni oldini olish uchun mo‘ljallangan. Tezkari klapanlarining konstruksiyasi har xil bo‘ladi, ya’ni: sekin qo‘nish, bitta diskli, ko‘p diskli, qarshi og‘irlik bilan va boshqalar.

Nasosning ishlashi paytida, suv oqimi ta’sirida, klapan diski o‘z o‘qi atrofida aylanadi va suv u orqali o‘tadi. Nasos to‘xtagandan so‘ng, klapan diski o‘z og‘irligi va suv bosimi ta’sirida bosim o‘tkazgichining yonidan tushadi va zatvor yopiladi.

Xulosa

Bunda ON nasos kurakchalarini o‘rnatish burchagini o‘zgartirish qobiliyati yuqori FIK qiymatlarini saqlab, nasosning oqimi va bosimini keng diapazonda rostlash imkonini beradi. Shuning uchun, bu turdagi nasos rostlanmaydigan elektr yuritma bilan jihozlangan. Nasosning muhim xususiyatlaridan biri uning naporini H=f(Q) oqimiga bog‘liqligidir. Ko‘pincha Q-H xarakteristikasi yoki bosim-oqimining xarakteristikasi deb ataladi.

Adabiyotlar

1. M.M.Khamudkhanov, I.A. Abdullabekov, B.KH. Fayzullayev. Controls of the modes of operation of the pumping station with application of frequency- controlled electric drive. Web of Conferences, II International scientific conference. MIP:Engineering-2020: modernization, innovations, progress: advanced technologies in material science, mechanical and automation engineering.
2. Бриндли К. измерительные преобразователи: Справочное пособие. – М.: Энергоатомиздат, 1991.-144 с.
3. Иванов В.В., Шакурский В.К. Генераторные, фазовые и частотные преобразователи и модуляторы. – М.: Радио и связь, 2003. – 184 с.
4. Э.М.Мальц. Электротехника и электрические машины. Корона век 2013г. 304

NASOSLAR VA NASOS AGREGATLARI HAQIDA

Uzaqov Navruz Choriyor o‘g‘li
Radjabov Shahboz Baxtiyor o‘g‘li
Tezmiz muhandislik-texnologiya instituti asistentlari.
E-mail: *uzoqovnavruz@gmail.com*

Kirish

Hozirgi vaqtda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarini energetika tizimida soha mutaxassislari tomonidan energiya samarador va tejamkor texnologiyalarni yanada takomillashtirish jarayoni bilan bog‘liq olib borilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlari o‘ziga xos muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda tahlil qilinganda, mamlakatimizning yirik ishlab chiqarish sanoat korxonalarida ishlab chiqariladigan maxsulotlarida energiyaning ulushi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yuqoriligi kuzatilmoqda. Ishlab chiqariladigan maxsulotlarda energiya ulushini ratsional darajada kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga oid qonunlar qabul qilingan.

Suyuqlikka energiya berilganda uning bosim harakatini yaratuvchi gidravlik mashina nasos deb ataladi. Nasos elektr yuritma va uzatish mexanizmi bilan birgalikda nasos agregatini hosil

qiladi. Nasoslarning kerakli rejimda ishlashini ta’minlaydigan uskunalar majmuasi nasos agregatini tashkil qiladi.

Nasos agregatini odatda bir yoki bir nechta nasos agregatlari, quvurlar, ochish-yopish armaturalari, nazorat-o‘lchov asboblari, nazorat va himoya vositalaridan tashkil etadi. Obyektning ishlashini ta’minlaydigan bir yoki bir nechta nasos agregatlari, energiya ta’minoti tizimi, yordamchi mexanizmlar, maishiy va ishlab chiqarish binolarini o‘z ichiga olgan tuzilma nasos stantsiyasi deb ataladi.

Nasos agregatining ish rejimini tavsiflovchi asosiy parametrlar - bu suyuqlik oqimi (podacha) va bosimdir (napor). Oqim - vaqt birligida nasos agregati tomonidan haydalgan suyuqlik hajmi (m^3/soat, m^3 /s).

Bosim (napor) - suyuqlikni ma’lum bir balandlikka ko‘tarish va quvur liniyasidagi ishqalanish kuchlarini yengish uchun zarur bo‘lgan nasosning tushirish va so‘rish trubkalaridagi suyuqlikning o‘ziga xos energiyalari orasidagi farq. Napor tushunchasi bosim atamasiga tengdir P - napor va bosim $H=P/(\rho g)$ nisbati bilan o‘zaro bog‘langan, bu yerda H - napor, m; P - nasos bosimi, Pa; ρ - suyuqlik zichligi, kg/m^3; g - erkin tushish tezlanishi, m/s^2.

Nasos agregatining ishlash rejimi - bu butun tizimning o‘zgaruvchan ish sharoitlariga muvofiq uning uskunasini ishlashining ma’lum tartibi.

Nasos agregatlari, suv ta’minoti, kanalizatsiya, isitish, neft haydash nasoslari va boshqalarga bo‘linadi. Suv nasos stantsiyalari I va II ko‘taruvchi (podyom) va kuchaytiruvchi stansiyalarga bo‘linadi.

Birinchi podyom nasos stansiyasi suv ta’minoti manbasidan suv oladi va uni tozalash inshootiga yetkazib beradi. Bundan tashqari, tozalangan suv tortishish kuchi bilan toza suv idishlariga (CWR) kiradi.

Ikkinchi podyom suvni toza suv idishdan suv o‘tkazgichlari, magistral quvurlar orqali taqsimlash tarmog‘iga, u yerdan iste’molchiga yetkazib beradi.

Agar ishlab chiqilgan bosim suvni kerakli balandlikka ko‘tarish uchun yetarli bo‘lmasa, suvni oraliq rezurvuarlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarmoqdan ham oladigan kuchaytiruvchi nasos stantsiyalari (booster stantsiyalari) quriladi. Ikkinchi holda, stantsiyalar “quvurdan quvurga” sxema bo‘yicha ishlaydi.

Suv nasos stantsiyalari ham texnik va ichimlik suvining SNSlariga bo‘linadi. Ushbu SNSning qurilmasi bir xil, ammo ularning ish rejimlari bir-biridan farq qiladi. Texnik suv SNSning ishlash tartibi korxonaning ishlab chiqarish sikli bilan, ichimlik suvi SNS esa aholi turmush ritmi bilan belgilanadi.

Kanalizatsiya nasos stantsiyalari (KNS) oqava suvlarni tozalash inshoatiga haydash uchun mo‘ljallangan. Kanalizatsiya tarmog‘idan chiqindi suvlar KNS qabul qilish rezurvariga kiradi, u yerdan bosim o‘tkazgichlariga quyiladi va ulardan so‘ndirish kameralari orqali tortish kollektorlariga kiradi. Kollektorlardan boshqa yirik kanalizatsiya nasos stantsiyalari yana oqava suvlarni kattaroq kesimdagi bosim kollektorlariga yetkazib beradi. Shunday qilib, nasosning bir necha bosqichlari orqali chiqindi suv tozalash inshootlariga (aeratsiya stantsiyalari va boshqalar) kiradi.

Issiqlik nasos stansiyalari isitish va issiq suv ta’minoti tizimlarini issiq suv bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Issiq suv manbalari markaziy qozonxonalar va issiqlik elektr markazlari bo‘lib, ularda tarmoq nasoslari o‘rnatiladi. Ushbu nasoslarning yordami bilan suv, suv isitgichlari orqali o‘tkaziladi (qozonxonalar), bu yerda u isitish turbinalaridan keladigan bug‘ bilan isitiladi va undan keyin quvurlar tarmog‘i orqali iste’molchilarga yetkaziladi. Issiqlik almashtirgichlar (teploobmennik) orqali issiqlikdan voz kechgandan so‘ng, sovutilgan suv qaytish liniyasi orqali tarmoq nasoslarining so‘ruvchi kollektoriga qaytadi.

Issiqlik elektr stantsiyalarining (IES) nasos agregatlari elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishning texnologik jarayonida turli funktsiyalarni bajaradi va bunday holatlarda ta’minot nasosi qozon agregatlarini suv bilan ta’minlaydi, kondensat agregatlari esa kondensatni (turbinadan suvga aylangan bug‘) deaeratorga haydaydi. Sirkulyatsiya nasoslari kondensator va sovutish

moslamalari (gradirnaya, sovitish hovuzlari) orqali sovutiladigan suvining doimiy aylanishini ta’minlaydi.

Nasos stantsiyalari bir yoki bir nechta nasos agregatlari bilan jihozlangan bo‘lib, ularning soni juda katta farq qiladi, ya’ni 1 dan 20 gacha.

Nasos agregati bir nechta agregatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, nasoslarning bosimi (napor) va so‘rish liniyalari bir-biriga bosim va so‘rish kollektorlari orqali ulanadi. Bunday holatlarda bosim kollektorlari - bosim kollektorlariga, so‘rish quvurlari esa so‘rivchilarga ulanadi. Qabul qiluvchi rezurvuarlar mavjud bo‘lganda, assimilyatsiya manifoldlari bilan ta’minlanmasligi mumkin va bunday holatda nasoslarning assimilyatsiya (so‘ruvchi) liniyalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri rezurvuarga ulanadi.

Zamonaviy nasos qurilmalarida lopostli nasoslar (markazdan qochma va osevoy) eng keng tarqalgan. Markazdan qochma nasoslar (quyidagi rasm) spiral shaklga ega bo‘lgan qo‘zg‘almas korpus 1 ichida valga 3 o‘rnatilgan ishchi g‘ildirak (koleso) 2 mavjud. Ishchi g‘ildirak 2 ikkita diskdan iborat bo‘lib, ular orasida kurakchalar (lopostlar) 4 joylashtiriladi. Nasos korpusi quvurlar orqali quvur liniyalari 5 va 6 mos ravishda so‘rish va napor trubkalariga ulangan holatda bo‘ladi. Nasos korpusi va uning so‘rish quvuri suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘lsa va keyin ishchi g‘ildirak aylantirilsa, u holda suyuqlik ishchi g‘ildirak kurakchalari ta’sirida aylana boshlaydi. Markazdan qochma kuchlar suyuqlikni periferiyaga olib boradi, bu yerda bosim kuchayadi va g‘ildirak markazida past bosim bo‘ladi. Ushbu bosim farqi tufayli suyuqlik bosimi quvur liniyasiga kiradi. Shunday qilib, suyuqlikni uzluksiz yetkazib berish amalga oshiriladi.

Markazdan qochma nasoslar bir bosqichli (bitta ishchi g‘ildirak bilan) yoki ko‘p bosqichli (bir nechta g‘ildirakli) bo‘lishi mumkin. Konstruksiyasi bo‘yicha valning joylashishiga qarab, ular gorizontal va vertikal nasoslarga bo‘linadi.

O‘qli nasoslar. Ishchi g‘ildiragi sharsimon kamerada aylanadi. Oqim tezligining o‘zgarishi tufayli ishchi g‘ildirak kurakchalari suyuqlikka ta’sir qilganda, kurakchalar ustidagi bosim ortadi, ostida esa pasayadi. Bosim farqi tufayli nasosning o‘qi bo‘ylab suyuqlik harakatlanadi. Ushbu turdagi nasoslar past bosimli (naporli) (20 m gacha) ko‘p miqdorda suv haydash uchun mo‘ljallangan.



1-rasm. Bir stupenli markazdan qochma nasos (a) sxemasi va uning (b) ishchi xarakteristikasi. H-nasos napori; Q-oqim; η-FIK; h_{vak}^{dop}- ruxsat etilgan vakuumli so‘rish balandligi; N-quvvat; D-ishchi g‘ildirak diametri.

O‘qli nasoslar (ON turi) qattiq mahkamlangan ishchi g‘ildirak kurakchalari va aylanuvchi kurakchalar (AK tipi) bilan ishlab chiqariladi. Ikkala turdagi nasoslar ikkita versiyada ishlab chiqarilishi mumkin: D - gorizontal joylashgan valli, V - vertikal valli.

Xulosa

Biz bunda nasoslar va nasos agregatlarida ularni ta’rifini, nasoslarning bosim (napor)i, lopostli nasoslarni, naporli nasoslarni, nasos yuritmasi, quvurlar, quvur armaturalari, nasos agregatlarinining ish holatlarini va boshqa bo‘limlarini o‘rganib chiqdik. Bir bo‘g‘inli markazdan qochma nasos sxemasi va uning ichki xarakteristikasini va boshqa sxemalarni o‘rganib chiqdik.

Adabiyotlar

1. О.О.Хашимов, Р.К. Дусматов. Исследование пусковых энергетических параметров частотно-регулируемого асинхронного электропривода насосных агрегатов. Проблемы информатики и энергетики.Ташкент, 2018. № 4. С. 34-38. (05.00.00; №5).
2. M.M.Khamudkhanov, I.A. Abdullabekov, B.KH. Fayzullayev. Controls of the modes of operation of the pumping station with application of frequency- controlled electric drive. Web of Conferences, II International scientific conference. MIP:Engineering-2020: modernization, innovations, progress: advanced technologies in material science, mechanical and automation engineering.
3. Бриндли К. измерительные преобразователи: Справочное пособие. – М.: Энергоатомиздат, 1991.-144 с.
4. Иванов В.В., Шакурский В.К. Генераторные, фазовые и частотные преобразователи и модуляторы. – М.: Радио и связь, 2003. – 184 с.
5. Э.М.Мальц. Электротехника и электрические машины. Корона век 2013г. 304 с

QISHLOQ XO‘JALIGI MAXSULOTLARINI YETISHTIRISHDA ELEKTROTEXNOLOGIYANING O‘RNI

Vakhabova S.K., Yoqubjanova Yo.G‘., Namangan muhandislik-qurilish instituti
Umarov B.N., Namangan muhandislik-qurilish instituti talaba

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berdi. Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani, davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shunday ekan qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarilishi uchun hozirgi davrdagi eng muhim vazifa bu- energiya va resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejaydigan texnologiya va texnika vositalarini ishlab chiqish hamda joriy etishdir. Chunki, energiya va resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejaydigan texnologiya va texnika vositalarini ishlab chiqish hamda joriy etish qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ining sarfini kamaytirib, bir tekis va ravon unib chiqishini ta’minlash, hosildorligini ko‘paytirib, yetishtirilgan mahsulot tannarxini pasaytirish, bu nafaqat mahsulotga balki mahsulot tayyorlanishi uchun zarur bo‘ladigan elektr energiyasini ham tejash va undan oqilona foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot vazifalardan ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning hozirgi bosqichida elektr energiyasining roli shunchalik oshdi, texnologik jarayonlarni elektrlashtirmay turib u yoki bu turdagi mahsulot turini ko‘paytirishni tasavvur etish qiyin.

Qishloq xo‘jalik sohasiga energiya va resurstejamkor elektr nurlatish qurilmasini tadbiq etish, elektr nurlatish manbalari sifatida ul’trabinafsha nurlanish chiroqlarini kiritish va nurlatilgan o‘simlik va parranda maxsulotlarini sifat darajasini boshqa kimyoviy unsurlar bilan boyitilgan mahsulotlar bilan taqqoslash, olingan natijalar asosida ul’trabinafsha nurlatish chiroqlarini afzallik tomonlarini asoslab berish hamda uning iqtisodiy samaradorligini hisoblab topishdan iborat.

Olib borilayotgan tadqiqotning maqsadi qishloq xo‘jaligida o‘simlikshunoslik va parrandachilik soha yo‘nalishlarini rivojlantirish, sohalarni ish jarayonini kengaytirish, xosildorlik sifatini yanada ko‘tarish maqsadida elektr avjlantirgich jihozi bilan ta’minlash va ularni xozirgi kun talabiga mos keltirgan xolda iqtisodiy samaradorligini orttirish yo‘llarini aniqlashdan iboratdir.

Elektr energiyasiz qishloq xo‘jaligi garmonik faoliyat yuritishi mumkin emas. Elektr energiyasi qishloq xo‘jaligida elektr mashinalarning elektr yuritmalarida, xonalarni yoritish va isitishda hamda ko‘plab texnologik jarayonlarda qo‘llaniladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘z tabiati bo‘yicha uzluksizdir va shu sababli uni oqimga aylantirish imkoniyatlari mavjud. Lekin sanoat bilan qishloq xo‘jaligi orasida bir nechta to‘g‘rilanmaydigan farqlar mavjud. Ulardan asosiysi shuki, qishloq xo‘jaligida asosiy mehnat ob’ekti tirik organizmlar hisoblanadi va ular ishlab chiqarish jarayonlarida o‘zlarining hayot funktsiyalarini saqlab qoladilar. Sanoatda esa mehnat predmetini asosan jonsiz ob’ektlar tashkil etadi. Shuning uchun sanoatda texnologik jarayonlar asosan kimyoviy va fizik jarayonlarga va qishloq xo‘jaligida esa biologik jarayonlarga asoslanadi. Kimyoviy va fizik jarayonlar biologik jarayonlarga nisbatan oson va yengil rostlanadi. Biologik jarayonlar atrof muhit sharoitiga (yorug‘lik, harorat, suv, havo muhitini kimyoviy tuzilishi, namlik va boshqalarga) bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tarmog‘ini industrial asosga o‘tkazish yengil bo‘ladi, chunki atrof muhit sharoitini rostlash kam mehnat talab qilishi bilan bog‘liq. Bunday tarmoqlarga chorvachilik, parrandachilik, yopiq sharoitda mahsulot yetishtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va shu kabilar. Liniyali ishlab chiqarishni tashkil etish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning progressiv texnologiyalarini va elektrlashtirilgan mashinalarning avtomatik boshqarish tizimlarini ta’minlashni yaratish zarur [1].

Yangi ming yillikda insoniyat oldida turgan muammolardan eng dolzarbi Yer ko‘rrasi aholisini yetarli darajada sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash bilan bir qatorda atrof-muhitning ekologik sofliligiga erishishdir. Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanadigan barcha mamlakatlarda qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirish va sifatli ko‘rsatkichlari, jumladan, ekologik sofligini ta’minlash shu kunning eng muhim masalalaridan biridir. Bu o‘rinda shuni qayd qilish joizki, ishlab chiqarishda qo‘llanilib kelinayotgan agrotexnologiyalarning imkoniyatlari deyarli tugab bo‘lgan, ular qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini talab darajasida oshirishni ta’minlamayapti. Bu masalani kimyoviy dorivorlar va avjlantirgichlar yordamida yechishga asoslangan texnologiyalar atrof-muhit, tuproq, suv va havoni zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslantirishga olib kelmoqda. Bu narsa faqatgina atrof-muhit ekologik sofligini buzibgina qolmasdan, qishloq xo‘jalik ekinlarida mutatsiya, ya’ni irsiy o‘zgaruvchanlik sodir bo‘lishiga olib kelmoqda, undan tashqari ushbu sharoitda yashayotgan issiq qonlilar, jumladan odamlar va uy hayvonlarida yuqumli kasalliklar ko‘payishiga olib kelmoqda. Shu sababdan qishloq xo‘jalik ekinlarining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash va hosildorligini oshirish, aholini sof qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash qishloq xo‘jaligi muammolari bilan shug‘ullanuvchi barcha ilmiy muassasalar va olimlarning ustivor masalasiga aylangan.

Ma’lumki, barcha o‘simliklarga asosan yerdan tashqari manbalardan tushadigan umumiy va radiatsion nurlar ta’sir ko‘rsatadi. Odatda bunday manbalar barqaror ishlamaydi, ya’ni yerga tushadigan nur energiyasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Shu sababli vaqti-vaqti bilan o‘simliklarga ta’sir etadigan nur energiyasi juda kichik qiymatga ega bo‘lib qoladi, bunday hollarda yorug‘likni ma’lum bir darajada saqlab turish zarurati yuzaga keladi. Bizning planetamizga koinotdan keladigan energiya maxsus chastotali elektromagnit to‘lqinlari ko‘rinishida, ya’ni radio to‘lqinlardan boshlab nurlanishgacha bo‘lgan chastotaga ega bo‘ladi. Gamma nurlanishlar tabiatan bir xil bo‘lsalar ham, chastotasi turlichadir. Tuproqning sathidagi o‘simliklarga esa barcha chastotadagi radio to‘lqinlar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu sababli o‘simliklar genetik jihatdan barcha chastotadagi energiyani o‘zlashtirishga moslashganlar. Biroq, bironta elektromagnit to‘lqinlari chastotasining jadalligi o‘zgarsa, bu hol o‘simliklarning rivojlanish va hosildorligiga turlicha ta’sir etishi mumkin. O‘simliklarning ustki qismi quyosh radiatsiyasining barcha nurlarini o‘zlashtirib, rivojlanadi, o‘simlik ildizlariga esa quyosh nurlari bevosita tushmaydi, ularga faqat nurlarning infraqizil qismigina yetib boradi.

Yuqoridagi manbalarga tayanib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ul’trabinafsha nurlari bilan nurlantirish o‘simliklarning rivojlanishini jadallashtirish uchun ham va ularni zararkunandalardan himoyalash uchun ham qo‘llash mumkin. Xar ikkala holda o‘simliklarga elektr bilan jonlantirilgan (faollashtirilgan) suv hamda ul’trabinafsha nurlar bilan ta’sir ko‘rsatiladi. Elektr jonlantirilgan suvni purkash bilan bir vaqtning o‘zida nurlatish texnologiyasini amalga oshirish uchun texnik imkoniyatlar bo‘lmagan hollarda uni bir vaqtning o‘zida qator oralariga ishlov berish bilan o‘simliklarni o‘g‘itlar bilan oziqlantirish paytida amalga oshirish mumkin.



1-rasm. Elektrotexnologiya qo‘llab yetishtirilayotgan kartoshka maxsulotlarini ekish oldidan ishlov berish jarayoni

Bu holda o‘simliklarni ham qator oralariga ishlov berguncha, ham ishlov bergandan so‘ng elektr jonlantirilgan suv bilan purkash mumkin. Hozirgi vaqtda ekologik toza texnologik operatsiyalar yaratish hayotiy zaruriyat bo‘lib qolmoqda. Fanning bu sohasida elektr energiyasidan foydalanish zararsiz va arzon usuldir [2].

Bugungi kunda qishloq xo‘jalik ekinlari maxsuldorligini genetik potentsial darajasi tamom bo‘lgan emas. Faqat o‘simliklarni genetik potentsial imkoniyatlarini o‘rganish bilan qishloq xo‘jalik ekinlarini, o‘simliklarini maxsuldorligi oshirish mumkin. Bu yo‘nalishda bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Shu narsa aniqlandiki, nafaqat urug‘ga majmuiy va bosqichli elektr ta’sir ettirish, balki vegetativ organlariga ta’sir ettirish natijasida ham qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirish mumkin. Ko‘p tadqiqotchilar fikricha ushbu ta’sir ettirishlar, urug‘larni tashki tuproq iqlim sharoitlar ta’siriga ko‘proq chidamli bo‘lishini sababini aniqlab bunga sabab elektr energiyasining ta’siridir deb o‘z xulosalarini bildirishgan.

O‘simliklarni elektravjlantirish texnologiyasi-urug‘, tuproq va o‘simliklardan tashkil topgan murakkab biologik tizimiga majmuiy va bosqichli elektromagnit ta’sir etishdan iborat. O‘simliklarni elektravjlantirish texnologiyasini sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan tog‘oldi, cho‘l tekislik va yaylovlardagi dalalarda ham issiqxonlarda yetishtiriladigan barcha qishloq xo‘jalik ekinlari, gullar, xar xil dekorativ va dorivor o‘simliklar, cho‘l va yayloq o‘tlari hamda mevali, manzarali va o‘rmon daraxtlarini o‘stirishda qo‘llash mumkin.

Bahorda, o‘simliklarni elektr avjlantirish texnologiyasini qo‘llab ekilgan kartoshkadan yangi qazib olingan hosildan urug‘lik kartoshka sifatida foydalanib, yozda ushbu texnologiyani qo‘llab ekilsa va o‘stirilsa undan kuzgi kartoshka hosili olish mumkinligi tajribada isbotlangan.



2-rasm. Elektrotexnologiya qo‘llab yetishtirilgan kartoshka maxsulotlari

Urug‘ni elektravjlantirish, ekishdan oldin va ekish jarayonida amalga oshiriladi.

Tuproqni elektr avjlantirish, urug‘ni ekin jarayonida, vegetatsiya davrida g‘o‘za qatorlari oralariga ishlov berishda, shuningdek, o‘simliklarni kasalliklardan va zararkunandalardan ximoya qilish bilan birga amalga oshiriladi [3].

O‘simlikka vegetatsiya davrida elektr ta’sir etish o‘simlikning har xil fiziologik rivojlanish bosqichlarida tuproqni elektravjlantirish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Ushbu elektr ta’sir g‘o‘za qator oralariga ishlov berish (kul’tivatsiya, sug‘orish oldidan ariq ochish), shuningdek

o‘simliklarni kasalliklar va zararkunandalardan ximoya qilish omillari (o‘simliklarni purkash) bilan birga amalga oshiriladi.



3-rasm. Tuproq va urug‘larni elektravjlantirish jarayoni

O‘simliklar tomchilab sug‘orilganda tuproqni va o‘simliklarni elektravjlantirish sug‘orishdan 1-3 kun avval amalga oshiriladi. “Urug‘-tuproq-o‘simlik”dan iborat tizimni elektravjlantirish texnologiyasini amalga oshirishni ta’minlaydigan texnik uskunalar-statsionar va mobil variantlarda bajarilgan. Urug‘ni ekishdan oldin elektravjlantirish statsionar sharoitda ishlaydigan elektravjlantirgich tomonidan amalga oshiriladi.

Statsionar elektravjlantirigich tarkibiga-ul’trabinafsha nur taratuvchi 220 vol’t kuchlanishli yoritgichlar bilan jixozlangan ikki yoritgichli qo‘lda ishlatiladigan nurlatgich va antennasidan past chastotali elektromagnit impuls tarqatadigan ko‘chma radioimpul’sli bioavjlantirgich kiradi. U 220 vol’t kuchlanishli o‘zgaruvchan tok elektr manbaiga, shuningdek, 12 vol’t kuchlanishli traktor generatoriga yoki akkumlyatoriga ulab ishlatiladi [4].

Tuproq va o‘simlik elektr avjlantirgichi tarkibiga traktorga osiladigan rama, 30,60 va 90 Vt quvvatli ul’trabinafsha nur taratuvchi ikkita bir yoritgichli nurlatgich va ul’trabinafsha nur taratuvchi yoritgichlarning energiya manbai bilan ta’minlovchi maxsus yoquv tizimi (MYoT) kiradi.

Ul’trabinafsha tarqatuvchi yoritgichlarning ishlashi MYoT tomonidan amalga oshiriladi. MYoT qizish simlari butun va kuygan yoritgichlarni yoqib ishlatish imkoniga ega. MYoT traktorning kabinasiga o‘rnatiladi va traktorning akkumlyatori yoki 12 V kuchlanishli o‘zg‘armas tok generatoriga ulanib ishlatiladi.



4-rasm. Elektr avjlantirilgandan so‘ng yetishtirilgan paxta xosilining natijasi

Urug‘ni elektravjlantirish:

-modda almashinuvini tezlatadi va unish jarayonini faollashtiradi;

-unib chiqayotgan urug‘ xujayrasining fermentativ faolligini, nam yutish xususiyatini va osmatik bosimini oshiradi;

-urug‘da nuklein va oqsil almashishini kuchaytiradi, natijada-DNK (dizoksiribonuklein kislotasi) va RNK (ribonuklein kislotasi)ning sintezi kuchayadi (2-3 martaga), bu yadro strukturalarning funktsional faolligini o‘zgarishiga olib keladi;

-genik va bloksintez qiluvchi apparatning strukturaviy funktsional xususiyatlarini elektr avjlantirish xisobiga o‘zgaradi, o‘simlikning yer ustki va tomir qismida fiziologik o‘sish va rivojlanish kuchayadi (25-30% ga), shuning bilan bir vaqtda fotosintez jarayonining maxsuldorligi oshadi (40-45% ga) va xujayora yadrosidagi funktsional genlar soni ko‘payadi. Bularning barchasi o‘simliklarning sho‘rga (urug‘ unib chiqish jarayonida), kasalliklarga (2-5marta), suv tanqisligiga (25-30%) va boshqa ekstremal xodisalarga chidamkorligini oshiradi;

-elektr ta’sir pil’tsaning shakllanishini buzmaydi, uning yashash qobiliyatini pasaytirmaydi, pil’tsani ril’tsada va stolbikda normal o‘sishiga va changlanishiga yordam beradi;

Vaqt bo‘yicha xosil tuganaklari va gullari shakllanishining bir tekisda kechishiga yordam beradi. Bu esa, xosilning tekis pishib yetilishi (95% gacha) ta’minlaydi (masalan, g‘o‘zadagi paxta xosilini g‘o‘zaning bor bo‘yicha pastdan tepagacha bir tekis ochiladi).

Urug‘ni elektravjlantirish uning sifat ko‘rsatkichlariga, nafaqat birinchi yilgi ekishda, balki ikkinchi yilgi hosildan olingan urug‘ga ham salbiy ta’sir etmaydi. Elektravjlantirgich qo‘llab yetishtirilgan hosil urug‘ida mutagen ta’sir kuzatilmaydi, elektravjlantirishning ta’siri keyingi 1-2 yilda ham saqlanadi, o‘simlikning morfoxo‘jalik ko‘rsatkichlari kuchayadi va yaxshilanadi.

Xulosa

Tuproq, urug‘ va o‘simliklarni elektravjlantirish tuproq rezosferasi mikroflorasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish hisobiga tuproqdagi foydali mikroorganizmlar sonini ko‘paytiradi, zararlarni ko‘paytiradi, zararlarni kamaytiradi, plesenli mikroskopik zamburug‘ (grib)larning kamayishi va aktinometsitlar sonining oshishi hisobiga tuproqning fitosanitar holatini yaxshilaydi, tuproqdagi azot va fosforni o‘simlik qabul qilishi mumkin bo‘lgan qismini sezilarli oshishiga yordam beradi, bu elektravjlantirilgan o‘simlikda avjlantirilmaganga qaraganda 2-3 marta ko‘p azot, fosfor va kaliy to‘planishiga olib keladi, elektravjlantirilgan o‘simlikda avjlantirilmaganga nisbatan 1,5-2 marta ko‘p Cu, Mn, Zn to‘planishga olib keladi.

Adabiyotlar

1. 1. Yusubaliev A.Электросортировка в хлопководстве.–2019, Новособирск, Академиздат –
2. A. Radjabov., Muratov X. M. Elektrotexnologiya. - T.: Fan, 2015
3. Дубров В.И. Ультрафиолетовое излучение. Москва.1966.
4. Карасенко В.А, Зайц Е. М. Баран А.Н, Корко В. С. Электротехнология . М.:Колос. 1992.
5. Vahobova S.K. Takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida bug‘doy urug‘ini saralash natijasi // Suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish: Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Buxoro, 2019. −B.62-64.
6. Vahobova S.K. Takomillashtirilgan elektr qurilmada arpa urug‘ini saralash natijasi // Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘rni: muammo va yechimlar: Respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. –Namangan, 2019. −B.176-179.

ENERGOTEJAMKOR SARALASH QURILMASINING TEXNOLOGIK ISH JARAYONINI NAZARIY ASOSI

Vakhabova S., Namangan muxandislik-qurilish instituti
Yusubaliyev A., O‘zRFA Energetika muammolari instituti
ashir-el@mail.ru; sojidavsk310783@gmail.com

Ilmiy manbalardan ma’lumki, elektr maydoni qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘iga ularning barcha muhim fizik-mexanik xossalarini hisobga olgan holda yo‘naltirilgan elektr maydon kuchi bilan ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i elektr maydonida barcha muhim fizik-mexanik xossalari, ya’ni massasi, zichligi, geometrik o‘lchamlari, elektr qarshiligi, dielektrik singdiruvchanligi va boshqa shunga o‘xshash muhim xossalari bo‘yicha saralanadi. Shuni hisobga olib, keyingi yillarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini saralash texnologik samaradorligini yana ham oshirish uchun takomillashtirilgan, energiya va resurstejamkor elektr saralagich qurilmasi ishlab chiqildi [1-5]. Taklif qilinayotgan qurilmada elektr maydoni ikki xil sharoitda, ya’ni ikkita dielektrik materialni bir-biriga ishqalanishi natijasida hamda qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga keladi. Natijada, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘iga ishqalanish natijasida hamda qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga keladigan elektr maydoni ta’sirida hosil bo‘ladigan yig‘indi elektr maydon kuchi ta’sir etadi. Yig‘indi elektr maydon kuchi ta’sirida urug‘lar ish organining yuzasiga katta kuch bilan tortilib, ularni urug‘lik va texnik fraktsiyaga saralash aniqligi oshadi.

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqib, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida saralash texnologik jarayonini nazariy tadqiq etishda, uning mana shu o‘ziga xos tomonlari hisobga olinishi kerak.

Tukli chigitlarni takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida saralash texnologik jarayonini nazariy tadqiq etish nazariy mexanika va elektrotexnikaning qonun va qoidalaridan foydalangan holda matematik tahlil asosida o‘tkaziladi.

Rasmda takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasiga tushgan qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘iga ta’sir etadigan kuchlar sxemasi tasvirlangan.



a) b)

1–rasm. Urug‘larga ta’sir etadigan kuchlar sxemasi:
1–yuklash bunkeri; 2–ta’minlagich; 3–urug‘; 4–erga ulangan elektrod;
5– dielektrik baraban; 6–qarama-qarshi ishorali elektrodlar;
7–ajratib oladigan (ishqalanadigan) cho‘tka; 8–sirpanish taxtasi

Rasmda tasvirlangan sxemadan ko‘rinib turibdiki, elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasiga kelib tushgan urug‘larga quyidagi kuchlar sistemasi ta’sir etadi:

1. Ishqalanish natijasida vujudga keladigan elektr maydoni ta’sirida hosil bo‘ladigan elektr maydon kuchi G_k .

$$G‘_k = E \cdot Q = \frac{\varepsilon_0 E^2 ab\Phi_3}{4}\left(1+2\frac{\varepsilon_y - 1}{\varepsilon_y + 2}\right), \qquad (1)$$

bunda E – elektr maydon kuchlanganligi, V/m;

Q – urug‘ oladigan zaryad, Kl;

$\varepsilon_0 = 8{,}85\cdot 10^{-12}$ F/m – dielektrik doimiyligi;

a,b–mos ravishda, urug‘ning katta va kichik o‘qi, m;

ε_u–urug‘ning nisbiy dielektrik singdiruvchanligi;

F_3–urug‘larni tuzilishini hisobga oladigan koeffitsient

2. Zaryadlangan urug‘ni zaryadlangan baraban bilan o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladigan aks ko‘zgu elektr maydon kuchi G_z

$$F_э = \frac{Q^2}{r_{экв}^2} = \frac{\varepsilon_0 E^2 ab\Phi_э}{16\pi}\left(1+2\frac{\varepsilon_y - 1}{\varepsilon_y + 2}\right)^2, \qquad (2)$$

bunda $r_{ekv}=(1/2)\sqrt{ab\Phi_3}$ – urug‘ning ellipsoid yuzaga teng bo‘lgan ekvivalent radiusi,m.

3. Qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga keladigan elektr maydoni ta’sirida hosil bo‘ladigan elektr maydon kuchi G_e

$$F_э = \frac{2S_y \cdot U^2 \cdot \varepsilon_0 \cdot \varepsilon_u(\varepsilon_y - 1)}{(2h\varepsilon_y + l_y \cdot \varepsilon_u)^2}\cdot\cos\frac{\theta}{2}, \qquad (3)$$

bunda S_y – urug‘ni elektrodlarga tegib turgan samarali qutblangan yuzasi, m^2;

U–qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanish, V;

ε_u – elektrod izolyatsiyasining dielektrik singdiruvchanligi;

θ – elektr maydon kuchlari bilan vertikal o‘q orasidagi burchak, gradus;

h – elektrod izolyatsiyasining qalinligi, m;

l_y – urug‘dagi elektr maydon kuch chiziqlarining o‘rtacha uzunligi, m.

4. Markazdan qochma kuch G_m

$$F_{м} = \frac{mV_y^2}{R_б + r_{экв}} = \frac{mV_y^2}{R}, \qquad (4)$$

bunda m – urug‘ massasi, kg;

V_y – urug‘ning chiziqli tezligi, m/s;

R_b – baraban radiusi, m;

R – baraban o‘qidan urug‘ning og‘irlik markazigacha bo‘lgan masofa,m.

5. Og‘irlik kuchi G

$$G=mg, \qquad (5)$$

bunda g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2.

6. Inertsiya kuchi G_i

$$G_i= mdV_y / dt\ . \qquad (6)$$

7. Ishqalanish kuchi G_{ish}

$$G_{ish} =f\Sigma N, \qquad (7)$$

bunda f – urug‘ning ish organi yuzasi bo‘ylab harakatlangandagi ishqalanish koeffitsiyenti.

8. Ish organini urug‘ga ko‘rsatadigan reaktsiya kuchi ΣN

$$\Sigma N=2N\cos(\gamma/2), \qquad (8)$$

bunda γ – reaktsiya kuchlarini yo‘nalish burchagi, gradus.

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, G_k , G_z va G_e elektr maydon kuchlari urug‘larni ish organi yuzasiga tortadi, markazdan qochma kuch $G‘_m$ esa undan itaradi, og‘irlik kuchi G yuqori yarim tsilindrda urug‘larni ish organining yuzasiga bosadi, pastki yarim tsilindrda esa undan itaradi. SHuning uchun ushbu ta’sir etadigan kuchlarning o‘zaro nisbatiga asosan qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini fizik-mexanik xossalariga bog‘liq ravishda, ish organining yuzasidan uzilish burchaklarini asoslash mumkin.

1-rasmda tasvirlangan sxemaga asosan, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilishi uchun, $\Sigma N=0$, ya’ni quyidagi shart bajarilishi kerak

$$G_k + G_z + G_e + G\cos\alpha - G_m = 0, \qquad (9)$$

bunda α – urug‘ni ish organining yuzasidagi burilish burchagi, gradus.

(9) ifodadagi G_k , G_z , G_e , G *va* G_m kuchlarni o‘rniga ularning qiymatlarini qo‘yib hamda ba’zi bir o‘zgartirishlardan keyin, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilish burchagini topish uchun quyidagi ifodani olamiz

$$\alpha = \arccos\left[\frac{V_y^2}{gR} - \left(\frac{\varepsilon_0 E^2 ab\Phi_э L}{mg} + \frac{2S_y U^2 \varepsilon_0 \varepsilon_u^2(\varepsilon_y - 1)}{mg(2h\varepsilon_y + l_y\cdot\varepsilon_u)^2}\cdot\cos\frac{\theta}{2}\right)\right], \qquad (10)$$

bunda: $L=\frac{1}{4}\left(1+2\frac{\varepsilon_y-1}{\varepsilon_y+2}\right)+\frac{1}{16\pi}\left(1+2\frac{\varepsilon_y-1}{\varepsilon_y+2}\right)^2$.

(10) ifodadan ko‘rinib turibdiki, agar elektr saralagich qurilmasining konstruktiv o‘lchamlari va ish rejimi o‘zgarmas bo‘lsa, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ining ish organi yuzasidan uzilish burchagi elektr maydon kuchlanganligi E va qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanish U ning qiymatlarini kvadrati hamda urug‘lar va qarama-qarshi ishorali elektrodlarning fizik-mexanik xossalari(m, a, b, ε_y, F_z, l_y, h, ε_u)ga bog‘liq ekan. Shuning uchun elektr maydon kuchlanganligi va qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymatini o‘zgartirib, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilish burchagini keng ko‘lamda o‘zgartirish mumkin. Yoki boshqacha aytganda,

elektr maydon kuchlanganligi va elektrodlarga beriladigan kuchlanish takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini saralash texnologik jarayonini boshqaradigan asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ammo, shuni ta’kidlash kerakki, takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini saralash texnologik jarayonida ish organi va ajratib oladigan (ishqalanadigan) cho‘tkani aylanishlar soni o‘zgarmaydi. Shunga mos ravishda, dielektrik baraban yuzasida ishqalanish natijasida vujudga keladigan elektr maydoni ham o‘zgarmaganligi sababli, elektr maydon kuchlanganligining qiymati ham o‘zgarmaydi. Ushbu qayd qilinganlar hisobga olinsa, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilish burchagini qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymatiga bog‘liq ravishda asoslash mumkin [6-7].

Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilish burchagini asoslash uchun, (10) ifodadan foydalanib, tukli chigit misolida, parametrlarning quyidagi ma’lum qiymatlarida hisoblashlar o‘tkazamiz: $V_y=V_b=1,05$ m/s; $g=9,81$ m/s^2; $R=0,203$ m; $\varepsilon_0=8,85\cdot10^{-12}$ F/m; $E=6\cdot10^5$ V/m; $a=9,7\cdot10^{-3}$m; $b=5,4\cdot10^{-3}$m; $F_z=0,87$; $L=0,69$; $S_u=67,12\cdot10^{-6}$ m^2; $h=1,05\cdot10^{-3}$m; $\varepsilon_u=7,0$; $l_y=4,48\cdot10^{-3}$ m; $\varepsilon_u=4,0$; $cos(\theta/2)=0,3565$; $U=3000$, 3500 va 4000 V.

2-rasmda qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanishning har xil qiymatlarida tukli chigitlarni elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilish burchagini ular massasiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi tasvirlangan.



2–rasm. Elektrodlarga beriladigan kuchlanish(U)ning har xil qiymatlarida tukli chigitlarni uzilish burchagi(α)ni ular massasi(m)ga bog‘liq o‘zgarishi

Rasmda tasvirlangan egri chiziqlardan ko‘rinib turibdiki, qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymati o‘zgarishi bilan bir xil massali tukli chigitlarni elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilish burchaklari ham o‘zgarayapti. Jumladan, agar elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymati 3000 V ga teng bo‘lganda, massasi 100 mg li tukli chigit ish organining yuzasidan 82°07' da uzilsa (2-rasm, 1-egri chiziq), 4000 V ga teng bo‘lganda, u 97°50' da uzilayapti (2-rasm, 3-egri chiziq). Ya’ni qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymati oshishi bilan, bir xil massali tukli chigitlarni elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilish burchagining ko‘lamini kengayishi kuzatilayapti. Bundan, qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymatini o‘zgartirib, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida saralash texnologik jarayonini, ularning fizik-mexanik xossalariga bog‘liq ravishda boshqarish mumkin degan xulosa kelib chiqadi.

Shunisi e’tiborliki, elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymati oshishi bilan massasi har xil bo‘lgan tukli chigitlarni elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uzilish burchaklari orasidagi farqning oshishi ham kuzatilayapti. Masalan, agar elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymati 3000 V ga teng bo‘lganda, massasi 60 va 140 mg li tukli chigitlarni uzilish burchaklari orasidagi farq 25°28' ni tashkil etsa, u 4000 V ga teng bo‘lganda, ushbu ko‘rsatkich

40°30' ni tashkil etayapti. Bundan, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini urug‘lik va texnik fraktsiyaga saralash aniqligini oshirish uchun, ularni elektr saralagich qurilmasida saralash texnologik jarayonini nisbatan katta kuchlanishlarda olib borish kerak degan xulosa kelib chiqadi.

2-rasmda tasvirlangan egri chiziqlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, agar massasi 100 mg dan kichik bo‘lgan tukli chigitlar sifatsiz va ekish uchun yaroqsiz deb qabul qilinsa, takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida sifatsiz urug‘larni sifatli urug‘lardan aniq ajratish uchun ish organining diametri 400 mm, aylanishlar soni 50 min^{-1} va ishqalanish natijasida vujudga keladigan elektr maydon kuchlanganligining qiymati $6 \cdot 10^5$ V/m ga teng bo‘lganda, qarama-qarshi ishorali elektrodlarga 3500 V atrofida kuchlanish berish yetarli ekan.

Qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanishning ushbu qayd qilingan qiymatida qabul qilish bunkerini bo‘lish tekisligi o‘qining koordinatalarini to‘g‘ri o‘rnatish, elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasidan uziladigan qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini urug‘lik va texnik fraktsiyaga aniq ajratish va sifatli, biologik ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potentsial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘liklar olish imkonini berib, sara urug‘liklar olish ta’minlanadi.

Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralash bo‘yicha ishlab chiqilgan texnika vositalari va ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularni saralash samaradorligin oshirish imkoniyati mavjud ekan. Shuni hisobga olib, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralash bo‘yicha keyingi yillarda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining afzalliklari hamda kimyo sanoatining yutuqlaridan foydalanib, elektr saralagich qurilmasi takomillashtirildi. Natijada, elektr saralagich qurilmasining saralash samaradorligi hamda qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini urug‘lik va texnik fraktsiyaga ajratish aniqligi oshdi. Takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasining yana bir afzallik tomoni shundaki, qarama-qarshi elektrodlarga kuchlanish bermasdan, ishqalanish natijasida vujudga keladigan elektr maydonida mayda urug‘larni, elektrodlarga kuchlanish berib, massasi jihatdan yirik bo‘lgan qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini saralash mumkin.

Xulosa

Takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida qarama-qarshi ishorali elektrodlarga beriladigan kuchlanishning qiymatini o‘zgartirib, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini ish organining yuzasidan uzilish burchaklarini ularning fizik-mexanik xossalariga bog‘liq ravishda keng ko‘lamda o‘zgartirish hamda ularni urug‘lik va texnik fraktsiyaga aniq ajratish orqali sifatli, biologik xossalari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potentsial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘liklar olish mumkin. SHu bilan birga, takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasida sifatli tukli chigitlardan sifatsiz tukli chigitlarni ajratib olish uchun ish organi diametri 400 mm, aylanishlar soni 50 min^{-1} va ishqalanish natijasida vujudga keladigan elektr maydon kuchlanganligining qiymati $6 \cdot 10^5$ V/m ga teng bo‘lganda, qarama-qarshi ishorali elektrodlarga 3500 V atrofida kuchlanish berish yetarli bo‘lib, sifatli urug‘liklar olish ta’minlanadi.

Adabiyotlar

1. Yusubaliev A.Elektrosortirovka v xlopkovodstve.–2019, Novosibirsk, Akademizdat. –176 s.

2. Yusubaliev A., Saydaliev H. Chigitning elektr saralagichi va klassifikatori // O‘z-bekiston qishloq xo‘jaligi. - 2014, № 6, 35-b.

1. Хурсанов А.Х. // Разработка технологии получения аффинированного палладиевого порошка из отработанных электролитов // Хурсанов А.Х., Хасанов А.С., Б.Р. Вохидов Горный вестник Узбекистана г. Навои. №1 (76) 2019г. ст. 58-61.

2. Исследование повышения степени извлечения аффинированного палладиевого порошка из сбросных растворов // Вохидов Б.Р. [и др.] // Литье и Металлургия. 2020 г. №1 - С.78-86.

3. Хасанов А.С., Вохидов Б.Р. Қайта ишлатилган электролитдан соф палладий кукунини ажратиб олиш усулини илмий тадқиқ этиш // Композицион материаллар. Ташкент, 2019 - №2. С. 63-66.

4. Хасанов А. С. Исследование повышение степень извлечения и чистоты аффинированного палладиевого порошка из сбросных растворов // А.С. Хасанов Б.Р. Вохидов, Р.А. Хамидов // Universum: Технические науки. 2019. - №9 - С. 20-30.

5. Хурсанов А.Х., Хасанов А.С., Б.Р. Вохидов // Разработка технологии получения аффинированного палладиевого порошка из отработанных электролитов // Научная статья. Горный вестник Узбекистана г. Навои. №1 (76) 2019г. ст. 58-61.

6. Вохидов Б.Р. // Разработка технологии получения платиновых металлов из техногенных отходов. // Научно-методический журнал Евразийский союз ученых (ЕСУ): Москва, 2020. Июнь №6(75). С.38-46.

7. Voxidov B.R., Xasanov A.S. Mis sanoati texnogen chiqindilaridan platina va palladiyni ajratib olish texnologiyasini tadqiq qilish // “Ilm-fan va innovatsion rivojlanish” Innovatsion rivojlanish vazirligining Ilmiy texnik jurnali Toshkent 2021y. Dekabr 6. 2021 b.56-68.

8. Вохидов Б.Р., Хасанов А.С. // Исследование и разработка технологии извлечения металлов платиновых групп из техногенного сырья АО «АГМК» // XIV Международной конференции. Институт химии и химической технологии Сибирского отделения РАН, Красноярск, 6-9 сентября, 2021г. С. 29-32.

9. Хурсанов А.Х., Хасанов А.С., Вохидов Б.Р. Технология платиноидов // Монография. Тошкент, “Муҳаррир” Нашриёти, 2021г. 445 ст.

10. Хасанов А.С., Абдукадиров А.А., Усманкулов О.Н., Вохидов Б.Р. Палладий // Монография. Навоий, “SARMISH-NASHR” Нашриёти, 2022й. 240 б.

11. B.R. Vokhidov New horizons processing of technogenic waste of the copper industry // (№23 The American Journal of Applied sciences) // Volume 04 issue 05 Pages: 42-51. SJIF Impact factor (2021: 5. 634) (2022: 6. 176).

QUYOSH ENERGIYASI YORDAMIDA SUV ISITISH TIZIMLARINING UMUMIY TAHLILI

Xolmatov F.T., Samarqand davlat arxitektura qurilish instituti (Phd) tayanch doktoranti

Annotasiya: Ilm-fan taraqqiyoti quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha ilg‘or usullarni taqdim etmoqda. Bu borada ishlab chiqilgan qurilish texnologiyalari binolarni loyihalashtirishda bino barpo etilayotgan joyning iqlim sharoiti, foydalanilayotgan qurilish materiallari hisobga olinishini nazarda tutadi. Bu qurilish nihoyasiga yetgach, binoni yoritish, isitish yoki sovutish uchun quyosh energiyasidan imkon qadar ko‘proq foydalanishda zarur.

Kalit so‘zlar: passiv, kollektor, akkumulyator, absorbsion, baypas

Binolarni isitishda quyosh energiyasidan foydalanilsa bo‘ladi. Binolarni isitish sistemasi suv isitish sistemasiga o‘xshash bo‘lib, ulardan o‘lchamlari kattaligi bilan farq, qiladi. Ko‘pincha issiqlik tashuvchi vazifasida suv va havodan foydalaniladi. Isitish sistemasining asosiy tarkibi kollektor, akkumulyator, yuklama (isitiladigan xona yoki bino) va rostlovchi qurilmalardan

iborat bo‘ladi. Mo‘tadil iqlim sharoiti uchun isitish sistemasini qo‘shimcha energiya manbai bo‘lishi kerak. Sistemalarni loyihalash va hisoblashda quyosh va qo‘shimcha energiyalar orasidagi optimal nisbatni aniqlashga to‘g‘ri keladi.

Quyosh qo‘yi joylashganda ekvator tarafga qaratilgan Shimoliy yarim sharda, Janubga, Janubiy yarim sharda Shimolga qaratilgan katta oynali binolarda qish paytlari quyosh nurini tutish juda samaradorli bo‘ladi.

Kollektor, akkumulyator va qo‘shimcha energiya manbai quyosh isitish sistemasining asosiy qismini tashkil qiladi. Bunday sistemalarni ekspluatatsiya sharoitiga bog‘liq holda to‘rtta ish rejimiga ajratib qarash mumkin.

A-rejim- Quyosh energiyasi tushayapti, binoning issiqlik ta‘minoti talab etilmayapti, unda kollektordan olinadigan hamma energiya akkumulyatorga to‘planadi.

V-rejim- Quyosh energiyasi tushayapti, binoning issiqlik ta‘minoti talab etilyapti, unda kollektordan olinadigan hamma energiya binoning issiqlik talabini qondirish uchun sarflanadi.

S-rejim- Quyosh energiyasi tushmayapti, binoning issiqdik ta'minoti shart, akkumulyatorda energiya to'plami mavjud, unda binoni isitish akkumulyatordagi issiqlik energiyasi hisobiga amalga oshadi.

D-rejim- Quyosh energiyasi tushmayapti, binoni isitish shart, ammo akkumulyatordagi energiya tugagan, unda binoni isitish qo'shimcha energiya manbai hisobiga bajariladi.

Mavjud sistemalarda beshinchi ish rejim ham bo'lishi mumkin. Masalan, akkumulyator energiyasiga to'yingan issiqlikka talab yo'q, kollektor energiya ishlab berish mumkin. Bunday sharoitlarda energiyani to'plash yoki foydalanishga imkon bo'lmay qoladi, ammo bu energaya sarflanishi kerak. Bunday hollar uchun qo'shimcha ish rejimlarini ko'rib qo'yishga tug'ri keladi, ya'ni issiq suv ta'minoti rejimi. Ayrim sistemalarda bir vaqtda bir necha ish rejimlarini bajarish mumkin. Qo'shimcha issiqlik manbai va akkumulyatorni havo isitish sistemalarining keng qo'llanilgan sxemasi varianti (1-rasm) keltirilgan.

Uch yurishli zaslonka



1-rasm. Havoli isitish sistemasining prinsipial sxemasi.

Bu sistemada (1-rasm) energiyani akkumulyatsiyalash mahsuloti sifatida toshlar, energiyani kollektordan akkumulyatorga, so'ng binoga issiqlik tashuvchi sifatida havodan foydalaniladi. "Zaslonka" larning holatini belgilab to'rt rejim bajariladi. Ammo sistemada akkumulyatorga bir vaqtda energiyani to'plash va uni tarqatish rejimlarini bajarib bo'lmaydi. Agarda yuklamani ta'minlash uchun energiya yetarli bo'lmasa qo'shimcha isitish energiyasini kollektor yoki akkumulyatordagi energiya bilan birgalikda binoni isitishga sarflash mumkin.

Sistemada ventilyatorni qo'llashdan maqsad shuki, kollektordagi bosim atrof-muhit bosimidan yuqori bo'lishi, bu bosim evaziga kollektordagi issiqlik yo'qolishini kamaytirish. Havoli isitish sistemalari boshqa, ya'ni issiqlik tashuvchi sifatida suv olingan sistemalarga Qaraganda bir qator yutuqlarga ega. Havoli sistemalarda kollektordagi issiqlik tashuvchining muzlab qolish va issiqlik uzatilmagan davrda qizib ketish ehtimollari bo'lmaydi. Bunday sistemalarda metallarning yemirilishi sezilarsiz, issiqlikni rostlash jihozlari esa holi o'rnatilgan. Havoli isitish sistemalarining kamchiliklaridan asosiylari - bu havo to'ldirilganda katta sarf, akkumulyatorning nisbatan katta hajmliligi va sistemaga oddiy absorbsion havo konditsionerini ulash qiyinligidir.

Qo'shimcha energiya manbali va akkumulyator bakli keng tarqalgan suv isitish sistemasining prinsipial sxemasi (2-rasm) keltirilgan.

Uch yurishli kran



2-rasm. Suvli isitish sistemasining prinsipial sxemasi

Bu sistema quyosh kollektori, akkumulyator qismi, qo‘shimcha energiya manbai va yuk qismlari bir-biriga bog‘liksiz rostlash jarayonlarini bajarishga imkon beradi. Bunday sistemalarda quyosh energiyasi hisobiga qizdirilgan suvni akkumulyatorga tushishi va bir vaqtni o‘zida undan binoni isitish uchun issiqdik chiqarilishi mumkin. Bu sistemada qo‘shimcha issiqlik manbai hisobiga akkumulyatorni isitmaslikka imkon beradigan “baypas” liniyasi ko‘zda tutilgan. Sistemaning yaxshi tomonlaridan issiqlik uzatish sistemasi va akkumulyatorda umum-issiqlik tashuvchidan foydalanilganligi akkumulyatorni kichik hajmligi, sistemada absorbsion havo konditsioneridan foydalanishga imkon borligidadir. Ammo sistemada issiqlik tashuvchi sifatida suvdan foydalanish ayrim qiyinchiliklarga olib keladi. Masalan, kollektorni muzlab qolish ehtimolidan saqlash, sistemada yemirilish havfini borligi va hokazolar.

Adabiyotlar

1. Rashidov Yu.K. “Muqobil energiya manbalaridan foydalanish” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua, Toshkent TAQI, 2019 y.
2. R.M.Maxmudov, SH.A.Usmonov, Z.I. Xolmurodova, S.SH.Babanazarov, F.T. Xolmatov (2018) “Quyoshli isitish tizimlarida moddalarning erish issiqligiga asoslangan akkumulyatorlar.“Qayta tiklanuvchi energetikaning zamonaviy muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. 2018-yil 71-73 betlar, Qarshi shahri.
3. Xolmatov F.T. “Passiv quyoshli isitish tizimlarida binolarning arxitekturarejaviy yechimlardan unumli foydalanish” "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4
4. Xolmatov F.T. Sattorov.A.B. “Use of efficient solar collectors in heating building” “Ishlab chiqarishning texnik, muhandislik va texnologik muammolari innovatsion yechimlari” xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari Jizzax, 2021-yil
5. Xolmatov F.T. “Aholi turar-joy binolarida issiqlik tizimini tashkil etishda muqobil energiya manbalarining qo‘llanilish sohalarining tahlili” Me‘morchilik va qurilish muammolari (ilmiy-texnik jurnal) 2021 yil, № 3 (2 qism), SamDAQI

NASOS QURILMASINING ISH TARTIBINI ANIQLASH

Xolmirzayev I.J., Termiz muhandislik-texnologiya instituti
+ 998 99 562 43 83

Annotatsiya: Maqolada nasos stansiyalarining energiya samaradorligini oshirish uchun energiya tejamkor ish rejimlarini o‘rganish, nasos agregatlarini innovatsion texnologiyalar bilan boshqarishni joriy etish, ishga tushirish rejimlarini takomillashtirishda elektr yuritmaning elektromexanik o‘tish jarayonlarini tadqiq qilish, energetik uskunalarning optimal ish rejimlarini ishlab chiqish, shuningdek elektr energiya iste’molini boshqarish jarayonida texnik omillarning kompleks ta’sirini aniqlash masalalariga yechimlari yoritilgan. Ushbu yo‘nalishda jumladan, energiya va resurs tejamkorlikni ta’minlashga imkon beruvchi zamonaviy usullar, ya’ni nasosning uskunalarini innovatsion texnologiyalar asosida nasos agregatlarining rasonal ish rejimlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Аннотация: В статье исследование энергосберегающих режимов работы для повышения энергоэффективности насосных станций, внедрение управления насосными агрегатами с инновационными технологиями, исследование электромеханических переходных процессов электрической мощности при совершенствовании пусковых режимов, разработка оптимальных режимов работы энергетического оборудования, а также потребности в электроэнергии Освещены пути решения проблем определения комплексного действия технических факторов в процессе управления имуществом. В этом направлении одной из актуальных задач является разработка современных методов, позволяющих экономить энергию и ресурсы, т. е. разработка насосных агрегатов на основе инновационных технологий.

Annotation: In the article, the study of energy-saving operating modes to improve the energy efficiency of pumping stations, the introduction of control of pumping units with innovative

technologies, the study of electromechanical transients of electric power when improving starting modes, the development of optimal operating modes of power equipment, as well as the need for electricity. Ways to solve the problems of determining the complex action are highlighted technical factors in the property management process. In this direction, one of the urgent tasks is the development of modern methods that save energy and resources, i.e., the development of pumping units based on innovative technologies.

Kirish

Nasos qurilmasi nasos agregati va quvurlar sistemasidan iborat bo‘lib, ular ish jarayonida ma’lum texnologik bog‘liqli bo‘ladi. Haqiqatdan, nasos qurilmasining quvurlar sistemasida suyuqlikni harakatlantirish uchun ortiqcha bosim

$$H = H_r + \Sigma h_\omega \qquad (1)$$

zarur va bu bosim nasosda dvigatelning ishi hisobiga vujudga keladi. Boshqacha aytganda nasosning bosimi suv ko‘tarish geometrik balandligi va quvurlar sistemasining gidravlik qarshiliklar yig‘indisiga teng bo‘lishi lozim.

Quvurlardagi gidravlik qarshilik uchun bosim isrofi ularda suyuqlikning oqish tezligi ***v*** ga bog‘liq; bo‘ladi va gidravlika xulosalariga ko‘ra quyidagi tenglamadan aniqlanishi ham mumkin:

$$h_\omega = (\Sigma\xi + \chi\frac{1}{d})\frac{\vartheta^2}{2g} \qquad (2)$$

bunda λ — quvur devorlarining g‘adir-budurlik koeffitsienti

Ushbu $\vartheta = \frac{Q}{F}$ (F —quvur jonli kesimining yuzasi) ekanligini hisobga olib, quyidagini topamiz:

$$h_\omega = (\Sigma\xi + \lambda\frac{1}{d})\frac{Q^2}{2gF^2} \qquad (3)$$

Berilgan quvur uchun ℓ, ***d, F, 2g,*** λ lar doimiy, shuning uchun formula (3) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$h_\omega = A \cdot Q^2 \qquad (4)$$

Bunda $A = (\Sigma\,\xi + \lambda\frac{1}{d})\frac{1}{2gF^2}$ - quvurning o‘lchamlari va materialini ifodalaydigan qiymat.

Bunday holda nasos qurilmasining o‘zatishi Q bilan suyuqlikni harakatlantirish uchun zarur bo‘lgan bosimi quyidagiga teng:

$$H = H_r + AQ^2 \qquad (5)$$

Bu tenglama nasos qurilmasi quvurlar sistemasini xarakterlaydigan barcha qiymatlarni o‘zaro bog‘laydi va shuning uchun bu sistemaning *gidravlik xarakteristikasi* deb ataladi.

Ko‘rsatilgan ifodadan foydalanib, bu xarakteristikani grafik tarzda yasash mumkin, lekin har xil uzatish Q lar berish kerak (1-rasm). Rasmdan berilgan quvurlar sistemasi bo‘yicha har qaysi o‘zatish uchun qanday bosimlar kerakligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Bir chizmaning o‘zida nasos xarakteristikasini va quvur xarakteristikani chizganda (grafiklarni birlashtirganda) nasos qurilmasini xarakterlaydigan grafiklar hosil bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Nasos qurilmasi quvurlar sistemasining xarakteristikasi.

Rezervuardagi suv sathi vaziyatining nasos ishiga ta’siri



2-rasm. Nasos qurilmasining xarakteristikasi

Nasosning xarakteristikasi ma’lum aylanish chastotasida biror suyuqlik sarfi uchun bosim vujudga keltirish sharoiti va imkoniyatlari haqida tasavvur beradi.

Quvurlarning xarakteristikasi nasos qurilmasining quvurlarida o‘shandek uzatishda suyuqlik haydash uchun qanday bosim kerakligini ko‘rsatadi. O‘zatishni Q $_a$ gacha kattalashtirilsa, mumkin bo‘lgan bosimlarning zarur bosimlardan dastlabki kattaligi asta-sekin kamayadi. O‘zatish Q $_a$ da nasosning bo‘lishi mumkin bo‘lgan bosimi nasos qurilmasining quvurlar sistemasida suyuqlikning harakatlantirish uchun zarur bosimga tenglashadi va nihoyat, o‘zatish yanada oshirilganda qurilmaning zarur bosimiga nisbatan nasosning bosimi etishmaslik ehtimoli oshadi.

Nasosning *N—Q* egri chizig‘i bilan nasos qurilmasi quvurlar sistemasining zarur bosimlar egri chizig‘i kesishishi nuqtasi *A* nasos qurilmasining ish nuqtasi deb ataladi. Bu nuqta berilgan qurilma quvurlar sistemasidagi ayni nasosning ishini rostlamasdan turib erishiladigan yagona o‘zatishni ko‘rsatadi. Nasoslarni katalogdan tanlash ham shu shart bilan belgilanadi, chunki odatda optimal f. i. q da nasosning bosimi nasos qurilmasining hisobiy bosimiga teng bo‘lishiga intilinadi.

Nasos qurilmalarining real ish sharoitida, ayniqsa suv satxi o‘zgarib turadigan ochiq suv manbalari **(daryo,** kul, suv omborlari) dan suv olishda Ya—*Q* egri chizig‘idagi ish nuqtasining vaziyati o‘zgarib turadi. Masalan, qurilmaning bosim rezervuari to‘lganda ish nuqtasi *A N—Q* egri chiziqqa chapga siljiydi (3- rasmdagi nuktaga qarang), chunki shunda suv ko‘tarish geometrik balandligi Ya$_g$ kattalashadi, quvurlarda-gi gidravlik qarshilik egri chizig‘i o‘zgarmay qoladi.



3-rasm. *Q* egri chizig‘idagi ish nuqtasining vaziyati o‘zgarib turishi.

Bosim rezervuari bo‘shatilganda suv ko‘tarish geometrik balandligi I_t kichrayganligi to‘fayli quvur gidravlik qarshiliklar egri chizig‘i pasayadi va ish nuqtasi *A* vaziyatdan o‘ngga siljiydi (3- rasmdagi *A″*nuqtaga qarang). Nasos qurilmasini loyihalashda bu holni albatta hisobga olish kerak chunki o‘zatish oshgan sari nasosning quvvati ham oshadi, uning so‘rish xususiyati esa kamayadi.

Adabiyotlar

1.Kamalov T.S. Chastotno reguliruemiy elektroprivod nasosix stansiy mashinnogo orosheniya. – T.: Fan, 2014. – 368 s.

2.Udut L.S., Malseva O.P., Koyain N.V. Proektirovanie i issledovanie avtomatizirovannix elektroprivodov. Ch.8. Asinxronniy chastotno-reguliruemiy elektroprivod. Uchebnoe posobie. – Tomsk: TPU, 2009. – 354 s.

3.Didich V. A. Povыshenie effektivnosti nasosnix agregatov v sistemax melioratsii i orosheniya / S. V. Oskin, V. A. Didich // Mexanizatsiya i elektrifikatsiya selskogo xozyaystva - 2011. - №6. - S. 23—24.

4.Babakin V.I. Kurs leksiy po dissipline: Avtomatizirovannыy elektroprivod tipovыx proizvodstvennix mexanizmov i texnologicheskix kompleksov. Chast 1-2. – Ufa: Ufimskiy gosudarstvenniy neftyanoy texnicheskiy universitet, 2007. – 102 s.

5.Kamalov T.S., Muminov K., Abdullax S. Chastotnoe upravlenie asinxronnogo elektroprivoda orositelnogo nasosa // Uzbekskiy jurnal «Problemi informatiki i energetiki». – Tashkent, 1994. – № 5. – S. 29-34.

6.Moskalenko V.V. Elektricheskiy privod. Ucheb. posobie dlya VUZov. – M.: Akademiya, 2007. – 368 s.

7.Kopilov I.P. Matematicheskoe modelirovanie elektricheskix mashin. Ucheb. posobie dlya VUZov. – 3-ye izd., pererab. i dop. – M.: Vissh. shk., 2001.– 327s.

AKKUMULYATORLAR

Xudoyqulov Z.R., Najmiddinov A.A.
(Termiz muhandislik-texnologiya instituti)
zokir.xudoyqulov2021@gmail.com

Akkumulyator (Lotincha: *accumulator* – to‘plovchi) – keyinchalik foydalanish maqsadida energiyani to‘playdigan qurilma. Elektr, issiqik, gidravlik, inersion xillari bor. Elektr akkumulyator elektr toki ta’sirida kimyoviy energiyani elektr energiyasiga aylantirib beradigan galvanik tizim. Elektr akkumulyator musbat elektrod, manfiy elektrod va elektrolitdan iborat. Elektrodning elektrolitga tegib turuvchi sirtida potensiallar farqi hosil bo‘ladi. Bu farq EYuK (elektr yurituvchi kuch) deyiladi. Yig‘ilgan energiyani sarflash vaqtida kimyoviy energiya elektr energiyasiga, energiyani to‘plash vaqtida esa elektr energiyasi kimyoviy energiyaga aylanadi. Elektrolit tarkibiga karab, akkumulyatorlar kislotali, ishqorli, vodorodli va litiyli xillarga bo‘linadi.

Kislotali akkumulyatorlarda elektrolit sifatida sulfat kislota eritmasi, musbat elektrod sifatida qo‘rg‘oshin oksidi, manfiy 265 elektrod sifatida qo‘rg‘oshin ishlatiladi. Bunday akkumulyatorlardan avtomobil transportida, aloqada foydalaniladi. Ishqorli akkumulyatorlar elektrodining xiliga qarab, kadmiy nikelli va temir nikelli, kumush ruxli va kumush kadmiyli

bo‘ladi. Kadmiy nikelli akkumulyator musbat elektrodi grafit aralashtirilgan nikel oksididan, manfiy elektrodi kadmiy aralashtirilgan temirdan tayyorlanadi. Elektrolit sifatida o‘yuvchi kaliy eritmasi yoki o‘yuvchi natriy eritmasiga ozgina litiy gidrooksid qo‘shilgan aralashma ishlatiladi. Akkumulyator zaryadlanish va zaryadsizlanish vaqtidagi o‘rtacha kuchlanish (har bir elementga 1–2 V) va sig‘im bilan ifodalanadi. Kuchlanishni oshirish uchun akkumulyatorlar ketma-ket ulanib, batareyalar hosil qilinadi. Kadmiynikelli va temirnikelli akkumulyator aviatsiyada, aloqa vositalarida, elektr transport mashinalarida, kosmik apparatlarda; kumush-ruxli va kumush-kadmiyli akkumulyator aviatsiya, aloqa vositalari, kinoga olish apparati va boshqa joylarda ishlatiladi. Issiqlik akkumulyator tarmoqdagi bug‘ bosimini birday saqlab turadi. Gidravlik akkumulyator gidravlik qurilmalarda suyuqlik yoki gazning bosim va sarfini baravarlaydi, 100–300 atm bosim ostida suyuqlikni yig‘ib, gidravlik presslarga va boshqa mashina-qurollarga bir me’yorda berib turadi. Inersion akkumulyator maxovikdan iborat bo‘lib, undan turli mashinalar, transport vositalari va boshqalarda foydalaniladi.

Avtonom energiya manbalaridan farqli ravishda, lityum-ion akkumulyatorlar nisbatan kichik hajmlarda ishlab chiqariladi, biroq elektromobillarning parki bu vaziyatni boshqa yo‘nalishga o‘zgartiradi.

Besh-o‘n yil davom etadi va sarflangan lityum-ionli batareyalar yiliga bir necha million tonnadan oshib ketadi. Besh-o‘n yil o‘tib, qayta ishlangan lityum-ionli akkumulyatorlar yiliga bir necha million tonnadan oshib ketadi. Bu litiy, kobalt va boshqa materiallar ko‘rinishidagi noyob resurslarni iste’mol qilish miqdorining o‘sishigina emas, balki yer va suvning chiqindi batareyalaridan ham ifloslanishining oldini olish harakati bo‘lib hisoblanadi. Bu haqda o‘ylash vaqti keldi va dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi kunda ishlatilgan lityum-ion batareyalarning taxminan 5 foizi yo‘q qilindi. Mazkur raqam ushbu batareyaga bo‘lgan talab oldida juda kichik raqamdir. Olimlar oldida batareyalarni arzon narxda sotish uchun texnologik jarayonni yaratish yoki yangi mahsulotlar uchun materiallarni qayta ishlatish vazifasiga duch kelmoqdalar. Bunday jarayon texnologiyasi San-Diyegodagi Kaliforniya Universiteti (Kaliforniya San-Diyego Universiteti) laboratoriyasida ishlab chiqilgan. Professor Jeng Chen (Zheng Chen) qayta ishlangan litiy-ionli batareya uchun materialni tiklash texnologiyasini ishlab chiqdi. Kichik modifikatsiyalari bilan ishlov berish texnologiyasi litiy-kobalt oksidi va NMK (nikel, marganets va kobalt) birikmalarini tiklash uchun teng ravishda mos keladi. Birinchi holda, elektronika uchun akkumulyator, ikkinchidan esa, elektromobillar uchun akkumulyatorlar yaratish haqida fikr yuritilmoqda.

Litiy ionlarining ko‘p qismi va tarkibidagi litiy tuzlari bilan aralashma tayyorlanadi. Keyin aralashmaning 800 °C ga tez va qisqa muddatli isitiladi, so‘ngra eritma sekin soviydi. Agar litiy-ion akkumulyator uchun katod qayta ishlangan materialdan katod tayyorlansa, batareya butunlay yangi va yangi ishlab chiqarilgan materiallardan tayyorlanganidek o‘zini tutadi. Laboratoriyada o‘tkazilgan testlar shuni ko‘rsatdiki, qayta tiklangan materialdan ishlangan katodli akkumulyator yangi xom ashyolardan tayyorlangan katodli batareyadan qolishmaydi.

Olimlarning bu boradagi izlanishlari bir vaqtning o‘zida bir necha muammolarni hal qiladi. Iqtisodiy resurslar saqlanib qoladi, chiqindilar atrof-muhitni ifloslantirmaydi va qayta ishlaydigan batareyalar arzonlashishi mumkin. Professor Zheng Chen tomonidan taqdim etilgan texnik jarayon texnologiyasi bugungi kunda katotlarning qayta ishlanishida ikki marta iqtisodiy jihatdan ahamiyatlidir. Shunday qilib, materialning asosiy xususiyatlarini tiklash uchun 5,9 megajoul sarflanadi, bu juda oz ko‘rsatkichdir. Ishlab chiqarish jarayonini boshlash uchun akkumulyator batareyasi shaklidan qat’i nazar, batareyalardan katotlarni chiqarib olish va laboratoriya ishlarini sanoat darajasiga moslashtirish uchun avtomatlashtirilgan tizimni yaratish kerak. Qayta ishlashni Osiyo hududida joylashgan korxonalar amalga oshirishi rejalashtirilgan.

Elektromobil harakatlanishi uchun asinxron dvigatilini nima elektr energiyasi bilan ta’minlab beradi?

Albatta bu **litiyli ionli akkumulyator** bo‘lib, bu turdagi akkumulyatorlar ko‘p sonli batareyalaridan tashkil topgan. Litiy metall batareyalar birinchi marta 1912-yilda Gilbert N. Lyuis tomonidan taklif qilingan. 1970-yilga kelib litiy-ionli akkumulyatorlarni tadqiq qilishni boshlagan. Litiy metallning juda faol kimyoviy xossalari sababli, litiy metallni qayta ishlash imkoniyati yo‘q.

Shuning uchun litiy batareyalar uzoq vaqt davomida ishlatilmadi. Fan va texnologiyaning rivojlanishi jadallashgandagina litiy batareyalar diqqat markazida bo‘ldi. Litiy batareyalar qayta zaryadlanuvchi va kata miqdordagi elektr energiyasini o‘zida mujassamlashtiruvchi batareyadir. Bularning beshinchi avlod litiy-metall batareyasi 1996-yilda vujudga kelgan va uning xavfsizligi, o‘ziga xos quvvati, o‘z-o‘zidan tushirish tezligi va ishlash bahosi nisbati litiy-ion batareyalarga qaraganda yaxshiroqligi aniqlangan.

Litiy ionli batareyalarni ilk bor ommaviy ishlab chiqarish 1970-yillarga to‘g‘ri keladi. Litiy batareyaning musbat elektrod materiallari marganets dioksidi yoki tionil xlorid, manfiy elektrod esa litiy hisoblanardi.Bu turdagi batareyalarni ko‘p marataba zaryadlash mumkin edi, lekin aylanish jarayoni yaxshi emasligi sabab batareyada zo‘riqishlar paydo bo‘lib litiy kristallari osonlik bilan hosil bo‘lardi. Shuning uchun batareyani to‘liq zaryadlash taqiqlangan. 1982-yilda Illinoys Texnologiya Universitetining RR Agarwal va JR Selman litiy ionlarining grafitga joylashtirish imkoniyati borligini topdi. Shundan so‘ng odamlar litiy ionli grafitning xususiyatlaridan foydalangan holda qayta zaryadlanadigan batareyani ishlab chiqarishga urindi. Birinchi mavjud bo‘lgan litiy ion grafit elektrodi Bell Labs tomonidan muvaffaqiyatli ishlab chiqarildi.

1989-yilga kelib esa A.Manthiram polimer anyonli musbat elektrodning yuqori kuchlanish hosil qilishini aniqladilar.

1992-yilda Sony korporatsiyasi manfiy elektrod va litiy tarkibidagi tarkibiy musbat elektrod sifatida karbonli material yordamida litiy batareyasini ixtiro qildi. Zaryad qilish va tushirish jarayonida metall litiy mavjud emas, faqat litiy ion batareyasi bo‘lgan litiy ionlari mavjud. Keyinchalik, litiy-ion batareyalar iste’molchi elektronika yuzini inqilob qildi. Litiy kobaltat yordamida musbat elektrod materiallari sifatida ishlatiladigan bunday akkumulyator portativ elektron qurilmalar uchun asosiy kuch manbai hisoblanadi.

1996-yilda Padhi va Goodenou litiy temir fosfat (LiFePO4) kabi olivin tuzilishi bilan fosfatlar an’anaviy katod materiallaridan, ayniqsa, yuqori harorat qarshiligidan ko‘ra xavfsizroq ekanligini va an’anaviy litiy ion batareyalaridan ancha ustun bo‘lganini aniqlashdi. Shuning uchun u joriy yuqori oqimdagi oqim kuchining litiy batareyasining katot materialiga aylandi.

Batareyani ishlab chiqarish tarixi mobaynida jahonda batareyalar sanoati rivojlanishining uchta xususiyatini ko‘rishimiz mumkin. Birinchidan, litiy-ionli batareyalar, vodorod-nikel batareyalari va h.k. Ikkinchisi - batareyalarni akkumulyatorga aylantirish, bu barqaror rivojlanish strategiyasiga mos keladi; Uchinchidan, batareya kichik, yengil va nozik yo‘nalishlarda rivojlanib bordi.

Litiy ionli batareyalar telekommunikatsiya va axborot bozorlarini rivojlantirish, ayniqsa mobil telefonlar va noutbuklarni keng miqyosda ishlatilishi bozor imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Polimer litiy-ion batareyasi "XXI-chi asr batareyasi" deb nomlanadi va yangi akkumulyator batareyasini ochadi. Rivojlanish istiqbollari juda optimistikdir.

2015-yil mart oyida Kyoto Universitetining professori Tanaka Xyun 70 yillik mehnati bilan kichik hajmdagi, kata quvvatga ega bo‘lgan litiy-ion batareyasini ishlab chiqdi. Ushbu sinovda ishlab chiqarilgan uzoq muddatli litiy-ion batareya hajmi 8 kub santimetrni tashkil etadi va 25 ming martagacha qayta zaryadlashga imkon beradi.

Litiy batareyalarni ishlab chiqish istiqbollari:

Litiy batareyalar gidroenergetika, olov kuchlari, shamol energetikasi, quyosh elektr stantsiyalari, post va telekommunikatsiyalar uchun uzluksiz quvvat manbalari, shuningdek elektr asboblari, elektr velosipedlari, elektr mototsikllari, elektr transport vositalari, harbiy texnika, aviatsiya-kosmik kabi energiya tejash quvvat tizimlarida keng qo‘llaniladi.

Litiy-ion batareyalar noutbuklar, video kameralar va mobil aloqa kabi portativ qurilmalarda noyob ishlash afzalliklari tufayli keng qo‘llanilgan.Ishlab chiqarilgan katta hajmli litiy-ion batareyalar elektr asboblarda sinovdan o‘tkazildi va XXI-asrda elektromobillar uchun asosiy energiya manbalaridan biri bo‘lishi kutilmoqda va yonma-yon yo‘ldoshlar, aerokosmik va energiyani saqlash uchun ishlatiladi. Energiya etishmovchiligi va dunyodagi atrof-muhitni muhofaza qilish bosimi bilan. Litiy batareyalar elektr avtomobil sanoatida, xususan, litiy batareya

sanoatining rivojlanishi va qo‘llanilishiga yordam beruvchi litiy temir fosfat batareyasi ko‘rinishida keng qo‘llaniladi.

"Rejalashtirish" ning joriy etilishi dunyo litiy batareya modelini o‘zgartirishiga sabab bo‘lishi kutilmoqda

2012-yil 18-aprelda Davlat kengashi "energiya tejash va yangi energetika vositalarini ishlab chiqarishni rivojlantirish rejasi (2012 - 2020)" (bundan keyin "rejalashtirish" deb nomlangan) ni muhokama qilingan va tasdiqlangan, unda transformatsiya uchun sof elektr uzelning asosiy strategik yo‘nalishi aniqlandi avtomobil sanoati korxonalari gibrid avtomobil 2020-yilga borib, 500 ming dona sof elektr transport vositasi va 2020-yilga borib 5 milliondan oshirish rejalashtirilgan.

"Rejalashtirish"ni joriy etish ushbu seminarda katta tashvish uyg‘otdi. Ko‘pgina mutaxassislar, bu harakat avtomobil sanoatining rivojlanish davrining yangi bosqichiga o‘tishiga ko‘maklashadi, deb hisoblaydilar

Litiy-marganets batareyalari, odatda, 3,0 v dan yuqori nominal kuchlanishga ega va ular integratsiyalashgan elektron quvvat manbalari sifatida foydalanish uchun ko‘proq mos keladi va kompyuterlar, kalkulyatorlar va soatlarda keng qo‘llaniladi.

Litiy ionli akkumulyatorlarning tuzilishiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, odatdagi litiy-ionli akkumulyator 15 yoki 16 ta **batareyalar to‘plami** birikishidan yaxlitlanadi. O‘z navbatida batareyalar to‘plami kichik-kichik **batareyalar** yig‘indisini tuziladi.





BATAREYA



BATAREYALAR TO‘PLAMI

Elektromobillardagi mavjud birgina litiyli akkumulyatorni 7000 tadan ko‘proq batareyalar tashkil etishi mumkin.

Uning texnik xarakteristikalariga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Tesla model-3 elektromobilining litiyli akkumulyatori misolida:

Akkumulyator turi: Litiy-ionli

- **Kuchanishi:** 350 V
- **To‘la zaryadlanish bilan yurish masofasi:** 426/335 km
- **Gabarit o‘lchamlari:** Uzunligi-2100mm
  eni-1200mm
  balandligi- 150mm
- **Og‘irligi:** 450 kg
- **Quvvati:** 100 kwt



Litiy-ionli batareyalar mobil telefonlar, noutbuklar, elektr asboblar, elektr transport vositalari, ko‘cha chiroqlari zahiralash quvvat manbalari, navigatsiya chiroqlari va kichik uy jihozlari uchun keng qo‘llaniladi. Bu eng katta dastur guruhi deb aytish mumkin.

Akkumulyatorni tashkil etuvchi batareyalari paralel biriktiriladi.

Akkumulyatorlar ishlash mobaynida ortiqcha issiqlik ishlab chiqarish evaziga qiziydi. Bu esa akkumulyator ish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfini oshiradi. Shu sababli akkumulyatorning qizishini oldini olish maqsadida sovutishga ehtiyoj seziladi.

Ya’ni, ortiqcha issiqlik radiator orqali tashqariga chiqarib yuboriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internetning www.forums.tesla.com sayti ma’lumotlaridan foydalanildi.
2. Internetning www.geografiya.uz sayti ma’lumotlaridan foydalanildi.
3. Internetning www.Milliy tiklanish.uz sayti ma’lumotlaridan foydalanildi.
4. Internetning www.teslamotorsclub.com sayti ma’lumotlaridan foydalanildi.
5. Internetning www.en.wikipedia.org sayti ma’lumotlaridan foydalanildi.

ГЭС ҚУРИЛМАЛАРИНИ БОШҚАРИШ ВА НАЗОРАТ ҚИЛИШ ТИЗИМИ УЧУН КЎЛАМИ ВА АНИҚЛИГИ ОШИРИЛГАН ТОК ДАТЧИГИ

Хушбоқов Бахтиёр Худоймуродович, т.ф.н., доц.
Термиз муҳандислик технология институти

Кириш

Республика энергетика тизимида ГЭС ларга бўлган талаб жахонда экологик тоза энергия таъминотга ўтаётганлиги ҳамда энергия танқислиги республика макроиқтисодий ҳолатига таъсири орқали изоҳланади. Марказлашмаган истеъмолчиларни узлуксиз электр таъминотини амалга ошириш кичик дарё ва ирмоқлар техник гидроэнергетик потенциалидан фойдаланиш ва энергия танқис худудларда кичик ва микро ГЭС учун юқори энергия самарадорликка эга қурилмалар қўллаш орқали эришиш мумкин [1].

Бу масала янги материаллар, техника ва технологиялар, нисбатан такомиллашган технологик схема ва ишлаб чиқилган энергиядан самарали фойдаланиш базасида янги

қурилмалар яратиш орқали ҳал этилади. Бироқ бу жараённи сезиларли даражада тўхтатиб турувчи омил сифатида ишлаб чиқилган катта токларни ўлчаш орқали энергияни бошқариш ва фойдаланишни назорат қилиш тизими мукаммал эмаслигини келтиришимиз лозим.

Шу сабабли ишлаб чиқарилаётган энергияни тезкор бошқариш ва назорат қилиш тизими учун қўйилган талабларга жавоб берадиган кенг кўламли ток датчикларини янги авлодини яратиш муҳим вазифа ҳисобланади.

Катта токларни синфларга ажратиш

Назорат қилинаётган ва бошқарилаётган объектлар сони кўплиги, уларга мос келувчи токлар кўлами катталиги сабабли “катта” ток тушунчасини аниқлаб олиш керак. Ўлчанаётган “катта” ток пастки чегарасини амалда қўлланилаётган амперметрлар бевосита ўлчай оладиган нол қийматдан келиб чиқиб ўрнатса бўлади [2]. Амалда амперметрлар ўлчаш кўламини кенгайтириш учун қўшимча масштабли ўзгартгичлардан фойдаланилади. Бундай амперметрлар юқори чегараси бир неча ўн амперни ташкил этиши мумкин. Бошқа тарафдан қараганда катта токларни ўлчовчи ток ўзгартгичлари пастки чегарасини ўрнатишда ўлчаш аниқлигини ҳам ҳисобга олиш лозим. Мавжуд катта токларни ўлчовчи ток датчикларини тахлили шуни кўрсатадики, уларнинг асосий қисми 10 А ва ундан катта токларни етарлича аниқликда ўлчай олар экан [2, 3].

Катта токларнинг юқори чегараси замонавий энергетика ютуқлари билан белгиланади. Саноат тарафидан эгаллаган максимал токлар ўзгармас токда 500 кА гача, ўрнатилган режимдаги ўзгарувчан токда 70 кА гача, ўткинчи жараёнларда эса ўзгарувчан токда 700 кА гача етади [1]. Истиқболда 1000 кА гача токлардан фойдаланиш кутилмоқда [1].

Юқорида келтирилганлардан кўриниб турибдики, катта токларни ўлчаш кўлами 10-10^6 А гача бўлади. Ушбу кўламдаги токни талаб қилинаётган аниқликда ўлчашни амалга оширадиган универсал қурилма яратиш масаласи жуда қийин ва амалда бажариб бўлмайди. Шунинг учун умумий кўламни қуйидаги расмда келтирилган шаклда кичик кўламларга бўлиш тавсия қилинади ва ҳар бир кичик кўлам учун у ёки бу турдаги ва конструктив ечимдаги катта токларни ўлчовчи ток датчиклари тавсия қилиниши лозим [2]

Ток датчикларини ўлчанаётган ток кучи қийматига боғлиқлиги

Катта токларни ўлчовчи ток датчикларини танлаш ва фойдаланиш учун объект ўзига хослиги ва уларни қўллаш мақсадини эътиборга олиш лозим. ГЭС лар турли қурилмаларини бошқариш ва назорат қилиш тизими учун амалда қўлланилаётган ток датчикларини таққослаб, тахлил қилиш натижаларига кўра катта ўзгармас токларни ўлчаш учун магнитогальваник ва магнитомодуляцион ток датчиклари, катта ўзгарувчан токларни ўлчаш учун ток трансформаторларини қўллаш истиқболлидир.

Республикада фойдаланишда бўлган ГЭС ларда катта токларни ўлчаш орқали бошқариш ва назорат қилиш объектлари сифатида генераторлар, трансформаторлар ва автотрансформаторлар, шунтловчи реакторлар, тақсимлаш қурилмаси шиналар тизими, электр узатиш линиялари, 1 кВдан ортиқ кучланишли хусусий эхтиёж тизимларини келтириш мумкин.

Бошқариш ва назорат қилишда электр таъминот тизими ток ташувчи шиналаридаги токни тўғри ўлчаш ва тезкор улаб-узиш тизими асосий элементи ток датчигидир. Ток датчиги ва унинг конструкциясини тўғри танлаш орқали бошқариш ва назорат қилиш тизими аниқ ва ишончли, тезкор ва селектив ишлашига эришилади [2].

Ток датчигини қўллашдаги муаммолар

Ўлчанаётган ток барча кўламида ва юкланишнинг барча берилган қийматларида аниқлаш синфидаги ток датчиги конструкциясини олиш учун ток датчигининг иккиламчи чулғамидан маълум сондаги ўрамларини ечиб олиш ёки қўшимча ўрамлар қўшиш усули маълум [4]. Ушбу усулнинг камчилиги шундаки, иккиламчи чулғам ўрамлари сони кичик бўлганида ўрамлар сонини ростлаш ҳар доим хохлаган натижага эришиш имконини бермайди, чунки бир ўрам қўшиш ёки камайтириш хам ток хатолиги ошишига сабаб бўлиши мумкин [4].

Иккинчи ҳолатдаги усулда, электротехник пўлатдан тайёрланган тороидал ўзакка қўшимча ўрамлар қўшишдир. Унга кўра иккиламчи чулғамли ўрашни бир хил кесим юзали, бир хил материалдаги ясалган бир ёки бир неча параллел ўрамлар қўшиш ёки ечиб олиш орқали ўрамларнинг керакли сонига эришилади.

Масалан, барча чулғам иккита бир хил параллел ўтказгичда бажарилади ва W_2 ўрамлардан ташкил топади $\left(\frac{I_2}{2}\right)\cdot W_2+\left(\frac{I_2}{2}\right)\cdot W_2=I_2\cdot W_2$, бу ерда: I_2 – иккиламчи чулғам токи; W_2 – ўрамлар сони.

Агар параллел ўтказгичлардан бирида бир ўрам кам бўлса, унда иккиламчи чулғамдаги тўлиқ МЮК

$$\left(\frac{1}{2}\right)\cdot I_2\cdot W_2+\left(\frac{1}{2}\right)\cdot I_2\cdot(W_2-1)=\left(\frac{1}{2}\right)\cdot I_2\cdot(W_2+W_2-1)=I_2\left(W_2-\frac{1}{2}\right)\cdot$$

Бироқ ушбу усулнинг ҳам сезиларли камчилиги мавжуд – ўрамлар сонини тўғрилаш қўлами кичик, чунки ўрамнинг учдан бирини ечиш ёки қўшимча ўраш керак бўлса, иккиламчи чўлғамни учта параллел ўтказгич билан ўраш, тўртдан бир ўрамни ечиш ёки ўраш керак бўлса тўртта параллел ўтказгич билан ўраш лозим. Бу эса ўз навбатида иккиламчи чулғамни бир неча параллел ўтказгичлар билан ўраш лозимлиги сабабли технологик жараён сезиларли мураккаблашишига олиб келади.

Бундан ташқари ўлчанаётган ток қўлами катта бўлганлиги сабабли амалда қўлланилаётган ток датчиклари аниқлик синфи кичик бўлади.

Муаммо ечими

Муаммони ҳал этиш учун бир ўрамнинг ихтиёрий улушигача ўрамлар сонини тўғрилаш қўламини кенгайтириш орқали ток датчиги иккиламчи чулғамини тайёрлаш технологиясини соддалаштиришдир [4].

Муаллиф иштирокида ишлаб чиқилган қурилмада ушбу муаммони хал қилиш учун тороидал ўзакка иккиламчи чулғамни аввал бир ўтказгич билан амалга оширилади ва охирги N ўрамлар ўралмайди, унинг ўрнига N ўрамни n параллел ўтказгичлар шаклида бир материал ва бир хил кесим юзали ўтказгичда бажарилади. Кенг қўламликликни таъминлаш мақсадида тороидал ўзак кўп ўрамли тайёрланади.

Усул қуйидаги технологик операциялардан ташкил топади: чулғамнинг асосий қисми (чулғам ўрамлари умумий сонининг тахминан 98%) бир ўтказгич ёрдамида ўралади, унинг давомидан бир хил материалдан тайёрланган ва бир хил кесим юзали (асосий ўрамлар сонининг тахминан 2%) бир неча ўтказгичлар ўралади.

Натижада бир ўтказгич билан ўралаган чулғам $I^2\cdot(W_2-N)$ МЮК ҳосил қилади, n та параллел ўтказгичлардан иборат охирги N ўрамлар эса:

$$I^2\cdot N\cdot\left((n-1)/n\right)+\left(I^2/n\right)\cdot(N-1),$$

бунда йиғинди МЮК:

$$I^2\cdot(W_2-N)+I^2\cdot N\cdot\left((n-1)/n\right)+I^2\cdot\left(I^2/n\right)\cdot(N-1)=I^2\cdot(W_2-1/n)$$

бу ерда: I_2 – иккиламчи чулғам токи; W_2 – ўрамлар сони; N – охирги ўрамлар сони; n – параллел ўтказгичлар сони.

Шу тарзда параллел ўралган ўтказгичлар сонини ўзгартириш орқали бир ўрамнинг ихтиёрий улушини олиш имконияти пайдо бўлади. Натижада бирламчи ток қиймати ўзгаришининг қўламида ва юкламанинг ихтиёрий қийматида (номиналдан унинг 0,25 % гача) ток датчиги талаб қилинган аниқлик синфига эришиш мумкин.

Хулоса

ГЭС ларни бошқариш ва назорат қилиш тизими ишлаш аниқлигини оширишда ток датчиги иккиламчи чулғамини кўп сонли ўраш яъни чулғамнинг тахминан 98% ни бир ўтказгичда қолган 2% ни эса бир неча кичик ва бир хил кесим юзали ўтказгичларда ўраш, эҳтиёж бўлганда керакли сондаги кичик кесим юзали ўтказгичларни ечиб олиш орқали аниқлик синфини ошириш мумкин. Натижада тизимнинг авария режимларида ва ўта зўриқиш режимларида сарф бўлиши ва қимматбаҳо қурилмалар ишдан чиқиши олди

олиниши мумкин. Кўп кўламлиликни таъминлаш мақсадида тороидал ўзак кўп кўламли тайёрлаш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Брызгалов В.И. Гидроэлектрстанции: Учеб.пособие / В.И. Брызгалов, Л.А.Гордон. Красноярск: ИПЦ КГТУ, 2002. 541 с.

2. Khushboqov B.Kh., Ulugov B.Dzh., Khudaynazarov S.Kh., Omonov F. Comparative analysis of modern current converters. EPRA International Journal of Multidiscipllinary Rezearch (IJMR) – Peer Reviewed Journal. (Volime: 6 / Issue: 10 / October 2020 // Journal DOI: 10,36713 / epra2013 // SJIF Impact Factor: 7,032 // ISI Value: 1,188; ISSN (Online): 2455-3662) p: 319-325.

3. Хушбоқов Б.Х. Погрешность многопредельного трансформатора тока от влияния внешних магнитых полей. Ресурсосберегающие технологии на железнодорожном транспорте: Сб. науч. тр. Респ. научно–технической конференции с участием зарубежных ученых. 2-3 декабря 2009. – Ташкент, 2009 –С.80-82.

4. Хушбоқов Б.Х., Бобомуродов М.Р., Абдурашидов А.А., Хушбоқов С.Ш. Абдуллаев Ш.Ю. Широкопредельные трансформатора тока. Заявка на выдачу патента на изобретение. №IAP20200273. (дата поступление документов 22.06.2020).

ASINXRON ELEKTR DVIGATELLARINING RELELI HIMOYASI

Yeshmuratov N.Q., Gaipov I. Q.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus shahri

Annotatsiya: *Maqolada 10 kV kuchlanishli asinxron elektr dvigatellarining ne normal jarayonlaridan biri bo‘lgan qisqa tutashuvdan releli himoyasini tanlash va asoslashdan iborat. Asinxron elektr dvigatellari sanoat korxonalarida asosiy elektr istemolshilaridan biri hisoblanadi va uning ishdan chiqishi og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkun. Dviagtellarning normal shoriyitda ishlashini taminlash maqsadida normal bo‘lmagan jarayonlarni o`rganish va ulardan rele himoyasini tanlashning hisoblashlari olib borilgan. Hisoblashlarni osonlashtirish maqsadida da’sturiy taminoti ishlab chiqilgan va uning blok sxemasi yaratilgan.*

Анонтация: *Статья состоит из выбора и обоснования релейной защиты от короткого замыкания, являющегося одним из штатных процессов асинхронных электродвигателей 10 кВ. Асинхронные электродвигатели являются одними из основных потребителей электроэнергии на промышленных предприятиях, выход из строя которых может иметь серьезные последствия. С целью обеспечения нормальной работы ОАО «Двиагтелс» проводились исследования нештатных процессов и подбор расчетов релейной защиты. Для облегчения расчетов было разработано программное обеспечение и создана его блок-схема.*

Kalit so‘zlar: Asinxron elektr dvigatel, rele himoya, qisqa tutashuv, maksimal tok himoyasi, da’sturiy taminot, blok sxema.

Ключевые слова: Асинхронный электродвигатель, релейная защита, короткое замыкание, максимально токовая защита, программный трансформатор, блок-схема.

Key words: Asynchronous electric motor, relay protection, short circuit, overcurrent protection, software transformer, block diagram.

Bugungi kunda barcha texnologik jarayonlar va elektr texnik qurilma va mashinalarning bajaruvchi organlarini elektr dvigatellar tashkil etadi. Dunyoda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining taxminan 60% qismi asinxron elektr dvigatellarda mexanik energiyaga o‘zgartiladi. Asinxron dvigatellarning tuzilishi o‘zgarmas tok dvigatelleriga nisbatdan anchha sodda va narxi arzon.

Har yili yuqori kuchlanishli elektr qurilmalarning normal bolmagan rejimlari natiyjasida shikastlanishlarning 25-30 % elektr dvigatellariga tog‘ri keladi. Shikastlanishning asosiy tu’ri stator va rotor chulg‘amlarining izolyatsiyasining buzilishi bilan bog‘liq. Ko‘pshilik shikastlanishlarning 80-95 % stator chulg‘amlarining noto‘g‘ri oralishi shunan 70 % yetkazilgan shikastlanish faza va frontal qismlarda qolgan 25-30 % bolsa fazalarning bir-biriga tegip qolishi va izolyatsiyaning buzilishi hisoblanadi [1.2]. Sanoat karxonalarida, nasos stantsiyalarida yoki elektr stantsiyasining

o‘z ehtiyoj mexanizmlarida elektr dvigatellarning ishtan shiqishi mahsulotning yaroqsiz bolishi, ishab shiqarish jarayonining toqtab qolishi yoki energetika tizimining normal ishlashining buzilishi kabi og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkun. Shu kabi og‘ir oqibatlarning oldini olish va energetika tizimining normal rejimda ishlashini taminlash uchun releli himoya va avtomatikasini qollashni talab etadi.

Asinxron elektr dvigatellarning asosiy shikastlanish tu’rlari

- O‘ta yuklanish;
- Kuchlanishning pasayishi;
- Faza simining uzilishi, yoki bir fazaning yo‘qolishi;
- Dvigatel mexanik qismining shikastlanishi;
- Sinxron elektr dvigatellerining asinxron rejimi.

Elektr dvigatellerning fazalararo qisqa tutashuvdan releli himoyasi. Fazalar aro qisqa tutashuvdan himoyalash uchun tokli kesim va differentsial himoya ishlatiladi. 5000 kWt gacha bolgan dvigatelni himoyalash uchun tokli kesim tavsiya qilinadi (ilova 1). Agar tokli kesimning sezgirligi yetarli bo‘lmasa differentsial himoyadan foydalanish kerak. Differentsial himoyadan katta quvvatli dvigatellarda (3500-4000 kWt) foydalanish maxsadga muvofiq.

Tokli kesim

Elektr stantsiyalarning o‘z extiyojlari uchun quvvati 2000 kWt gacha bo‘lgan elektr dvigatellarida bir releli sxemasi 1.1 a-rasm. Quvvati 2000-4000 kWt bo‘lgan elektr dvigatellarida 1.1 b-rasm eki releli tokli kesim himoyasi qo‘llaniladi, agar bir releli sxemaning sezgirlik koeffitsienti 2 dan pa’st bo‘lsa quvvati 2000 kWt bo‘lgan elektr dvigatellar uchun tok kesimining eki releli sxemasidan foydalaniladi.

Tok kesimining ishlab ketish toki asinxron dvigatellarning yurgizish tokiga bog‘liq bo‘ladi.

$$I_{sz}=k_i*I_{pusk} \qquad (1.1)$$

bu yerda k_i-ishonshlilik koeffitsienti, rele va hisoblashlarda xatoliklarni hisobga oladi. I_{pusk}-elektr dvigatelning yurgizish toki.

Himoyaning sezgirligi tizimning minimal ish rejimida elektr dvigatelning kirishidagi 2 fazali qisqa tutashuv toki bilan baholanadi [2].



1- rasm. Tokli kesim sxemasi a - bir releli, b – eki releli

Asinxron elektr dvigatelning qisqa tutashuvdan releli himoyasini tanlash.

Qisqa tutashuv vaqitida elektr dvigatelning qisqa tutashuv bo‘lgan o‘rinda nominaldagidan bir qancha ko‘p tok oqadi shu sababli qisqa tutashuvdan himoya uchun asinxron elektr dvigatellarde maksimal tok himoyasi tanlanadi. Maksimal tokli himoya uchun ta’sir etuvchi kattalik himoya o‘rnatilgan yerdan oquvchi tok hisoblanadi. Quyidagi masalada asinxron elektr dvigatelning maksimal tokli himoyasini bajarish uchun tok relesining ishlash tokini aniqlaymiz. Buning uchun pasport malumotlari quydagicha bo`lgan asinxron elektr dvigatelni misol sifatida qaraymiz.

P_{nom}=630 kWt

U_{nom}=10 kV

N_{ts}=1500 ayl/min
η= 94,8 %
tsosφ= 0,9

Asinxron dvigatelning nominal tokini topib olamiz

$$I_{nom}=\frac{P_{nom}}{\sqrt{3}U_{nom}*cos\varphi*\eta}=\frac{630*10^3}{\sqrt{3}10*10^3*0{,}9*94{,}8}=42{,}65\ A$$

Asinxron dvigatelning releli himoyasiga tok transformatorni tanlaymiz va transformatorning transformatsiya koeffitsentini aniqlaymiz.Asinxron elektr dvigatelning nominal toki 42,65 A bo`lgani uchun unga (50) tok transformotori tanlandi, va tok transformotorining transformatsiya koeffitsienti quydagicha topiladi

$$\eta_{TA}=\frac{50}{5}$$

Himoyaning ichlash toki quydagicha topiladi

$$I_{qor.is}=\frac{K_{ixt}*K_{M.I.T}}{K_b}*I_{nom}=\frac{1{,}1*2}{0{,}62}*42{,}65=156{,}27\ A$$

bu yerda K_b tok relesining qaytish koeffitsienti hisoblanib u tok relesining turiga qarab tanlanadi

RT-80 (Induktsion rele) K_b=0,62
RT- 40 (Elektromexanik rele) K_b=0,82
RST-15 (Yarim o`tkazgichli rele) K_b=1

K_{ixt} - relening ehtiyot koeffitsienti, $K_{M.I.T}$ motorni ishga tushirish koeffitsienti.

Relening turini tanlab himoyaning ishlash toki tanlangannan so`ng tanlangan relening ishlash tokini aniqlaymiz.

$$I_{R.is}=K_{tsx}*\frac{I_{qor.is}}{\eta_{TA}}=1*\frac{156{,}27}{\frac{50}{5}}=15{,}6\ A$$

bu yerde K_{tsx} –sxema koeffitsienti hisoblanib rele qurilmasining tok transformotoriga ulanish sxemasiga qarab tanlanadi.

Yuldiz sxemasida ulansa K_{tsx}=1

To`liq bo`lmagan yuldiz sxemasida ulansa $K_{sx}=\sqrt{3}$ ga teng dep olinadi.

Chunday qilib bu misolda biz asinxron elektr dvigatelning qisqa tutashuvidan releli himoyasini ko`rib chiqtik va misol bo`yincha induktsion tok relesini tanladik , uni yuldiz sxemasida ulab relening ishlash tokini aniqladik [5].

Yuqoridagi misollarda maksimal tok himoyaning ishlash toki, sabir vaqti va sezgirlik koeffitsienti himoyaning aniqlanishii kerak bo`lgan parametrlari hisoblanadi. O`chirgish o`chirishga olib keladigan fazadagi birlamchi minimal tok himoyaning ishlash toki $\mathbf{I_{qor.is}}$ chu vaqtda relening chulg`amidan o`tadigan ikkilamchi tok relening ishlash toki $\mathbf{I_{R.is}}$ hisoblanadi. Himoyani dastlabki holatga qaytaruchi maksimal tok qaytish toki dep nomlanadi. Qaytish tokining ishlash tokiga nisbati relening qaytish koeffitsienti dep nomlanadi.

Kuchlanishi 10 kV bo`lgan asinxron elektr dvigatelning qisqa tutashuvdan releli himoyasining dasturiy tamiynoti va uning blok sxemasi.

Asinxron elektr dvigatellerni normal bo`lmagan ish rejimlariga himoyada qollaniladigan releli himoya qurilmalarini hisoblash va tanlash ishlarini asonlashtirish maqsadida kuchlanishi 10 kV elektr dvigatellerning maksimal tokdan va o`ta yuklanishdan releli himoyani hisoblash va tanlash imkoniyatini beruvchi dástúriy taminot ichlab chiqildi.

Bu dasturiy taminot asinxron elektr dvigatellarning normal bo`lmagan ish rejimi qisqa tutashuv vaqtida tok miqdorining nominalidan ortib ketishi natijasida ishlovchi maksimal tok relesini tanlash va o`ta yuklanishdan releli himoyaning nazariy va amaliy tadqiq qilishga asoslangan.

Dastur kuchlanishi 10 kV elektr dvigatellarning maksimal tok va o`ta yuklanishdan releli himoya vaqtida qatnashuvchi kattaliklar va parametrlarni ratsional hisoblash asosida, elektr motorlarning qisqa tutashuv vaqtidagi relelarning ishlash tokini hisoblash imkoniyatiga ega. 1.2-rasmda kuchlanishi 10 kV asinxron dvigatellerning maksimal tokli himoyasini hisoblash uchun

tuzilgan dasturiy tamiynotning blok sxemasi ko`rsatilgan. Bundan tashqari bu dasturiy tamiynotning phyton dasturlash tilida tuzilgan kodi keltirilgan (qochimsha 1).



2-rasm. Kuchlanishi 10 kV elektr dvigatellerning maksimal tokdan himoyasini hisoblash uchun tuzilgan dasturiy tamiynotning blok sxemasi

Qo‘shimcha 1

Kuchlanishi 10 kV elektr motorlarning maksimal tokdan himoyasini hisoblash uchun tuzilgan dasturiy tamiynotning python dasturlash tilidagi kodi.

```
Pn = int(input("Elektr motorning nominal quvvati: "))
Un = int(input("Elektr motorning nominal kuchlanishi : "))
alfa = float(input("Elektr motorning quvvat koeffitsenti : "))
eta = float(input("Elektr motorning foydali ish koeffitsenti : "))
In = (Pn*100)/(3**(1/2)*Un*alfa*eta)
```

```
if 32 <= In <= 56:
  print(f"Elektr motorning nominal tok: {In} ")
  Inn = 50
if 57 <= In <= 80:
  print(f"Elektr motorning nominal tok: {In} ")
  Inn = 75
if 81 <= In <= 100:
  print(f"Elektr motorning nominal tok: {In} ")
  Inn = 100
nTT = Inn/5
print("Tok transformotorining xisobiy transformatisya koeffitesenti:",nTT)
PT = int(input("Rele túrini tanlang\n "
    "1)PT-80(induktsion rele)Tok relesing qaytish koeffitesenti: 0.62\n "
    "2)PT-40(elektron magnit rele)Tok relesing qaytish koeffitesenti: 0.82\n"
    "3)PTST-15(yarim otkizgish rele)Tok relesing qaytish koeffitesenti: 1\n"))
if 1 == PT:
  Kv = 0.62
  print(f"PT-80(induktsion rele) Tok relesing qaytish koeffitesenti: {Kv}")
elif 2 == PT:
  Kv = 0.82
  print(f"PT-80(induktsion rele) Tok relesing qaytish koeffitesenti: {Kv}")
elif 3 == PT:
  Kv = 1
  print(f"PT-80(induktsion rele) Tok relesing qaytish koeffitesenti: {Kv}")
else:
  print("bunday manis joq")
print("Zaxira koeffitesenti: 1.05")
Kz = 1.05
Ix = (Kz/Kv)*In
print("Xisobiy tok: ",Ix)
SX = int(input(f"Sxema túrin tanlang:\n 1)yulduz sxema: sxema koeffitesenti = 1 \n 2)tuliq bolmagan yulduz sxema: sxema koeffitesenti = {3**(1/2)}\n"))
if 1 == SX:
  Ksx = 1
  print(f"PT-80(induktsion rele) Tok relesing qaytish koeffitesenti: {Ksx}")
elif 2 == SX:
  Ksx = 3**1/2
  print(f"PT-80(induktsion rele) Tok relesing qaytish koeffitesenti: {Ksx}")
else:
  print("bunday manis joq")
Ir = Ksx*Ix/nTT
print("Relening ishlash toki: ",Ir)
```

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Siddikov. I.X., Kasimaxunova A.M., Xujamatov. X.E.,Elektr taminoti tizimi releli himoya va avtomatika. O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2020. 467 b.
2. Копьев. В.Н., Релейная защита. Учебного пособия. Томск. 2011. 160 с. 134-140 с.
3. Reymov. K.M., Najimova A.M., Esenbekov. A.J., Releli himoya va avtomatika fanidan máruzalar matni Nukus 2018. 132 b.
4. Taslimov A.D., Mamarasulova T.S., Rismuxamedov D.L. Rele himoyasi. Kasb xunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2013 y.
5. Eshmuratov N. Q 10 kV kuchlanishli asinxron elektr dvigatellari va kompensatsiyalovchi uskunalarning releli himoyasi va avtomatikasi

6. Elektr qurılmalarının tuzilish qoidalari. (ПУЭ) DI O‘zenergonazorat, Toshkent 2007, 2011 y.

7. Грундулис. А. О Защита электродвигателей и сельском хозяйстве. Учеб. для вузов. М. Агропромиздат. 1988. 2-и-езд. 111с.

ELEKTR ENERGIYASI OLISHDAGI SUV ISROFI. CHEKKA HUDUDLARDA SUN’IY SUV HAVZALARI YORDAMIDA ELEKT ENERGIYASI OLISH MINI STANSIYALARI.

Ziyayev F.Ch., Termiz muhandislik – texnologiya instituti assistenti
Fayziyev X.A., Termiz muhandislik – texnologiya instituti talabasi

Annotatsiya: Elektr energiyasi sanoatida signing isrof bo‘lishini taxlil qilish. Chekka va tog‘li hududlarda sun'iy suv havzalari yonida mini stansiyalar qurish va suv isrofiga yo‘l qo‘ymay aholi punktlarini elektr energiyasi bilan taminlash. Kelajakda elektr energiyasi muammosiga barham berish.

Kalit so‘z: elekt, energiya, suv , stansiya, ekologiya, tejamkor, isrof, aholi, punkt, litr, sanoat, ko‘mir, quyosh, shamol.

Bilamizki bugungi kunda elektr energiyasini har bir hududlargacha yetkazish, elektr energiya ishlab chiqarishda ko‘pgina muammolarga duch kelyabmiz. Biz energiya olishda ko‘plab tabiiy omillardan foydalanamiz. Suv, shamol, quyosh, ko‘mir kabi omillardan elektr energiya olinishini barchamiz yaxshi bilamiz.

Ekologlar bugun dolzarb muammo bilan yuzlashmoqda-energiya ishlab chiqarishda suv sarfi, ayniqsa qurg‘oqchilik hukumron davlatlarda ancha muammolarga sabab bo‘lmoqda.



Hatto neft yoki muqobil energiya manbalariga ishlov berishda juda ko‘p suv sarflanadi. Energetika sektorida suv eng muhum vositalardan buri hisoblanadi. Amerikada 50 foiz elektr energiyasini ta'minlovchi ko‘mirni oling, konchilik mahsulotlarini tashish, jihozlarni sovitish, moylash va ta'mirlash uchun albatta suv zarur. Yadro zavodlarida elektrodlarni sovitish va trubinalarni ishga tushirish uchun aynan suv qo‘llaniladi. Bio yonilg‘i sohasida esa ekinni sug‘orish, fermentlash, etanol kabilarni ishlab chiqarishni ham suvsiz tasavvur etish qiyin.

Iqlimni kuzatuvchi «World Watch» instituti ilmiy hodimi Aleksandr Oks bunga qancha suv ketishini chamaladi. «Ko‘mirdan bir megavat energiya hosil qilish uchun 4 mingdan 8 ming litrgacha suv kerak bo‘ladi. Amerikani o‘zidagi barcha zavodlarni, bug‘ yordamida ishlovchi jamiki zavodlarni olsak 2020-yilda hammasi uchun triliand litr suv sarflagan. Bu bir yil uchun ketgan mahsulot hisoblanadi»-deydi u.

Suv yo‘qmi, energiyani barcha turi ham yo‘q deb hisoblash mumkin. Tan olishimiz kerakki muqobil energiya manbalari, jumladan quyosh panellari ham subga muhtoj axir. Texnikani sovitish tozalash ishlari ham bor. Bu ehtiyojlar natijasida Kaliforniya, Massachuset va boshqa shtatlarda ayrim GES, AESlar vaqtincha yopilgan. Havosi issiq, suv shundoq ham tanqis shtatlarda energiya ishlab chiqaruvchi bir necha zavod yopildi. Butun dunyo bo‘ylab shu muammosi yuzaga kelmoqda.

Devid Broun AQSH janubida ob-havo va atmosfera tozaligini kuzatuvchi dasturlarni yuritadi. Bu loyihalar natijasida iqlimdagi har qanday o‘zgarishlar qayd etib boriladi. Issiq hududlardagi jazirama oxirgi bir asrda eng og‘ir deb ko‘rilar ekan, bu energetika sanoatini ham to‘xtatib qo‘yishi aniq.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida joylashgan Tolimarjon IES stansiyasi

Energetika kompaniyalari suvdan tejab-tergab foydalanishga majbur bo‘lmoqda bugun. Ko‘mirni tozalovchi fabrika bo‘ladimi, tabiiy zahiralarni qazib olish bo‘ladimi, haqiqat bilan yuzlashishga majbur. Iqlim o‘zgarishda davom etgani sari kompaniyalar suv ham kamayib borishini tushunadi. Ekspertlar aytishi bo‘yicha yer yuzining Janubi-G‘arbiy hududlarida yaqin bir necha 10 yillarda suvga bo‘lgan talab yanada ortadi. Dunyoda qishloq xo‘jaligi ham energeyika sektori bilan deyarli bir xil suv iste'mol qiladi. Soni oshib borayotgan aholi, qishloq xo‘jaligi va energeyika sanoati tashnaligi kuchayib borar ekan, yechim topishimiz shart.

Yuqorida keltirilgan misollar ham bugun yurtimizdagi muammolardan buri xisoblanadi. Aytishimiz joizki biz O‘zbekistonning chekka va tog‘li hududlarida, aholi yashash punktlarini 100 foiz elektr energiyasini bilan taminlab bera olganimiz yoq. Taqdim etmoqchi bo‘lgan loyihamiz chekka hududlardagi aholi yashash punktlarida sun'iy suv havzalari orqali kam harj usulda elektr energiya olish va o‘sha hududlardagi aholini elektr energiyasi bilan taminlashdan iboratdir. Bu usul orqali suv isrofiga yo‘l qo‘yilmaydi. Loyiha mohiyati shundan iboratki ikkita generator parraklari yuqori va quyi qism orqali o‘rnatiladi. Suv quyi qisimdan bosim orqali yuqoriga chiqadi va yuqoridagi parrakni aylantiradi. Yuqoridagi parrak suvni quyi parrakga uzatadi. Generatordagi parraklar aylanishi tufayli elektr energiyasi hosil bo‘ladi. Tok mini stansiyada to‘planadi va aholiga uzatiladi. Bu jarayon muntazam davom etadi. Bu usul suvni isrof etmagan holda 500 tonna suvni muntazam aylantirish orqali yuz beradi. Bunkerdagi suv har 20 kunda almashtirib turiladi. Suvni almashtirish jarayonida chiqarilgan suv qishloq xo‘jaligi uchun haydaladi. Shu tarzda suv isrofiga yo‘l qo‘ymagan holda elektr energiyasi olishga erishish mumkin. Bu ko‘rinishdagi mini stansiyalar doimiy sun'iy suv havzalari yonida barpo etilishi shart. Bu mini stansiyalar ekalogik va tejamkorlik jihatidan juda qulay hisoblanadi. Biz bu mini stansiyalar orqali muntazam va tejamkor elektr energiyasi olish, chekka tog‘ hududida yashovchi aholi punktlarini muntazam energiya bilan taminlashga erishish mumkin.

Bu mini stansiyalar kelajakda elektr energiyasi muammosini bartaraf etishda oz bo‘lsada o‘z hissasini qo‘shadi degan umiddamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.uzbekistonmed.uz
2. www.xc.uz
3. www.serviceproekt.ru
4. Klebanov A.F. Tog‘-kon sanoati korxonalarining raqamli transformatsiyasi: moda frazeologiyasi yoki ob'ektiv zaruratmi? Mineral resurslarni kompleks rivojlantirish va saqlash muammolari va istiqbollari. – M.: IPKON RAN, 2018. – S. 61–65.

NASOS AGRIGATLARIDA QO‘LLANILADIGAN O‘ZGARUVCHAN TOK ELEKTR YURITMA TEZLIGINI DATCHIKSIZ ANIQLASH USULI

G‘affarov K.K., Buxoro muxandislik-texnologiya instituti assisenti.
komilgafforov@mail.ru
Imomova Z.B., Buxoro neft va gaz sanoati kolleji katta o‘qituvchisi
Gulruh Bafoyeva., Buxoro muxandislik-texnologiya instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asinxron dvigatelning tezligini datchiksiz aniqlash usullarni qarab chiqilgan. Bu usullarning murakkablik darajasi elektr yuritmani rostlash diapozoni talablari bilan va tezlikni o‘lchashning aniqliligiga qo‘yilgan talablar bilan aniqlandi. Maqolada tezlikni datchiksiz aniqlash sxemasini qurish prinsipi qo‘zg‘almas koordinata tizimida asinxron motorning vektorli matematik ifodalashga asoslangan.

Kalit so‘zlar. asinxron dvigatel, datchik, yuritma, chastota, invertor.

Elektr yuritmani yopiq tizimini qurish uchun motor tezligining haqiqiy qiymatini o‘lchash kerak bo‘ladi. Rostlash tizimining kirishida bu qiymat berilayotgan qiymat bilan solishtiriladi. Ko‘p hollarda tezlikni o‘lchash aylanuvchi tezlik datchiklari yordamida amalga oshiriladi. Bunday datchiklar elektron o‘zgartirish blogi bilan bog‘langan hamda motor valiga o‘rnatilgan qurilma bo‘lib, ular tezlikning mexanik qiymatlarni anologli yoki diskret elektr silnallarga aylantiradi[1,2,5,7].

Oxirgi o‘n yil mobaynida kuzatilayotgan o‘zgaruvchan elektr yuritmadagi aylanuvchi o‘zgartirgichlardan xoli bo‘lishga intilish tezlik datchiklariga ham etib keldi. Bu esa tezlikni datchiksiz o‘lchash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga olib keldi. Bu usullarda tezlikni o‘lchashboshqa maqsadlar uchun oson o‘lchanadigan elektr kattaliklardan foydalaniladi. Bunday kattaliklarga birinchi navbatda motor ta’minot olayotgan invertor chiqishidagi kuchlanish va stator toki hisoblanadi. Sxemotexnika nuqtai nazaridan bunday yondashish tizimning elektron qismini funksiya ko‘rinishda uzatishni bildiradi. Shu paytgacha bu vazifani aylanuvchi datchiklar bajargan. Bu esa tizimning murakkablashishiga olib keladi, lekin agar boshqarish tizimini mikroprotsessor asosida yaratish bunday murakkablashgan tizimli elektr yuritmani sezilarli qimmatlashishiga olib kelmaydi, buning ustiga yana bir foydali momentni hosil qilishimiz mumkin, ya’ni tezlik datchikini boshqarish tizimi bilan ulovchi simlarga hojat qolmaydi. Boshqarish tizimi motor va datchikdan ancha uzoq masofada turgan bo‘lishi mumkin.

Tezlikni datchiksiz aniqlash uchun turli xil usullarni amalga oshirish mumkin. Bu usullarning murakkablik darajasi elektr yuritmani rostlash diapozoni talablari bilan va tezlikni o‘lchashning aniqliligiga qo‘yilgan talablar bilan aniqlanadi[2,8,10]. Maqolada asinxron motorning tezligini aniqlash usullari besh guruhga bo‘lingan.

Birinchi guruhga tegishli bo‘lgan usul noadaptiv usullar bo‘lib, bu usullarda motor tezligi befosita o‘lchanayotgan kuchlanish va stator toki orqali aniqlanadi. Birinchi usulga tegishli yana bir usul sxemadagi manba kuchlanashi chastotasi va rotordagi EYUK ni hisoblash orqali tezlikni aniqlashga asoslangan. Ikkinchi guruhga tegishli usullar bu adaptiv usullardir. Ular elektr yuritma tezligini rostlashning yopiq tizimiga tegishli bo‘lib, ularda adaptatsiya o‘lchanayotgan tizimning aniqlilik darajasini oshirish uchun qo‘llanilgan. Uchinchi guruhga motor konstruksiyasining xususiyatlariga asoslangan usullar kiradi. Masalan motorning magnitlanish egri chiziqdan olinadigan ma’lumotlardan foydalanib tezlikni aniqlash. To‘rtinchi guruh – bu neytron zanjirlar nazaryasiga asoslangan nochiziqli usullar, va oxirgi beshinchi guruh – qo‘shimcha yuqori chastotali signallarni yoki boshqa qo‘shimcha ma’lumotlarni aniqlilik darajasini oshirish uchun qo‘llaniladigan guruhlar usulidir. [3,11,12,13,15]

Ushbu maqolamizda biz faqatgina bir muncha soddaroq bo‘lgan asinxron motorni matematik ifodalanishi shakllari asoslangan noadaptiv usullarni qarab chiqamiz.

Tezlikni datchiksiz aniqlash sxemasini qurish prinsipi qo‘zg‘almas koordinata tizimida asinxron motorning vektorli matematik ifodalashga asoslangan.Agar formulaga $\bar{I}_{2d-q} = \bar{I}_{2x-y}e^{-j\theta_2}, \bar{\Psi}_{2d-q} = \bar{\Psi}_{2x-y}e^{-j\theta_2}$ o‘zgartirishlar kiritib va dvigatelning burchak tezligi $d\theta_2/dt = p_n\omega\ rad/s$ ekanligini hisobga olsak, bunday ifodani

$\omega_{0el} = \frac{\psi_{2x} p\psi_{2y} - \psi_{2y} p\psi_{2x}}{\psi_{2x}^2 + \psi_{2y}^2}$. formuladan topib olishimiz mumkin. U holda *x-y* qo‘zg‘almas koordina tizimida qisqa tutashtirilagn asinxron dvigatelning tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\tilde{U}_{1x-y} = R_1 \tilde{I}_{1x-y} + \frac{d\tilde{\Psi}_{1x-y}}{dt}; \qquad (1)$$

$$0 = R_2 \tilde{I}_{2x-y} + \frac{d\tilde{\Psi}_{2x-y}}{dt} - jp_n \omega \tilde{\Psi}_{2x-y}; \qquad (2)$$

$$\tilde{\Psi}_{1x-y} = L_1 \tilde{I}_{1x-y} + L_m \tilde{I}_{2x-y}; \qquad (3)$$

$$\tilde{\Psi}_{2x-y} = L_m \tilde{I}_{1x-y} + L_2 \tilde{I}_{2x-y}; \qquad (4)$$

(2) tenglamada ω tezlikning mavjudligi uning qiymatini ikkita o‘zgaruvchan kattaliklar qiymatlari orqali topish imkonini beradi. Bundan tashqari tezlikning datchiksiz aniqlash yana uchta sxema varianti ko‘rib o‘tilgan: aylanuvchan; koordinata tizimida qo‘zg‘almas koordinata tizimida; qo‘zg‘almas vaaylanuvchan koorditnatatizimida[4,13,14,16].1-rasmga tasvirlangan birinchi variant sxemasini tahlil qilayotgan vaqtda birinchi navbatda (1), (2) va (3) ifodalarga bir qator o‘zgartirishlar kiritish kerak bo‘ladi,chunki (1) tenglamadan o‘lchash mumkin bo‘lmagan rotorning toki va oqim ilashuvlari vektorlarini chiqarib tashlab mumkin bo‘lsin[5]. Shu maqsadda (2) va (3) formuladan rotor tokining chiqarib tashlab, $\tilde{\Psi}_{2x-y}$ning qiymatini topish kerak:

$$\tilde{\Psi}_{2x-y} = \frac{L_2}{L_m}\left(\tilde{\Psi}_{1x-y} - \sigma L_1 \tilde{I}_{1x-y}\right), \qquad (5)$$

bu yerda σ- dvigatelning sochilish koeffitsienti.

Bu tenglamani differensiallab quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{d\tilde{\Psi}_{2x-y}}{dt} = \frac{L_2}{L_m}\left(\frac{d\tilde{\Psi}_{1x-y}}{dt} - \sigma L_1 \frac{d\tilde{I}_{1x-y}}{dt}\right).$$

Bu ifodaga (1) ifodadan stator oqim ilashuvini uchun topilgan ifodani qo‘yib

$$\frac{d\tilde{\Psi}_{1x-y}}{dt} = \tilde{U}_{1x-y} - R_1 \tilde{I}_{1x-y},$$

(1) formulaning o‘ng qismidagi ikkinchi qo‘shiluvchi uchun ifodani aniqlaymiz:

$$\frac{d\tilde{\Psi}_{2x-y}}{dt} = \frac{L_2}{L_m}\left(\tilde{U}_{1x-y} - R_1 \tilde{I}_{1x-y} - \sigma L_1 \frac{d\tilde{I}_{1x-y}}{dt}\right). \qquad (6)$$

(1) tenglamaga kiruvchi rotor tokining vektorini (2) formulaga asosan stator toki va oqim ilashuvi orqali ifodalash mumkin:

$$\tilde{I}_{2x-y} = \frac{\Psi_{1x-y}}{L_m} - \frac{L_1}{L_m}\tilde{I}_{1x-y}. \qquad (7)$$

(5), (6) va (7) ifodalarning (1) formulaga qo‘yib, tenglamaning hamma qismini $L_m$ga ko‘paytirib, L_2 ga bo‘lib va qo‘shiluvchi hadlarni guruhlab yangi ifodaga ega bo‘lamizki, qaysikim bu ifodada faqatgina o‘lchash mumkin bo‘lgan kattaliklarning fazoviy vektorlari kiradi.

$$\tilde{U}_{1x-y} - \left(\frac{L_1}{T_2} + R_1 \tilde{I}_{1x-y}\right) - \sigma L_1 \frac{d\tilde{I}_{1x-y}}{dt} =$$
$$-\frac{1}{T_2}\tilde{\Psi}_{1x-y} + j\omega p_n\left(\tilde{\Psi}_{1x-y} - \sigma L_1 \tilde{I}_{1x-y}\right). \qquad (8)$$

Tenglamaning chap qismini qo‘zg‘almas koordinata tizimi o‘qidagi stator kuchlanishi va toki vektorlarining proeksiyasi ko‘rinishda ko‘rinishda yozish mumkin:

$$u_{1x} - (L_1/T_2 + R_1)i_{1x} - \sigma L_1 p i_{1x} = u'_{1x};$$
$$u_{1y} - (L_1/T_2 + R_1)i_{1y} - \sigma L_1 p i_{1y} = u'_{1y},$$

bu yerda u_{1x}, u_{1y}- 1,a-rasmda tasvirlangan sxema uchun hisoblanadigan o‘zgaruvchilar. Keyingi qadam sinxron tezlik bilan aylanadigan α-β koorinata tizimiga o‘tish hisoblanadi. Buning uchun u'_{1x} va u'_{1y} kattaliklarga $e^{-j\theta_c}$o‘zgaruvchan funksiya kiritilishi kerak. Hisoblangan $\hat{\psi}_{1x}$va $\hat{\psi}_{1y}$stator oqim ilashuvi vektorining proeksiyasi orqali joriy θ_s burchak qiymatini hisoblash 1,*b*-rasmda ko‘rsatilgan oqim modeli orqali amalga oshiriladi. $\omega = (\omega_{0el} - \omega_p)/p_n$. tenglamaning o‘ng qismini α-β koorinata tizimiga o‘tkazishda va α o‘qni stator oqim ilashuvi vektori yo‘nalishi

bo'yicha yo'naltirib, ya'ni faraz qilaylikki $\tilde{\Psi}_1 = |\tilde{\Psi}_1|$,demakki $\psi_{1y} = 0$, hamda tenglamani haqiqiy va mavhum qismlarga ajratib (8) ifodani quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

$$u'_{1\alpha} = -\frac{1}{T_2}|\tilde{\Psi}_1| + \sigma\omega p_n L_1 i_{1\beta};$$

$$u'_{1\beta} = \omega p_n\left(|\tilde{\Psi}_1| - \sigma L_1 i_{1\alpha}\right).$$

Ushbu tenglamalarning ikkichisi asosida dvigatelning tezligi hisoblanadi

$$\omega = \frac{u'_{1\beta}}{p_n\left(|\tilde{\Psi}_1| - \sigma L_1 i_{1\alpha}\right)}.$$



1-rasm. Aylanuvchi koordinata tizimida asinxron dvigatelli elektr yuritmaning tezligini datchiksiz aniqlash:

a-strukturasi; *b*-oqim modeli sxemasi

Foydalangan adabiyotlar:

1. Leznov B.S. Characteristics of branched pipelines with intermediate water withdrawals // Water supply and sanitary equipment. 2007, No. 12.

2. Islom Khafizov, Komil Gafforov, Muxammedov Sh., Jurakulov A Energy saving when using a variable frequency drive in pump installations, Journal of Critical Reviews, ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 12, 2020, P.99-102, http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.16

3. Khafizov I.I., Komil Gafforov, Bakhodir Oblokulov, Aziz Azimov Elimination of energy losses in pumping installations by means variable frequency drive, International Engineering Journal For Research & Development, Vol.5, Issue 3, April 2020, E-ISSN NO:-2349-0721, Impact factor : 6.03.P.83-89, http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/17/5

4. Khafizov I.I.,Khaitov B.B. The investigation of ions implantation processes into a single-crystal GaAs(001) in order to increase the efficiency of the solar cells, MODERN SCIENCE International scientific journal №02, 2017, Founder and publisher: “Strategic Studies Instituti” LLC., Moscow, 2017, P.43-46

5. Khafizov I.I., GafforovK.K. Application and prospects of variable frequency means in electric drives of pumping units, Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА» (ISSN 2658-7998, договровсElibrary №284-07/2019), 15.11.2020

6. Khafizov I.I., Xafizov X.I. Modeling the introduction of ions into single-crystal gaas (001) to create p-n junctions in order to increase the efficiency of solar cells, МОЛОДЕЖНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ, Сборникстатей II Международного научно-исследовательского конкурса, состоявшегося 11 января 2021 г. вг. Петрозаводске, ст.105-111

7. Juraev M.Q, Muzaffarov F.F, Rustamov S.Sh “Transparent Surface Lens Of Low-Temperature Solar Devices” The American Journal of Applied Sciences, 2 (10), 145-149. https://usajournalshub.com/index.php/tajas/article/view/1297

8. K.K.Gafforov, M.U.Rakhmatova, Sh.N.Sharipov “Three-phase corrective analysis of automatic control of pumping systems”, Priority directions of innovative activity in the industry (international conference). Kazan. 2020.

9. Islom Khafizov, Bobokul Shaymatov, Komil Gafforov, Orzuqul Bozorov “Elimination of energy losses in pump units and increase of power efficiency by means of the tool of control of speed”, Innavative Technologica: Metdhodical Research Journal.Vol 2. №05 (2021) https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/49

10. Islom Khafizov, Komil Gafforov, Bahodir Yormamatov “Mathematical Analysis of Electric Power Replacement Schemes of Weaving Machines”, European journal of life safety and stability (EJLSS). ISSN 2660-9630. Volume 12, 2021. http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/283

11. Islom Khafizov, Komil Gafforov, Bektosh Miyliyev. “Advantages of using a variable speed drive in pumping units” Journal of education discoveries and lifelong learning.ISSN: 2776-0995 Volume 2, Issue 5, May, 2021https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/67

12. Islom Khafizov, Komil Gafforov, Zilola Imomova. “Analysis of Pump Agrigarts Electric Power Control Elements in the Supply of Multi-Storey Houses Water Supply”, International journal on economics, finance and sustainable development. Vol.3 No.12(2020). https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/2520

КИЧИК ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ УЧУН ЭНЕРГОТЕЖАМКОР ДОН МАЙДАЛАГИЧ ҚУРИЛМА ИШЛАБ ЧИҚИШ БЎЙИЧА ИЗЛАНИШЛАР

Шамаев Й. (ТМТИ) Қаршиев (ТерДУ) Ф.

Кириш

Ўзбекистонда чорвачилик асосан кичик хўжаликларда йўлга қўйилган бўлиб, улар умумий маҳсулотнинг 80 фоиздан кўпроғини ишлаб чиқаради. Бундан ташқари қишлоқ жойларда яшайдиган аҳоли хонадонларида товуқ, курка, ўрдак, бедана ва бошқа паррандалар ҳамда балиқ боқиб, ўзини-ўзи гўшт ва тухум билан таъминлашга қаратилган кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда [1]. Бу озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда муҳим рол ўйнаяпти. Кичик хўжаликларда чорвачилик, паррандачилик ва балиқчиликни йўлга қўйиш билан бир пайтда уларда озуқага бўлган талаб ҳам ортмоқда.

Ҳозирда чорва молларини боқишда фойдаланилаётган асосий озуқалардан бири бу донли озуқалар бўляпти. Донли озуқалар сифатида асосан буғдой, арпа ва маккажўхори ва

соя дони ишлатиляпти. Натижада кичик хўжаликларда донларни майдалаб берадиган қурилмаларга ҳам талаб пайдо бўляпти. Шуни ҳисобга олиб биз кичик хўжаликлар учун энергия ва металл сарфи кам, тузилиши содда ва фойдаланиш қулай бўлган дон майдалагич қурилмани ишлаб чиқиш бўйича изланишлар олиб бордик.

Асосий қисм

Статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистонда жами йирик шохли қорамолларнинг 93,4 фоизи кичик, яъни деҳқон ёки уй хўжаликларига, 5,4 фоизга ўртача, яъни фермер хўжаликларига, 155,0 минг боши ёки 1,2 фоизга яқини йирик хўжаликларга тўғри келяпти. Жами қўй ва эчкиларнинг эса 84,0 фоизи деҳқон ёки шахсий уй хўжаликлари ҳиссасига, 11,8 фоизи фермер хўжаликлари ҳиссасига ва 4,2 фоизи йирик турдаги хўжаликларга тўғри келади. Бундан кўриниб турибдики, чорва молларининг 85-90 фоизи кичик хўжаликларда боқилмоқда. Аммо уларда озуқа тайёрлашда қўлланиладиган энергия-ресурстежамкор дон майдалагичлар йўқ.

Шуни ҳисобга олиб биз мавжуд дон майдалагич қурилмаларни таҳлил этиб [2, 3], кичик хўжаликлар учун донларни майдалашда ишлатиладиган кичик дон майдалагич қурилманинг схематик ва 3-D кўринишини ишлаб чиқдик (расм).



а) схематик кўриниши



б) 3-D кўриниши

Дон майдалагичнинг технологик ва 3-D схемаси

Ишлаб чиқилган қурилма дон бункери 1, меъёрлаш нови 2, майдалаш камераси 3, болғачали пропеллер 4, майдаланган донли озуқа чиқиш нови 5 дан иборат (расм). Қурилма иш жараёнида донлар бункер 1 га солиниб, меъёрлаб узатиш нови 2 орқали улар бир меъёрда майдалаш камера 3 га ташлаб берилади. Майдалаш камерасида донлар пропеллер 4 га маҳкамланган болғачалар ёрдамида майдаланади ва майдаланган дон майдалаш камераси пастки қисмида ўрнатилган элакдан ўтиб, чиқиш нови 5 орқали идишга тушади (1-расм). Дон майдалагич электродвигателдан ҳаракат олиб ишлайди.

Дон майдалагичнинг юқоридаги технологик схемаси ва 3-D кўриниши бўйича унинг натурал нусхаси ясалди. Қурилманинг баландлиги 1170 мм, узунлиги 500 мм ва эни 700 мм ни ташкил этади (жадвалга қаранг).

Жадвал. Дон майдалагич қурилманинг техник тавсифи

№	**Кўрсаткичларнинг номланиши**	**Кўрсаткичнинг ўлчов бирлиги**	**Кўрсаткичнинг қиймати**
1	Қурилманинг габарит ўлчамлари: - баландлиги - узунлиги - кенглиги	мм	 1170 500 700
2	Массаси	кг	45 ± 3
3	Тармоқдан оладиган қуввати	kW	1

Қурилмани ясашда унинг металл сарфи ва материал сарфининг кам бўлишига максимал эътибор қаратилганлиги сабабли оғирлиги 45 кг бўлди. Бу кўрсаткич бошқа дон майдалагич

қурилмалар билан солиштирганда 1,5 – 2 мартага кам. Шунингдек унинг энергия сарфи ҳам унчалик юқори эмас ва 1 kW лик электродвигатель билан ҳаракатга келади.

Бу эса унинг конструкциясининг ихчам, металл сарфининг кам ва энергиятежамкор эканлигини кўрсатади ва ундан кичик хўжаликларда фойдаланиш етарлича самара беради.

Хулоса. Ўзбекистонда чорва молларининг 85-90 фоизи кичик хўжаликларда боқилмоқда. Аммо уларда озуқа тайёрлашда қўлланиладиган энергия-ресурстежамкор дон майдалагичлар йўқлиги сабабли донли озуқаларни тайёрлашда қийинчиликлар мавжуд. Шуни ҳисобга олиб кичик чорвачилик хўжаликлари учун болғачали пропеллерга эга майдалагич қурилма ишлаб чиқилди. Қурилма баландлиги 1170 мм, узунлиги 500 мм ва эни 700 мм га тенг бўлиб, ихчам ҳисобланади. Шунингдек унинг оғирлиги 45 кг ни, энергия сарфи 1 kW ни ташкил этиб, унинг металл ва энергия сарфи камлигини кўрсатади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022-2026 йилларга мўлжалланган дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-120-сонли Қарори.

2. Тожибоев Б.М., Алижонов Д.А. Чорвачиликда озуқа тайёрлаш ва сақлаш жараёнларини механизациялаштириш: – Т.: «Iqtisod-Moliya», 2016. -176 б.

3. Тимофеев М.Н., Фролов В.Ю., Морозова Н.Ю. Анализ технических средств для измельчения кормов и их классификация // Научный журнал КубГАУ, №132(08), 2017. С.1-26.

ТЎПОЛАНГ ГЭС ИШИ САМАРАДОРЛИГИНИ ЯНАДА ОШИРИШ

Шайманов Махам Раимович
Термиз муҳандислик –технология институти катта ўқитувчиси

Аннотация: Бугунги кунда истеъмол қилинувчи энергиянинг ортиши энергиянинг янги янада самарали турларидан фойдаланишни талаб этмоқда.

Инсоният жамияти ва унинг ютуқлари тараққиёти бевосита ишлаб чиқариш даражаси ва кишилар ҳаёти учун зарур моддий шароитларни яратиш билан боғликдир.

Калит сўзлар: Гидроэлектр станциялари**,** гидравлик иншоотлар, электр тармоқларининг ишончлилиги, машина, истеъмол қилинувчи,энергия, сув, механик ҳосил, бўлувчи,

Гидроэлектр станциялари (ГЭС) ҳали ҳам замонавий энергия тизимларида муҳим ўрин тутади, унинг параметрларини стационар бўлмаган режимларда тартибга солишда, шунингдек юклама жадвалларининг энг нотекис қисмини қоплашда асосий рол ўйнайди. Бундан ташқари, ГЭС ишлаб чиқараётган электр энергияси маҳсулотларининг паст баҳоси тижорат бозорида электр энергиясини нархлаш учун жуда ижобий таъсир кўрсатади.

Асосий воситаларнинг эскириши гидроэлектр станцияларида нафақат асосий гидравлик электр ва электр ускуналарини, балки гидравлик иншоотларни (ГИ) ҳам таъмирлаш керак бўлади.

Бу ҳолатлар бозор муҳити томонидан иссиқлик электр станциялари (ИЭС) учун органик ёқилғи билан таъминланиб, унинг нархи ўсишда давом этади ва захиралар яроқсиз ҳолга келади. Шунинг учун қайта тикланадиган манба. дарё энергетикаси гидроэлектростанцияларни қуриш орқали электр тизимларида салоҳият ўсишини режалаштиришда тобора эътиборни тортади. Биринчидан, кичик ва ўрта гидроэлектростанциялар, сўнгра йирик гидроэлектростанциялар қуришга устунлик берилади. Айниқса, кичик ва ўрта гидроэлектростанциялар қурилишида ишлаб чиқариш иқтисодиёти, шунингдек, ГИ қурилиши, ускуналарни ўрнатиш ва ишга тушириш зарур бўлади. гидроэлектр станциялари ва электр тармоқларининг ишончлилиги ва хавфсизлигини таъминлаш муаммолари пайдо бўлади.

Гидроэлектр станциялари мураккаб табиий ва техник мажмуалардир. Уларни лойиҳалаш, қуриш ва ишлатиш умумий техник ва махсус фанларнинг кенг доираси билан танишишни талаб қилади.

Ушбу муаоммаларни ҳал қилиш ҳамда Сурхондарё вилояти саноат корхоналари ва аҳоли истеъмолчиларини сифатли ва узлуксиз электр энергияси билан таъминлаш мақсадида Узбекистон республикаси президентининг № ПП-311 қарори қабул қилинди. Қарорга мувофиқ Сурхондарё вилояти Сариосиё тумани худудидаги Тўполанг сув омбори қошида Тўполанг ГЭС қурилиши кўрсатилган

Тўполанг сув омбори қошида Тўпаланг ГЭС қурилиши Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 1993 йил 22 ноябрдаги № 437-Ф сонли фармоишига асосан «Гидропроект» ОАЖ томонидан лойиҳалаштирилган. Туполанг ГЭС нинг лойиҳа бўйича умумий қуввати 175 мВт ташкил этади.

1993 йил 23-ноябрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан ушбу лойихаси тасдиқланган. Ундаги курсатгичлар куйидагича:

2 та катта агрегат -72,5 МВТ
2 та кичик агрегат -15 МВТ
Жами: -175 МВТ

Ўртача йиллик ишлаб чиқариш 514 млн. кВт/соат ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Энергетика Вазирлиги Режалаштириш бўлими “Водпроект” экспертиза бўлими томонидан 1992 йил 12-октябрда ГЭС қурилиши лойихаси тасдиқланган.

Ўзбекистон Республикаси Мелиорация ва Сув хўжалиги Вазирлигининг 1994 йил 19-августидаги топшириғи бўйича ТЭХ (ТЭР) Тўполанг сув омбори қошидаги Тўполанг ГЭСнинг биринчи навбати қурилишига кўрсатма берилди.

ТЭХ (ТЭР) бўйича алоҳида ГЭСнинг биринчи навбати Гидроагрегатларининг ҳар бирининг қувват эффектлиги 8,27 МВТни ташкил этилади. Тўпаланг сув омбори қошида гидроэлектростанция қурилиши 1994 йил бошланган.

Ўзбекистон республикаси президентининг № ПП-311 қарорига муофиқ:

Тўпаланг гидроэлектростанцияси биринчи навбати 2 та қуввати 15 мВтдан бўлган гидрогенераторлари 27 июнь 2006 йил ишга туширилди.Лойиҳа бўйича ўртача йиллик ишлаб чиқариш 63,3 млн кВт/с ташкил қилади.

№	Йиллар	Ишлаб чиқарилган электр энергияси (квт/с.)	Иш мавсуми
1	2006	29.6	
2	2007	61.69	14.02-22.10
3	2008	50.9	11.02-02.08
4	2009	84.15	27.02-14.11
5	2010	78.0	21.01-14.117
6	2011	78.04	12.03-31.12
7	2012	72.64	20.01-24.10
8	2013	73.51	11.01-23.10
9	2014	77.84	01.01-23.10
10	2015	81.73	09.03-18.10
11	2016	93.45	17.03-22.10
12	2017	102.9	01.04-05.11
13	2018	86.12	14.03-09.11
14	2019	48.0	24.03-31.12
15	2020	96.7	15.01-25.11
16	2021	98.3	08.01-29.12

Қуввати 15 мВт бўлган 2 та гидроагрегат хозирги кунда ўртача хар бири 8 мВт дан 16 мВт электр энергияси ишлаб чиқармоқда.

Жами бўлиб 2022 йилга қадар 1218.57 млн. кВт/соат электр энергияси ишлаб чиқарилди.

Тўпаланг ГЭС гидрогенераторларининг асосий кўрсаткичлари.

Кўрсатгичлар	**Ўлчов бирлиги**	**Лойиҳа бўйича**	**1-пусковой комплекс**
Сув омборининг энг юқори нуқтаси	**м**	960,0	888,0
Ўрнатилган қувват	**мВт**	175,0	30,0
Мавжуд қувват	**мВт**	--	16,5
Ҳисобланган сув сарфи	**$М^3$ /с**	137,0	20,2
Энг юқори босим	**м**	170	95
Ҳисобланган босим	**м**	145	78
Энг кам босим	**м**	92	60
Ўртача босим	**м**	156	--
Кўп йиллик ўртача ишлаб чиқариш	**Млн. кВт/с**	514,0	63,3
Агрегатлар сони	**дона**	2х72,5 +2х15 мВт	2х15 мВт

1 пусковой комплекс бўйича ишлаб чиқарилаётган электроэнергия ҳар бир гидрогенераторда 4,0—8,25 мВт ташкил этмоқда, бунга сабаб ГЭСни сув қувури Сув омборининг асосий сув чиқариш тизимига уланган. Сув чиқариш иншоатидан сув сарфи кўпайиши билан ГЭС гидротурбиналарида босим камаяди ва қувват тушади.

Электроэнергия ишлаб чиқаришни лойиҳа кўрсатгичига эришиш учун қуйидаги техник муаммоларни ҳал этиш керак.

1. Сув омборида лойиҳа бўйича қурилган санитар сув чиқариш иншоатини ишга тушириш керак.
2. Сув омбор ҳажмини лойиҳа кўрсатгичларига етказиб ГЭСни сув билан таъминловчи қувурни қурилишини ниҳоясига етказиш керак бўлади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йи 18 январдаги №22-сонли қарори (Електр ва иссиқлик енергиясидан фойдаланиш қоидалари)
2. Реактив қувватни компенсацияси бўйича ишларни ташкил етиш тартиби тўғрисидаги низом.
3. Электротехнический справочник (1.2.3 книги)
4. “Справочник по электрическим установкам высокого напряжения” (Москва Энергия-1981 г.)
5. “Справочник по Электроснабжению промышленных предприятий “ (Москва Энергия-1986 г.)

РЕАКТИВ ҚУВВАТНИ КОМПЕНСАЦИЯ ҚИЛИШ ҲИСОБИГА ЭНЕРГИЯНИ ТЕЖАШ

Шайманов Махам Раимович катта ўқитувчи,
Абдулазизов Бозорқул Бобоқулович ассистент.
Термиз мухандислик-технология институти.
maxamshaymanov@gmail.com, ***+998936371881***

Саноат корхоналарининг электр таъминотини лойиҳалаштиришда кўриладиган асосий масалалардан бири – бу реактив қувватни компенсация қилишдир. Корхонанинг реактив қувват коефициенти қандай бўлишлигини энергосистема ҳал қилади, чунки реактив қувватни компенсациялаш масаласи тўғри ечилганда истеъмолчилар, линиялар, электр таркатувчи қурилмалар, трансформаторлар, ўзгартгичлар ва генераторларни ўз ичига олган тизим ишининг эффективлиги таъминланади.

Линия ва трансформаторлардан реактив қувват ўтиши натижасида қўшимча актив қувват ва энергия нобудгарчили содир бўлади. Агар P қаршиликга эга бўлган линия орқали P ва Q қувватлари узатилса, актив қувват нобудгарчилиги қуйидагича аниқланади:

$$\Delta P = I^2 R = \left(\frac{S}{U}\right)^2 R = \frac{P^2 + R^2}{U^2} R = \frac{P^2}{U^2} R + \frac{Q^2}{U^2} R = \Delta P_a + P_P$$

Демак, реактив қувватни линиядан узатиши натижасида қўшимча актив қувват нобудгарчилиги ($\Delta P_p = \frac{Q^2}{U^2} R$) содир бўлиб, унинг қиймати Q нинг квадратига тўғри пропорсионалдир. Шунинг учун электр станциялари генераторларидан истеъмолчиларга реактив қувват узатиш мақсадга мувофиқ эмас.

Бизга маълумки, система генератори актив қувват билан биргаликда, генераторнинг tgφ – реактив қувват коэффициентига боғлиқ равишда маълум миқдордаги реактив қувват ҳам ишлаб чиқаради. Саноат корхоналарининг технологик жараёнини таҳлили шуни кўрсатадики, корхоналардаги асосий куч истеъмолчиларини асинхрон двигателлар ташкил этади. Айнан асинхрон двигателлар реактив қувватнинг асосий истеъмолчилари, яъни умумий ишлаб чиқарилган реактив қувватнинг 60-65%ини истеъмол қилувчилари ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб, саноат корхоналарида реактив қувват актив қувватга нисбатан 20-30%га кўп истеъмол қилинади. Шу ўринда, электр тармоқларидаги исрофлар ифодаларини таҳлил қиладиган бўлсак:

$$\Delta P = \frac{P^2 + Q^2}{U^2} R;$$

$$\Delta Q = \frac{P^2 + Q^2}{U^2} X;$$

$$\Delta U = \frac{PR + QX}{U}.$$

Юқоридаги актив ва реактив қувват, кучланиш исрофлари ифодаларидан кўриниб турибдики реактив қувват исрофларга тўғри пропорционал. Яъни, электр тармоқлари орқали қанча кўп реактив қувват истеъмолчига узатилса, тармоқлардаги исрофлар миқдори ҳам шунча кўп бўлади. Бу эса техник-иқтисодий кўрсаткичларнинг ёмонлашувига олиб келади. Реактив қувватни линия ва трансформаторлар орқали узатиш электр энергиясини қўшимча нобудгарчилигига, кучланиш йўқотувини ошишига ва таъминот тизимига кетадиган ҳаражатларни ортишига олиб келади. Шу мақсадда реактив қувватни истеъмолчиларга яқин жойда ишлаб чиқариш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бунда реактив қувват ишлаб чиқарувчи махсус қурилмалардан фойдаланилади.

Юқорида келтирилган мулоҳазалар қуйидаги мисол ёрдамида тушунтириб ўтилади. Бунда икки ҳолат кўриб чиқилади.

Биринчи ҳолатда истеъмолчига зарур бўлган реактив қувват тўғридан-тўғри энерготизимдан узатилади.

Иккинчи ҳолатда истеъмолчи учун зарур бўлган реактив қувват истеъмолчининг ўзида ишлаб чиқарилади. Икки ҳолат таққосланиши натижасида реактив қувватни компенсациялаш масаласининг энергия тежамкорлигидаги долзарблиги ва унинг техник-иқтисодий кўрсаткичларга таъсири аниқланади.

1-ҳолат. Истеъмолчига зарур бўлган реактив қувват миқдори энерготизимдан узатилади. Истеъмолчининг актив қувватга талаби 500 кВт, реактив қувватга бўлган талаби 450 кВАР деб олинади.

$$S=P+jQ=500+j450$$

Бу қувватнинг линия ва трансформаторлардаги исрофларини ҳисобга олиб, электр станция генераторидан 600 кВт актив қувват, 550 кВАР реактив қувват узатилади.

Демак, S=P+jQ=500+j550 миқдордаги қувватни линия ва трансформаторлар орқали ўтказиш учун, шу қувватни ўтказадиган трансформаторлар, ҳаво ва кабел линиялари ҳамда коммутацион аппаратлар танланиши керак.

2-ҳолат. Истеъмолчига зарур бўлган реактив қувват миқдори истеъмолчининг ўзида ишлаб чиқарилади. Бунда ҳам 1-ҳолатдаги каби истеъмолчининг актив қувватга талаби 500 кВт, реактив қувватга бўлган талаби 450 кВАР деб олинади. Фақатгина 450 кВАР реактив

қувват энерготизимдан узатилмайди. Бу қувват махсус компенсация қурилмалари ёрдамида истеъмолчининг ўзида ишлаб чиқарилади. Бунда қувватларнинг линия ва трансформаторлардаги исрофларини ҳисобга олиб, станция генераторидан 600 кВт актив қувват, 100 кВАР реактив қувват узатилишини кўриш мумкин.

Демак, биз S=P+jQ=600+j100 миқдордаги қувватни линия ва трансформаторлар орқали ўтказиш учун, шу қувватни ўтказадиган трансформатолар, ҳаво ва кабел линиялари ҳамда коммутацион аппаратларни танлашимиз керак.

Хулоса

Хулоса сифатида, икки ҳолат таққослаш таҳлилидан: биринчи ҳолатдаги S=P+jQ=600+j550 қувватни узатиш учун иккинчи ҳолатдаги S=P+jQ=600+j100 қувватга нисбатан катта сарф ҳаражатлар амалга оширилади. Бу бевосита катта қувватдаги куч трансформаторларнинг танланиши, ҳаво ва кабел линиялари кесим юзаларининг катталашиши билан характерланади. Бу кўрсаткичлар тизимнинг иқтисодий кўрсаткичларини ёмонлаштирса, юқоридаги исроф ифодаларига биринчи ва иккинчи ҳолатдаги қувватлар қийматларини қўйиб ҳисоблаш натижасида исрофлар миқдори орасидаги фарқнинг сезиларли даражада бўлиши, тизимнинг техник кўрсаткичларининг ёмонлашишини ифодалайди.

Реактив қувват истеъмолчилари асосан асинхрон юритгичлар, трансформаторлар ва вентилли ўзгартгичлар бўлганлиги учун қуйидаги масалаларни тўла кўриб чиқиш керак:

-Кам юкланган юритгичларни кичик қувватлилиги билан алмаштириш;

-Систематик равишда кам юклама билан ишлайдиган юритгичларни кучланишларини камайтириш;

-Юритгичлар ва пайвандлаш трансформаторининг салт иш режимларига чеклаш;

-Технологик жараёнга салбий таъсир булмаган холларда, асинхрон юритгичларни синхрон юритгичлар билан алмаштириш;

-Вентил ўзгарткичнинг энг маъқул бўлган схемасини ишлатиш

- Кам юкламани асинхрон юритгичларини керакли кичик қувватлилиги билан алмаштириш

Бу тадбирлар истеъмол қилинадиган реактив қувват миқдорини камайишига олиб келиши табиийдир. Давлат томонидан энергия истеъмолини назорат қилувчи ташкилот ходимларининг ҳисоб-китобларини кўрсатишича, агар электр юритгичнинг юкламаси унинг номинал миқдорининг 45% дан кичик бўлса, уни кам қувватлилиги билан алмаштириш иқтисодий фойда беради. Агар юритгичнинг юкланиши 70% дан ортиқ бўлса уни кам қувватлиги билан алмаштириш зарур эмас. Юритгичнинг юкланиши 45% дан 75% оралигида бўлганда уни алмаштириш масаласи техник-иқсодий кўрсатгичларни таҳлили асосида ҳал қилиниши керак.

Агар кам юкланган асинхрон юритгични алмаштириш имконияти бўлмаса уни кириш қисмидаги кучланишни камайтириш имкониятини қидириш керак. Маълумки, юритгичнинг киришидаги кучланиш жоиз миқдоргача пасайтирилса магнитланиш токининг камайиш ҳисобига истеъмол қилинаётган реактив қувват озаяди ва нобудгарчилик камайиб, ФИК ортади. Эксплуатация жараёнида кам юкламали асинрон юритгичларни кучланишини камайтириш учун қуйидаги усуллар ишлатилади:

1. Статор чулғамларини учбурчакдан юлдуз схемасига ўтказиш;
2. Статор чулғамларини секциялаш;
3. Пасайтирувчи трансформатор чулғамларининг шаҳобчаларини алмаштириб кучланишни миқдорини камайтириш.

Кўп технологик жараёнларда асинхрон юритгичларнинг салт ишлаши бутун иш вақтининг 50-65% ташкил этади. Салт иш режимида юритгич фойдали иш бажармасдан катта миқдорда реактив қувват истеъмол қилади. Агар юритгичнинг номинал қувват коефициенти $\cos\varphi_н$ =0,91÷0,93 атрофида бўлса, салт иш режимида истеъмол қилинадиган реактив қувват номинал режимдагига нисбатан 50% ташкил этади. Шунинг учун бундай режим вақтида истеъмолчини тормоқдан узиб куйиш реактив қувват истеъмолини

камайтиради.

Айрим ҳолларда кам юкланган трансформаторларни тармоқдан узиб қўйиш ёки 30% гача юклама билан ишлаётган трансформаторларни кам қувватлиги билан алмаштириш реактив қувват истеъмолини сезиларли даражада камайишига олиб келади.

Умуман олганда, корхоналарда технологик жараёнларни автоматлаштирувчи тизимларни ишлатилиши электр қурилмаларининг энергетик режимларини яхшилайди ва реактив қувват истеъмолини камайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар

5. Аллаев Қ.Р., Хошимов Ф.А. Энергосбережение в промышленных предприятиях, монография –Т.:, фан, 2012.

6. Хошимов Ф.А., Таслимов А.Д. Энергия тежамкорлиги асослари. –Т.: Ворис, 2014

3.Суғориш тизимидаги насос агрегатлари асинхрон моторининг иш режимлари.илмий мақола. Н.Б. Пирматов, М.Р. Шайманов Фарғона политехника институти илмий-техника журнали Фарғона 2021й.

4.“Reaktiv quvvatni kompensatsiyasi bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri tashkil etish. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali ‘Texnika va texnologiya fanlar soxalarining innavatsion masalalari’ Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.Termiz. noyabr 2019 y

IMPROVEMENT OF THE CHARACTERISTICS OF PUMP UNITS IN CONTROL THROUGH VARIABLE FREQUENCY.

Shaymatov Bobokul[1], Gafforov Komil[2].

[1] Candidate of technical sciences, Associate Professor,Bukhara Engineering-Technological Instituti, Bukhara, Uzbekistan.

[2]Assistent, independent researcher,Bukhara Engineering-Technological Instituti, Bukhara,Uzbekistan.komilgafforov@mail.ru

Annotation.This article addresses the issues of the economical mode provided by pressure stabilization in the fluid supply system of pumping units.It is shown that the main control parameter in systems stabilizing the pressure in the network is the pressure at the dictating point.It is proved that the stabilization of the pressure at the dictating point provides the necessary minimum pressure in the network and reduces the energy consumption spent by the pumping station for water supply.

Keywords: Pressure, automatic control system, pressure sensor, proportional-integral controller, pump unit, pump speed, pressure, water tapse.

For a significant group of pumping units, the economical mode is ensured by stabilization of pressure (pressure) in the fluid supply system. Such installations include pumping stations of the second and third elevations of industrial and urban water pipelines, pumping stations of pumping, stations of closed irrigation systems and the like.The need to stabilize the pressure in the network of these stations is due to the variable nature of the water consumption regime. The probabilistic nature of water consumption requires continuous changes in the operating mode of the pump unit. Changes must be made in such a way that the required values of technological parameters (feeds, heads) in the system as a whole are maintained and at the same time the minimum possible energy consumption of the pump unit is ensured.

This problem is solved by an automatic control system (ACS) of the pump installation, stabilizing the pressure in the network at a given value.It is almost impossible to stabilize the pressure at all points of a complex branched network. Therefore, we can talk about stabilizing the pressure at some individual points in the network, called dictators.As dictatorships, points are chosen where the provision of normal pressure at which ensures the maintenance of the same or higher heads at other points of the network. As a dictating point, a section of the water supply network located at the highest geodetic elevations and the most distant from the pump station in the hydraulic ratio is selected, i.e., the section to which the pressure losses are of the greatest importance.The location of the dictation points is determined by hydraulic calculation of the network or empirically, as well as by the results of long-term operational observations. With a

significant redistribution of water flows in the network, the dictating point can change its location. When the network is working in conjunction with pumping stations that are close to the consumers, for example, pumping stations, the dictating point can be located on the pressure head of the station. The main control parameter in systems that stabilize the pressure in the network is the pressure at the dictating point (s). Stabilization of the pressure at the dictating point provides the necessary minimum pressure in the network and reduces the energy consumption spent by the pumping station for water supply[1,2,5].

Below we consider the process of stabilizing the pressure at a dictating point using the example of a simple unbranched water supply network. Suppose that one pump is operating at the station(Fig.1). For normal water supply to consumers at dictating point A, the so-called free head Hfr must be maintained. Point A is located at Z2 above the water level in the tank. Losses of pressure in the conduit depend on the flow rate to the second degree. Therefore, in order to raise the water from the mark Z1 to the mark Z2, to overcome the hydraulic resistance and provide a given free head, it is necessary to develop the water head

$$H = (Z_2 - Z_1) + H_{fr} + SQ^2. \qquad (1)$$

Graphically, the dependence of the required pressure at the outlet of the pumping station on the flow rate is shown by curve 1 in Fig. 2. If this dependence is observed, a stable required pressure H_{fr} is maintained at the dictating point.

However, this pressure during operation of the pump with a constant speed is only supported in maximum flow mode.The rest of the time, when the pump operates at a low flow rate, for example at 7 h, the system operates at a high pressure. In fig. 2 shows how the pressure changes at different times of the day depending on the change in the water supply of the pump unit.



Fig.1. Schematic diagram of the stabilization of pressure in the dictating point A of the water supply network:

1 - centrifugal pump; 2 - adjustable electric drive; 3 - pressure sensor; 4 - PI controller; 5 - master device; 6 - communication channel; 7 - water-folding devices; 8 - water conduit.

In order for the pump installation to work without exceeding the pressure for any water consumption, it is necessary to equip it with an appropriate automated control system (ACS), which includes adjustable electric drive. Such a system consists of a pump unit equipped with an adjustable electric drive, a pressure sensor, a proportional-integral controller (PI controller), a master device and communication channels between the converter and the controller (see. Fig.1).The master device determines the required pressure value at the dictating point of the water supply network.The signals from the pressure sensor installed in the dictating point of the network, and from the master device are fed to the PI controller, where they are compared with each other, processed accordingly and then transmitted to the control system of the controlled electric drive of the pump unit[3,6,8,10].



Fig.3. The process of stabilizing the pressure at the dictating point A (see Fig. 1): I(n1), I(n2), I(n3) - characteristics of the regulated pump at n1, n2, n3, respectively; II1, II2, II3 - characteristics of the conduit at different times t1, t2, t3, respectively; III - water consumption schedule.

Ifdue to the closure of another tap, a further decrease in water consumption to Q3 occurs, the operating point of the pump will sequentially move from point 2′ to point 3, and then 3′. In this case, as a result of the ACS action, the pressure characteristic of the pump moves to the position corresponding to the speed of rotation n3.

The control system is adjusted so that changes in the rotation frequency occur when there are small deviations of the values at the dictating point from the set values.For this reason, the curved triangles1, 2, 2′, and 2′, 3, 3′ on the graph are small. As a result, the operating point of the pump moves almost smoothly along the characteristic of the pipeline and, therefore, the system works without exceeding the pressure, i.e., in the economical mode.The process of stabilizing the pressure at the dictating point of the network when working with several pumping units is more complicated.If all operating units are equipped with the adjustable electric drive, the control process proceeds in the same way as described above, with the difference that the command to change the rotational speed is sent simultaneously to all operating pump units. Then the speed of the working units changes synchronously, and as a result of this, the pressure characteristics of all pumps simultaneously and uniformly change their position. Due to this, the operating parameters of adjustable pumps (supply, pressure, efficiency, etc.) change the same and, therefore, the distribution of loads between the working pump units occurs evenly.The task is more difficult to solve in those cases when both regulated and unregulated pumping units work simultaneously.In this case, the regulation process is carried out by changing the speed of the adjustable units and sequentially changing the number of working unregulated pumps.



Fig.4. Schedule of joint operation of the network and pumps (regulated and unregulated):I(n1) - pressure characteristic of an adjustable pump at a speed of n1; I(n2) - the same for n2; II - pressure characteristic of an unregulated pump; I(n1)+I(n2)+II - total pressure characteristics of both pumps at n1 and n2, respectively; III - characteristics of the pipeline

In fig. 4 is a graph of the joint operation of the network and two pumps: regulated and unregulated. As in the previous case, when the water consumption changes and the pressure increases at the dictating point, the speed of the adjustable pump decreases, and when the pressure decreases, it increases.But at the same time, the characteristic of an adjustable pump changes its position, while an unregulated pump remains unchanged.For this reason, although the pumps operate with the same pressure, their supply is different.With a decrease in speed, the variable displacement pump operates at a lower flow rate, while the noncontrollable flow increases. Other operating parameters of regulated and unregulated pumping units (efficiency, power, etc.) also differ. In the event of a significant change in water consumption, there comes a time when the flow of the regulated pump decreases to zero, and the flow of the uncontrolled pump increases to a certain value of IIQ3 (see Fig. 4, point 3).At this time, the pressure of an unregulated pump becomes greater than a regulated one. The check valve of the adjustable pump closes, and if it is absent, water flows through the pump in the opposite direction.As a rule, when equipping the pump unit with an adjustable drive, the presence of a check valve is mandatory[8,10,11,13].

It should be borne in mind that the process of changing water consumption does not always go monotonously. Often, when the supply limit value Q3 is reached, the process can stop and go in the opposite direction. In such cases, a situation arises in which an uncontrolled pump will repeatedly turn on and off.To avoid such phenomena, self-propelled guns must contain a locking device that allows you to turn off or turn on an unregulated pump only if there is a steady trend in water consumption. In some cases, for example, if water consumption for a long time fluctuates around the boundary value of Q3, it is advisable to equip both adjustable electric drive pumps so that in this mode they both work with a reduced speed.When installing different types of pumps at the pumping station, in order to avoid the formation of the so-called dead zones (DZ), it is advisable to equip the largest pumps with the most gentle characteristic with an adjustable electric drive.

A dead zone occurs if the adjustable electric drive is equipped with a pump, the pressure characteristic of which lies below the characteristics of an unregulated pump. Under these conditions, when the limit value of the supply Q3 is reached, the uncontrolled pump cannot be turned off, since the adjustable pump, working even with the maximum speed, will not provide the necessary supply IQ1 <IIQ3. At the same time, it can no longer influence the regulation process, since the pressure it develops is less than the pressure IIH3 created by an unregulated pump (Fig.5).If a larger pump is equipped with a controlled electric drive, the self-propelled gun can give an impulse to turn off the unregulated pump with some lead, while water consumption has not yet decreased to the limit value of water supply Q3.An impulse to turn on an uncontrolled pump can

also be given in advance, until water consumption increases to the limit value Q3.This prevents the operation of the pump unit in the zone of low values of efficiency, which increases the efficiency of the regulation process[13,14].



Fig.5.The formation of dead zones (MOH) in the process of regulating a pumping unit: I(n1) - pressure characteristic of an adjustable pump at a speed of n1;I(n2) - the same for n2; II - pressure characteristic of an unregulated pump; III - characteristics of the pipeline

References:

1. Leznov B.S. Characteristics of branched pipelines with intermediate water withdrawals // Water supply and sanitary equipment. 2007, No. 12.

2. IslomKhafizov, Komil Gafforov,Muxammedov Sh., Jurakulov A Energy saving when using a variable frequency drive in pump installations, Journal of Critical Reviews, ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 12, 2020, P.99-102, http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.16

3. Khafizov I.I., Komil Gafforov, Bakhodir Oblokulov, Aziz Azimov Elimination of energy losses in pumping installations by means variable frequency drive, International Engineering Journal For Research & Development, Vol.5, Issue 3, April 2020, E-ISSN NO:-2349-0721, Impact factor : 6.03.P.83-89, http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/17/5

4. Khafizov I.I.,Khaitov B.B. The investigation of ions implantation processes into a single-crystal GaAs(001) in order to increase the efficiency of the solar cells, MODERN SCIENCE International scientific journal №02, 2017, Founder and publisher: “Strategic Studies Instituti” LLC., Moscow, 2017, P.43-46

5. Khafizov I.I., GafforovK.K. Application and prospects of variable frequency means in electric drives of pumping units, Международныйнаучно-практическийэлектронныйжурнал «МОЯПРОФЕССИОНАЛЬНАЯКАРЬЕРА» (ISSN 2658-7998, договорвсElibrary №284-07/2019), 15.11.2020

6. Khafizov I.I., Xafizov X.I. Modeling the introduction of ions into single-crystal gaas (001) to create p-n junctions in order to increase the efficiency of solar cells, МОЛОДЕЖНЫЙИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙПОТЕНЦИАЛ, Сборникстатей II Международногонаучно-исследовательскогоконкурса, состоявшегося 11 января 2021 г. вг. Петрозаводске, ст.105-111

7. Juraev M.Q, Muzaffarov F.F, RustamovS.Sh “Transparent Surface Lens Of Low-Temperature Solar Devices” The American Journal of Applied Sciences, 2 (10), 145-149. https://usajournalshub.com/index.php/tajas/article/view/1297

8. K.K.Gafforov, M.U.Rakhmatova, Sh.N.Sharipov “Three-phase corrective analysis of automatic control of pumping systems”, Priority directions of innovative activity in the industry (international conference). Kazan. 2020.

9. IslomKhafizov, BobkulShaymatov,Komil Gafforov, OrzuqulBozorov. “Elimination of energy losses in pump units and increase of power efficiency by means of the tool of control of speed”, InnavativeTechnologica: Metdhodical Research Journal.Vol 2. №05 (2021)https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/49

10. Islom Khafizov, Komil Gafforov, BahodirYormamatov.“Mathematical Analysis of Electric Power Replacement Schemes of Weaving Machines”, European journal of life safety and stability (EJLSS).ISSN 2660-9630.Volume 12, 2021. http://www.ejlss.indexedresearch.org /index.php/ejlss/article/view/283

11. Islom Khafizov, Komil Gafforov, BektoshMiyliyev. “Advantages of using a variable speed drive in pumping units” Journal of education discoveries and lifelong learning.ISSN: 2776-0995 Volume 2, Issue 5, May, 2021 https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl /article/view/67

12. Islom Khafizov, Komil Gafforov, ZilolaImomova. “Analysis of Pump Agrigarts Electric Power Control Elements in the Supply of Multi-Storey Houses Water Supply”, International journal on economics, finance and sustainable development.Vol.3No.12(2020). https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/2520

13. Islom Khafizov, Komil Gafforov, ZilolaImomova. “ Reduced capital costs when using a frequency-controlled electric drive in pumping units”, International Journal on Integrated Education. Vol.4No.4(2021).https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/1607

14. Islom Khafizov, Komil Gafforov, Sharif Murtazoyev. “Technique of a feasibility study for the use of a variable frequency drive in pumping units”, Web of scientist: International scientific research journal. Volume 2, Issue 4, April, 2021. https://wos.academiascience.org /index.php/wos/article/view/52

15. Islom Khafizov, Komil Gafforov, Sharif Murtazoyev. “Mathematical Analysis of Electric Motor Braking Modes of Weaving Machines”, International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences.Volume: 1 Issue: 7, December, 2021.https://openaccessjournals.eu /index.php/ijdias/article/view/831

НАСОС ҚУРИЛМАЛАРИНИНГ ИШЛАШ ТАВСИФЛАРИ ВА ЭНЕРГИЯ ТЕЖАШ РЕЖИМЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШ ТАҲЛИЛИ.

Шайматов Б.Х., Холмуродов М.Б., Хожиев Қ.Б., Ғаффаров К.К
***Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети*,**
Бухоро муҳандислик технология институти

Аннотация. Насос станцияларини сув билан таъминлашда технологик жараёнининг энергия самарадорлигини ошириш, шунингдек, бир қатор устувор йўналишларда гидромеханик ускуналар ва насос станцияларида электр юритмаларининг энергия ва ресурсларни тежаш режимларини ишлаб чиқиш.

Аннотация. Повышение энергоэффективности технологического процесса при водоснабжении насосных станций, а также разработка энерго- и ресурсосберегающих режимов гидромеханического оборудования и электросистем насосных станций по ряду приоритетных направлений.

Annotation. Improving the energy efficiency of the technological process in the water supply of pumping stations, as well as the development of energy and resource-saving modes of hydromechanical equipment and electrical systems of pumping stations in a number of priority areas.

Таянч сўзлар: Ускуна, станция, насос ,электр юритма, частота, қурилма,бошқариш, самарадор, ўзгартиргич, регулятор,асинхрон мотор.

Ключевые слова: Оборудование, станция, насос, электропривод, частота, қурилма, управление, КПД, трансформатор, регулятор, асинхронный двигатель.

Key words:. Equipment, station, pump, electric drive, frequency, unit, control, efficiency, transformer, regulator, asynchronous motor.

Қишлоқ хўжалигини талаб ва эҳтиёжларидан келиб чиқган ҳолда сувга бўлган талабнинг ўзгарувчанлиги, суғориш вақтининг доимий эмаслиги, экинларни алмаштириб экилиши ва бошқа атроф-муҳит омилларни назарга олиб мелиорация тизимидаги насос станцияларининг ростланадиган электр юритма асосида энергетик самарадорлигини ошириш масалаларига алоҳида аҳамият берилмоқда. Шунинг учун насос қурилмаларининг

автоматлаштирилган бошқарув тизимларида насосларнинг иш режимини сув таъминоти тизимининг иш режими билан мослаштириш учун частотали бошқариладиган электр юритма қўлланилади[8]. Частотали бошқариладиган юритмадан фойдаланиш босим сезгичлари ёрдамида насоснинг технологик режими учун самарали ақлли бошқарув тизимларини жорий этишга имкон беради. Ҳозирги кунда кўплаб мамлакатларнинг олимлари насос қурилмаларида частотали бошқаришни жорий этиш ва шу билан насос қурилмаининг иш режими билан сув бир жойдан иккинчи жойга қуйилишида технологик жараёнининг иш режимларини бир текис мувофиқлаштириш бўйича тадқиқотлар олиб бормоқдалар.

Бундай тадқиқотларни амалга оширишда, хусусан насос станцияларнинг ҳавзадаги сувнинг сатҳини бошқариш асосида энергия самарадорлигини ошириш, унинг қувват сарфига таъсир этувчи энг муҳим омилларни аниқлаш, «частотали ростланадиган электр юритма-асинхрон мотор-мелиоратив насос» тизимли бошқариш ва насос қурилмасининг оптимал иш режимини аниқлаш ва уларни тадқиқ қилиш муҳим ҳисобланади

Энергетика ресурсларидан самарали фойдаланишда мелиорация тармоқларини бошқаришга йўналтирилган автоматлаштирилган тизимларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга. Битта насосли насос станциялари юқори унумдорликда ишлашга имкон берадиган бўлса, кўп насосли станциялар эса энергия сарфига камроқ эътибор бериб, ҳақиқий исроф талабларини қондиришга муваффақ бўлишади.

Кичик ва ўрта қувватли кўп блокли насос қурилмалари шароитида марказдан қочирма насосларни бошқариш натижасида самарадорлиги ва ишончлилигини ошириш, айниқса юкланишнинг ўзгарувчан ташкил этувчиси бўлган сув таъминоти тизимларида, масалан, тиклаш ва паст статик босимга эга тизимларда жуда долзарбдир.

Ўзгарувчан сув сарфи шароитида насос станцияларининг самарадорлигини аниқлаш натижаларини ўрганиш орқали насос станциялари самарадорлигини пасайишининг асосий сабаблари аниқланади [2]. Бошқариладиган насос қурилманинг самарасиз зонада ўтказадиган вақтига таъсир қилувчи асосий омиллар аниқланади. Уларни ҳар бирининг бир зумда ишлашини инобатга олган ҳолда насос гуруҳларини бошқариш усули таклиф этилади.

Шундай қилиб, насос станциясини бошқариш тизимининг тавсифлари энергия ресурсларини (электр энергияси, сув) истеъмол қилиш муносабатларининг ўзгариши билан чамбарчас боғлиқ. Насос станцияларининг асосий мақсадларидан бири энергия самарадорлигини ошириш, технологик жараённинг ҳам босим, ҳам унумдорлик бўйича белгиланган талабларига жавоб беришидир. Гуруҳли бошқаришни жорий этиш насос станциясининг қувват сарфини 20-24% гача камайтиришни кўрсатади, ҳалокатли вазиятлар сонини 85% гача камайтиришга эришилади.

Мелиоратив тизимларда қайта тикланган ерларда оптимал сув, ҳаво, иссиқлик ва озуқа режимларини яратишни таъминлайдиган ўзаро боғлиқ гидравлик ва бошқа қурилмалар, яъни каналлар, коллекторлар, қувурлар, сув омборлари, тўғонлар, насос станциялари, сув олиш жойлари кабилар билан ер майдонларининг бутун структурасининг ўзгариши кузатилади [10].

Маълумки, Республикамизда 6,3 миллион гектар суғориладиган ернинг 4,3 миллион гектари насос станциялари орқали сув билан таъминланган. Мелиоратив суғоришнинг капитал харажатлар жиҳатидан, инфратузилмани ривожлантириш мамлакатимизнинг сув хўжалиги асосий тармоқларидан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси сув хўжалиги вазирлиги балансидаги 5301 та насос станцияларига умумий қуввати қарийиб 7000 $м^3/с$ бўлган 1693 та насос қурилмаи ўрнатилди.



Расм -1

1-расмда Қуйи-Зарафшон ҳавза ирригация тизимлари бошқармаси насос станциялари ва энергетика бўлими Пўлкан мелиоратив насос станциясининг технологик схемаси келтирилган

Расмга мувофиқ Пўлкан мелиоратив насос станциясида қуввати 250 кВт бўлган 5 та асинхрон двигателли насос қурилмаси ишлайди. Насослар 2,2 км масофада жойлашган сув омборини (ҳовузни) сув билан тўлдириш учун мўлжалланган. Эксплуатация қилинадиган Д1250 / 65 русумли насосларнинг тавсифлари 2-расмда кўрсатилган.



Расм-2. Д1250 / 65 русмли насоснинг тавсифлари.

Бу технологик схема қишлоқ хўжалигидаги кўпчилик мелиоратив насос станцияларида (насос қурилмаларининг сони ва қуввати ўзгарганда) қўлланилади.

3-расмда Қуйи-Зарафшон ҳавза ирригация тизимлари бошқармасининг насос станциялари ва энергетика бошқармаси Пўлкан мелиоратив насос станциясининг тавсифлари кўрсатилган.

Тадқиқотлар натижаси, шунингдек 3-расмдан кўриниб турибдики, ушбу насос станцияси самарасиз режимда ишлайди, чунки параллел ишлаш туфайли насос қурилмалари ўртасида таъминот ва юкланишларни мақбул тақсимлаш зарурати туғилади.

Технологик жараённинг талабларини қондириш учун насоснинг ишлаши сувни бошқариш билан тартибга солинади (расм-3да 1 – клапан тўлиқ очилганда, 2- клапан 30

градусда очилганда). Насоснинг параллел ишлаш ҳолатларида бирликлар орасидаги юкланишни ажратиш ва ҳовуздаги сув сатҳининг барқарорлигини таъминлашдек технологик вазифасини амалга оширишнинг мураккаблиги билан боғлиқ қийинчиликлар пайдо бўлиши аниқланди.



3-расм. Қуйи-Зарафшон ҳавза мелиорация тизимлари бошқармаси насос станциялари ва энергетика бошқармаси Пўлкан мелиоратив насос станциясининг эксплуатацион тавсифлари.

Бундан ташқари, сўнгги ўн йилликларда юз берган энергия нархларининг ошиши энергиядан самарали фойдаланишга кўпроқ эътибор қаратиш заруратини келтириб чиқарди. Кўпгина сув тақсимлаш тизимларида сувни ҳайдаш, ташиш ва етказиб бериш, насосларни бошқаришни такомиллаштириш, энергия сарфини камайтиришга ва эксплуатация харажатларига олиб келадиган катта миқдордаги энергия талаб этилиши сабабли, тармоқнинг янада самарали ишлашини амалга ошириш устувор вазифа сифатида қаралиши керак. Ушбу муаммони ҳал қилишда насосларнинг самарадорлигини, истеъмолчилар талабининг тузилишини ва тизимда бошқарувчи юритмага эга бўлиш имкониятини ҳисобга олиш керак. Насос қурилмаларини бошқарувлари ўртасидаги ўзаро боғлиқлик, натижада насоснинг энергия истеъмоли, энергия сарфи ва тармоқдаги ток режими тармоқнинг чизиқли бўлмаган гидравликаси ва насоснинг тавсифлари орқали кўриб чиқилиши керак.

Маълумки насос станциялари энг катта электр энергияси талаб қиладиган объектлардан биридир[3]. Шу муносабат билан уларнинг энергия тежайдиган режимларини таъминлаш алоҳида устувор ўринни эгаллайди, бу сув таъминотининг технологик жараёнини амалга оширишда Республика миқёсида катта миқдордаги электр энергиясини (истеъмол қилинганларнинг тахминан 15-18%) тежашга имкон беради.Иш режимларини ишлаб чиқиш вазифалари қуйидагиларга асосланиши лозим:

- Насос станцияси таъминотида сув истеъмоли жадвалининг қатъий мувофиқлиги;
- мелиоратив насос станцияларини сув билан таъминлашнинг технологик жараёнини ҳар томонлама автоматлаштиришга қодир бўлган бошқариладиган электр юритма билан энергия-гидромеханик ускуналарнинг оқилона вариантини танлаш.

Бугунги кунга келиб мелиоратив насос станцияларида унумдорликни бошқаришда қўлланиладиган усул-бу таъминланаётган сувни босқичма-босқич (қурилма бўйича) бошқаришни таъминловчи иш бирликлари сонини ўзгартиришдир. Шу билан бирга, бошқариладиган мелиоратив насос станцияларининг аксариятида сув сарфининг ҳақиқий жадвали ва унинг мелиоратив насос станцияларининг ишлаши билан қопланиши ўртасида номувофиқлик мавжуд. Шунинг учун, экилган экинларнинг ҳосилдорлигини йўқотишни истисно қилиш учун мелиоратив насос станциялари ортиқча юкланиш жадвали билан

ишлайди ва бу ўз навбатида сув ресурслари ва электр энергиясининг асоссиз сарфланишига олиб келади.

Насос станцияларининг яна бир тавсифи уларни бошқарилмаган тизими ўрнига бошқариладиган электр юритмага ўтказишдир, бу албатта, электр ва сувдан самарали фойдаланишга имкон беради, насос станциясини сув билан таъминлашнинг технологик жараёнларини комплекс автоматлаштиришга ўтади, электр жиҳозларининг юкланишларини бошқариш мослашувчанлигини оширади, электр жиҳозларининг юкланишини бошқариш қувват ва гидромеханик жиҳозларнинг умумий ишлаш муддатини узайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Чувашев В.А., Наливайко С.С., Шишов А.В., Цветаев Д.В., Папазов Ю.Н. Энергосберегающие асинхронные двигатели // Электротехника. – 2009. – № 5. – С. 2–11.
2.Лезнов Б.С. Частотно-регулируемый электропривод насосных установок. – М.: Машиностроение, 2013. – 176 с.
3.Аллаев К.Р., Хошимов Ф.А. Энергосбережение на промышленных предприятиях. – Т.: «Фан» АН РУз., 2011. – 208 с.
4. Ильинский Н.Ф., Москаленко В.В. Электропривод. Энерго- и ресурсосбережение. – М.: ИЦ «Академия», 2008. – 208 с.
5.Камалов Т.С. Частотно регулируемый электропривод насосных станций машинного орошения. – Т.: Фан, 2014. – 368 с.
6. Толпаров Д.В., Дементьев Ю.Н. Анализ систем управления насосных станций // Известия Томского политехнического университета. – 2007. – Т. 311. – № 4. – С. 113–118.
7.Шайматов Б.Х.,Хафизов И.И.,Холмуродов М.Б.,Саттаров Т.А. «Электр машиналари» фанидан дарслик. Бухоро: Садриддин Салим Бухорий, Дурдона нашриёти,-2021 й.-634 б.
8.Лезнов Б.С. Частотно-регулируемый электропривод насосных установок. – М.: Машиностроение, 2013. – 176 с.
9.Здор Г.Н., Синицын А.В., Аврутин О.А. Автоматическое управление группой насосных агрегатов с целью снижения затрат электроэнергии // Энергетика. Известия вузов и энергетических объединений СНГ. – 2017. – №. 1. – С. 54–66.
10.Мальцев А.Н., Хватов О.С. Определение энергоэффективных режимов работы насосных агрегатов с частотно регулируемым электроприводом на канализационных станциях // Труды НГТУ им. Р.Е. Алексеева. – 2017. – № 4. – С. 100–107.
11.Шайматов Б., Холмуродов М.Б. Электр таъминоти тизимида электр энергияни иқтисод қилиш муаммолари // Материалы Республиканской научно –технической конференции Горно-металлургический комплекс: достижения, проблемы и перспективы иннавационного развития. Навоий, 2016 г. -С.223

ISHLAB CHIQARISHDA AVTOMATLASHTIRISH, BOSHQARISH VA AXBOROT TEXNOLOGIYA MASALALARI

ISHLAB CHIQARISH KORXONASIDA BAXTSIZ HODISALARNI AVTOMATIK TEKSHIRISH VA HISOBGA OLISH

Akhmadaliyev Anvarbek Alijon o‘g‘li,
Namangan engineering-technological instituti assistent, Uzbekistan.
e-mail: anvarbek19932627@mail.com

Annotation: Chief specialist, chief energy engineer, labor protection engineer, complex, annual, five-year or multi-year plans, capital funds, housing construction fund, depreciation fund general expenditure funds, regulatory information supply, medical examination, accidents, certificate of form N-1, statistical, monographic, topographical and economic examination, TMEK, occupational diseases, disinfection, entry instructions, initial, periodic, current, regular at the workplace outside instruction, labor protection room.

Annotatsiya: Bosh mutaxassis, bosh energetik, mehnat muhofazasi muxandisi, kompleks, yillik, besh yillik yoki ko‘p yillik rejalar, kapital mablag‘lar, uy-joy qurilishi jamg‘armasi, amortizatsiya jamg‘armasi umumharajat mablag‘lari, me‘yoriy-axbarot ta‘minoti, tibbiy ko‘rik, baxtsiz hodiasalar, N-1 shakldagi dalolatnoma, statistik, monografik, topografik va iqtisodiy tekshirish, TMEK, kasb kasalliklari, dezinfeksiya, kirish yo‘riqnomasi, ish joyidagi boshlang‘ich, davriy, joriy, navbatdan tashqari yo‘riqnoma, mehnat muhofazasi xonasi.

Keywords: Frequency coefficient and weight coefficient, document drawn up in form N-1, calendar period (month, quarter, year), Weight coefficient Ko, dangerous and harmful production factors

Kalit so‘zlar: Chastota koeffisiyenti va og‘irlik koeffisiyenti, N-1 formasida tuzilgan dalolatnoma, kalendar vaqt oralig‘ida (oy, kvartal, yil), Og‘irlik koeffisiyenti K_o, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari.

Mehnat xavfsizligi bo‘yicha tashkiliy va profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish va joriy qilishni, uning umumiy kompleksini boshqarish, shuningdek mehnat xavfsizligi bo‘yicha qoida va me‘yorlarga rioya hamda nazorat qilishni avtomatik quyidagi usul bilan hisoblash yaxshi samara beradi. *Statistik usul*-hisobot davrida ro‘y bergan baxtsiz hodisalarning sabablarini aniqlashga asoslangan. Bunda asos qilib N-1 formasida tuzilgan dalolatnoma va ishga layoqatsizlik varqasi olinadi. Bu usul jarohatlanishning umumiy holatini, uning o‘zgarib borish jarayonini tadqiq etishda, ularning kelib chiqish sabab va holatlarining qonuniyatlarini va ular orasidagi aloqalarni aniqlashda qo‘l keladi.

Jarohatlanish darajasini aniqlashda nisbiy statistik ko‘rsatkichlar – chastota koeffisiyenti va og‘irlik koeffisiyentidan foydalaniladi. Jarohatlanishning chastota koeffisiyenti K_{ch} ma‘lum kalendar vaqt oralig‘ida (oy, kvartal, yil) ro‘y bergan va 1000 kishiga to‘g‘ri kelgan baxtsiz hodisalar sonining shu tsexda ishlovchilarning ro‘yxatdagi soniga nisbati bilan o‘lchanadigan kattalik bo‘ladi.

$$K_{ch} = \frac{a * 1000}{b}$$

Bu yerda, K_{ch} – chastota koeffisiyenti,
a – baxtsiz hodisalar soni,
b – ishlovchilarning o‘rta hisobdagi ro‘yxatdagi soni.

Og‘irlik koeffisiyenti K_o har bir baxtsiz hodisaga o‘rta hisobda qancha ishga yaroqsizlik kunlari to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi:

$$K_o = \frac{S}{a}$$

bu yerda: S – ma‘lum davr ichida bo‘lib o‘tgan hamma baxtsiz hodisalarning ishga yaroqsizlik kunlarining yig‘indisi.

Ishlab chiqarish korxonalarida inson omiliga zarar keltiradigon baxtsiz hodisalarni oldini olish va oldindan bo‘lgan hisob kitoblarni amalga oshiradigon tizim nazoratini avtomatlashtish hozirgi kunda dolzarb hisoblanib kelmoqda. Bu dolzarb masalani oldini olishda hisob kitoblarga asoslangan nazoratni avtomatik hisoblaydigon tizim yaratish hozirgi zamon uchun juda muhimdir. Bu tizim orqali ishlab chiqarish jarohatlanishining sabablari dinamikasidan tashqari bunda baxtsiz hodisalarning turlari, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, ularning organizmga ta‘siri harakteri o‘rganiladi. Shu bilan birga jabralanuvchi haqida ma‘lumot (kasbi, staji, yoshi va boshqalar) va baxtsiz hodisaning qachon va qayerda bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar beriladi.

Xavfsizlikni ta’minlash o‘z ichiga murakkab jarayonni oladi va uni elementar tashkil etuvchilarga dastlabki xolatlar, g‘oyalar, prinsiplar deb ataluvchilarga bo‘lish mumkin. «Prinsip» so‘zi lotincha “principim” so‘zidan olingan bo‘lib, boshlanish, g‘oya, asos demakdir. Ishlab chiqarishning turi, texnologik jarayonlarning afzalliklari, qo‘llaniladigan jihozlarning har xilligi - bularning xammasi xavfsizlikni ta’minlash prinsiplarining ko‘p xilligiga shartlashadi. Prinsiplar muxim uslubiy axamiyatga egadir. Xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha to‘lakonli profilaktik ish ilmiy-tekshirish, tajriba - konstruktorlik, loyixa ishlarida, ishlab chiqarish ob’ektlarini qayta ko‘rish va foydalanish bosqichida faqat ongli ravishda xavfsizlik prinsiplarini xisobga olish bilan mumkin bo‘ladi. Prinsiplarning nazariy va ilmiy axamiyati shundan iboratki, ular bizni o‘rab olgan dunyodagi xavflar bo‘yicha bizlarning bilim darajamizni aniqlaydi va o‘z navbatida ximoya tadbirlariga va ularni xisoblash usullariga talablar belgilaydi. Prinsiplarning axamiyati amaliy jixatdan xam muximdir: ular raqobatlashayotgan variantlarni taqqoslab taxlil qilish asosida xavflardan ximoyalanishning optimal yechimlarini topishga imkon beradi. Prinsiplarning evristik qiymati shundan iboratki ular Mexnat xavfsizligini boshqarishni tashkil qilishda xal qiluvchi axamiyatga egadir. Xavfsizlikni ta’minlash prinsipini bir-birini to‘ldiruvchi element sifatda o‘zaro bog‘lanishda qarash muximdir. Konkret sharoitlarga bog‘lik xolda bir va boshqa prinsiplar har xil amalga oshiriladi. Xavfsizliknita’minlash prinsiplari ularni amalga oshirish belgilariga qarab shartli ravishda 4 ta sinfgabo‘linadi: taxminiy, texnikaviy, tashkiliy va boshqaruv prinsiplari. Taxminiy prinsiplar o‘zida xavfsiz yechimlarni topuvchi yo‘nalishni aniqlovchi metodologik va ma’lumot bazasi bo‘lib xizmat qiluvchi asos soluvchi g‘oyalarni taqdim etadi. Bunga quyidagi prinsiplar kiradi: operatorning aktivligi, faoliyatni gumanlashtirish, strukturani o‘zgartirish, operatorni almashtirish, sinflashtirish, xavfni bartaraf qilish va kamaytirish, sistemalik va boshqalar. Texnikaviy prinsiplarxavfli omillarning ta’sirini bevosita oldini olishga yo‘naltirilgan. Texnik prinsiplar fizik qonunlarniishlatishga asoslangan. Bunga quyidagilar kiradi: masofadan ximoyalash, ekranlashtirish, kattikligini oshirish, blokirovkalash (yakkalash), vakuumlashtirish, xavo kirmaydigan qilish, passiv zveno kiritish, zichlashtirish, flegmatizasiyalash va yeta olmaslik prinsiplari. Boshqaruv prinsiplarideb, xavfsizlikni ta’minlash jarayonining alohida bosqich va etaplari orasida o‘zaro bog‘lanish va munosabatlarni aniqlovchi prinsiplarga aytiladi. Ularga rejali, nazoratli, boshqarmali, majburiyli, qayta aloqali, samarali, javobgarlik, rag‘batlantirish, ierarxik, bir ma’noli, adekvatli prinsiplari kiradi. Tashkiliy prinsiplargaxavfsizlik maqsadida Mexnatni ilmiy tashkil qilish qoidalarini amalga oshiruvchi prinsiplar kiradi. Ulargavaqt bo‘yicha ximoyalash, ma’lumot berish, rezervlashtirish, normallashtirish, kadrlarni tanlash, ketma-ketlik, ergonomik, Mehnatni rasional tashkil qilish va zidlik prinsiplari kiradi. Bir vaqtda ayrim prinsiplar bir nechta sinflarga kiradi. Xavfsizlikni ta’minlash prinsiplari sistemalarni xosil qiladi. Va bir vaqtning o‘zida har bir prinsip nisbatan mustakillik kashf qiladi. Ayrim prinsiplarni alohida ko‘rib chiqamiz. Har bir ko‘rib chiqayotgan prinsipga ta’rif beramiz va misollar keltiramiz. Sistemalik prinsipi - shundan iborat bo‘lib har qanday xodisa, harakat va ob’ekt sistemalik konsepsiyasi bilan ko‘riladi. «Sistema» so‘zi grekcha - systema so‘zidan olingan bo‘lib, butun, qismlar va birikmalardan to‘zilgan demakdir. Sistema deganda elementlar majmuasi tushuniladi, ular orasidagi o‘zaro ta’sirlar adekvatli ravishda bir xil natijaga olib keladi. Bunday sistemani aniq sistema deb ataymiz. Agar elementlarning o‘zaro ta’siri har xil natijalarga olib kelsa, buni noaniq sistema deyiladi. Sistemaning noaniqlik darajasi qancha yuqori bo‘lsa shunga ko‘ra har xil natijalar paydo bo‘ladi.

Sistemadagi noaniqlik uning elementlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir harakterini to‘liq xisobga olmaslikdan tug‘iladi. Sistemaning elementlariga moddiy ob’ektlar xamda ular orasidagi munosabat va aloqalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupbekov N.R., Muhamedov B.I., G ‘ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. Texnika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - T.: O‘qituvchi“, 1997y.
2. Yusupbekov N.R., Igamberdiyev X.Z., Malikov A. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asoslari. — T.: ToshDTY, 2007y.
3. Artikov A. A., Musayev A . K . , Y u n u s o v 1.1. Texnologik jarayonlarni boshqarish tizimi: O‘quv qo‘llanma. — T.: TKTI, 2002y.
4. Лапшенков Г.И., Полоский Л.М. Автоматизация производственных процессов в химической промышленности. — М.: „Химия“, 1991y.
5. www.ziyonet.uz
6. www.kutubxona.uz
7. www.tiet.uz saytlari.

ЎЛЧАШ ВОСИТАЛАРИНИНГ МЕТРОЛОГИК ТАЪМИНОТИ ВА ЕЧИМЛАРИ

Абдухолиқов А.У., ТМТИ ассистент
Маматқулов Т., ТМТИ ассистент

Аннотация. Ушбу мақолада метрологик таъминотнинг асосий вазифалари ва корхоналарда ўлчаш воситаларини танлашда юзага келаётган муаммолар тўғрисидаги маълумотлар таҳлил қилинган. Муаммоларни бартараф этиш учун таклифлар берилган.

Аннотация. В данной статье анализируются данные об основных задачах метрологического обеспечения и проблемах, возникающих при выборе средств измерений на предприятиях. Были внесены предложения по решению этих проблем.

Annotation. This article analyzes data on the main tasks of metrological support and the problems that arise when choosing measuring instruments at enterprises. Proposals were made to solve these problems.

Бутун дунё йиллар давомида иқтисодий ўзгаришлар шароитда яшамоқда. Шу вақтлар ичида ишлаб чиқариш ҳолати сезиларли даражада ўзгарди ва унинг мақсадлари ва вазифалари ҳам ўзгарди. Бундай шароитда ҳеч ким ишлаб чиқаришнинг турли тармоқларида ўлчаш воситаларини ўрни, яъни метрологик таъминлашнинг мақсади, вазифалари ва ролини қайта кўриб чиқиш зарурлигига шубҳа қилмайди.

Метрологик таъминот асосий вазифаси уни тўғри бошқариш орқали ўлчаш усули, ўлчаш воситаси, ўлчаш жараёни ва ўлчаш натижаларини таҳлилини тўғри қўллаш билан керакли аниқликка эришилади ва натижалар ижобий чиқишини таъминлайди. Ҳар қандай технология, жамиятнинг ўсиб бораётган эҳтиёжлари ва имкониятлари билан боғлиқ ўзгаришларни бошдан кечирмоқда. Бу эса метрологияга ва унинг таъминот учун ҳам янгидан янги талабларни қуймоқда. 20-аср охирларидан бошлаб ишлаб чиқарилаётган жиҳозларда ўлчаш воситалари ва датчиклари сони ҳар йили бир неча фоизга кўпайиб борди. Битта техник мажмуада ўтган ўн йиллар давомида ўлчаш датчиклари сони бир неча маротаба кўпайди: уларнинг минглаб қисми самолётда ва ракетада, ўнлаб мингтаси эса бир қатор корхоналарда бор. Метрологик ишларнинг меҳнат интенсивлигини сақлаб қолган ҳолда, операцион харажатлар тез ўсиб бормоқда.

Бироқ рақобат уларни камайтиришга, ускуналарнинг ишлаш жадаллигини оширишга мажбур қилади. Ўлчаш воситасини ўрнатишдан уни калибрлаш интервали келганда олиб, метрологик лабораторияга етказиб беришни, сўнгра калибрлашдан кейин уларни асл жойига қайтаришни кўзда тутадиган процедура тобора қийинлашиб бормоқда.

Бугунги кунда саноатининг энг муҳим мақсадларидан бири бу янги замонавий технологияларини ишлаб чиқиш ва яратиш, яъни ҳар бир давлатнинг ички ва ташқи бозорда

талабга эга ва рақобатбардош юқори сифатли, юқори технологик маҳсулотни яратиш ва ишлаб чиқаришдир. Бунга эришиш учун сўнгги йилларда ривожланган давлатларда ишлаб чиқаришнинг барча тармоқлари учун катта молиявий ресурслар ажратилмоқда. Барча давлатларнинг саноат маҳсулотларининг сифати муаммоси ишлаб чиқаришни метрологик таъминлаш билан бевосита боғлиқдир, чунки бу ҳар қандай ишлаб чиқариш корхонасининг сифат тизимининг асосини метрологик таъминот ташкил этади.

Замонавий корхоналар ва ташкилотлар ўз ресурсларини узлуксиз сифатни яхшилаш ва технологияларни модернизация қилишга қаратмоқда. Сифатни таъминлаш мутахассисларнинг ижодий салоҳияти ва амалий тажрибасини бирлаштиришни талаб қилади. Корхоналар ва ташкилотлар ўз мижозларини сақлаб қолиш учун мавжудлик ва сотувдан кейинги хизматни тақдим этишлари керак, чунки замонавий истеъмолчи маҳсулот танлашда камчиликларни кўрсатиб ўтмоқда. Сифат маҳсулотнинг тавсифлари ва хусусиятлари мажмуи сифатида унинг фойдаланиш ва мақсадга мувофиқлигини белгилайди. Бу хусусиятлар мижозларнинг талабларига қараб маҳсулот яратишда шаклланади. Сифат талаблари меъёрий ва меъёрий-техник хужжатлар, давлат ва саноат стандартлари; маҳсулотларни лойиҳалаш ёки модернизация қилиш бўйича техник шартлар ва техник вазифалар; чизмалар ва технологик хариталар; технологик регламентлар ва назорат хариталари ва бошқа ҳужжатларда белгиланган [1].

Бизга маълумки, корхона ишлаб чиқариш жараёни, тайёр маҳсулот ва хизматлар сифатини назорат қилишда турли усуллардан фойдаланилади. Масалан: тажриба, органолептик, статистик, эксперт ва бошқалар. Ушбу мақолани таҳлил қилиш ва тайёрлашда метрологик ишларни амалга оширувчи ишлаб чиқариш, саноат ва илмий лабораторияларнинг метрологик таъминоти масалаларини ёритишда статистик таҳлил усулларидан кенг фойдаланилди. Яъни ишлаб чиқариш жараёнларида, синов ва илмий лабораторияларда ва ўлчашлардаги камчиликлар сабабли юзага келаёган нуқсонлар ва ушбу камчилик ва нуқсонларни бартараф қилишда метрологик таъминот ўрни кўрсатиб ўтилди.

Узоқ муддатли механизмларга бўлган эҳтиёж, шунингдек, кўп йиллар давомида инсон аралашувисиз ишлаши керак бўлган воситаларни, шу жумладан интеллектуал воситаларни яратиш билан боғлиқ. Метрологик таъминот яъни ўлчаш воситаларининг ишчи ҳолатини таъминлаш вазифаси долзарб бўлиб қолмоқда.

Бироқ, датчикларнинг узоқ муддатли ишлаши билан таъсир қилувчи омилларнинг роли ортади, уларнинг оқибатлари тўпланади (материалларнинг маънан эскириши, ташқи таъсирларнинг кўпайиши, магнит хусусиятларининг ўзгариши ва бошқалар.), ва метрологик носозлик хавфи ортади.

Айниқса, транспортда, шунингдек, энергия талаб қиладиган ва хавфли соҳаларда ишлатиладиган асбоб-ускуналарни назорат қилишни автоматлаштириш метрологик муваффақиятсизликнинг аҳамиятини ва шунга мос равишда ўлчаш маълумотларининг ишончлилигига бўлган талабларни оширади.

Хитойлик мутахассисларнинг маълумотига кўра, саноатдаги нуқсон ва авариялларнинг 60% гача датчиклардаги нуқсонлардан келиб чиқади. Асбоб-ускуналарнинг эскиришини камайтириш ва нуқсон ва авариялар хавфини камайтириш учун ўлчаш воситаларининг метрологик хизмат кўрсатувчанлиги тез - тез текширилиши ва ускуналарнинг ишлаш самарадорлигини ошириш-иложи борича камдан-кам ҳолларда бўлиши керак.

Бунинг учун метрологик таъминот масалалари билан шуғулланувчи ташкилотлар, илмий, ишлаб чиқариш ва саноат корхоналарининг лабораторияларини таъминотини назорат қилиш ва уларни керакли ўлчаш воситалари билан таъминлаш талаб этилади. Аммо бу ерда ҳам муаммолар юзага келади метрологларнинг ҳар бири лаборатория учун сотиб олинаётган учун етказиб берувчи томонидан реклама қилинган қурилма сотиб олинган вазифаларни самарали ҳал қила олмаган бўлса, ўлчаш воситасини сотиб олиш билан салбий натижалар юзага келади. Яъни олинган ўлчаш воситаси керакли вазифаларга тўлақонли мос келмаслиги мумкин. Бу эса ушбу соҳага тегишли мутахассисларга катта масулият юклайди. Ҳозирги кунда айрим асбоб-ускуналар сотиб олаётганда корхоналар ҳеч қачон талабга жавоб

бермайдиган қўшимча вариантлар учун кўп пул тўлайди. Кўпинча янги сотиб олинаётган қурилмаларда мунтазам керакли муҳитни таъминлашни ташкил этиш билан боғлиқ қийинчиликлар бўлади.

Бизнинг тажрибамиз шуни кўрсатадики, бу муаммоларнинг аксарияти янги ўлчаш асбобини сотиб олиш тўғрисида қарор қабул қилиш босқичида вазифа аниқ шакллантирилмаганлиги, уни ҳал қилишнинг барча усуллари ҳақида тўлиқ маълумот тўпланмаган ва батафсил техник вазифа тайёрланмаганлиги билан изоҳланади. Бу муаммо, аввало, корхоналарда мутахассислар ўртасида қарор қабул қилиш учун зарур маълумотларнинг йўқлиги билан боғлиқ. Бугунги кунда кўпгина корхоналардаги лабораториялардаги ўлчаш ускуналарининг аксарияти 25 йилдан ортиқ хизмат муддатига эга, метрологларнинг кўпчилиги илғор ўлчаш усуллари ва замонавий қурилмаларнинг реал имкониятлари ҳақида етарли маълумотга эга эмас. Бу ҳолат асосан реклама мақсадида етказиб берилган асбоб-ускуналар ҳақида маълумот берувчи, кўпинча улар сотадиган асбоб-ускуналар имкониятларидаги чекланишларни эслатиб ўлчаш воситаларини ишлаб чиқарувчилар ва етказиб берувчилар томонидан қўлланилади. Катта ҳажмдаги реклама ойнасида қурилманинг реал хусусиятларини кўриш қийин. Кўпинча, чиройли пакетда етказиб берувчи "охирги ютуқ сифатида" эскирган ускуналарни таклиф қилади.

Агар биринчи бор кўрган янги асбоб ва ускуналар бўйича ҳеч қандай маълумотга эга бўлмасангиз, ўлчаш воситаси барча имкониятларини, унинг иш хусусиятларини баҳолаш деярли мумкин эмас, бундан ташқари, у қандай самарадорликка эга бўлади баҳолаш қийин.

Хулоса

Келтирилган маълумотларни таҳлил қилиш асосида метрологик таъминот ва лабораторияларга ўлчаш воситаси ва ускуналарни танлашда метрологлар олдига катта вазифалар куйилмоқда. Ҳозирги кунда фан-техниканинг ривожланиши асосида интеллектуал ўлчаш воситаларини ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланишда уларнинг таркибий қисмларини билиш ва ундан фойдаланиш талабларига риоя қилиш муҳим ҳисобланади. Лабораториялар учун олинаётган ўлчаш воситалари танлашда алоҳида бир нарсага тўхталиб ўтиш зарур. Яъни баъзи ўлчаш воситалари ва лаборатория ускуналари дастурий таъминотини янгилаб бориш талаб этилади. Бунда айрим вақтларда ишлаб чиқарувчи томонидан берилган кодлар ва пароллар керак бўлиши мумкин. Бу эса мутахссисларни хушёр бўлишини талаб этади. Демак вақт ўтиши билан метрологик таъминот доирасидаги ўлчаш воситалари метрологик ўз-ўзини кузатиш билан ўлчаш воситаси анъанавий факторларни сезиларли даражада алмаштиради. Мунтазам метрологик процедуралар қисқаради, аммо янги ўлчаш воситасини ишлаб чиқишда иштирок этувчи юқори малакали метрологларга эҳтиёж ортади.

Адабиётлар

1. Тарбеев Ю.В., Кузин А.Ю., Тайманов Р.Е., Лукашев А.П. Новый этап в развитии метрологического обеспечения датчиков.// Измерительная техника. -2007. - №3. - С.69.

2. Александров В.С., Тайманов Р.Е., Чуновкина А.Г. Проблемы метрологического обеспечения компьютеризированных средств измерений. //Датчики и системы. - 2009. - №12 - С.55.

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA UNING TA’RIFI

Alimnazarov Olim, O‘qituvchi, Termiz muhandislik-texnologiya instituti
olimbekalimnazarov12@gmail.com
Xalilov Jahongir, Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

Kirish

Avtomatlashtirish – texnologik jarayonlarni odam ishtirokisiz boshqaradigan texnik vositalarni joriy etish demakdir. Avtomatlashtirish ishlab chiqarish jarayonidagi odam ishtirok etmagan sanoatning yangi bosqichi bo‘lib, bunda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish funksiyasini avtomatik qurilmalar bajaradi. Avtomatlashtirishni joriy etish ishlab chiqarishning asosiy texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlarining

yaxshilanishiga, ya’ni ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori va sifatining oshishi hamda tannarxining kamayishiga olib keladi.

Avtomatika fan va texnikaning avtomatik boshqarish nazariyasi va amaliyoti, avtomatik sistemalarni qurish prinsiplari va texnik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Avtomatlashtirish – bu texnik jihozlarning qo‘llanilishi, matematik usullar va boshqarish sistemalarida, buning natijasida inson qisman yoki butunlay informatsiya olishda o‘zgartirish, uzatish va energiyani ishlatishdan ozod bo‘ladi.

Avtomatlashtirishning maqsadi – mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning sifatini oshirish rejalarini avtomatlashtirish, optimallashtirish va boshqarish, insonni zararli sharoitlarda ishlashdan ozod qilishdir. U fan va texnikani umumiy rivojlantirish natijasidir. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning rivojlanishi asosan 50-60 - yillarda boshlangan. Texnika siyosatini maqsad sari yo‘naltirilganligi hisobiga kimyoviy ishlab chiqarishning turli sohalarida avtomatlashtirishning darajasi oshdi. Texnologik jihozlanishning yaxlitligi va undagi o‘zlashtirilgan texnologik jarayonlarni boshqarishni texnologik jarayonda amalga oshirilishi, texnologik obyektni boshqarishni tashkil qiladi. Axborotlarni avtomatlashtirilgan holda yig‘ish va qayta ishlashni ta’minlovchi hamda inson faoliyatining turli sohalardagi optimal boshqarish uchun zarur bo‘lgan inson-mashina sistemasiga – avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasi (ABT) deyiladi [2].

“Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish” kursining asosiy maqsadi: avtomatikaning zamonaviy texnik vositalari hamda EHM bilan boshqariladigan mikroprotsessorli texnika bazasi asosida ABTlarni qurish usullari va prinsiplarini to‘la-to‘kis o‘rganishdan iborat. Kursning amaliy mohiyati mamlakatimiz xalq xo‘jaligi taraqqiyotidagi ustuvor vazifalar bilan bog‘langan.

Texnik jarayonlarda odamning ishtirok etishiga ko‘ra avtomatlashtirishni quyidagilarga ajratish mumkin: avtomatik nazorat, avtomatik rostlash va avtomatik boshqarish.

Avtomatik nazorat – texnologik jarayonlarda tezkor ma’lumotlarni avtomatik ravishda qabul qilish va uni qayta ishlash uchun kerakli bo‘lgan sharoitlarni ta’minlaydi.

Avtomatik rostlash – texnologik jarayonlarning tegishli parametrlarini avtomatik rostlovchi asboblar yordamida talab qilingan sathda saqlanishini nazarda tutadi. Bu holda odam faqat avtomatik rostlash sistemaining (ART) to‘g‘ri ishlashini nazorat qiladi.

Avtomatik boshqarish – texnologik operatsiyalarni belgilangan ketma-ketlikda avtomatik ravishda bajarilishini va boshqaruv obyektiga nisbatan bo‘ladigan ta’sirlarning muayyan muttasilligini ishlab chiqishdan iborat.

Boshqarish to‘g‘risida tushuncha va uning sxemalari

Kundalik xayotimizda biz xar xil jarayonlarni boshqarishga duch kelamiz. Masalan, korxona faoliyatini, xarbiy operatsiyalarni, transport vositalarini va hokazo. U yoki bu jarayonni oldiga qo‘yilgan maqsad sari yo‘naltirishga **boshqarish** deyiladi [5].

Har qanday jarayonni boshqarish quyidagi to‘rtta bosqichdan iborat. Buni sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm):



1-rasm. Boshqarish bosqichlari.

bu yerda: BO – boshqarish obyekti; I – boshqarish maqsadi; II – boshqarish to‘g‘risida axborot; III – taqqoslash, tahlil etish va qaror qabul qilish; IV – qabul qilingan xabarni bajarish.

Quyida misol tariqasida talabalarni o‘qitish jarayonini boshqarishni ko‘ramiz.



2-rasm. Talabalarni o‘qitish jarayonini boshqarish.

Boshqarish jarayonini hamma bosqichlarini bajarilishini ta’minlaydigan texnik vositalar to‘plamiga boshqarish sistemasi (tizimi) deyiladi.

Boshqarish jarayonini hamma bosqichlari odam ishtirokisiz bajarilsa **avtomatik boshqarish** deyiladi. Agar biror bosqich odam ishtirokida bajarilsa **avtomatlashtirilgan boshqarish** deyiladi.

Boshqarish jarayonini hamma bosqichlari odam ishtirokisiz bajarilishini ta’minlaydigan texnik vositalar to‘plamiga **avtomatik boshqarish sistemasi** deyiladi [3].

ABSni boshqarishda quyidagi sxemalardan foydalaniladi:

1. Funksional sxema – bu sxema sistemaning qanday elementdan tashkil topganini bildiradi. Unda xar bir elementga mos ravishda shu elementning nomi yoki u bajaradigan funksiyasining nomi keltiriladi.



3-rasm. Funksional sxema.

2. Strukturaviy sxema (model) – bu sxema sistemaning matematik modelini bildiradi. Bunda xar bir elementga mos ravishda algebraik, differensial, integral tenglamasi yoki qandaydir uzatish funksiyasi keltiriladi.



4-rasm. Strukturaviy sxema.

3. Prinsipial sxema – bu sxema funksional sxemani kengaytirilgan kurinishi bulib, bunda xar bir elementni kengaytirib kursatiladi.

Oddiy avtomatik boshqarish sistemalarining funksional sxemasi

Kirish va chiqish kattaligi bitta bo‘lgan sistemani bir o‘lchamli sistema deyiladi. Bir o‘lchamli oddiy ABS funksional sxemasini kuyidagicha qurish mumkin (5-rasm) [1]:



5-rasm. Bir o‘lchamli oddiy ABT funksional sxemasi.

bu yerda $x(t)$ – kirish signali; $y(t)$ – chiqish (rostlanuvchi yoki boshqariluvchi) kattalik; $x_b(t)$ – boshqariluvchi kattalikning berilgan qiymati; $\Delta x=x_b(t)–y_{tb}(t)$ – boshqariluvchi kattalikning berilgan qkiymatdan chetlashishi yoki og‘ishi; F(t) – qo‘zg‘atuvchi signal yoki ta’sir; $y_{tb}(t)$ – asosiy teskari

bog‘lanish signali; $y_0(t)$ – maxalliy teskari bog‘lanish signali; x_p – boshqaruvchi, rostlovchi kattalik yoki signal [4].

1 – topshiriq beruvchi element. Boshqarish maqsadiga muvofiq keladigan boshqarish signallarini tashkil etish uchun mo‘ljallangan.

2, 2' – taqqoslovchi yoki solishtiruvchi element. Bunda bir necha signal absolyut qiymati bo‘yicha solishtiriladi.

3, 4 – kuchaytiruvchi va o‘zgartiruvchi element. Bu boshqarish maqsadiga muvofiq signallarni kuchaytirish va o‘zgartirish uchun mo‘ljallangan.

5 – ijro etuvchi element. Bu boshqarish maqsadiga muvofiq boshqaruv obyektiga ta’sir etuvchi signalni tashkil etish uchun mo‘ljallangan.

6 – boshqarish obyekti. Bu boshqarish maqsadiga muvofiq, o‘z xolatini o‘zgartirishi kerak bo‘lgan xar qanday fizik tabiatli jarayonlar, qurilmalar va xokazolar bo‘lishi mumkin.

7 – mahalliy teskari bog‘langan element yoki korrektlovchi qurilma. Bu sistemaning dinamik xususiyatini yaxshilash uchun ishlatiladi.

8 – asosiy teskari bog‘lanish elementi yoki axborot datchiklari deyiladi. Bu sistemada bulayotgan jarayonlar to‘g‘risida teskari bog‘lanish zanjiri orqali ma’lumot olish uchun mo‘ljallangan.



6-rasm. Bir o‘lchamli oddiy ABT soddalashtirilgan funksional sxemasi.

Teskari bog‘lanish deb, chiqishdagi signalni kirishga berishga aytiladi. Teskari bog‘lanish quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin:

1. Musbat va manfiy teskari bog‘lanish
2. Maxalliy va asosiy teskari bog‘lanish.;
3. Birlik va nobirlik teskari bog‘lanish
   $K = 1$; $K \neq 1$.
4. Qattiq va elastik teskari bog‘lanish.



Chiqish signal kirish signali bilan qo‘shilsa **musbat teskari bog‘lanish** deyiladi. Agar teskari bog‘lanish zanjiri elementning koeffitsienti birga teng bo‘lsa, **birlik,** aks xolda **nobirlik teskari bog‘lanish** deyiladi.

Bir yoki bir necha elementni qamrab olsa **maxalliy teskari bog‘lanish,** butun sistemani qamrab **asosiy teskari bog‘lanish** deyiladi.

Qattiq teskari bog‘lanish o‘tkinchi jarayon va muvozanat rejimda, elastik teskari bog‘lanish esa faqat o‘tkinchi jarayonda ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sevinov J.U. Avtomatik boshqarish nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar” 2017.
2. Yusupbekov N.R., Muxiddinov D.P. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018, 440 b.
3. Тимохин А.Н. Моделирование систем управления с применением Matlab: учебю пособие. Москва, 2017. – 256 с.
4. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.I. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. Darslik. – T.: 2017. – 576 b.
5. Xalmatov D.A., Fadirov O.X., Iskandarov Z.E. Texnologik jarayonlarni identifikatsiyalsh va modellashtirish, darslik, “Nodirabegim” nashriyoti. T.: - 2021.

ПРИМЕНЕНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ПРОГРАММ ДЛЯ РЕШЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ ПО КУРСУ «ЭЛЕКТРОТЕХНИКА»

Axunov K. X[1]. Sodiqova Y. M[2]. Хомидов А. К[3].
[1]FarPI, t.f.n., dotsent, [2]FarPI, 10-21 CIE Magistr, [3]FarPI, HO

Аннотация: Бу мақолада инсон фаолиятининг ҳар хил соҳаларидаги амалий масаларни ечишга компьютер дастурларини қўллаш долзарблиги ёритилган. Чизиқли тенгламалар системаларини ечиш учун «DELPHI» дастурлаш тилида дастур берилган. Бу дастурни қўлланилиши электротехникадаги чизиқли ўзгармас ток занжирларини ҳисоблаш мисолида кўрсатилган.

Аннотация: В этой статье освещена актуальность применения компьютерных программ для решения практических задач в различных сферах деятельности человека. Дана программа на языках программирования «DELPHI» для решения систем линейных уравнений. Показан пример применения программы для расчёта линейных электрических цепей постоянного тока в электротехнике.

Annotation*:* In this article the urgency of application of computer programs for the decision of practical tasks in various fields of activity of the person is covered. Also the example of application of the program for calculation of linear electric circuits of a direct current in the electrical engineer is shown and the program in programming languages "DELPHI" is given.

После обретения нашей Республикой независимости для её экономического и социального развития открылись большие возможности. С первых шагов независимости больше внимания стало уделяться внедрению в жизнь современных информационных технологий, компьютеризации всей деятельности человека.

Роль информатики в современных условиях постоянно возрастает. Деятельность, как отдельных людей, так и целых организаций всё в большей степени зависит от их информированности и способности эффективно использовать имеющуюся информацию. Внедрение компьютеров, современных средств переработки и передачи информации в различные индустрии послужило началом процесса, называемого информатизацией общества. Современное материальное производство и другие сферы деятельности всё больше нуждаются в информационном обслуживании, переработке огромного количества информации. Информатизация на основе внедрения компьютерных и телекоммуникационных технологий является реакцией общества на потребность в существенном увеличении производительности труда в информационном секторе общественного производства, где сосредоточено более половины трудоспособного населения.

В повседневной жизни мы часто встречаемся с важными задачами практического значения, но с ними иногда трудно справиться вручную. Для их решения сначала необходимо создать математическую модель задачи, т.е. представить её в математических формулах и выражениях.

В данной работе представлена и вынесена на рассмотрение программа по вычислению неизвестных величин в системе из n уравнений с n неизвестными величинами. Программа приведена на языках «DELPHI» [1].

Применение этой программы многогранно, так как система из n уравнений с n неизвестными величинами встречается в различных областях деятельности человека и в различных сферах науки.

Программа основана на методе решения системы из n уравнений с n неизвестными величинами по методу Гаусса. Применение программы невозможно, когда имеются одинаковые коэффициенты в каждом отдельно взятом уравнении системы, так как в этом случае имеется бесконечное множество решений. Например, в системе:

$$5x_1 + 5x_2 + 5x_3 = 20$$
$$2x_1 + 2x_2 + 2x_3 = 8$$
$$7x_1 + 7x_2 + 7x_3 = 28.$$

Покажем на примере, как программа применяется в электротехнике при расчёте линейных электрических цепей постоянного тока. Необходимость её применения состоит в том, что она позволяет значительно сократить время расчёта и облегчает умственный труд при расчёте.

Для начала установим произвольные условно-положительные направления токов в ветвях схемы [2,3,4].

Для определения токов во всех ветвях схемы методом контурных токов будем полагать, что в каждом независимом контуре течёт свой контурный ток. Уравнения составим относительно контурных токов, потом определим токи ветвей через контурные токи. Число неизвестных равно числу уравнений, составленных по второму закону Кирхгофа.

В схеме три независимых контура. Обозначим контурные токи через I_{11}, I_{22}, I_{33}. Условно-положительные направления контурных токов можно выбрать произвольно. Для нашего случая их направления выбираем по часовой стрелке и по нему соответственно обход контура. Тогда по второму закону Кирхгофа получим:

$$- I_{11}(R_1 + R_3 + R_4) - I_{22}R_1 - I_{33}R_3 = E_3$$
$$- I_{11}R_1 + I_{22}(R_1 + R_2 + R_6) - I_{33}R_6 = -E_2$$
$$- I_{11}R_3 - I_{22}R_6 + I_{33}(R_3 + R_5 + R_6) = -E_3$$



Обозначим $I_{11}=x_1$; $I_{22}=x_2$; $I_{33}=x_3$. Подставляя значения сопротивлений R_1=55, R_2=80, R_3=100, R_4=40, R_5=70, R_6=120 и ЭДС, E_2=25, E_3=15 получим систему уравнений для определения токов:

$$195x_1 - 55x_2 - 100x_3 = 15$$
$$- 55x_1 + 255x_2 - 120x_3 = -25$$
$$-100x_1 - 120x_2 + 290x_3 = - 15$$

Для решения последней системы уравнений воспользуемся программой на языках «DELPHI» (см. Приложение 1) и получим следующие результаты:

$x_1 = - 0{,}042;$
$x_2 = - 0{,}172$
$x_3 = - 0{,}137$

Отсюда:

$I_1 = I_{11} - I_{22} = - 0{,}042 + 0{,}172 = 0{,}13$ А
$I_2 = I_{22} = - 0{,}172$ А
$I_3 = I_{11} - I_{33} = - 0{,}042 + 0{,}137 = 0{,}095$ А
$I_4 = I_{11} = - 0{,}042$ А
$I_5 = I_{33} = - 0{,}137$ А
$I_6 = I_{33} - I_{22} = - 0{,}137 + 0{,}172 = 0{,}035$ А



Знаки (–), полученные в результате определения токов в ветвях, означают, что истинные направления токов в ветвях имеют противоположное направление относительно условно-положительного направления токов соответствующих ветвей. Истинные направления токов в ветвях цепи приведены штриховыми линиями.

Приложение 1

Программа на языке программирования «DELPHI»

```
label 1, 2, 3, 4;

var
A:array[1..1000, 1..1000] of real;
B, X:array[1..1000] of real;
N, I, J, K: integer;
A1 :real;

begin
WRITE ('INPUT THE AMOUNT OF UNKNOWN NUMBERS: N:=');
READLN (N);
FOR I := 1 TO N DO
 begin
  FOR J := 1 TO N DO
   begin
    WRITE ('INPUT THE FACTOR OF THE ',J,' UNKNOWN NUMBER OF THE ',I,'
EQUATION: A(', I, ',', J, ')=');
    READLN (A[I, J]);
   end;
  WRITE ('INPUT THE RESULT OF THE EQUATION: B(', I, ')=');
  READLN (B[I]);
 end;
FOR K := 1 TO N - 1 do
 begin
  IF A[K, K] <> 0 THEN GOTO 2;
   FOR I := K + 1 TO N do
    begin
     IF A[I, K] <> 0 THEN GOTO 1;
    end;
```

```
  WRITELN ('NO DECISION');
  GOTO 4 ;
1: FOR J := K TO N do
 begin
  A1 := A[I, J];
  A[I, J] := A[K, J];
  A[K, J] := A1;
 end;
  A1 := B[I];
  B[I] := B[K];
  B[K] := A1;
2: FOR I := K + 1 TO N do
     A[K, I] := A[K, I] / A[K, K] ;
  B[K] := B[K] / A[K, K];
 FOR I := K + 1 TO N do
   begin
    FOR J := K + 1 TO N do
      A[I, J] := A[I, J] - A[K, J] * A[I, K];
    B[I] := B[I] - A[I, K] * B[K]
   end;
 end;
IF A[N, N] = 0 THEN
  begin X[N] := 1; GOTO 3 ; end;
X[N] := B[N] / A[N, N];
3: FOR I := N - 1 DOWNTO 1 do
   begin
    X[I] := B[I];
    FOR J := I + 1 TO N do
      X[I] := X[I] - A[I, J] * X[J];
   end;
FOR I := 1 TO N do
   begin
    WRITELN ('X(', I, ')= ',X[I]:3:3);
   end;
4: READLN;
end.
```

ЛИТЕРАТУРА

1. Бобровский С. «DELPHI 7». М.- СПб. «Питер». 2005. 736 с.

2. Ирматов С.Х. Методические указания по расчету контрольных заданий по курсу ТОЭ (Линейные цепы постоянного тока). ФерПИ, 2002. 17 с.

3. Нигматов Ж.М., Ахунов К.Х., Хомидов А.К. “Назарий электротехника” фанидан амалий машғулотларни бажариш учун услубий қўлланма. ФарПИ, 2021. 92 б.

4. Ахунов К.Х., Хомидов А.К. “Назарий электротехника” фанидан хисоб-график ишлари (чизиқли ўзгармас ток электр занжирлари)ни бажариш учун услубий қўлланма. ФарПИ, 2020. 20 б.

SANOAT BINOLARINI LOYIHALASHNING UMUMIY ASOSLARI

Botirova Nodira Sherali qizi, Abdikomilova Mohinur Jamoliddin qizi
Jizzax politexnika instituti talaba
Botirov Bektosh Farhod o‘g‘li, assistent
korreys95@gmail.com

Barcha sanoat ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish tarmoqlari bo‘yicha tasniflanadi. Ishlab chiqarish tarmog‘i - bu xalq xo‘jaligi tarmog‘ining ajralmas bir qismi bo‘lib, u transport, yoqilg‘i, energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va h.k. tarmoqlardan tashkil topadi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmog‘ida jami 15 dan ortiq yirik tarmoqlar mavjuddir. Yirik tarmoqlar o‘z navbatida 160 dan ortiq kichik tarmoqlarga ajratilgan. Qurilish sohasi iqtisodiyotning alohida sohasi sifatida qaraladigan bo‘lsa, tarmoq, transport qurilishi, qishloq xo‘jalik qurilishi, turar-joy qurilishi, kommunal xo‘jalik qurilishi va h.k. kichik sohalarga ajratilgan. Qurilish ishlarini olib borish va loyihalash tizimlarida tarmoqni turlanish asos qilib olingan va ushbu asosda sanoat binolari turlarga ajratib tasniflanadi.

Har qanday tayyor mahsulotlar va yarim fabrikatlar ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan korxonalar sanoat korxonalari deb yuritiladi va mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sanoat korxonalarida olib boriladigan texnologik jarayonlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki qisman bo‘lsada aloqador va texnologik jarayonlar yuritiladigan binolar sanoat binolari deb ataladi. Har qanday sanoat korxonalari qanday turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishidan qatiy nazar o‘z tarkibida quyida keltiriladigan bino turlariga ega bo‘lishi shart:

- asosiy ishlab chiqarish binolari;
- energetika binolari;
- transport-omborxona xo‘jalik binolari;
- yordamchi binolar.

Sanoat korxonalarining asosiy ishlab chiqarish binolarida sanoat korxonasida ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlar yoki yarim fabrikat shaklidagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi va istemol uchun uzatiladi (M: mexanik yig‘ish, to‘quv, temirchilik, shtamplash, termik ishlov berish, temir beton mahsulotlar ishlab chiqarish va h.k. sexlar).

Sanoat korxonalarining energetika binolarida korxonada bo‘lib o‘tadigan texnologik jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan energetik jarayonlar amalga oshiriladi (issiqlik energetika qurilmalari, transformator stansiyalari, issiqlik qurilmalari, kompressor qurilmalari va h.k.lar joylashtirilgan binolar).

Sanoat korxonalarining transport-omborxona xo‘jalik binolariga transport parklari, garajlar, xom ashyo va tayyor mahsulotlar omborlari hamda xo‘jalik ishlari uchun mo‘ljallangan binolari kiritiladi.

Sanoat korxonalarining yordamchi binolariga ma’muriy, maishiy, xizmat ko‘rsatuvchi, ovqatlanish, tibbiyot va boshqa xizmatlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan binolari kiritiladi.

Sanoat korxonalarining binolari quyidagi belgilariga qarab klassifikatsiyalanadi:

a) mo‘ljallanishiga qarab :

1-guruh: - og‘ir sanoat, mashinasozlik, qurilish buyumlari va mahsulotlari ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan sanoat korxonalari binolari (mashinasozlik va og‘ir sanoat zavodlarining quyuv, tokarlik, frezerlash, chilangarlik-temirchilik, mexanik – yig‘ish, tamirlash sexlari, qurilish korxonalarining ustunlar, to‘sinlar, tomning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalari ishlab chiqarish sexlari va h.k. lar);

2-guruh: - tayyorlanishi bo‘yicha yengil vazngа ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan sanoat korxonalari binolari (yengil sanoat korxonalari, mebel, tikuv trikotaj fabrikalari sexlari va boshqa korxonalarning sexlari);

3-guruh: - texnologik jarayonlarni olib borishda olovga va kimyoviy jarayonlarga tez beriluvchan xususiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarni tayyorlovchi sanoat korxonalari binolari (neft va neft mahsulotlarni qayta ishlovchi, ishlab chiqarish jarayonida ishqorlar, kislotalar va boshqa turdagi kimyoviy reaksiyalarga hamda olovga tez beriluvchan mahsulotlar bilan ish olib boruvchi korxonalarning sexlari va h.k. lar);

4-guruh: - tayyorlanish jarayonida va texnologiyada o‘ta kuchli aniqlikni va sifatni talab etuvchi mahsulotlarni tayyorlovchi sanoat korxonalari (yuviler mahsulotlari, elektronika mahsulotlari, oziq-ovqatlar ishlab chiqarish korxonalarining sexlari va h.k. lar);

b) Hajmiy-tarxiy yechimlarida konstruktiv loyihalanashiga qarab: -karkassiz va karkasli;

v) Hajmiy-tarxiy yechimlarida qavatlar soniga qarab: - bir qavatli, ikki kavatli va ko‘p qavatli;

g) Yuk ko‘taruv transport jihozlarining mavjudligiga qarab: - yuk ko‘taruv transport jihozlariga ega bo‘lgan va yuk ko‘taruv transport jihozlariga ega bo‘lmagan;

d) Tom tuzilishining konstruktiv sxemasi bo‘yicha: - karkasli tekis tom yopma konstruksiyali (to‘sin, ferma, arka va ramali konstruksiyalardan), karkasli fazoviy tom yopma konstruksiyali (qobiqli, tahlama, gumbaz, kesishgan chaparasta konstruksiyali va h.k. lar);

e) Asosiy yuk ko‘taruv konstruksiyalarining tayyorlanish mahsulotiga qarab: - temir-beton karkas konstruksiyali, metall karkas konstruksiyali, g‘isht-tosh devorli, metall va yog‘och konstruksiyali;

j) Isitish sistemasining mavjudligiga qarab: - isitiladigan va isitilmaydigan;

z)Shamollatish sistemasining mavjudligiga qarab: - to‘siq konstruksiyalarida joylashtirilgan maxsus yoriqlar orqali tabiiy shamollatiladigan, maxsus shamollatish qurilmalari yordamida suniy shamollatiladigan, belgilangan parametrlar nazorat etilib maxsus kondinsionerlar yordamida sovutiladigan (harorat, namlik, havoning tozalik darajasi va h.k.);

i)Yoritish sistemasining mavjudligiga qarab: -tabiiy yoritiladigan, suniy yoritiladigan, aralash yoritiladigan;

k) Tom profili bo‘yicha: -fonar qurilmalari bilan, fonar qurilmasiz;

l) Tomdan suvning oqishiga qarab: -uyushtirilgan yoki uyushtirilmagan;

m) Binoning issiqlik-namlik rejimidan kelib chiqib issiqlik va par saqlovchi qatlamga ega bo‘lgan (uteplenniye), issiqlik va par saqlovchi qatlamga ega bo‘lmagan (neuteplyonniye).



1-rasm. Bir qavatli sanoat binolarining turlari.

a) bir qavatli bir proletli bino, osma turdagi yuk ko‘taruv jihozi bilan; b)bir qavatli bir proletli bino, ko‘prikli turdagi yuk ko‘taruv jihozi bilan; v)bir qavatli ikki prolyotli bino, osma turdagi yuk ko‘taruv jihozi bilan; g)ko‘p proletli prolyotlar balandligi har xil bino, ko‘prikli turdagi yuk ko‘taruv jihozi bilan; d)ko‘p proletli, fonarli bino, osma turdagi yuk ko‘taruv jihozi bilan; e, j)fonarli ko‘p prolyotli bino, ko‘prikli turdagi yuk ko‘taruv jihozi bilan; i)bir qavatli sanoat binosining umumiy ko‘rinishi.

Barcha sanoat binolari quyidagi belgilariga qarab to‘rt sinfga ajratiladi va o‘z-o‘zidan ma’lumki ularni loyihalash va qurish ishlarini amalga oshirishda ularga alohida ekspluatatsion talablar qo‘yiladi.

Uzoq muddatli xizmat qilish bo‘yicha sanoat binolari uch darajaga bo‘linib I-darajaga kiritiluvchi binolar kamida 100 yil, II-darajaga kiritiluvchi binolar kamida 50 yil, III-darajaga kiritiluvchi binolar kamida 20 yil xizmat ko‘rsatish muddatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.B.Berdiyev, B.Botirov “Sanoat binolari” o‘quv qo‘llanma. 2022

2. ShNQ 1.01.01-09.Qurilish sohasidagi normativ xujjatlar tizimi.
3. QMQ 2.01.06-97 Qurilishda qo‘llaniladigan fizik kattaliklar birliklari ro‘yxati.
4. SHNQ 1.03.01-03 Korxonalar, binolar va inshootlar uchun kapital qurilishning loyiha xujjatlari tarkibi, uni tayyorlash, ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash.
5. SHNQ 1.03.07-10. Qurilishda mualliflik va texnik nazorat to‘g‘risidagi NIZOM.
6. SHNQ 2.01.02-04. Bino va inshootlarning yong‘in xavfsizligi.
7. QMQ 2.01.03-96. Zilzilaviy tumanlarda qurilish.
8. QMQ 2.01.01-94. Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy geologik ma’lumotlar.

MATLAB SIMULINK DASTURIY TA'MINOTIDA ELEKTR UZATISH LINIYASINI MODELLASHTIRISH

Ibragimov Iskandar Isroilovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
iskandarisroilovich@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada kuchlanishi 220 kV, chastotasi 50 Hz va uzunligi 40 km bo‘lgan havo uzatish liniyani elektr hisobi berilgan. Matlab (Simulink) dasturida elektr tarmoqning modeli ishlab chiqilib, liniyani boshidagi va oxiridagi kuchlanish, quvvatlar hamda kuchlanish, quvvatlar hamda kuchlanish og‘ishi tadqiq qilindi va liniyani foydali ish koeffitsiyenti aniqlandi.

Аннотация. В этой статье рассмотрено электрический расчёт линий электропередач 220 кВ, протяжённостью 40 км и частотой 50 Гц. С помощью программы Matlab (Simulink) создана модель электрической сети и рассчитать сопротивление и потери напряжения по линии.

Annotation. This article discusses the electrical calculation of 220 kV power lines, 40 km long and 50 Hz frequency. Using the Matlab (Simulink) program, a model of the electrical network was created and the resistance and voltage losses along the line were calculated.

Kalit so‘zlar: elektr uzatish liniyasi, Matlab Simulink, quvvat, kuchlanish, foydali ish koeffitsiyenti, kuchlanishni isrofi

Ключевые слова: линия электропередач, Matlab Simulink, мощность, напряжение, коэффициент полезной мощности, потери напряжения

Keywords: power line, Matlab Simulink, power, voltage, useful power factor, voltage loss

MATLAB tizimining SimPowerSystems kutubxonasi konkret qurilmalarni modellash uchun mo‘ljallangan Simulink paketining qo‘shimcha kutubxonalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. SimPowerSystems elektrotexnik qurilmalarni imitatsion modellash uchun bloklar to‘plamiga ega. Kutubxonaning tarkibiga passiv va aktiv elektrotexnik elementlar, energiya manbalari, elektrodvigatellar, transformatorlar, elektr uzatish liniyalari va boshqa qurilmalarning modellari kiradi. Unda kuch elektronikasi qurilmalarini va ularni boshqarish sistemalarini modellash uchun mo‘ljallangan bloklarni o‘z ichiga oluvchi bo‘lim ham mavjud. Simulink va SimPowerSystemsning maxsus imkoniyatlaridan foydalanib quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

- qurilmalarning ishlashini imitatsiya qilish;
- sistemaning rejimlarini hisoblash;
- zanjir uchastkasining impedansini (to‘la qarshiligini) hisoblash;
- chastotaviy xarakteristikalarni olish;
- turg‘unlikni tahlil qilish;
- tok va kuchlanishlarni garmonik tahlil qilish.

Bundan tashqari murakkab elektrotexnik tizimlarni modellashda imitatsion va tarkibiy modellash usullaridan birgalikda foydalanish mumkin. SimPowerSystems bloklaridan foydalanib tuzilgan modelda Simulink paketining boshqa bibliotekalarining bloklaridan hamda MATLAB funksiyalaridan ham foydalanish mumkin, natijada elektrotexnik tizimlarni modellashda foydalanuvchi cheklanmagan imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

SimPowerSystems kutubxonasi juda keng hisoblanishiga qaramasdan kerakli blok kutubxonada topilmasa, bunday blokni foydalanuvchining o‘zi ham yaratishi mumkin. Bunda kutubxonada mavjud bloklarga asoslanib Simulinkning ost tizimlar yaratish imkoniyatlaridan yoki

Simulink asosiy kutubxonasi bloklari va boshqariluvchi tok va kuchlanish manbalaridan foydalaniladi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda Simulink tarkibidagi SimPowerSystems elektrotexnik qurilmalar va tizimlarni modellash uchun eng yaxshi vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

SimPowerSystems kutubxonasi yettita asosiy bo‘limga ega:

- *Electrical Sources* -elektr energiya manbalari;
- *Connectors* - ulagichlar;
- *Measurements* – o‘lchash va nazorat qurilmalari;
- *Elements*-elektrotexnik elementlar;
- *Power Electronics* -kuch elektronikasi qurilmalari;
- *Machines*-elektr mashinalari;
- *Powerlib Extras*-qo‘shimcha elektrotexnik qurilmalar.



1-rasm. *SimPowerSystems kutubxonasi tarkibi.*

SimPowerSystems maxsus texnologiyalar kutubxonasida transformatorlar, elektr uzatish liniyalari, elektr mashinalari va sanoat elektronikasi kabi qurilmalar modellari mavjud. Sodda elektr ta’minoti tizimini modellashtirish uchun sodda dasturiy tizimlar ta'minoti imkoniyatlari namuna sifatida ko'rsatilgan. Elektr energetika tizimi bo‘yicha murakkab masalalarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqot qilish uchun amaliy tadqiqotlar ham mavjud. [2]

Qisqa vaqt ichida yuqoridagi bloklardan foydalanib, siz murakkab elektr ta’minoti tizimining to'liq modelini yaratishingiz va modelning ishlash rejimlarini tadqiq etishingiz mumkin.

Elektr tarmoqlarini hisoblashda biz chiziqli tenglamalarning murakkab tizimlarini yechish bilan birga murakkab elektr tarmoqlarni hisoblash kabi ba'zi qiyinchiliklarga duch kelamiz.[1]

Ushbu jarayonni soddalashtirish uchun biz MATLAB (Simulink) dasturiy ta’minotida elektr ta’minoti tizimi parametrlarini hisoblashni PowerGui (elektr ta’minoti tizimlari uchun ixtisoslashtirilgan blok texnologiyasi) yordamida modellashtirdik.

Hisoblash uchun 40 km uzunlikdagi 220 kV, 50 Hz kuchlanishli elektr uzatish liniyasi qabul qilindi, ko‘rilayotgan tarmoqning boshi va oxiridagi kuchlanish va quvvatni tadqiq etildi.

1 km uchun liniyaning aktiv qarshiligi quyidagicha:

R=0.15 Ω

40 km uzunlikdagi elektr uzatish liniyasi aktiv qarshiligini aniqlaymiz:

R=0.15 × 40Ω=6 Ω

1 km uchun liniyaning induktiv qarshiligi quyidagicha:

$$L = 1.3263 \cdot 10^{-3}\ H$$

40 km uzunlikdagi elektr uzatish liniyasi induktiv qarshiligini aniqlaymiz:

$$L = 1.3263 \cdot 10^{-3} \times 40 = 0.053052\ H$$

40 km uzunlikdagi elektr uzatish liniyasi to‘la qarshiligini aniqlaymiz:

$$Z = (r + \omega \times L) \times l$$

$$Z = (0.15 + j \times 2 \times f + 1.3263 \times 10^{-3}) \times 40$$

$$Z = (6 + j20)\Omega$$

Elektr uzatish liniyasi to‘la qarshiligi quyidagicha:

$$S_{(3\phi)} = 381\ MVA$$

Elektr uzatish liniyasidagi aktiv va reaktiv qarshiliklarni aniqlab olamiz:

$$S_{R(3\phi)} = 381\ \text{MBA}\angle\cos^{-1}(0.8) = 381 \times (\cos(36.87) + j\sin(36.87))$$

$$S_{R(3\phi)} = (304.8\ \text{МВт} + j228.6\ MVAr)$$

$$P_{R(3\phi)} = 304.8\ MW$$

$$Q_{R(3\phi)} = j228.6\ MVAr$$

Liniyaning tok va kuchlanishlarini aniqlaymiz:

$$U_L = 220\ kV$$

Har bir fazadagi kuchlanishni aniqlaymiz:

$$U_F = 220/\sqrt{3} = 127\ kV$$

Faza toklarini aniqlab olamiz:

$$I_R = \frac{S^*_{R(\phi)}}{3\times U_R} = \frac{381\times10^6\angle -36.87^\circ}{3\times127\times10^3} = \frac{381\times10^3\angle -36.87^\circ}{3\times127} = 1000\angle -36.87^\circ\ A$$

Fazalardagi kuchlanishlar va liniya kuchlanishlarini aniqlab olamiz:

$$U_S = U_S + I_R\times Z = 127\angle0^\circ\text{кВ} + (1000\angle -36.87^\circ)\times(6 + j20)$$

$$U_S = 127000\angle0^\circ\text{В} + (1000\times(\cos(36.87^\circ)) + j\sin(-36.87^\circ))\times(6 + j20)$$

$$U_S = 144.33\angle4.93^\circ\text{кВ}$$

Liniyaning kuchlanishini aniqlab olamiz:

$$U_{S(Л)} = \sqrt{3}\times U_{s(\Phi)} = \sqrt{3}\times144.33\angle4.93^\circ\text{кВ} = 250\ kV$$

Liniyaning tokini aniqlab olamiz:

$$I_S = I_R = 1000\angle -36.87^\circ\ A$$

Elektr uzatish liniyasining uzatilgan toki joriy tokka teng.

Uzatilgan to‘la, aktiv va reaktiv quvvatlarni aniqlaymiz:

$$S_S = 3\times U_{s(\Phi)}\times I_S^* = 3\times144.33\times10^3\angle4.93^\circ\times1000\angle36.87^\circ$$

$$S_S = 322.8\ \text{МВт} + j288.6\ \text{МВАр} = 433\angle41.8^\circ\ MVA$$

$$P_{S(3-\phi)} = 322.8\ MW$$

$$Q_{S(3-\phi)} = 288.6\ MVAr$$

$$S_{S(3-\phi)} = 433\angle41.8^\circ\ MVA$$

Kuchlanish isrofini aniqlaymiz:

$$\%U_П = \frac{U_S - U_L}{U_L}\times100 = \frac{250 - 220}{220}\times100 = 13.6\ \%$$

Liniyaning foydali ish koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$\eta = \frac{P_{L(3-\phi)}}{P_{S(3-\phi)}}\times100 = \frac{304.8}{322.8}\times100 = 94.4\ \%$$

Yuqoridagi keltirilgan hisoblar yordamida elektr uzatish liniyasining imitatsion sxemasini Matlab Simulink dasturida SimPowerSystems bloki orqali yaratib olamiz.



2-rasm. *Matlab (Simulink)dasturidagi elektr uzatish liniyasining modeli*

Yaratgan imitatsion sxemamizni qo'shimcha bloklar bilan yanada takomillashtirib, quyidagi natijalarni hosil qilamiz.:



2-rasm. *Matlab Simulink dasturidagi hisobiy natijalarning ko'rinishi.*

Заключение

Ushbu tadqiqot davomida elektr ta’minoti tizimi parametrlari tegishli hisoblar yordamida aniqlangan va Matlab Simulinkda modellashtirilgan. Elektr uzatish liniyasining parametrlarini Matlab (Simulink)da modellashtirish natijalari va hisoblangan ma'lumotlar bilan taqqoslaganda natijalarning bir-biriga juda yaqin chiqqanligini va xatoliklar juda kichik qiymatda bo‘lganligini aniqlashimiz mumkin.

Matlab Simulinkni afzalligi shundaki, dasturda foydalinish oson va qulay, modellashtirish natijalari haqiqiy qiymatlar bilan deyarli mos. Bu dastur muhandislik faoliyatini samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratib bera oladi.

Adabiyotlar

1. Чёрных И.В. Моделирование электрических устройств в Matlab, SimPowerSystems и симулинк, 2008 -изд. Питер-288 с.
2. Dadajonov T. MATLAB asoslari, Darslik -598 bet, Farg‘ona -Texnika nashriyoti, 2008 y.
3. И.Черных. Simulink: среда создания инженерных приложений. Диалог-МИФИ. 2003.

DASTURLI TA'LIM VA MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Jo‘rayeva Bonu Shoxtiyor qizi
Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada modulli tizim tushunchasi,modulli tizimning tarkibiy qismlari.modulli o‘qitish texnologiyasining tamoyillari,dasturli ta'limning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Dasturli ta'limni vujudga kelish tarixi,dasturli ta'lim turlari. Masofaviy ta'lim va uni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari va o‘quv dasturi doirasida taqdim etilayotgan o‘quv materiallarining samaradorligini aniqlash haqida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, tamoyillar, pedagogik texnologiyalar, o‘quv materiali, ta’lim uslubi, modul, bilim.

Dasturlashtirilgan o‘qitish XX asrning 50-yillari boshida paydo bo‘ldi. U amerikalik psixolog B.Skinner nomi bilan bog‘liq. U materiallarning o‘zlashtiri-lishini boshqarishning samaradorligini oshirishda, axborotlarni qismma-qism uzatishning muntazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi.N.Krauder tarmoqlangan dasturni ishlab chiqdi, unda nazorat natijalariga ko‘ra ta'lim oluvchilarga mustaqil ishlar uchun turli xildagi materiallar tavsiya etiladi.

G.K.Selevko dasturlashtirilgan o‘qitishga quyidagi ta'rifni beradi, ya'ni dasturlashtirilgan o‘qitish deganda o‘qitish uskunalari (EHM, programmalashtirilgan darslik, kinotrenajer va b.) yordamida programmalash-tirilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilishini boshqarishni tushunadi.

Dasturlashtirilgan o‘quv materiali muayyan mantiqiy izchillikda beriladigan nisbatan katta bo‘lmagan o‘quv axborotlari («kadrlar», «fayllar», «odimlar») seriyasidan iborat bo‘ladi.

Dasturlashtirilgan ta'lim o‘z mazmuni va tuzilishiga hamda maqsadiga ko‘ra juda aniqlashtirilgan maqsadli ta'lim tizimiga o‘xshashdir.Bu tizimda ham barcha ish faoliyati oxirgi natijaga qaratilgan bo‘lib, kichik-kichik qadamlar bilan o‘zlashtirish asos bo‘lib xizmat qiladi. Dasturlashtirilgan ta'lim ko‘proq talabalarning imkoniyatlarini hisobga olish va individual yondashish yo‘nalishiga asos hozirlaydi.

Dasturli ta'limning asosiy mazmuni shundan iboratki pedagog butun o‘quv materialini bir necha qismlarga bo‘lib chiqadi. Bu bilimlar soddadan murakkabga qarab joylashtiriladi. Har bir qism haqida to‘la axborot berilgach, ana shu qismni o‘zlashtirilganlik darajasi tekshirib boriladi. Barcha talabalar o‘zlashtirib olganliklariga ishonch hosil qilishlari bilan, ikkinchi qismga o‘tiladi va bu bilimlar ham mukammal o‘zlashtirilganligi aniqlangach, o‘quv materialini keyingi qismi o‘rganiladi. Dasturlashtirilgan ta'limning asosiy vazifasi kichik-kichik qadamlar bilan o‘quv materialini talabalarga etkazishdir va bunda o‘zlashtirish doimiy monitoring ostida kuzatishdan iborat bo‘ladi. Har bir qadamni qay darajada o‘zlashtirishni kuzatish o‘zining afzalliklariga ega. Bunda talabalar o‘quv materialini qaysi qismini chuqur va qaysi qismini zaif o‘zlashtirganligi haqidagi ma'lumot ham darhol yuzaga chiqadi. Noaniqliklar va tushunmovchiliklar o‘z vaqtida to‘g‘rilab boriladi.

Agar an'anaviy darsda faqat o‘quv materialini o‘rganib bo‘lgandan keyingina mustahkamlashga va tekshirishga e'tibor berilsa, dasturli ta'limda o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonining hamma bosqichlari nazorat qilib boriladi. Dasturli ta'lim tushunchasi metodikada 60-yillardan boshlab rivojlana boshladi. Ammo hanuzgacha keng tarqalmagan. Chunki bu metod pedagogdan ko‘p mehnat va ijod talab etadi. Ushbu metodni ijobiy tomonlari shundan iboratki, o‘quv materialini mantiqiy bo‘laklarga ajratilishi bilimlarni tizimli o‘zlashtirishga yordam beradi. Har bir bosqichda o‘zlashtirishni monitoring qilib borilishi esa har bir talabani o‘zlashtirish darajasini tekshirib borish va vaqtida tuzatishlar kiritishga imkon beradi. Birinchi qismni egallanmay turib, ikkinchi qismga o‘tilmaydi. Natijada yangi mavzuni barcha talabalar yaxshi o‘zlashtiradilar.

Talabaga bo‘lgan individual yondashuv yaxshilanadi, chunki bunda har bir talabaning nafaqat bilimi balki o‘ziga xos xususiyatlari ham namoyon bo‘lib boradi. Talaba shaxsini yaxshiroq o‘rganishga imkon tuqiladi. O‘qituvchi va talaba o‘rtasida uzviy aloqa hosil bo‘ladi. Ammo bu metodni o‘ziga xos kamchiliklari ham bor. Bu usulni chegaralangan miqdordagi talaba guruhi bilan ishlaganda qo‘llash mumkin. O‘qituvchidan nazorat va tekshirish ishlarini tuzish talab etiladi. Agar o‘rganiladigan mavzu yaxlit marakkab bog‘lamli mantiqqa ega bo‘lsa, uni bosqichlarga bo‘lib o‘rganish noo‘rin. Bu metod ketma-ket zanjirli bog‘lamga ega bo‘lgan mavzularda qo‘llanilishi yaxshi samara beradi. Bu metod talabada ko‘proq esda saqlash, axborotni yodlab olish kabi malakalarini rivojlantiradi. Shuning uchun uni muammoli ta'lim bilan muvofiqlashtirgan holda qo‘llash kerak. Muammoli ta'limni ko‘proq seminar darslarda o‘tkazish, dasturli ta'limdan esa ma'ruzalarda foydalanish qulay.

Dasturlashtirilgan ta'limning asosiy vazifasi - kichik-kichik qadamlar bilan o‘quv materialini talabalarga etkazish va o‘zlashtirish jarayonini doimiy nazorat qilib borishdan iborat. Bunda mavzuni qaysi qismi chuqur va yuzaki o‘rganilganligi ma'lum bo‘ladi va kamchiliklarni darhol tuzatish imkoni tug‘iladi. Bu tushuncha 50-yillardan boshlab, AQSHlik psixolog B. Skinner tomonidan rivojlana boshlangan bo‘lsada, hanuzgacha keng tarqalmagan. Uning o‘ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlari bor.Dasturlashtirilgan ta'lim nafaqat kompyuter yordamida, balki kompyuter ishtirokisiz ham tashkil etilishi mumkin. Bunda o‘quv jarayoni o‘ta aniqlik bilan loyihalanadi. Ammo kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda darsning tashkil etilishi dars samaradorligini yanada oshishiga yordam beradi.Kompyuterda dasturlashtirilgan ta'lim o‘zining yuqori imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Dasturlar turlicha ko‘rinishda tuzilishi mumkin.

"Modulli o‘qitish" termini xalqaro tushuncha-modul bilan bog‘liq bo‘lib, uning bitta ma'nosi - faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘lik elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki

sifatida tushuniladi.Modulli o‘qitish-o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki odam bosh miyasi o‘zlashtirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi bo‘lib 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjaxon Konferentsiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi - funktsional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyaning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.Modulli o‘qitish-o‘quv jarayonini tashkil etish shakli bo‘lib, unda o‘qitish o‘quv materialining mantiqan tugallangan birliklari modullarni, bosqichlar va qkadamlar bo‘yicha o‘zlashtirishni anglatadi.O‘qitishning modulli texnologiyasi, o‘qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq ishlab chiqariladi va amalga oshiriladi.Modulli o‘qitish modullar bo‘yicha tuzilgan o‘quv programmalari asosida o‘qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to‘la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o‘zida barcha ehtimol ko‘rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so‘z bilan berilishi mumkin.

O‘qitish moduli o‘quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo‘lib, quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- aniq ifodaga ega bo‘lgan o‘quv maqsadi (maqsadli programma);
- axborotlar banki: o‘qitish programmasi shaklidagi ayni o‘quv materiali;
- maqsadlarga erishish bo‘yicha metodik qo‘llanma;
- zaruriy malakalarni shakllantirish bo‘yicha amaliy mashgulotlar;
- qo‘yilgan modul maqsadiga qatiy muvofiq keluvchi nazorat ishi.

Pedagogik texnologiyalarning elementar birliklari tizimi modullardan tashkil topadi.Modul – pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo‘laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo‘laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to‘plami, modullar darajasi va modullarning majmuaviy tuzilmasi kabi turlardan iborat bo‘ladi.

Modullar o‘z ko‘lamiga ko‘ra mayda, o‘rtacha va yirik bo‘lishi mumkin. Ularning bir-biriga nisbatan proportsionalligi qat'iy bo‘lmasligi, ularning o‘zaro ta'siri umumiy jarayonda turlicha bo‘lishi mumkin.Modulli o‘qitish – pedagogik jarayonni ilmiy va metodik jihatdan tartibli va maqsadga muvofiq bajarishga xizmat qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo‘laklari o‘zaro joylashuvi va pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining oldindan belgilangan tartib-qoidalari algoritm deyiladi.

Eng kichik bo‘lak pedagogik texnologiyaning o‘ziga hos qismi bo‘lib, bunday kichik modullardan birlamchi modul tashkil topadi. Modullar to‘plami o‘qitish jarayonini ilmiy tashkil etishga va uning sifat hamda samarasini ta'minlash uchun qo‘llaniladi. Modullarning o‘zgaruvchan va modernizatsiyalanadigan tabiati tufayli ulardan dinamik ravishda foydalaniladi. Modulli o‘qitish – tartibli o‘qitish demakdir. Bunda o‘quv materiali bitta o‘quv mashg‘uloti hajmida, o‘quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo‘limi darajasida, ba'zan esa o‘quv fanining yirik tarkibiy qismi o‘lchamida, ya'ni bloklar tarzida ham modullar yordamida o‘qitilishi mumkin. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir necha turdosh o‘quv fanlarining tarkibiy bo‘laklarini hamda ayrim fanlarni o‘qitish texnologiyasini tashkil qiluvchimodullar (bloklar) tarzida o‘qitish keng qo‘llanilmoqda. Davlat ta'lim standartlarining tarkibiy bo‘laklariga mos keladigan bloklardan ham foydalanilmoqda. O‘quv reja va dasturlarning tarkibiy bo‘laklarini hamda ularning bajarilishini ta'minlaydigan texnologiyaga xizmat qiluvchi modullar ham mavjud. Ta'lim usullari, metodlari va vositalari uchun qo‘llaniladigan modullar ham yaratilmoqda. Modullar, birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiy bog‘lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlari hamda ularning o‘zlashtirishini nazorat qilishda ham modullardan foydalaniladi.

Modullashtirish va o‘quv jarayonini texnologiyalash yuzasidan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Lekin bu borada o‘quv tarbiya jarayonini modullashtirish va algoritmlashtirish ishlari nihoyasiga etkazilgan emas. Bu holatning nezisi va takomillashuvini atroflicha tadqiq etish orqali va tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik eksperimentning qat'iy xulosalariga tayanib ta'lim jarayoniga modulli yondashuvni kuchaytirish mumkin. Ta'lim-tarbiya

jarayonlariga modullashtirish va algoritmlash madaniyati to‘la kirib borganida pedagogik texnologiyalarning yaratilishi va ularning amalda qo‘llanilishi borasida sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyati kuchayadi.

Quyidagi tamoyillar modulli o‘qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1. Faoliyatlik tamoyili. Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko‘ra modullar fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuvi asosida tuzilishi mumkin. Modulli o‘qitish texnologiyasiga fan bo‘yicha faoliyat yondashuvida, modullarni o‘quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

2. Tenglik, teng hukuklik tamoyili. Bu tamoyil pedagog va talabaning o‘zaro munosabati sub'ekt - sub'ektiv xarakterligini belgilaydi. Bu esa modulli o‘qitish texnologiyalarni, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqliligini ko‘rsatadi. Ya'ni modulli o‘qitish texnologiyasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo‘ladi.

3. Tizimli kvantlash usuli. Bu tamoyil axborotni siqib berish nazariyasi, muhandislik bilimlar kontsepsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi. Shular bilan bir qatorda bu tamoyil quyidagi psixologik-pedagogik konuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- katta hajmdagi o‘quv materiali, qiyinichilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;
- ma'lum tizimda kisqartirilgan holda berilgan o‘quv materiali, osonroq o‘zlashtirilali;
- o‘quv materialidagi, tayanch qismlarni ajratib ko‘rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Shu bilan bir qatorda o‘quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etishi lozim.

4. Motivatsiya (qiziqishni uyg‘otish) tamoyil. Bu tamoyilning mohiyati talabaning o‘quv-bilim olish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. Bu asos soluvchi qoidadir. Modulning o‘quv materialiga qiziqishni ug‘otish, bilim olishga rag‘batlantirish, mashg‘ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga da'vat etish, modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N.N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y
2. Sayidahmedov N.Yangi pedagogik texnologiyalar. T. “Moliya ” nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1998.
5. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b
6. www.ziyonet.uz

AUTOMATIC WATERING SYSTEM (AVTOMATIK SUG‘ORISH TIZIMI)

Karabayev Ibragim Turdiyevich
Termiz Muhandislik-texnologiya instituti assistenti
karabayev@gmail.com
Ilyosov Shohruh Baxtiyor o‘g‘li
Termiz Muhandislik-texnologiya instituti 11-20 guruh talabasi
ilyosov2003@gmail.com

Annotatsiya: Juda eski rusumdagi sug‘orish tizimlarini ham arzimagan mablag‘ evaziga zamonaviy aftomatlashtirlgan tizimga aylantirishning yo‘li va buning uchun hech qanaqa malakali texnikni keragi yoq.

Kalit so‘zlar: AWS- Automatic Watering System (Avtomatik Sug‘orish Tizimi). AWS tomchilab sug‘orish tizimlarni boshqaruvchi qurilma.

AWS bilan hattoki juda eski rusumdagi sug‘orish tizimlarini ham arzimagan mablag‘ evaziga zamonaviy aftomatlashtirlgan tizimga aylantirish mumkin va buning uchun hech qanaqa malakali texnikni keragi yoq.

Bu qurilma kodlar yordamida tuzilgan dastur orqali ishlardi. Ya’ni qurilmaga bizga kerak bo‘ladigan namlik darajasini kiritamiz so‘ng AWS kiritilgan qiymatga qarab texnalogik jarayonni bajaradi.

Automatic Watering System (avtomatik sug‘orish tizimi) loyihaga qoyilgan asosiy talablar

1. Suv sarfini maksimal darajada tejash
2. Ortiqcha energiya sarfidan qutilish.
3. Nasoslarning yaroqlilig muddatini oshirish.
4. Nasoslarning almashinuvchanligini ta’minlash.
5. Ish jarayonida inson aralashuvini kamaytirish.
6. Ishlash jarayonini soddalashtirish

Afzalliklari

1. Suv sarfini maxsimal darajada tejash
2. Ortiqcha energiya sarfidan qutilish.
3. Nasoslarning yaroqlilig muddatini oshirish.
4. Nasoslarning almashinuvchanligini ta’minlash.
5. Ish jarayonida inson aralashuvini kamaytirish.
6. Ishlash jarayonini soddalashtirish

AWS ning xususiyatlari

Ma’lumot xavsizligi yuqoriligi, ulanish jarayoni soddaligi, dastur algaritmi hovuzdagi suv miqdorini doimiy nazorat qiladi va nasoslarning ortiqcha energiya sarfini kamaytiradi.

AWS ning ishlash jarayoni

AWS 2ta signalizatr va namlik sensori orqali 2ta nasosni boshqaradi va signallari quyidagicha qayta ishlaydi

№	Holatlar	Sath chegarasi	Xavfsiz hudud	Namlik sensor	1-nasos suv manbayidan hovuzga	2-nasos hovuzdan
1	1-holat	0	0	0	0	0
2	2-holat	0	0	1	0	0
3	3-holat	0	1	0	1	0
4	4-holat	0	1	1	1	1
5	5-holat	1	1	0	0	0
6	6-holat	1	1	1	0	1

AWS NING ISHLASH JARAYONIDA INSON QILADIGAN ISHLAR

Suv manbayida uzilish bo‘lgan vaqtta AWS suv sathi hafsiz hudud oralig‘igacha tizimni nazoratda ushlaydi lekin bu hududdan pasga tushib ketganda butun boshni tizimni ishdan to‘xtatadi chunki nasoslarning erkin holda ishlashi ularning ishlash muddatini kamaytiradi.

Agar AWS tizimni butunlay ishdan to‘xtatganda aperatr suv kelishidagi muommolarni (ariqdagi yoki quvurdagi tiqilishlar) hal qilib 1chi nasosni qo‘lda suv havsiz hududga ko‘tarilguncha yaniq holda ushlab turishimiz kerak bo‘ladi .

Bu hududga kirganda esa tizim yana qayta ishga tushadi va jarayonlar avvalgidek aftomatik tarzda davom eta boshlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. England, K. (1990). *Automatic Watering System for Foxes.*
2. Mckinley, MD 2005, *Scotts sprinklers & watering systems,* Meredith Books, Des Moines, la.
3. Ortho (2006). *All About Sprinklers and Drip Systems.* Ortho Books.
4. Yit Jih Wong (2001). *Automatic Plant Watering System Controller.*
5. Kipkebut, S. (2015). *Automatic irrigation control system.* GRIN Verlag.

СУҒОРИЛАДИГАН ШАРОИТДА ҒАЛЛА ЎРИБ-ЙИҒИШ ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРИ ВА ТЕХНИКА ВОСИТАЛАРИНИНГ ТАХЛИЛИ

Каримов Р.Р, Чориев Р.Р
Термиз муҳандислик-технология институти

Аннотация: Мақолада пичан ўргичнинг конструкциялари келтирилган, яъни пичоқли ясси роторнинг суғариш жўягига нисбатан жойлашиши наза- рий ва эксперименталь тадқиқот натижалари ўрганилди.

Калит сўзлар: Сомон, табиий ўтлар, Сегмент-бармоқли, қўш брусли ярим осма, Роторли пичанўргич, ясси роторли.

Чорвачилик қишлоқ хўжалигининг муҳим тармоғи бўлиб, мамалакат аҳолисининг гўшт, сут, тухум ва ҳаётий зарур маҳсулотлар билан таъминлай ди.Кейинги йилларда чорвачиликни ривожлантириш учун ҳукумат томонидан муҳим чора-тадбирлар белгиланди.

Бугунги кунда Республика Президентининг иқтисодиётни жадаллаштириш жараёнида қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришини ривожлантириш, томарқа, ширкат, деҳқон ва фермер хўжаликлари ҳамда класстерларда чорва моллари кўпайтиришни рағбарлантиришни кучайтириш борасидаги қарор ва фармонлар яққол мисол бўла олади /1/.

Шунингдек, чорва молларини кўпайтиришда дағал ҳашак тайёрлашнинг ўрни жуда муҳимдир.

Республиканинг жанубий минтақаларида Сурхондарё вилоятининг Термиз, Қумқўрғон ва Музробод туманларида суғориладиган шароитларида буғдой ва арпа поялари донсиз қисмидан комбайнилар ёрдамида сомон ҳосил қилинади ҳамда унинг таркибида табиий ўтлар мавжуд бўлса, сомоннинг тўйимлилиги ва ейимлилиги ортди.Маълумки, ўриш аппаратларини шикастланишдан сақлаш мақсадида ва бошқа омилларни ҳисобга олган ҳолда бошоқли, донли ва озуқабоп экинлар пояларини маълум бир баландликда ўришга тўғри келади |3|.

Жумладан,комбайнларнинг ўриш баландлиги (2-жадвал) уларни ортиқча юкланишисиз ишлаши,донни нобуд қилмасдан янчиб ажратиб олишдан келиб чиқиб ўрнатилади ва 1 $м^2$даги поялар сони ва уларнинг умумий узунлигига боғлиқ равишда қуйидагича бўлиши тавсия этилади

2-жадвал. Бошоқли экинлар ўриш баландлиги

1м^{2}даги поялар сони	Поянинг умумий узунлиги, см								
	65-70	71-80	81-90	91-100	101-110	111-120	121-130	131-140	141-150
	Ўриш баландлиги,см								
200	12	15	14	15	18	21	25	25	30
300	12	16	16	17	18	22	27	28	33
400	12	17	18	18	19	24	28	30	34
500	13	17	19	20	21	25	28	30	35
600	14	18	19	20	21	27	31	33	35
700	14	18	20	21	22	28	34	35	36

Юқоридаги 1-жадвалдан кўриниб турибдики суғориладиган шароитларида буғдой ва арпа поялари донсиз қисмидан комбайнилар ёрдамида сомон ҳосил қилишда 25%-30% сомон учун яроқли буғдой ва арпа поялари ерда қолиб набудгарчиллик учрайди.

Суғориладиган шароитларида буғдой ва арпа поялари донсиз қисмидан комбайнилар ёрдамида сомон учун ўриб олингандан сўнг қолган қисмини ўриш учун турли хил конструкциядаги пичан ўргичлар ишлатилади.

Пичан ўргичлар трактор билан агрегатланишига қараб тиркалма, осма ва яримосма; ўриш аппаратининг турига қараб сегмент-бармоқли ёки роторли;ўриш аппаратининг сонига қараб бир, икки брусли; турларга бўлинади./3/

Сегмент-бармоқли қўш брусли яримосма пичанўргич тракторнинг ўнг томонига ўрнатилади (1- расм). Ўриш аппаратларининг ўнг қисми таянч ғилдирак *9* га суянади. В = 9 км/соат тезликкача ишлай олади.



1- расм. Сегмент-бармоқли қўш брусли яримосма пичанўргич:

1- кардан вали; *2* -занжирли узатма; *3* - олдинги ўриш аппаратининг ҳаракат юритмаси; *4*- орқадаги ўриш аппаратининг ҳаракат юритмаси;*5*-орқадаги экссентрикнинг қутиси; *6* - орқа экссентриги; *7* - гидросилиндр; *8*- орқадаги ўриш аппарати; *9*- пневматик таянч ғилдирак; *10*- рама; *11*- тортқи; *12* - олдинги ўриш аппарати; *13* - шатун; *14*-олдинги экссентрикнинг қутиси; *15*- тасмали узатма; *16*- домкрат; *17*— сурувчи чивиқ; *18* — тахта.

Машинага баланд ўрувчи аппарат ўрнатилган бўлиб, унинг бармоқларидаги пўлат пластиналарнинг тиғида кертиклар ясалган. Ўриш аппаратлари ҳаракатни тракторнинг қувват олиш валидан олади: ҳаракат кардан вали *1,* занжирли узатма *2,* узатма *3* ва понасимон тасма *4* ва *15* лар орқали узатилади. Ўриш аппаратини иш ҳолатига тушириш ва транспорт ҳолатига кўтариш гидросилиндр 7 ва *11* лар ёрдамида бажарилади. Пичанўргич сақлагичлар билан жиҳозланган.

Ўриш аппарати трактор ҳаракати йўналишига перпендикулар эмас, балки унинг четки нуқтаси рамага маҳкамланган ички нуқтасига нисбатан *25-50* мм га илгарилатиб ўрнатилади. Ўриш аппаратини ҳаракатлантирувчи шатуннинг узунлигини ўзгартириб, пичоқнинг четки ҳолатларида сегмент ўқини қўзғалмас бармоқ ўқи устига тушиши созланади. Сегмент билан бармоқ пластинаси орасидаги тирқиш 1,5-1,0 мм бўлиши учун босувчи қисқич сегментга тегиб туриши керак.

Роторли пичанўргич (2- расм) юқори ҳосилдор, ётиб ва чалкашиб қолган ўтларни ўришга мўлжалланган. Пичанўргич рама *13,* унинг қаноти *3,* роторли ўриш аппарати, мувозанатловчи ва ҳаракатлантирувчи механизмлар, тўсиқ *9* лардан иборатдир./3/



2-расм. **Роторли пичанўргич:**

1–сақлагич; *2*–устун; *3*–рама қаноти; *4*–сапфа; *5*–брус; *6*–пичоқ; *7*–ротор;*8*-бўлгич; *9*–тўсиқ; *10*-кронштейн; *11*–осгич; *12*–ўқ; *13*–рама.

Роторли ўриш аппарати брус *5*, таянч бошмоқларига эга. Брус устига тўртта ротор *7* лар ўрнатилган. Роторлар жуфти бир-бирига тескари айланади.Ҳар бир ротор *7* четларига иккитадан пластинасимон пичоқ шарнирли қилиб маҳкамланган. Бир жуфт роторларга ўрнатилган пичоқлар эса бир-бирининг ўртасига тушадигандек жойлаштирилган. Роторларнинг горизонтал жойлашишига мувозанатловчи пружиналар таранглигини ўзгартириш ҳисобига эришилади. Бўлгич *8* бруснинг охирига деярли тик ўрнатилиб, ўриш вақтида чегарадаги пояларни ҳаракат йўналиши бўйича ичкарига энгаштириб кетади.Кейинги юришда трактор ғилдираги уларни босмайди, нобудгарчилик кўпаймайди. Брус рамага сақлагич орқали уланган бўлиб, у тўсиққа учраганида бурилиб, синишдан сақланади.

Пичанўргичнинг технологик жараёни қуйидагича ўтади. Айланаётган ротордаги пичоқ марказдан қочирма кучлар таъсирида радиус бўйича жойлашади, натижада қўшни ротор пичоқларининг траекториялари бир-бирини қоплаши ҳисобига чала ўришга йўл қўйилмайди. Айланаётган пичоқ кесиб олган поялар ротор устидаги ғилофдан сирпаниб ўтиб, ерга тушади.

Юқоридаги пичанўргичларнинг камчилиги шундаки суғориладиган шароит- ларида буғдой ва арпа поялари донсиз қисмидан комбайнилар ёрдамида сомон учун ўриб олингандан сўнг қолган қисмини ўрганда,жўяк ичидаги поянинг қолган қисми ўрилмай қолади. Суғориш жўякига нисбатан қия ўрнатилган ясси роторли текис айланувчи диск-пичоқли аппаратли пичан ўргич эса қуйидагича тузилган: рама, хара- кат узатиш механизми, вал ва пичоқ, беда ўргич пахтачилик тракторларига ўрнатма ҳолатда агрегатланади ва айланма харакатни тракторларнинг қув- ват олиш валидан олинади.Валнинг бир учи харакат узатиш механизмига махкамланса, иккинчи учига эса диск гайка ёрдамида махкамланади, диск айланаси бўйлаб тешиклар очилиб, уларга болт-гайка ёрдамида пичоқ маҳ- камланади, пичоқнинг кесувчи қиррасининг яруси юқорида ҳосил қилин- ган.Шунингдек, пичоқнинг учки қисми горизонтал ер сиртига нисбатан параллел қилиб эгилган.



3-расм.Экспериментал пичан ўриш аппаратининг фронтал тасвири



4-расм.Эксперментал пичан ўриш аппаратиниг ёнида кўринишининг тасвири



5-расм.Эксперементал пичан ўриш аппарати пичоғининг тасвири



6-расм.Эксперимантал пичан ўриш аппарати ишчи қисмининг тасвири

Эксперимантал пичан ўриш аппарати қуйидагича тузилган (3,4,5 ва 6-расмлар):ўриш аппарати вали 6, диск;гайка 3 шайба билан биргаликда,пичоқ 5, маҳкамловчи болт 2,гайка ва шайба билан биргаликда,суғориш жўяги 1. Ўриш аппарати 7,харакат узатиш механизми вали 8, суғорш жўякида ҳосил бўлган тўсин 9, беда пояси 10,пичоқнинг ўткирлик қирраси 5 ва тажриба давомида пичоқ баландлигини ростлаш учун тешиклар 11 хосил қилинган.

Адабиётлар.

1. Ўзбкистон Республикаси Президентининг чорва моллари кўпайтиришни рағбарлантиришни кучайтириш борасидаги қарор ва фармонлари.
2. Каримов Р.Р.,Эшқораев У.Ч., Исмоилов П.И. Буғдой пояси донсиз қисмини йиғиштириш йўллари.//“Сурхондарёда қишлоқ хўжалигини интенсив технология асосида ривожлантириш” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари, Термиз:ТермДУ,2001й.,64-66 б.
3. Каримов Р.Р.,Тўлаганов А.А.,Тангирова З.А. Исследование наклонно -дискового рабочего органа роторного косилка. // “Касб-хунар коллежларида техника ва қишлоқ хўжалик фанларини ўқитиш муаммолари ва истиқболлари” мавзусидаги илмий-амалий анжумани материаллари, Қарши: ҚарМИИ, 2012 й.,118-119 б.

ПРОМЫШЛЕННЫЙ ИНТЕРНЕТ ВЕЩЕЙ (IIoT), КАК НОВАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В СФЕРЕ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНДУСТРИИ

***Kudratillaev Meirbek,* Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi,**
m.qudratillayev@tuit.uz

Аннотация: В общем случае под Интернетом-вещей понимается совокупность разнообразных приборов, устройств, датчиков, объединённых в сеть посредством любых доступных каналов связи, использующих различные протоколы взаимодействия между собой и единственный протокол доступа к глобальной сети.

В статье рассмотрены вопросы и понятие о промышленной интернет-вещей и взаимодействия данной технологии с производством. Промышленный интернет-вещей представлен как совокупность сетей и связанного с ними производственного оборудования, дополнительного программного обеспечения и встроенными датчиками. Системы которые предназначены для сбора, обмена данными и могут управляться автоматически без участия

человека. Приведены анализы по поводу интеграции технологии Интернета-вещей в производстве, рассмотрены положительные стороны в данной сфере. Целью данного материала предназначено для полноценного понимания об таких важных технологиях как промышленный интернет-вещей, где представлены возможности и оценки использования.

Ключевые слова: Промышленный Интернет-вещей *(IIoT), автоматизация, производственная активность, системы анализа и обработки данных, УЭР, ЦОД*

ВВЕДЕНИЕ

Инновационные подходы к реализации новых задач в области внедрения информационных технологии несомненно связано с внедрение таких технологии как IoT. В современном этапе развития производственного потенциала любого предприятия и организации потребуется обновлять систему информатизации и автоматизации. Цель которого является повышение качества и конкурентоспособности.

Промышленный интернет-вещей представляет собой специальную систему с большими количествами уровней, а также различными датчиками, устройствами и контролерами, которые расположены в приборах промышленных объектов. В состав которых входят как аппараты для сбора и визуального представления информации, с целю её последующей обработки. Дополнительно могут использоваться и другие самые различные компоненты.

Что такое Промышленный интернет-вещей? Industrial Internet of Things – система которая активно применяется для реализации корпоративных целей в разных отраслях промышленности. Разработка позволяет успешно накапливать данные и совершать их пересылку автоматически без выполнения каких-либо действий вручную. Для оптимизации работы системы, предусмотрена возможность удалённого контролирования и управления процессами. Промышленный IoT состоит из компьютерной сети и специальных датчиков, которые подключаются к необходимым производственным объектам и устройствам для аккумулирования данных.

Индустриальный интернет вещей (промышленный) сможет изменить всю экономическую модель взаимодействия «поставщик-потребитель». К тому же позволяет:

- Автоматизировать процесс мониторинга и управления жизненным циклом оборудования;
- Создание самооптимизирующиеся эффективной цепочки от предприятии-поставщиков до компаний -конечных потребителей;
- Переход к моделям «экономики совместного использования» и т.д.

Наиболее продвинутых случаях промышленный Интернет вещей позволяет не только, что повысить качество технической поддержки, но и обеспечить переход с использованием развитых средств телеметрии, но и обеспечить переход к новой бизнес-модели его эксплуатации, когда оборудование оплачивается заказчиком по факту использования его функции.

АНАЗИЗ ПРОМЫШЛЕННОГО ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ (INDUSTRIAL INTERNET OF THINGS)

Главное отличие обычного и промышленного Интернета-вещей состоит в области применения. IoT включает в себе любые устройства, которые предназначены для автоматизировать какую-нибудь определённую задачу или же управлять дистанционно (удаленно).

IIoT- это подкатегория само IoT, где широко посвящена к промышленному сферу и ведению бизнеса. С помощью его можно автоматизировать процессы производства, уменьшить расходы на изготовление продукции, свести к минимуму убытки. Ярким примером Интернета-вещей в промышленности являются датчики загрязнения, которые следят и контролируют за соблюдением норм экологического загрязнения воздуха. Здесь дистанционный запуск оборудования или маячки на транспортных средствах, помогающие отслеживать помещение грузов [1].



Рис 1. Представления об Industrial Internet of Things IIoT

Как работает промышленный Интернет-вещей? Рассмотрим принцип работы данной технологии.

Алгоритм действии для достижения поставленной целей состоит из следующих этапов:

- Первым этапом является установка всех необходимых для работы элементов: датчики, контроллеры, исполнительные механизмы, аппараты для взаимодействия человека с машиной.
- Сбор и ввод всех информации необходимая для проведения точного и актуального анализа общего состояния компании и отслеживания конкретных данных.
- Результат которой является полученной при проведении работы распространяют по всем отделам данной организации.
- Открывается доступ всем работникам предприятия или организации для налаживания быстрого обмена документами и связи для решения производственных вопросов без отрыва специалистов от процесса работы.

ТЕХНОЛОГИИ INDUSTRIAL INTERNET OF THINGS

Для реализации поставленных целей современные предприятия могут использовать различные технологии Промышленного интернета-вещей. Рассмотрим наиболее распространенные и эффективные.

Цифровые двойники

Под цифровыми двойниками понимают виртуальные копии объектов, которые позволяют анализировать работу реальных физических устройств. Так, двойник завода (аналог виртуальный) помогает управлять предприятием, оптимизировать операции, а копия запланированного производственного процесса даёт возможность осуществлять контроль над продуктом ещё до его использования.

Радиочастотная идентификация RFID

RFID- метод автоматической идентификации, использующий метки (транспондеры) и специальные считывающие устройства. Метка помещается на любой товар, а считыватель идентифицирует её посредством радиоволн. Дальность идентификации может варьироваться от нескольких сантиметров до 300 метров. При этом можно с лёгкостью отслеживать промышленные объекты и контролировать.

Устройство электронной регистрации УЭР (ELD)

УЭД - представляют собой датчики специальные, которые ставятся на автомобиль и позволяют контролировать его скорость, время передвижения и частоту использования тормозов. Оборудования в основном устанавливается на пассажирские автобусы или грузовые машины. Здесь предусматриваются как: экономия ресурсов и обеспечения безопасности водителя.

Интеллектуальные вычислительные системы вне ЦОД

Интеллектуальные вычислительные системы вне ЦОД – система Промышленного IoT (Интернета-вещей), призвана повысить качество обслуживания и ускорять производственные процессы. В ней осуществляется генерация, анализ, интерпретация информации, которая поступает с периферии.

Прогнозное обслуживание

К прогнозному обслуживанию относят системы, которые получают информацию от машинного оборудования или устройств со встроенными датчиками. Они выполняют сбор и передачу данных, а далее производят анализ полученных сведений и их сохранение в базе. Впоследствии собранная база данных предоставляет пользователям точки сравнения, которые позволяют анализировать те или иные события.

СФЕРЫ ПРОМЫШЛЕННОГО ИНТЕРНЕТА -ВЕЩЕЙ

Современная IIoT система может использоваться не только на производстве, но и в других отраслях. Ключевыми сферами ее применения являются:

- **Промышленность – при использовании технологии IoT в промышленности можно контролировать состояние станков и предупреждать их поломки, что способствует сокращению времени простоя и повышению эффективности работы завода.**
- **Логистика и склады** – позволяет автоматически заказывать продукцию или сырье для производства, обеспечивать постоянное наличие нужных товаров, а также отслеживать активы.

• **Ритейл** – помогает принимать решения по отдельным торговым точкам, использовать витрины согласно интересам покупателей, готовить промоакции.

• **Здравоохранение** – позволяет отслеживать пациентов и уведомлять врачей об их состоянии, повышает скорость и точность реагирования в медицинских учреждениях.

• **Управление недвижимостью** – упрощает управление климатическими и другими системами, повышает безопасность людей, обеспечивает контроль входов в здания с моментальной реакцией на потенциальную угрозу.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Внедрение сетевого взаимодействия между машинами, оборудованием, зданиями и информационными системами, возможность осуществлять мониторинг и анализ окружающей среды, процесса производства и собственного состояния в режиме реального времени, передача функции управления и принятия решении интеллектуальными системами приводят технологическому развитию, которой называется « четвёртой промышленной революцией» [2].

Промышленность	Транспорт и логистика	Торговля и финансы
• сокращение производственного цикла выпуска продукции • улучшение энерго-эффективности и снижение эксплуатационных расходов • улучшение планирования и сокращение сроков подготовки производства • повышение времени бесперебойной работы оборудования и сокращение его простоев • рост качества выпускаемой продукции и снижение числа рекламаций клиентов	• снижение расходов топлива • уменьшение времени простоя транспортных средств • сокращение времени на проведение проверок технического состояния • снижение потребности в квалифицированном персонале диспетчеров • снижение затрат на транспортную логистику при сборе мусора	• рост продаж • уменьшение затрат на операционное обслуживание торговых автоматов • решение неисправностей банкоматов удаленным способом • сокращение простоев банкоматов • снижение расходов клиентов автострахования

Рис 2. Показатель эффективности применения IIoT в ключевых сферах по данным J'son & Partners Consulting

Далее результаты показывают, что внедрение технологии в промышленность на базе IoT смогут показать положительную черту в таких объектах как:

1. Производство товаров. Оправданное привлечение таких технологий будет для компаний с такими основными характеристиками:

1.1. большой ассортимент изготавливаемой продукции, а также многокомпонентные составляющие для выпуска готового товара;

1.2. стремление снизить количество бракованной продукции, и ее дефектов с целью гарантии покупателям нужного качества конечного продукта;

1.3. необходимость модернизации сервисного обслуживания уже имеющихся производств;

1.4. желание создать условия для уменьшения затрат на энергообеспечение компании;

1.5. изготовление товаров в сложных производственных ситуациях;

1.6. потребность проводить качественное, оперативное и точное диагностическое обследование оборудования;

1.7. обеспечение безопасности сотрудников в процессе эксплуатации аппаратов;

1.8. повышение производительности машин и персонала, обеспечивавшего их обслуживания.

2. Системы энергоснабжения. Применение таких технологических разработок для этой сферы только начинается. Главными яркими примерами использования интернета вещей можно наблюдать при выборе счетчика электрической энергии с наличием специального программного обеспечения. Такое оборудование дает возможность оценивать общую ситуацию и в случае возникновения непредвиденных скачков напряжения в электросети или аварии совершать быстрое реагирования на проблему путем отключения питания. Полезным и достаточно востребованным вариантом внедрения таких разработок, для создания интеллектуальных сетей электропередач учитывая общую протяженность линий энергоснабжения на территории всей страны.

3. Совершение различных процессов транспортной логистики становиться намного проще с применением техники для удаленного мониторинга места нахождения объектов и быстрого устранения форс-мажорных обстоятельств. На сегодняшний день самое широкое применение промышленного интернета вещей отразилось в организации деятельности служб такси. Каналы информирования позволяют вызывать водителя через онлайн сервисы и отслеживать перемещение машин.

ОБСУЖДЕНИЯ ОБ АНАЛИЗАХ

Индустриальный (промышленный) интернет-вещей представляет собой организационно-технологическую трансформацию производства, базирующуюся на принципах «цифровой экономики», позволяющую на уровне управления объединять реальные производственные, транспортные, человеческие, инженерные и иные ресурсы в практически неограниченно масштабируемые программно-управляемые виртуальную пулы ресурсов и предоставлять пользователю не сами устройства, а результаты их использования за счёт реализации сквозных производственных и бизнес-процессов.

Отличием экосистемы IoT от традиционных рынков является трансформация предприятии из изолированных самодостаточных систем, внутри которых реализованы все необходимые для производства товара или услуги производственные и бизнес-процессы, в открытые системы интегрированных высокоавтоматизированных процессов [3].



Рис 3. Индустрия 4.0

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В конечном итоге рассмотренные выше технология, которой опирается на Интернет-вещей по сути сможет передать большой импульс промышленной сфере. Цифровизация экономики, в том числе современные информационные технологии разрабатывающиеся для внедрения промышленному сектору должны обеспечить полную независимость от традиционных методов управления организации и предприятии.

Основными возможностями промышленного интернета-вещей можем сказать как:

- существенно снизить или вообще отменить использование бумажного вида документов и передавать их в сети;
- собирать и накапливать нужные знания экспертов;
- своевременное получение важных документов работниками обезопасит от сбоев в работе предприятия, срыва сроков выполнения договорных обязательств;
- функционирование фирмы упрощается в несколько раз;
- быстрое информирование в форс-мажорных обстоятельствах.

Такие технологии дают возможность выявлять и совершать прогноз возникновения разных рисков, учитывая все особенности производственного процесса и общего состояния организации. Система проводит непрерывный контроль всех важных показателей, которые напрямую определяют выполнение основных этапов и процессов. Выявление проблемных моментов в самые короткие сроки позволяет создать максимальные условия для ее эффективного устранения. Интерфейс разработки позволяет визуально отображать процесс выполнения действий. Человек, который совершает обслуживание установок, может визуально определить состояние выполнения технологических элементов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан, «Об Утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» И Мерах По Ее Эффективной Реализации» от 05.10.2020 г. № УП-6079
2. Р.Р.Ибраимов, Д.А.Давронбеков, Е.Б.Ташманов, Ю.В.Писецкий. Системы беспроводной связи и программирование (часть 1). Учебник. Т.: «Aloqachi»2017.234 с.
3. А.Х.Абдукадиров, Д.А.Давронбеков. Мобильные системы связи поколения 4G. Учебник.Т.: «O‘quv-ta’lim metodika» 2015.326 с.
4. А. В. Росляков, С. В. Ваняшин, А. Ю. Гребешков. Интернет вещей. Учебное пособие – Самара: ПГУТИ, 2015. – 200 с
5. Богородицкая, И.А. M2M – новые возможности для развития сотового бизнеса И.А. Богородицкая // Электросвязь. – 2012. – №1. – С. 38-39.
6. Бхуптани, М. ID-технологии на службе вашего бизнеса / М. Бхуптани, Ш.Морадпур. – М.: Альпина Паблишер, 2007. – 290 с.

AYLANUVCHI MEXANIZMLAR QUVVATINI BURCHAK TEZLANISHINI O‘LCHOVCHI DATCHIK YORDAMIDA ANIQLASH

[1]Ko‘charov Farrux Jabbor o‘g‘li, [1]Begmatov Murodjon Turg‘un o‘g‘li,
Mustafoqulov Almardon Mamatovich, Karabayev Ibragim Turdiyevich[2]
[1]“Tashkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, 39 Q.Niyoziy, Tashkent, 100000, O‘zbekiston
[2]Termiz muhandislik-texnologiya instituti, 288a Islom Karimov, Termiz,
E-mail: murod05071991@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq va suv xo‘jaligida ishlatiladigan aylanuvchi mexanizmlarning burchak tezlanishini o‘lchovchi datchik haqida yozilgan bo‘lib, uning asosiy parametrlari keltirilib o‘tilgan. Shuningdek maqolada datchikning ba’zi parametrlari tekshirilgan va xatoliklari aniqlangan. Xatoliklarni to‘g‘irlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: burchak tezlik, burchak tezlanish, og‘irlik markazi, inertsion massa,

Kirish

Qishloq va suv xo‘jaligining keng tarmoqlarida elektr motorlar ishlatilib, uning valiga turli ko‘rinishda turlicha quvvatga ega bo‘lgan yuklamalar ulanadi. Motor yuklama bilan ishlash jarayonida uning valiga tushadigan og‘irlik turlicha bo‘ladi va bu ba’zida motorning nominal quvvatidan ortib ketishi ham mumkin.

Aylanuvchi qismlarga ta’sir etayotgan quvvatni o‘lchash va nazorat qilib turish uchun, turli xil datchiklar ishlab chiqilgan. Bu datchiklar aylanuvchi mexanizmlarning burchak siljishi, burchak tezligi, burchak tezlanishi kabi parametrlarini o‘lchash va nazorat qilish imkonini beradi [1,2,3].

Aylanuvchi mexanizmlarning burchak tezlanishini o‘lchashda ishonchliligi yuqori bo‘lganligi sababli ko‘p hollarda elektromagnit burchak tezlanish datchiklaridan foydalaniladi. Shunday datchiklardan biri elektromagnit burchak tezlanishi datchigi bo‘lib, u magnit o‘tkazgich, o‘q sterjn, inertsion massa, qo‘shimcha nomagnit material, qo‘zg‘atish cho‘lg‘ami, o‘lchash cho‘lg‘ami kabi elementlardan tashkil topgan.

Bu datchikning ishlash prinsipi quyidagicha: qurilmada O shakldagi magnit o‘tkazgich bo‘lib, uning pastki qismida sterjn o‘q mavjud. Unda inertsion massa joylashtirilgan. Bundan tashqari magnit o‘tkazgichda o‘lchash va qo‘zg‘atish cho‘lg‘amlari ham bor. Inertsion massa bu magnit yumshoq materialdan tayyorlangan halqa bo‘lib, uning radiusi va qalinligi doimiydir, uning tashqi tomoni aylana bo‘ylab chiziqli qonun bo‘yicha o‘zgaradi. Qo‘shimcha nomagnit massa inertsion massaning muvozanatini ta’minlaydi. Inertsion massa va aylana sterjn orasidagi masofa magnit suyuqlik bilan to‘ldirilgan. Sinov ob’ekti doimiy tezlikda aylanganda inertsion massa magnit zanjirga nisbatan tinch holatda bo‘ladi va chiqish signali nolga teng. Burchakli tezlanish sodir bo‘lganda, inertsion massaga buraluvchi moment ta’sir qiladi, bu uni doimiy burchak tezlik bilan aylanishiga olib keladi. Burchak tezlik burchak siljishidan vaqt bo‘yicha olingan hosilaga teng, yoki tebranish momentining ishqalanish koeffitsientiga nisbatiga teng

Aylanuvchi jism momenti tanadagi statik moment va o‘rganilayotgan obekt burchak tezlanishi ko‘paytmasiga teng

$$M = l_0\varphi \tag{1}$$

Bu yerda l_0-inertsiya momenti, φ-burchak tezlanish

Datchikning magnit oqimi,

$$\Phi = \frac{F}{R_\mu} \tag{2}$$

F-magnit yurituvchi kuch, R_μ- havo oralig‘ining magnit qarshiligi

Havo oralig‘ining magnit qarshiligi.

$$R_\mu = \frac{\delta}{\mu_0 S} \tag{3}$$

bu yerda, δ va S mos ravishda havo oralig‘ining kengligi va yuzasi, μ_0- havoning magnit singdiruvchanligi.

Inertsion massaning tashqi yuzasi chiziqli qonun bo‘yicha o‘zgarganda havo oralig‘ining yuzasi [4,5,6].

$$S = K_1 + K_2\alpha \quad (4)$$

K_1 va K_2 doimiy kattalik koeffitsientlari, α burchak kattaligi.

O‘lchash cho‘lg‘amlarida hosil bo‘layotgan EYuK havo oralig‘ining magnit qarshiligiga, burchak tezlanishga to‘g‘ri proportsional.

$$\varepsilon_{o'lch} = -WF\frac{l_0\mu_0K_2}{f\delta}\varphi \quad (5)$$

$$\varepsilon_{o'lch} = -WF\frac{l_0\mu_0K_2}{f\delta}\cdot\frac{\omega^2}{2\cdot\alpha} \quad (6)$$

Bu yerda, *f*-inertsion massaning o‘qqa nisbatan ishqalanish koeffitsienti, ω –burchak tezlik.

Tashqi o‘zgaruvchi yuza eng minimal nuqtaga yetgan vaqtda hosil bo‘layotgan elektr yurituvchi kuch ham minimal qiymatga erishadi. Keyin esa shu jarayon yana qaytadan takrorlanadi. Bu takrorlanishlar sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalansak bo‘ladi.

Birlik vaqtdagi impluslar soni [7,8,9].

$$n = \frac{l_0}{2\pi}\cdot\varphi \quad (7)$$

1-rasmdagi datchikda disk elementi, soat milning aylanish holatiga qarab sezilarli darajada doimiy ravishda o‘zgarib turadigan xarakterli shaklni o‘z ichiga oladi. Xarakteristik shakl magnit, optik yoki kontaktsiz qurilma bilan o‘lchanadigan boshqa xarakteristikalar bo‘lishi mumkin. Datchik milning holatini ifodalaydi. 1-a rasmda o‘zgartgich b rasmdagi o‘zgaruvchan sirt aylanayotganda o‘zgarishlarni o‘lchaydi [10,11,12].



1-rasm. Mutlaq aylanish va momentni o‘lchash datchigi.

2-rasmda ko‘rsatilgan keyingi datchik quyidagicha ishlaydi: o‘tkazgich 17 yordamida (orqali) datchik izlanish obyektiga o‘rnatiladi, tokolgich chotkalari uning halqalariga keltiriladi va ularni ikkilamchi asbobga ulanadi. Keyin eksperiment o‘tkaziladi. Burchak tezligi paydo bo‘lganida datchik balansi ma’lum darajada buriladi, natijada g‘altakning 14 seksiyasida EYuK paydo bo‘ladi. Ikkilamchi asbob *e* qiymatiga ishlov beradi [13,14,15].

Ushbu datchiklarning umumiy bir kamchiligi bu massa muvozanatining buzulganligidir. Birinchi burchak tezlanish datchigida inertsion massa ikki xil materialdan tashkil topgan (3-a-rasm). Materiallarning zichligi o‘zaro teng emas. Bu esa ushbu datchikda inertsion massani muvozanati ta’minlamaydi. Ya’ni og‘irlik markazi siljigan holga olib keladi. Buni aniqlash biroz murakkab bo‘lib, matematik yoki fizik modeldan foydalanishga to‘g‘ri keladi.



2-rasm. Burchak tezlanish datchigining yuqoridan va yon tomonidan ko‘rinishlari.

Ikkinchi datchigimiz ham yuza shakli notekis bo‘lib uning ham og‘irlik massasini siljishiga olib keladi.

Materiallar va usullar

Ushbu ishni o‘rganishda matematik va fizik modellashtirish usullaridan foydalandik. Fizik modelni yaratishda SolidWorks 2014 dasturi(3-b-rasm) va matematik modelni yaratishda Matlab 2014 dasturlaridan foydalandik (4-rasm).



3-rasm. Burchak tezlanish datchigi. a) inertsion massaning turli tomondan ko‘rinishlari b) datchigning Solid Works dasturida qurilgan 3 o‘lchamli ko‘rinishi



a)



b)

4-rasm. Matlab dasturida og‘irlik markazi kordinatlarini aniqlash. a) inertsion massa bir jinsli bo‘lmagan holatda va b) bir jinsli bo‘lgan holatda.

Solidworks dasturida tahlil qilib ko‘ramiz. Solidworks dasturida detallarni og‘irlik markazini osongina aniqlash mumkin. Quyida 5-rasmda og‘irlik markazini aniqlash ko‘rsatilgan. b) rasmdan ko‘rinib turibdiki inertsion massaning og‘irlik markazi markazdan siljigan.



a) b)

5-rasm. Solidworks dasturida inertsion massaning og‘irlik markazini aniqlash

Aylanuvchi mexanizmlar quvvati kuch momentini burchak tezlikka ko‘paytmasiga teng [16].

$$P = M \cdot \omega \quad (8)$$

Kuch momenti inertsiya momentiga to‘g‘ri proportsional [17,18].

$$M = J \cdot \varepsilon \quad (9)$$

Inertsiya momenti esa jism massasiga to‘gri proportsional

$$J = \int r^2 \cdot dm \quad (10)$$

Ushbu formulalarni umumlashtirib quyidagi formulani keltirib chiqaramiz.

$$P = m \cdot r^2 \cdot \varepsilon \cdot \omega \quad (11)$$

Bu yerda r-aylanish o‘qigacha bo‘lgan masofa



6-rasm. Inertsion massa tashqi yuzasi, magnit qarshilik va hosil bo‘layotgan elektr yurituvchi kuchning burchak siljishiga bog‘lanish grafigi

6-rasmda inertsion massa yuzasi, magnit qarshilik va chiqishdagi elektr yurituvchi kuchning burilish burchagiga bog‘liqligi keltirilgan.

Bir jinsli bo‘lmagan inertsion massaning og‘irlik markazini siljib ketish xatoligi [19,20]

$$\beta = \frac{\rho_1 - \rho_2}{\rho_1} \cdot 100\% \quad (12)$$

Bir jinsli bo‘lmagan inertsion massaning og‘irlik markazini siljib ketish xatoligini materiallarning zichligiga bog‘liqligi quyidagi 7-rasmda ifodalangan.



7-rasm. Xatolikning materiallar zichligiga bog‘liqligi

Natijalarni tahlil qilish.

Aylanuvchi mexanizmlar quvvatini aniqlash burchak tezlik yoki burchak tezlanishni o‘lchash orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Yuqorida ko‘rilgan datchiklarni barchasida aylanuvchi mexanizmlar quvvatini aniqlasa bo‘ladi, faqat bunda datchikning aniqligiga e’tibor berish zarur.

5-a rasmda SolidWorks dasturida inertsion massaning pastki va yuqori nuqtalaridan og‘irlik markazigacha bo‘lgan masofalar o‘lchanayapti. Ko‘rib turganimizdek pastki masofa yuqorisidan kattaroq. 5-b rasmda og‘irlik markazining yuqoriga siljiganini ko‘rish mumkin.

4-rasmda matlab dasturida og‘irlik markazini hisoblash uchun Simulink modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ko‘rsatayotgan natija bir jinsli materialdan yasalgan huddi shunday inertsion massaning og‘irlik markazi kordinatalaridan farq qiladi. Ushbu rasmda a) va b) rasmlarda x_0 kordinata qiymatini o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Birinchi holda bir jinsli bo‘lmagan, ikkinchisida esa bir jinsli bo‘lgan inertsion massaning og‘irlik markazi kordinatalari berilgan. Ushbu natijalarni barchasi bizning farazimiz to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu datchikning muvozanat sharti quyidagicha

$$m_1 \cdot \bar{r_1} + m_2 \cdot \bar{r_2} = 0 \quad (12)$$

Bu yerda m_1- inertsion massaning massasi, r_1- inertsion massaning inertsiya o‘qigacha bo‘lgan masofasi, m_2- datchikning inertsion massa bilan birgalikdagi massasi, r_2- datchikning inertsiya o‘qigacha bo‘lgan masofasi. Ushbu shart bajarilgan holda datchik muvozanatda bo‘ladi. Ya’ni o‘z o‘zidan aylanib ketmaydi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki qurilmaning hisobga olinmagan kichik xatosi o‘lchash paytidagi xatoliklarga olib kelishi mumkin. Bu xatoliklar esa o‘z navbatida enrgiyaning ortiqcha ishlatilishi yoki aylanuvchi mexanizmlarni ortiqcha yuklanishdan zo‘riqishi olib kelishi mumkin. Xatoliklar har doim mavjud, lekin ularni minimallashtirish uchun qurilmani takomillashtirib borish zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar

[1] “patent-2363003”.

[2] “RU2469337C1 - Angular acceleration sensor with liquid rotor - Google Patents.” https://patents.google.com/patent/RU2469337C1/en (accessed May 07, 2022).

[3] “Датчик угловых ускорений — SU 1793384.” https://patents.su/5-1793384-datchik-uglovykh-uskorenijj.html (accessed May 07, 2022).

[4] M. A. Pardo-Vicente, C. A. Platero, J. Á. Sánchez-Fernández, and F. Blázquez, “AC/DC Current Sensor for Rotating Applications,” *Sensors 2020, Vol. 20, Page 6811*, vol. 20, no. 23, p. 6811, Nov. 2020, doi: 10.3390/S20236811.

[5] R. Baratov, N. Pirmatov, A. Panoev, Y. Chulliyev, S. Ruziyev, and A. Mustafoqulov, “Achievement of electric energy savings through controlling frequency convertor in the operation process of asynchronous motors in textile enterprises,” *IOP Conf. Ser. Mater. Sci. Eng.*, vol. 1030, no. 1, Jan. 2021, doi: 10.1088/1757-899X/1030/1/012161.

[6] K. Sattarov, “European Journal of Molecular & Clinical Medicine INDUCTIVE ANGULAR ACCELERATION SENSOR FOR AUTOMATIC SPEED CONTROL SYSTEM OF TRAIN TRAFFIC”.

[7] S. Amirov, D. Rustamov, N. Yuldashev, U. Mamadaliev, and M. Kurbanova, “Study on the Electromagnetic current sensor for traction electro supply devices control systems,” *IOP Conf. Ser. Earth Environ. Sci.*, vol. 939, no. 1, Dec. 2021, doi: 10.1088/1755-1315/939/1/012009.

[8] M. Nowicki, “Anhysteretic Magnetization Measurement Methods for Soft Magnetic Materials,” *Mater. 2018, Vol. 11, Page 2021*, vol. 11, no. 10, p. 2021, Oct. 2018, doi: 10.3390/MA11102021.

[9] R. Szewczyk, “Computational Problems Connected with Jiles-Atherton Model of Magnetic Hysteresis,” *Adv. Intell. Syst. Comput.*, vol. 267, pp. 275–283, 2014, doi: 10.1007/978-3-319-05353-0_27.

[10] A. Safarov, K. Sattarov, M. Bazarov, and A. Mustafoqulov, “Issues of the electromagnetic current transformers searching projecting,” *E3S Web Conf.*, vol. 264, p. 05038, Jun. 2021, doi: 10.1051/E3SCONF/202126405038.

[11] R. Malarić, “INSTRUMENTATION AND MEASUREMENT IN ELECTRICAL ENGINEERING,” 2011, Accessed: May 07, 2022. [Online]. Available: www.brownwalker.com

[12] A. Safarov, K. Sattarov, and S. Jumaboyev, “Device for conversion of equalizing current at the site of the traction ac network,” *E3S Web Conf.*, vol. 139, p. 01034, Dec. 2019, doi: 10.1051/E3SCONF/201913901034.

[13] S. F. Amirov and K. K. Jurayeva, “Research of magnetic circuits magnetoelastic sensors efforts with the method for creating equivalent circuits,” *Int. Conf. Inf. Sci. Commun. Technol. Appl. Trends Oppor. ICISCT 2019*, Nov. 2019, doi: 10.1109/ICISCT47635.2019.9011970.

[14] P. T. Engineering, *Electric Power Transformer Engineering*, vol. 11, no. 5. 2013. Accessed: May 07, 2022. [Online]. Available: https://www.routledge.com/Electric-Power-Transformer-Engineering/Harlow/p/book/9781439856291

[15] R. Baratov and N. Pirmatov, “Low - Speed generator with permanent magnets and additional windings in the rotor for small power wind plants and micro hydro power plants,” *IOP Conf. Ser. Mater. Sci. Eng.*, vol. 883, no. 1, Jul. 2020, doi: 10.1088/1757-899X/883/1/012183.

[16] V. Dmitry Zaitsev, A. Antonov, V. Krishtop, Z. Dmitry, A. Alexander, and K. Vladimir, “Angular MET sensor for precise azimuth determination,” *https://doi.org/10.1117/12.2267073*, vol. 10224, pp. 367–374, Dec. 2016, doi: 10.1117/12.2267073.

[17] H. Arionfard and H. Ramezani, “Measuring Absolute Rotation and Torque in Series Elastic Actuators with a Single Sensor,” *IEEE Sens. J.*, vol. 20, no. 24, pp. 14685–14693, 2020, doi: 10.1109/JSEN.2020.3011049.

[18] А. С. Чернышева, “ДАТЧИК УГЛОВЫХ УСКОРЕНИЙ,” pp. 176–183, 2013.

[19] “Измерители крутящего момента (ИКМ),” vol. 7, no. 342, pp. 7–8.

[20] Q. U. V Qo, “Mexanizm va mashinalar nazariyasi,” 2017.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ЛИМИТИРОВАНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТХОДОВ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ ЛАКОКРАСОЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ.

Мамараимова У.У., Магистр, Термезский институт инженерных технологий.
Тургунов Р.А., Эколог, ООО «CLEAN VERSION»

В современных условиях, когда природная среда находится под воздействием техногенной деятельности общества, важное значение приобретают экологические факторы, без учета которых любые проектные решения реконструкции, либо строительства новых промышленных комплексов могут оказаться несостоятельными и привести к определенным издержкам, как в демографическом, социальном, так и в экологическом аспектах.

Промышленные отходы особенно влияют на экологическое состояния местности. В связи с этим нормирование и расчеты промышленных отходов дают возможность оценить влияние на окружающую среду того или иного предприятия.

Исследования данной работы направлены на определение основных видов промышленных отходов при производстве лакокрасочных материалов. Определение качественных и количественных показателей промышленных отходов непосредственно связано с технологическим процессом.

В данном случае технологический процесс производства лакокрасочной продукции состоит из следующих технологических операций, приведенных ниже.

На производственном участке отвешивается необходимое количество сырьевых компонентов, согласно рецептуре и подаются в цех. Растворитель толуол в 200 л металлических бочках из склада продается в цех при помощи автозагрузчика.

Под диспергентом (смеситель) устанавливают передвижной контейнер. В него сначала закладывают и засыпают следующие ингредиенты: разбавитель индустриальный (толуол), алкил ALX61W55 и перемешивают 15 минут. Далее в массу добавляют метилэтилекетосим, гидрокарбонную смесь (NORSOLONE)и смесь снова перемешивают в течении 15 минут.

Берут образец в лабораторию для проверки на гомогенность полученной массы, если она соответствует норме, то в смесь добавляют пигменты и затвердители-сиккативы (кальции октоат, кобальт октоат, цирконий октоат, меко – метилэтилкетоксим), снова перемешивают. Образец готовой продукции проверяют в лаборатории на качество и при помощи аппарата для розлива расфасовывают в подготовленные металлические банки на 0,9, 2,2 и 2,5 л, на которые заранее наклеены бар коды с датой, партией производства, номером продукции.

После всей цепочки производственного процесса образующиеся отходы в виде порожней тары в частности полиэтиленовые и другие мешки и пакеты, металлические и пластмассовые тары из-под сыпучего сырья производственные предприятия вместе с общим мусор вывозятся в городские или районные полигоны чем портят окружающую среды. Для решения этой проблемы необходимо расчетными методами определить качественные и количественные характеристики отходов для дальнейшей их утилизации или переработке.

Одним из наиболее существенных промышленных отходов при производстве лакокрасочной продукции является порожние тары в частности полимерной ёмкости (банки и вёдра), которые по рекомендации Госкомэкологии требуется утилизировать в специализированных предприятиях. В следствии этого определение образования,

количественного состава, временного хранения, транспортировка и утилизация данного отхода является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день.

Отходы в виде полимерной тары образуются на предприятии при растаривании сырья. В полимерной ёмкости (банки и вёдра) на предприятие поставляется часть жидких и сыпучих материалов. По данным предприятя по производству лакокрасочной продукции (на примере СП ООО «SILKCOAT PAINT» в Мирзо Улугбекском районе г.Ташкент) за год планируется произвести 2200 т готовой продукции, для этого по мимо других сырьевых материалов приобретать компоненты в полимерных тарах 78 тонн. Средний вес сырья в одной таре составляет 15 кг. Средний вес пустой полимерной ёмкости составляет 320 г. Соответственно, на предприятии за год будет образовываться отходов:

$$78000 / 15 = 5200 \text{ ед/год.}$$

$$5200 \times 320 \times 10^{-6} = 1{,}664 \text{ т/год.}$$

Удельный показатель образования отхода к панируемому объёму производства составит:

$$N = 1{,}664 / 2200 \text{ т} = 0{,}00076 \text{ кг/т продукции.}$$

$$N = 0{,}00076 \text{ кг/т продукции.}$$

Образуемые отходы по мере накопления будут вывозится на переработку в специализированные предприятия по переработке полимерных отходов. Отход относится к 4 классу опасности [1].

Определен количественный состав отхода в виде полиэтиленовых мешков. Для нормирования места и времени хранения отхода применяется метод расчетов лимита размещения [2].

За основу лимитированныя принята возможность у предприятия временно размещать на своей территории отходы, образованные за 6 месяцев, с последующей их утилизацией или удалением.

Количественнқй лимит размещения отхода L рассчитывался по формуле:

$$L = P_n \times N_ф t_1/t + K_1 \times q_y,$$

Где: P_n -планируемое количество выпуска продукции, т/год;

$N_ф$ - удельное количество образования отхода, определенное в ходе проведения нормирования отходов предприятия, т/т, кг/т и пр.;

t_1 - время, на которое устанавливается лимит, принято 180 сут,

t - период размещения отхода, считающийся временным - 365 суток;

K_1 - коэффициент увеличения предельного количества размещения отхода в случае их утилизации, принят 0,25;

q_y - количество утилизируемых отходов, т/год.

Суммарная площадь размещения отходов S_1 рассчитывается по формуле:

$$S_1 = K_S \times S_2(1 + 0.5 \times q_y/P_n \times N_ф)$$

Где: K_s - отношение суммарной площади временного размещения отходов на территории предприятия к общей ее площади, установлено по данным инвентаризации отходов;

S_2 - общая площадь территории предприятия, га, $м^2$;

0,5 - коэффициент увеличения предельной площади временного размещения отходов при их утилизации.

Предельные площади для размещения отходов разных классов токсичности (w_1, w_2, w_3, w_4) назначаются исходя из условия равенства потенциальной опасности размещаемых масс отходов отдельных групп, отличающихся токсичностью:

$$w_{1,} / d_1 = w_2/d_2 = w_3/d_3 - w_4 / d_4$$

и определяется формулами:

$$w_1 = S_1 \times d_1$$

$$w_2 = S_1 \times d_2$$

$$w_3 = S_1 \times d_3$$

$$w_4 = S_1 \times d_4$$

где $w_1 ... w_4$ — предельные площади размещаемых масс отходов 1, 2, 3 и 4 классов токсичности/опасности, $м^2$;

$d_1 ... d_4$ - средние значения относительных показателей токсичности (ПДК, концентраций водных вытяжек), определяющих разделение отходов на 1, 2, 3 и 4 классов токсичности/опасности).

Расчет лимита и предельных площадей размещения отходов производства в виде полимерной тары 4 класса опасности производится на основании данных полученных при нормировании отходов [3].

В заключении хотелось бы отметить, что для каждого вида отхода по нормативным требованиям составляется паспорт, определяются удельные показатели и нормы образования, разрабатываются лимиты образования, места временного складирования и площади размещения, определяется время хранения [4]. Данные исследования по анализу обращения с отходами позволяет оптимизировать мероприятия по сбору, временному хранению, транспортировке с целью дальнейшей переработки/утилизации/длительному хранению в полигонах. Это в свою очередь позволит минимизации влияния на окружающую среду отходов производства. Отсюда вытекает важность и актуальность рассматриваемой проблемы, на решение которых были посвящены множество работ ведущих исследователей в этой области.

Использованная литература:

1. Постановление Кабинета Министров РУз от 07.09.2020 г № 541 «Об утверждении Положения о государственной экологической экспертизе в Республике Узбекистан».
2. Постановление Кабинета Министров РУз от 21.01.2014 г. №14 «Положения о порядке разработки и согласования проектов экологических нормативов».
3. Oz RH 84.3.21:2005 РД «Обращение с отходами производства и потребления. Методические рекомендации по определению нормативов образования отходов».
4. Справочник эколога-эксперта, Госкомприрода, Ташкент, 1997 г.

TOKLAR FERROREZONASI HODISASINI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH

Nazirova Zamira Gafirovna
(Toshkent davlat transport universiteti,
Elektr ta’minoti kafedrasi professori v.b., zamira_nazirova@mail.ru)

Kirish

Hozirgi vaqtda oliy ta’limda o'quv jarayonini takomillashtirishning muhim tendentsiyalaridan biri bo'lib unga innovatsiyalarni, jumladan, informatsiyon-kommunikatsion va kompyuter texnologiyalarni keng joriy etish talab etilishidir. Ayniqsa sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarda tahsil o'luvchi talabalar soni oshib borishi bilan bu dolzarb masalaga aylanmoqda. Elektr energetika sohasiga yuqori malakali kadrlarni tayorlaydigan oliy texnika ta’lim muassasalarining “Nazariy elektrotexnika” va “Elektrotexnika” fanlari bo'yicha o'quv rejalarida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish ko'zda tutilgan [1,2,3]. Ularda talabalar tajribalar o'tkazib elektrotexnikaning asosiy nazariy qonunlari va hodisalarini (shu qatorda, ferrorezonans hodisalarini) o'rganish, tekshirish va tasdiqlash; eksperimental tadqiqotlarni tayyorlash va o'tkazish ko'nikmalarini egallash; tajriba natijalarini rasmiylashtirishni o'rganishi maqsad qilib qo'yilgan.

Usullar. Real fizik laboratoriya stendlarida tajribalarni o'tkazish uchun oliy ta’lim muassasalar kuchli moddiy-texnika laboratoriya bazasiga ega bo'lishi kerak. Ammo shunday tajribalar bo'ladiki ularni o'tkazish uchun qimmatbaho yoki gabaritli uskunalar va asboblar yoki ma’lum parametrlarga ega manbalar talab etiladi. Undan tashqari, ushbu laboratoriya ishlarini namoyish shaklida emas balki frontal shaklida o'tkazish uchun laboratoriya ishi stendlari sonini gruhdagi kichik guruhlar sonigacha oshirish kerak. Ikkita o'qituvchi o'tkazadigan laboratoriya darsini alohida laboratoriya honalarida oborish kerak. Real stendlarning boshqa kamchiliklaridan biri bu ularning vaqt o'tishi bilan eskirishi, ayrim elementlari va o'lchov asboblari ishdan chiqishi va

ta’mirga muhtoj bo'lishidir. Bundan tashqari, laboratoriya ishining murakkab sxemasini talabalar tomonidan yig'ish jarayoni darsning asosiy vaqtini egallab, olchovlarni batafsil o'rganishga va ishni rasmiylashtirish masalalariga kam vaqt qoladi. Masofadan turib, uy sharoitida va mustaqil bunday stendlarda laboratoriya ishlarini o'tkazishga umuman imkoniyat yo'q. Ushbu salbiy jihatlar ta’lim sifatini oshirmaydi. Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklardan virtual laboratoriyasi ozod.

Virtual laboratoriyalar yordamida kompyuterda sxemotexnik modellashtirish hozirgi vaqtda texnik universitetlarida o'quv jarayonining muhim qismidir. MDH texnika universitet va institutlari ko'pgina kafedralarida “Nazariy elektrotexnika” fanidan kunduzgi, sirtqi ta’lim bo'limlari talabalariga dars berishda qo'llaniladigan ma’lum an’anaviy laboratoriya ishlari to'plamlari va stendlari mavjud bo'lib, ulardagi ayrimlari virtual shakliga o'tkazilgan [4,5,6]. Ammo bu ishlar asosan chiziqli elektr zanjirlarga bag'ishlangan bo'lib, nochiziq zanjirlarni, jumladan, ferrorezonans hodisalarni tadqiq qilishga oid ishlar sanoqli va ularni amalga oshirish uchun ko'p savollar ochiq qolgan. Bu maqolada muallif toklar ferrorezonasi hodisasini organish uchun tuzgan va amaliyotta qo'llagan virtual laboratoriya ishini taqdim etmoqda.

Ferrorezonans hodisasi va umuman nochiziq zanjirlar bo'yicha ko'p ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, akademik, texnika fanlari doktori, professor G.R.Raximov 1963 yilda shu nomli monografiyasida quyidagi ta’rifni bergan: «Ferrorezonans – bu nochiziq induktivlik va chiziqli kondensatordan iborat konturning ma’lum parametrlaridagi chastotasi manba chastotasiga teng, amplitudasi esa maksimumga yaqinlashadigan davriy avtoparametrik ravishda qo'zg'aladigan elektromagnit tebranishlar paydo bo'lish hodisasidir». Ushbu hodisani o'rganishda tahlilni soddalashtirish maqsadida induktiv g'altakdagi nosinusoidal tok va kuchlanishlar ekvivalent sinusoidalar bilan almashtiriladi. Reaktiv elementlarning o'zaro ulanish usuliga qarab (ketma-ket va parallel), zanjirda kuchlanishlar va toklar ferrorezonansi kuzatiladi.

Virtual elektrotexnik laboratoriyasini tuzish uchun ya’ni tadqiq etilayotgan hodisa va unga mansub sxemalarni modellashtirish uchun dasturiy ta’minotni tanlash kerak. U talabalar tomonidan o'rganish uchun sodda, yuklab olishlari uchun qulay va bajarish tartibi hamda ko'rinishi maksimal darajada real laboratoriyasiga o'xshash bo'lishi kerak. Zamonaviy dasturiy muhitlar MATLAB, Multisim 10, PSPICE paketlar va boshqa shunga o'xshash bir qator dasturlar [4,6,7] orasida munosib o'rinni egallagan elektr zanjirlarini modellashtirish va tahlil qilish bo'yicha eng sodda bolgan Electronics Workbench [2,3,4] dasturi tanlandi. Bu vosita birinchidan, fanning nazariy qismini o'rganishni juda ko'rgazmali qilish imkonini bersa, ikkinchidan, talabani haqiqiy laboratoriyada ishlashga tayyorlash, unga tajribalarni rejalashtirish va o'tkazish uslubini o'rgatish imkonini beradi. Sxemani yig'ish, o'lchash asboblarini ulash, generatorlar parametrlarini o'rnatish va o'lchov asboblari panellarida rejimlarni o'rnatish kabi amallar ketma-ketligini bajarish orqali talaba o'lchov natijalarini tanish shaklda oladi (huddi real laboratoriyasida olganday). Ampermetr, voltmetr va boshqa shu kabi asboblarning ko'rsatkichlarini kompyuter ekranida ko'rish ish jarayonini tabiiy va tushunarli qiladi.

Natijalar. Tajribalar ikkita rejimda o'tkazilishi kerak, shuning uchun ularga mos sxemalar yig'iladi: birinchisida kuchlanishni va ikkinchisida tokni o'zgartirib, o'rganilayotgan hodisani kuzatish mumkin. 3 mkF sig'mili chizikli kondensator olindi. 1-jadvalda keltirilgan $B(H)$ magnitlanish xarakteristikasiga ega bo'lgan nochiziqli induktivlik sifatida EWB ning asosiy elementlar (Basic) bazasidan uzaksiz g'altak (Coreless Coil) va ferromagnit uzak (Magnetic Core) lar olindi va o'zaro ketma-ket ulandi (g'altakning “MMF” – magnit yurutuvchi kuch uchlariga). Sxemadagi o'zak ifodasiga kursor bilan ikki marta bosib, yangi o'zak hosil qilinadi, keyin “Edit” tugmasini bosib uning va $B(H)$ xarakteristikasining parametrlari “Sheet 1-4” larda o'rnatiladi (1,a-rasm). Bu xarakteristikaning EXCEL dasturi yordamida qurilgan egri chizig'i 1,b-rasmda keltirilgan.

1-jadval

Magnitlanish xarakteristikasi

H (A/m)	-96	-88	-80	-64	-48	-32	-16	0	16	32	48	64	80	88	96
B (Wb/m^2)	-1,6	-1,58	-1,52	-1,5	-1,48	-1,4	-1,3	0	1,3	1,4	1,48	1,5	1,52	1,58	1,6



a)



b) **1-rasm.**

1-tajriba sxemasidagi (2-rasm) “Funksional Generator”dan uzatilayotgan sinusoidal kuchlanishning amplitudasini asta-sekin noldan 450 V gacha ko'tarib, 8–10 ta nuqta uchun mos kuchlanish va tok qiymatilari o'lchanib, natijalar 2-jadvalga yoziladi. EXCEL elektron jadvallar dasturining diagrammalarni tuzish imkoniyatlaridan foydalanib, 2-jadvaldagi natijalar bo'yicha zanjirning $I(U)$, $I_C(U)$ va $I_L(U)$ volt-amper xarakteristika(VAX)lari quriladi (3-rasm).. Real $I(U)$ ferrorezonas xarakteristikasida pastga tushuvchi, ya’ni noturg'un uchastkasi va u “S”-simonligi juda yaxshi namoyon etilgan. Shu grafikda talabalarga toklar ferrorezonansining ideal xarakteristikasini chizish (yulduzchali VAX), uni reali $I(U)$ bilan solishtirish, ferrorezonans A nuqtasini topish, VAX ning har xil uchastkalarida zanjir xarakterini aniqlash bo'yicha topshiriq beriladi.



2-rasm.

1-tajriba natijalari (var U) **2-jadval**

№	**Um**	**U** (V)	**I** (mA)	**I_C** (mA)	**I_L** (mA)	**$\lvert I_L - I_C \rvert$** (mA)	Izohlar:
1	0	0	0	0	0	0	tok
2	100	70,71	61,95	67,4	5,567	61,8	↑
3	200	141,1	123,9	134,8	11,13	123,7	↑
4	232	164	**135,9**	156,3	23,32	133,0	↑ I_{max}
5	250	176,8	131,8	168,3	44,63	123,7	⇓
6	266	188,1	127,7	179	64,81	114,2	⇓
7	373	263,7	**99,12**	250,2	227,5	22,7	⇓ I_{min}
8	396	280	103,7	**265,5**	**265,4**	0,1	↑ I_L=I_C
9	410	289,9	107,9	274,8	288,7	13,9	↑
10	450	317,9	128,5	301,2	355,7	54,5	↑

A



3-rasm

2-tajribani o'tkazish uchun 4-rasmdagi sxema tuziladi va unda kirishga ulangan ***J*** tok manbaining tok qiymati asta sekin (hech qayerdan qaytmasdan) 0 dan 100 mA gacha oshiriladi va natijalar 2-jadvalga yoziladi. Shu jarayonda tok 68 A bo'lganda kirishdagi kuchlanish 77,62 V dan 304 V gacha sakrab o'zgardi (5-rasm). Endi tokni asta sekin kamaytiriladi va teskari sakrash kuzatiladi. Ushbu sakrash simon o'zgarishlar releli effekt deyiladi va shunda zanjirda fazalar to'ntarilishi sodir bo'ladi.



4-rasm.

3-jadval 2-tajriba natijalari (var I)

№	J (mA)	U (V)	I (mA)
1	0	0	0
2	20	22,83	20
3	40	45,65	40
4	60	69,3	60
5	65	74,18	65
6	68	**77,62**	**68**
7	69	**304**	**68,7**
8	70	304,9	69,72
9	80	321,6	79,72
10	100	340	99,74



5-rasm.

Munozara. Shunday qilib, bu virtual laboratoriya ishida hamma mo'ljallangan tajribalar o'tkazildi va hodisalar o'rganildi (real laboratoriyada 2-tajribani bajarish ayrim muammolarga duch kelar edi). Demak zamonaviy kompyuter texnologiyalarda, jumladan virtual nochiziq elektr zanjirlar bilan eksperementlarni o'tkazishda, qimmatbaho uskunalar bilan jihozlangan maxsus xonalarga ehtiyoj bo'lmaydi, ya'ni kompyuterga ega izlanuvchi yoki talaba unga qulay joyda (masofadan) yuklanishi va o'rganish oson bo'lgan, komponentlari va sxemalarni yig'ish maksimal real fizik stendlarga yaqillashgan EWB ("Elektron ish taxtasi") yordamida mustaqil ravishda tadqiqot ishlarini olib borish imkoni bo'ladi. Ammo virtual tajriba fizik tajribaga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lsa ham, uni butunlay o'rnini bosa olmaydi.

Adabiyotlar:

1. Amirov S.F. va boshq., Nazariy elektrotexnika. – Toshkent: O'zbekiston,2016.– 482 b.

2. Nazirova Z.G. “Elektrotexnikaning nazariy asoslari” fanidan Electronics Workbench dasturida virtual laboratoriya ishlarini bajarishga doir uslubiy ko'rsatmalar. 1-qism. – T.:TTYMI,2017. – 58b.

3. Nazirova Z.G., Yuldashev N.R. “Nazariy elektrotexnika” fanidan Electronics Workbench dasturida virtual laboratoriya ishlarini bajarishga doir uslubiy qo'llanma. 2-qism.T.:TDTU,2021. 72b.

4. Черных, И.В. Моделирование электротехнических устройств в MATLAB, SimPowerSystems и Simulink. 2007.–288 с.

5. Пустынников С.В., Эськов В.Д. Руководство к лабораторным работам по теоретическим основам электротехники в программной среде Electronics Workbench.–Томск: ТПУ, 2004. –56 с.

6. Регеда О.Н. Расчет и моделирование электрических цепей. – Пенза:ПГУ, 2013.-170 с.

7. Моделирование в электроэнергетике. / А. Ф. Шаталов, И. Н. Воротников, М. А. и др. – Ставрополь: АГРУС, 2014. – 140 с.

AKKUMULIYATOR BATAREYALARINI SIFATLI ZARYADLASHDA ISHLATILADIGAN QURILMALARINI AVTOMATIK BOQARISH USULLARI.

Qosimov Baxtiyor Axmatjonovichб Jizzax politexnika instituti
(baxtiyor_086@mail.ru)
Tel: +99891 569 97 04

